



MAKTAB
KUTUBXONASI

LAO SHE

**MUSHUKLAR
SHAHRI
XOTIRALARI**



LAO SHE

MUSHUKLAR SHAHRI XOTIRALARI

Roman-pamflet



TOSHKENT
“DAVR PRESS” NMU
2016

Xitoylik taniqli adib Lao Shening “Mushuklar shahri xotiralari” nomli mashhur roman-pamfletidagi voqealar go‘yo odam-mushuklar yashaydigan Marsda bo‘lib o‘tadi. Fazoviy kemasi ana shu sayyorada halokatga uchragan, o‘zida saqlanib qolgan, shu joydagilarga dahshatli tuyulgan to‘pponcha va bir quti gugurtga ega yerlik mushuklar dunyosida eng qudratli shaxsga aylanadi.

Mushuklar davlati aholisi, ayniqsa, amaldorlari bir necha ming yillik qadimiy tarixlari, madaniyati bilan maqtanishdan charchamaydilar, biroq yoppasiga afyun yaproqlarini iste‘mol qilib, madaniy boyliklarini xorijliklarga arzon-garovga pullab, o‘zlari tanazzulga uchraydilar va qo‘shnilari tomonidan osongina zabt etiladilar. Roman-pamfletda fantastik voqealar to‘g‘risida gap ketayotgandek tuyulsa ham Mushuklar davlatining qismati beixtiyor XX asr birinchi choragida Xitoyda ro‘y bergan fojiali hodisalarga ishora qiladi.

Ushbu kitob yuqori sinf o‘quvchilari va barcha adabiyot muxlislariga mo‘ljallangan.

So‘zboshi muallifi va to‘plovchi professor Akmal SAIDOV.

Rus tilidan Erkin ERNAZAROV tarjimasi.

Barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan himoyalangan.

“DAVR PRESS” nashriyot-matbaa uyining yozma ruxsatisiz ushbu nashrni qisman yoki to‘liq holda boshqa ommaviy axborot vositalarida elektron yoki mexanik ko‘rinishda ko‘chirib boshish, magnit tashuvchi vositalarda tarqatish qat’iy taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-4681-5-3

23583/1

© “DAVR PRESS” NMU, 2016

XITOYNING YANGI DAVR ADABIYOTI

Xitoy adabiyoti jahonda eng qadimiylardan biri hisoblanadi. Tarixiy voqealar qayd etilgan Xitoy yozma yodgorligi — “G‘arov yilnomalari” miloddan avvalgi XII asrga taalluqlidir. Miloddan avvalgi VIII asrda ilk she’riy asar — asosan xalq qo‘shiqlaridan iborat “Shitszin” (“She’rlar kitobi”) to‘plami chiqqan. Miloddan avvalgi IV asrda yashagan Syuy-Yuan¹ esa Xitoy adabiyoti tarixiga birinchi milliy shoir sifatida kirgan².

O‘rta asrlarga kelib badiiy adabiyot, ayniqsa, she’riyat Xitoyda alohida o‘rin egallagan. Ushbu janrning ravnaqi Tan sulolasi hukmronligi davriga (618–907) to‘g‘ri keladi deb ta’kidlanadi. Shuni aytish lozimki, 1703-yilda (1000 yildan keyin) nashr etilgan to‘plamdan o‘rin olgan ushbu sulola davridagi 2000 dan ziyod shoirlarning tanlangan she’rlari soni qariyb 50 mingtadir.

Qadimiy, xususan mumtoz ijodkor Konfutsiy³ning she’riy asarlarini yoddan bilish mamlakat ta’lim tizimida markaziy o‘rinni egallagan. Har bir savodxon odam she’r yoza olishi va adabiy uslubni

¹ Syuy Yuan (taxminan miloddan avvalgi 340–278) — Xitoy qadimiy lirik shoiri. U Xitoy madaniyatida milliy vatanparvarlik ramzlaridan biri hisoblanadi.

² Qarang: Федоренко Н.Т. Цюй Юань: истоки и проблемы творчества. — М.: Главная редакция восточной литературы издательства “Наука”, 1986. — 156 с.

³ Konfutsiy (haqiqiy ismi Kun Syu, taxminan miloddan avvalgi 551–479) — Xitoyning mashhur qadimiy mutafakkiri va faylasufi, konfutsiychilik falsafiy tizimining asoschisi.

mukammal egallagan bo'lishi shart deb hisoblangan. O'sha davrda Xitoyda rasmiy lavozimlarini egallash uchun o'tkaziladigan davlat imtihonlarida berilgan mavzu bo'yicha she'r yozish talab qilingan.

XIII asrda ko'chmanchi mo'g'ullarning Xitoyga bostirib kirishi, shundan so'ng tashqi aloqalarning, ayniqsa, savdo-sotiqning rivojlanishi adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu paytgacha badiiy adabiyot faqat she'rlardan iborat bo'lsa, asta-sekin qissa, roman va drama janrlarida ham asarlar bitila boshlangan.

Tsao Syuetsin¹ qalamiga mansub "Xunloumin" ("Qizil ko'shkdagi tush") Xitoy tilidagi to'rt mumtoz romandan biri hisoblanadi. U 120 bobdan iborat bo'lib, muallifning shaxsiy hayoti bilan bog'liq voqealarni qamrab olgan. U saroy fitnalarining chigalligi, maishiy turmushning nihoyatda batafsil bayon etilishi, syujet chiziqlarining murakkabligi bilan kitobxonlar e'tiborini darhol jalb qiladi. Asarda yuzlab obrazlar gavdalantirilgan bo'lib, har birining ta'rifiga qo'sha-qo'sha sahifalar ajratilgan.

Ushbu asarning paydo bo'lishi Xitoy jamiyatining turli qatlamiga mansub kitobxonlarni larzaga solgan. Ayrimlar uni o'zlari ko'chirib olgan bo'lsalar, boshqalari la'natlagan, ba'zilar esa kitob qo'lyozmalarini yoqib ham yuborgan. Roman haqida hamma — avom xalq ham, yuqori darajadagi amaldorlar ham gapirar, uni muhokama qilardilar. Bu uning qayta va qayta nashr etilishiga sabab bo'lgan.

¹ Sao Syuetsin (taxallusi, haqiqiy ismi-sharifi Sao Chjan, taxminan 1714 (1724) - 1763 (1764) — Xitoy yozuvchisi.

“Qizil ko‘shkdagi tush”da Sin sulolasi davri voqealarini tasvirlagan. U orqali Xitoy an’anaviy madaniyati, xususan an’anaviy tibbiyot, choyxo‘rlik madaniyati, o‘sha davrdagi opera, musiqa, rassomchilik, xalq maqollari va rivoyatlari, konfutsiychilik bilan tanishish mumkin. Umuman, bu asar Xitoy adabiyotining yuksak cho‘qqisi hisoblanibgina qolmay, jahon adabiyotining eng yaxshi romanlaridan biri deb e’tirof etiladi¹.

Lo Guanchjun² Xitoy adabiyotida o‘zining mashhur tarixiy romanlari bilan o‘chmas iz qoldirgan yozuvchidir. Uning qalamiga olti roman mansub bo‘lib, ayniqsa, ular orasida “Sangochji yani” (“Uch saltanatlik”) eng mashhuri hisoblanadi. Mazkur asarda III asrda Xan sulolasi hukmronligi qulaganidan keyin uch saltanat: Vey, U va Shu davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro qirg‘in urushlarning fojiali oqibatlari qalamga olingan. Muallif Xitoy xalqining qahramonona tarixini madh etgani holda birodarkushlikni qoralaydi, mamlakatni birlashtirishga da’vat etadi.

Lo Guanchjunning Xitoy adabiyoti tarixidan munosib o‘rin olgan yana bir romani — “Shuyxuchjuan”dir (“Daryo qo‘ltig‘i”). Ushbu asar Xitoyda sarguzasht janriga asos solgan deb ham hisoblanadi. Unda dengiz qaroqchilarining sarguzashtlari haqida maroqli hikoya qilinadi.

Zamonaviy Xitoy adabiyoti asoschilari qatorida birinchi navbatda Lu Sin, Mao Dun, Ba Szin

¹ Liu Zaifu and Yunzhong Shu. Reflections on Dream of the red chamber. – Cambria Press, 2008. – P. 115.

² Lo Guanchjun (ikkinchi ismi-sharifi “Lo Ben”, taxminan 1300–1400) – XIV asr Xitoy yozuvchisi.

nomlari keltiriladi. Lu Sin¹ 1930-yilda So‘l yozuvchilar ligasini tashkil etgan va unga boshchilik qilgan. O‘sha davrdagi eng faol va nufuzli ijodkorlarni birlashtirgan. Yozuvchining eng mashhur “Telbaning kundaligi” asarida qadimiy Xitoydagi urug‘chilik munosabatlari va axloqiy me‘yorlari keskin tanqid ostiga olingan. Bu hikoyaning e‘lon qilinishi uni o‘z davrining eng iste‘dodli yozuvchilari safidan joy olishiga xizmat qildi. Muallifning “A-Keyaning haqiqiy tarixi” asari ham Xitoyda juda yuqori baholanadi.

Lu Sin Nobel qo‘mitasidan adabiyot bo‘yicha mukofot olishga buyurtma berish taklifini ham olgan. Biroq o‘lim to‘shagida yotgan yozuvchining xalqaro mukofotlarga qiziqishi so‘ngandi va bu taklifni rad etgan.

Inqilobning mag‘lubiyatga uchrashi ta‘siri ostida bitilgan “Shi” (“Quyosh tutilishi”, 1927–1928) trilogiyasining muallifi Mao Dun² ham Xitoy milliy adabiyotini rivojlantirishga munosib hissasini qo‘shgan. Bu trilogiyaga kirgan “Ko‘ngilning sovishi”, “Hardamxayollik” va “Izlanishlar” qissalarida mamlakatda inqilob muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so‘ng darhol umidsizlikka tushgan, hayotda o‘z o‘rnini topa olmayotgan yoshlar taqdiri gavdalanadi. Ammo bu asarlar mamlakat yosh adiblarining

³ Lu Sin (haqiqiy ismi Chjou Shujen, 1881–1936) — XX asr birinchi yarmida adabiyotni va ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan Xitoy yozuvchisi.

¹ Mao Dun (haqiqiy ismi-sharifi Shen Yanbin, 1896–1981) — Xitoyning taniqli yozuvchisi va jamoat arbobi, 1953–1981 yillarda Xitoy Yozuvchilar uyushmasining raisi, 1949–1964 yillarda XXR Madaniyat vaziri va Umumxitoy Adabiyot va san‘at arboblari uyushmasi raisi o‘rinbosari.

hamisha ham asosli bo‘lmagan e’tirozlariga sabab bo‘lgan.

Mao Dun 1928–1930-yillarda Yaponiyada muhojirlikda yashagan. Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan so‘ng o‘z vatanida taniqli davlat va jamoat arbobi bo‘lgan. Hozirgi paytda Xitoyda adabiyot sohasidagi eng nufuzli mukofot uning nomi bilan ataladi.

Asarlari 26 jildni tashkil etgan, yana 10 jildlik tarjimalar qilgan Ba Szin¹ Xitoyning eng sermahsul yozuvchilaridan biridir. Uning ijodida ijtimoiy islohotlar mavzusi va XX asr birinchi yarmidagi Xitoy voqeligi markaziy o‘rinni egallaydi. Adibni jahonga mashhur qilgan “Oila” romani “Shiddatli oqim” trilogiyasiga kiradi. 1931-yilda nashr etilgan ushbu asar muallif tarjimai holini aks ettiradi. Unda Xitoydagi an’anaviy tuzum tartib-taomillari bilan shakllanayotgan yangi jamiyatning intilishlari o‘rtasidagi nizo bir oila timsolida ifoda etilgan. Uning yana bir “Muhabbat trilogiyasi” — “Bulut”, “Yomg‘ir”, “Chaqmoq” qissalarini qamrab olgan.

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan so‘ng shu yilning 2–19-iyul kunlari Pekinda adabiyot va san’at xodimlarining I Umumxitoy s‘ezdi bo‘lib o‘tgan. Unda milliy madaniy merosni qadrlash bilan birga jahon adabiyotining eng yaxshi an’analarini davom ettirish rejalari belgilab olingan. Xitoyda ijodiy uyushmalar tuzilgan, adiblarning

² Ba Szin (tug‘ilgandagi ismi-sharifi Li Yaotan, katta yoshdagi ismi Li Feygan, 1904–2005) — xitoylik yozuvchi va tarjimon, 1985–2005 yillarda Xitoy Yozuvchilar uyushmasi raisi.

177 ta sara asarlarini qamrab olgan “Xalq adabiyoti kutubxonasi” turkumi nashr etilgan.

XX asrning 50-yillarida Xitoy adabiyotida harbiy mavzu yetakchi o‘rin egallagan. Ular qatoriga Chen Denkening “Xo jen tan” (“Tirik odamlar qadri”, 1950) va “Xuayxe byanshan di ernyuy” (“Xuayxe daryosi bolalari”, 1953), Du Penchenning “Baovey Yanan” (“Yanan uchun jang”, 1954) va boshqalarni kiritish mumkin.

Hozirgi davr Xitoy adabiyotini “Sin shitsi syaoshu” (“Yangi davr adabiyoti”) deb atash urf bo‘lgan va u o‘z tarixini 1979-yildan boshlaydi. Mamlakatda yana adabiy jarayonning tiklanishi “Shanxen vensyue” (“Chandiqlar adabiyoti”) nomini olgan. Bu adabiyot XX asr 70-yillarining oxiri va 80-yillarning boshida XXRdagi dahshatli voqealarning qaynoq izlari ketidan shakllangan va Xitoyda nihoyatda mashhur bo‘lib ketgan. Bu paytda mamlakatda nashr etilayotgan 500 tadan ko‘proq adabiy jurnallarda behisob romanlar, qissalar, hikoyalar, pyesalar e‘lon qilingan.

Xitoy adiblari “madaniy inqilob”ning sharmandali voqeliklarini tasvirlashdan asta-sekin “sisyan szefan”ga (“ongni ozod qilish”) o‘tdilar. Bu “gayge vensyue” (“islohotlar adabiyoti”) nomini ham olgan Xitoyda keng iqtisodiy islohotlarning amalga oshirila boshlanishi, “ochiq eshiklar” siyosati o‘tkazilishi natijasida ijtimoiy fikr, turmush tarzi ham o‘zgar-gan. Avval taqiqlangan xorijiy madaniyat, shu jum-ladan modern adabiyotiga yo‘l ochilgan, asarlarda man etiladigan mavzular deyarli qolmagan. Xusu-san, 1999-yilda chop etilgan Vey Xuyning “Shanxay

baobey” (“Shanxay kichkintoyi”) romani ingliz tiliga tarjima qilinganidan so‘ng xalqaro bestseller — bozori chaqqon kitobga aylangan. Bu mamlakatda adabiyotning “chun eensyue” (“sof adabiyot”) va “tunsu vensyue”ga (“ommaviy adabiyot”) ajratilishiga ham sabab bo‘lgan. Bunda “ommaviy adabiyot” tijorat maqsadlari ko‘zlangan asarlarni nazarda tutgan.

Xitoyning “yangi davr adabiyoti” dunyo kitobxonlarini tijorat kitoblar bilan emas, balki insoniyatni to‘lqinlantirayotgan olamshumul muammolar dadil ko‘tarib chiqilayotgan asarlar bilan o‘ziga jalb etmoqda. XXI asr boshida — 2000-yilda Gao Sin szyanga¹ “Hozirgi dunyodagi insonning ahvoliga koinot ahamiyatiga ega alam aks etgan asarlari”, 2012-yilda Mo Yanga² “Xalq ertaklari va tarixni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan aql bovar qilmaydigan xayolot realizmi” uchun adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotlarining berilishi buning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Gao Sinszyan ijodini o‘tgan asrning 60-yillarida boshlagan, o‘nlab nasriy asarlar, pyesalar va poemalar bitgan. Ammo o‘sha davrda ularni Xitoyda e‘lon qilib bo‘lmasligini bilgan muallif hamma qo‘lyozmalarini yoqib yuborgan. Faqat 1982-yildagi “Tashvish signali” pyesasi kichkinagina teatrda dekoratsiya o‘rniga imo-ishoralar ishlatilib sahnalashtirilgan. Undan keyingi “Avtobus bekati” pyesasi taqiqlangan.

¹ Gao Sintszyan (1940-yil 4-yanvarda tavallud topgan) — Parijda yashaydigan xitoy yozuvchisi, dramaturgi va tanqidchisi.

² Mo Yan (1956-yilda tavallud topgan) — xitoylik yozuvchi.

Muallifning “Yovvoyi odam” pyesasi (1985) ham Xitoyda bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi unga chet elning ham e‘tiborini tortgan. Dramaturgning bu asarida uning ekzistensialistik qarashlari bilan birga zamonaviylik atrof-muhit muammosi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Yovvoyi odamni izlash va tesha tegmagan o‘rmonlarni qiyratish zamonaviylikni tanazzulga yuz tutqazadi. Gao Sinszyanning “Boshqa sohil” pyesasi ham shaxs va jamiyat o‘rtasidagi muammolarni ko‘tarib chiqqani uchun darhol taqiqlangan.

Nobel mukofoti laureati “Mo‘jizakor tog‘lar” va “One Man’s Bible” kabi romanlar muallifi hamdir. Bugungi kunda uning asarlari ko‘p tillarga tarjima qilingan, pyesalari sahnalashtirilgan.

Mo Yan adabiyotga XX asr 80-yillari boshida kirib kelgan. 1981-yilda realizm uslubida bitilgan, voqealar uchinchi shaxs tilidan hikoya qilingan “Bahor tunidagi yomg‘ir”, “Suvsiz daryo”, “Kuzgi suvlar”, “Xalq musiqasi” va boshqa asarlari e‘lon qilingan. 80-yillar o‘rtalaridan boshlab yozuvchining uslubi murakkablashib borgan. Kitobxonlar e‘tiborini tortgan birinchi qissasi — “Usti qizil, ichi shaffof turp”da qahramon tabiatni nozik his etadigan qishloqlik yetim bola tilidan hikoyaning jo‘ngina satrlari muallifning nafis tasvirlari bilan uyg‘unlashib o‘ziga xos rang-baranglik kashf etgan.

Adibning 1986-yilda nashr etilgan “Qizil gaolyan” asari Xitoyning “Yilning eng yaxshi qissasi” milliy mukofotiga sazovor bo‘lgan. Unda 1930-yillarda Xitoyda Yaponiya bosqinchilariga qarshi urush manzarasida bir oila qismati hikoya qilingan. 1987-yilda

esa Mo Yan bir qahramondan iborat, o‘zi roman deb atagan “Qizil gaolyan: oilaviy saga” qissalar turkumini chop etgan¹.

Bu asar asosida rejissyor Chjan Imou tomonidan 1987-yilda shu nomdagi film suratga olinib, u Berlin kinofestivalining oliy mukofotiga loyiq topilganidan so‘ng qissa muallifining nomi butun dunyoga mashhur bo‘lgan. 2000-yilda “Asiaweek” haftanomasi “Qizil gaolyan”ni XX asrdagi eng sara 100 ta Xitoy romani ro‘yxatiga kiritgan. Umuman, 57 yoshli Nobel mukofoti sohibi hozirgacha 11 ta roman, 20 ta qissa va 80 tadan ko‘proq hikoyalarning muallifidir.

Xitoy adabiyoti necha ming yillik tarixga egaligi, bugungi kunda uning nufuzi jahon tomonidan tan olinayotgan bo‘lsa ham ushbu mamlakat yozuvchilari, dramaturglari, shoirlarining asarlari o‘zbek kitobxonlari orasida hozircha juda keng ommalashmagan. Bu muayyan darajada xitoylik adiblarning asarlarini asliyatdan to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish muammosi bilan ham izohlanadi.

Shu ma’noda Xitoy adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Lao She²ning mohir jurnalist va tarjimon Erkin Ernazarov tomonidan rus tilidan o‘zbekchalashtirilgan “Mushuklar shahri xotiralari” romani mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Lao She juda yoshligida otasidan mahrum bo‘lgan va kambag‘al oilada yashagan. Olti yoshidan

¹ Li Hua Ying. *Historical Dictionary of Modern Chinese Literature*. — The Scarecrow Press, 2010. — P. 140, 141.

² Lao She (haqiqiy ismi-sharifi Shu Sinchun, 1899–1966) — mashhur xitoy yozuvchisi, dramaturgi va publitsisti.

eski uslubdagi (asosan Konfutsiy matnlarini yodlashdan iborat bo'lgan) xususiy maktabda o'qigan, so'ng pedagogika bilim yurtiga o'qishga kirgan. Uni tugallashi bilan Pekindagi boshlang'ich maktablardan birining direktori etib tayinlangan. Universitetda o'qigan, ingliz tilini o'rgangan.

Bo'lajak adib 1924-yilda Angliyaga jo'nab ketib, avval Londonda, keyin Oksfordda xitoy tilidan dars bergan. U 1926-yilda birinchi — “Muhtaram Chjanning falsafasi”, bir yil o'tgach — “Donishmand aytgan” romanlarini e'lon qilgan.

1937-yilda Yaponiyaning Xitoyga bostirib kelishi paytida u vatanida yashagan. Dushmanga qarshi kurashishni targ'ib etuvchi “Oxirigacha qarshilik ko'rsatish” jurnalini nashr etgan. O'zi “Umumxitoy adabiyot va san'at xodimlarining dushman bilan kurashish uyushmasi”ga bevosita boshchilik qilgan.

Adibning kambag'al oilada katta bo'lganligi ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Yozuvchi asarlarining qahramonlari asosan mehnat kishilari — kambag'allardir. Romanlari, hikoyalari va pyesalari og'ir qismatli nochor kishilarga, kamsitilgan va tahqirlanganlarning nochor hayotiga chuqur hamdardlik bilan sug'orilgan.

Xususan, “Riksha” romanining qahramoni faqat o'z kuchiga ishongan holda muhtojlikdan qutulish uchun adolatsiz tuzum bilan tengsiz kurash olib boradi va bu intilishi fojiona mag'lubiyat bilan tugaydi. Asarda Lao Shening ta'rifi bilan aytganda “insonni tuyaga aylantirgan”, uni ma'naviy tepki layotgan jamiyat fosh etiladi.

Yozuvchi mamlakat poytaxti — Pekinga bag‘ishlangan “Bir tom ostidagi to‘rt avlod” trilogiyasini yaratish ustida ish olib borgan, lekin bu rejasini to‘liq amalga oshirishga ulgurmagan. Bu trilogiya-ning ikki romani — “Qo‘rqinch” va “Nochorlik” nashrdan chiqqan.

Lao She xalq og‘zaki tilining eng bilimdonlaridan hisoblanadi. Yozuvchining asarlaridagi “U o‘zining ahmoqligi bilan aqllilarga yo‘l ochib bermoqda”, “U tuya kabi ahmoq”, “Bizning tuzumda katta baliq kichigini, kichik baliq esa qisqichbaqani yeydi” so‘zlari matallarga, hikmatlarga aylangan.

1932-yilda e‘lon qilingan “Mushuklar shahri xotiralari” — Lao Shening eng mashhur tanqidiy pamflet-romanidir. Undagi voqealar go‘yo odam-mushuklar yashaydigan Marsda bo‘lib o‘tadi. To‘pponcha va gugurtga ega bo‘lgan, fazoviy kemasi halokatga uchrab ana shu sayyoraga kelib qolgan yerlik odam bu mushuklar dunyosida eng qudratli shaxsga aylanadi. Mushuklar shahri — o‘zining qadimiy tarixi, madaniyati va she‘riyati bilan og‘iz ko‘pirtirib maqtaniladigan, biroq afyun daraxtlarini etishtirish va hukmron oliy tabaqalarning ma‘naviy nopokligi oqibatida tanazzulga yuz tutgan davlatning poytaxtidir.

Ushbu roman fantastik asar hisoblansa-da, Mushuklar shahridagi voqealar beixtiyor Xitoyning XX asrning birinchi choragidagi noxush vaziyatlariga ishora qiladi. Shuning uchun xitoylik tanqidchilar Lao Shedan mazkur asaridan voz kechishni ham talab qilganlar.

Lao Shening “Mushuklar shahri xotiralari” modernizm adabiyoti ixlosmandlariga beixtiyor Ernst Gofman¹ning “Shchelkunchik va sichqon qiroli” yoki Kobo Abe²ning “Xuddi odamdek” asarlarini yodga soladi. Ularda go‘yoki xayolot mamlakatlari, sayyorolari haqida gap ketayotgandek bo‘lsa ham, nozik, chuqur ma‘noli qochirimlari haqiqiy voqelikka yaqqol ishora qiladi. Modern yo‘nalishida ijod qiladigan yozuvchilarning asarlari ma‘lum tayyorgarlikka, chuqur bilimga ega bo‘lgan, sermushohada kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Xitoy Xalq Respublikasi milliy iqtisodiyoti jadal rivojlanayotganligi, jahon hamjamiyatidagi mavqeyi va obro‘si ortib borayotganligi bilangina emas, shuningdek, yozuvchilari o‘z asarlarida butun insoniyatga taalluqli olamshumul muammolarni dadil ko‘tarib chiqayotganligi bilan ham tobora shuhrat qozonib bormoqda.

Xitoy bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar jadal rivojlanib va chuqurlashib borayotgan bugungi kunda biz uchun do‘st va hamkor bu qudratli davlat adabiyoti bilan chuqurroq tanishish, ularning eng sara asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish ayni muddaodir.

Akmal SAIDOV,
professor

¹ Ernst Teodor Amadey Gofman (nemischa “Ernst Theodor Amadeus Hoffmann”, 1776–1822) — romantik yo‘nalishdagi nemis yozuvchisi, kompozitor, musiqachi, rassom, professional yurist.

² Kobo Abe (haqiqiy ismi Abe Kimifusa, 1924–1993) — taniqli yapon yozuvchisi, dramaturgi, teatr rejissyori.

MUSHUKLAR SHAHRI XOTIRALARI

1

Sayyoralararo kema halokatga uchradi.

Yarim oydan ko'proq vaqtdan beri ushbu kema-ni boshqargan eski maktabdosh oshnamdan faqat shaklsiz jism qolgandi. Men esa, aftidan, tirikman. Qanday qilib halok bo'lmabman? Ehtimol, buni men emas, sehergarlar bilishsa kerak.

Biz Mars tomon uchayotgandik. Marhum og'ay-nimning hisob-kitoblariga qaraganda kemamiz Mars-ning tortish doirasiga kirgandi. Demak, maqsadimga erishibmanmi? Shunday bo'lsa, sobiq sinfdoshimning ruhi chirqillamasa ham bo'ladi: Marsga qadami yet-gan birinchi xitoylik sharafiga ega bo'lish uchun jonni fido qilsa arziydi! Ammo o'zi Marsga tush-ganmikanman? Buni faraz qilish mumkin, o'zimning biror dalilim yo'q. Astronom, bu qaysi sayyoraligini aniqlagan bo'lardi, albatta. Taassufki, astronomiya-dan xabardorligim ko'hna Misr bitiklari bo'yicha xolos, undan aslo ko'pmas. Do'stim, shubhasiz, aq-limni peshlab qo'ygan bo'lardi... Evoh! Afsus, qadr-don oshnam edi...

Kema chilparchin bo'ldi. Endi Yerga qanday qay-tib ketaman? Bor-yo'g'im ustimdagi qoqi ismaloqdek juldur uvada va yana qornimda qolgan ovqat. Yer-ga qaytish u yoqda tursin, bu yerda omon qolsang ham xudoga shukur. Notanish joy, umuman Marsda odamga o'xshash mavjudot borligi ham dargumon. Biroq jasurligingni qayg'u bilan qo'porish shartmi?

“Marsdagi birinchi devona” ekanliging o‘yi bilan o‘zingga taskin berganing ma’qul.

Bularni xayoldan keyin o‘tkazganman, albat-ta, o‘shanda esa boshim gir aylanardi. Qandaydir uzuq-yuluq fikrlar quyilib kelardi, ulardan faqat ikkitasi yodimda qolgan: qanday qaytib ketaman va qanday jon saqlayman? Bu o‘ylar miyamda go‘yoki cho‘kkan kemanding to‘lqin qirg‘oqqa chiqarib tash-lagan ikki taxtasidek o‘rnashib qolgan.

Xullas, o‘zimga keldim. Eng avvalo, bechora do‘stimning murdasini ko‘mish kerak edi. Chilpar-chin kemamizga qarashga ham jur’at eta olmasdim. U ham bizni bu yerga olib kelgan sodiq kema-miz — qadrdon oshnamiz edi... Bu ikki hamrohim halok bo‘ldi va ular fojiasi uchun o‘zimni aybdor deb his qilardim. Ular zarur va foydali edi, lekin halokatga uchrab, meni behol omon qoldirishdi. Tentakona baxt — naqadar qayg‘uli taskin! Qabri-ni tirnog‘im bilan kovlasam ham og‘aynimni dafn qilaman. Ammo kema qoldiqlarini nima qilish ke-rak? Bularga hatto qiyo ham boqolmasdim...

Go‘rni kovlash zarur edi, o‘zim esa kalovlagancha o‘tirar va ko‘z yoshlarim orqali tevarakka boqardim. Aql bovar qilmaydi, biroq o‘shanda nimani ko‘rgan bo‘lsam, ipidan ignasigacha yodimda va qachon bo‘lmasin ko‘zimni yumsam, nigohim qarshisida ta-nish tasvir barcha bo‘yoqlari va jilolari bilan gav-dalanadi. Yana bir manzara: bolaligimda onam bi-lan birga birinchi bor borgan joy — otamning qabri xuddi shunday ravshan holda ko‘z oldimga keladi. Hozir esa yon-atrofimga go‘yoki navniholning har bir yaproqchasi yomg‘ir tomchilari zarbidan seska-

nib sapchiyotgandek hadik va sarosima bilan qarayotgandim. /

Kulrang osmonni ko'rib turgandim. Bulutli emas, bevosita kulrang osmonni. Quyosh o't sochardi — qizib ketgandim — ammo uning nuri issig'iga bas kelolmasdim, hatto ko'zimni qisishning hojati yo'q edi. Serbosim, qaynoq havoni paypaslab ko'rsa bo'layotgandek tuyulardi. U chang bosganidan kulrang emasdi, chunki uzoq-uzoqlardagi hamma narsani ko'rayotgandim. Quyosh shu'lalari go'yo g'ira-shirada havoni xiyol yorug'roq qilib va kumushsimon-kulsimon tusga bo'yab, unga singib ketayotgandi. Bu Shimoliy Xitoy osmonida quruq kulrang bulutlar suzib yuradigan yozgi jaziramaga o'xshab ketardi, ammo bu yerda havo tundra, bosimliroq, ma'yusroq edi va xuddi betga qapishib qolayotgandek edi. Ushbu olamning jajjigina nusxasi — faqat yog'chiroq shu'lasini miltillab turadigan pishloq pishiriladigan qaynoq joy bo'lishi mumkin edi. Olisda pastqam, kulrang, lekin osmonga qaraganda qoramtiyroq tog'lar yastanib yotardi. Ularda go'yo yovvoyi kaptarlarnikidek pushtirang tasmalar ko'zga tashlanardi.

“Naqadar bo'z mamlakat!” degan xayolga bordim, holbuki o'shanda u mamlakatligini, bu yerda qandaydir mavjudotlar bor-yo'qligini bilmasdim. Yon-verimdagi kulrang tekislikda daraxtlar ham, uylar ham, dalalar ham ko'rinmasdi — faqat silliq, yer bag'irlab keng bargli o't o'sayotgan ma'yus tekis yuzalik. Ko'rinishidan tuprog'i hosildor. Nega bu yerga hech narsa ekishmaydi?!

Yaqin joyda kalxatga o'xshash oq dumli kulrang qushlar uchib yurardi. Ularning dumlaridagi oqish

dog'lar bu tund olamga biroz rang-baranglik kiritardi, ammo uning mungsiz ko'inishini o'zgartirmayotgandi. Xuddi bulutli osmonga bir dasta pul sochib yuborilganga o'xshardi.

Kalxatlar juda yaqin uchib kelardi. Ular do'stimning murdasini payqab qolishganini sezib, hayajonlana boshladim va yerdan biror qattiqroq narsani izlashga tushdim, ammo hatto novda ham topa olmadim. "Kema qoldiqlarini titkilab ko'rish kerak: sim chiviq bilan ham chuqur qazisa bo'ladi!" – degan o'ylarga kelgandim. Qushlar tobora pastlab, boshim uzra ucha boshlagan va cho'ziq tovushda ochko'zlarcha qichqirishga tushgandi. Izlashga vaqt yo'q edi, sakrab turib, kema siniqlari orasida telbalarcha qandaydir narsani — nimaligini ham bilmayman, uzib olishga tushdim. Qushlardan biri qo'ndi. Ayyuhannos solganimga javoban uning qattiq qanotlari titrab ketdi, oqish dumi tepaga silkindi, changallari yana yerdan uzildi. Biroq hurkitilgan qush o'rniga ikki yoki uch tasi mazali yemish topgan zag'izg'ondek shodon chig'illaganicha uchib keldi. Havoda parvoz qilayotgan ularning sheriklari xuddi sabr qilishni iltijo etayotgandek yanada cho'ziq qichqira ketdi va kutilmaganda hamma-lari baravar qo'ndi. Men kemanding pachaqlanib ketgan sirtidan bir parchasini uzib olishga behuda chiranardim, qo'llarimdan qon sizirdi, ammo og'riq sezmayotgandim. Kalxatlarga tashlanib, qichqirishga, ularni tepishga tushdim. Qushlar uchib ketdi, biroq bittasi odam tanasini cho'qishga ulgurdi. Shu daqiqadan boshlab ular tepkilarimga parvo qilmay qo'ydi: faqat oyog'imni cho'qish payida bo'lishardi.

Cho‘ntagimda to‘pponcha borligi esimga tushdi, titrab-qaqshab uni paypaslab ko‘rdim va daf’atan — bu qanday vasvasa, o‘zimdanda atigi yetti-sakkiz odim narida mushuk turqli odamlarni ko‘rdim!

2

“To‘pponchani chiqaraymi yoki biroz kutaymi? — men ikkilanib qoldim, pirovardida qo‘limni cho‘ntakdan chiqardim va indamay ishshaydim. — Marsga o‘z ixtiyoringa ko‘ra uchib keldim. Bu mushuklar meni o‘ldirishi hozircha noma‘lum, ehtimol, ular dunyodagi eng rahmdil mavjudotlardir. Qurolni chiqarishga ne hojat!” Ezgu umidlar kishini botir qiladi, menda hayajon ham yo‘qoldi. Buyog‘i nima bo‘lishini ko‘ramiz, har holda o‘zim birinchi bo‘lib hujum qilmasligim lozim.

Mushuk turqlilar qimirlamay turganimni ko‘rib, ohista, ammo sichqonning iziga tushgandek qat’iyat bilan ikki qadam bosdilar. Bu vaqtda qushlar o‘ljasini olib uchib ketgandilar... Dahshatdan ko‘zimni yumdim. Shu ondayoq qo‘llarimdan tutishdi. Mushuk turqli bu odamlar shu qadar tez, chaqqon va ovoz chiqarmay harakat qilishlarini kim bilibdi deysiz.

Balki to‘pponchani chiqarmay xato qilgandirman? Yo‘q, ular oliyjanobligimni munosib baholashlari kerak! Batamom xotirjam bo‘ldim va hatto ko‘zimni ochmadim — qo‘rqoqlik qilib emas, balki ishonchim komilligi uchun. Lekin qarshilik ko‘rsatmayotgan bo‘lsam ham g‘aroyib mavjudotlar qo‘limni zirqiratib, tobora qattiqroq qisardilar. “Ular haqiqatan ham rahmdilmikin?” — ikkilanib qoldim

men. Axloqiy ustun bo‘lgan hissim odamning mushuklar bilan kuch sinashishi haqoratli hol degan fikrni tug‘dirgandi. Bundan tashqari har bir qo‘lim yumshoq, lekin baquvvat to‘rt-besh changalning qayishqoq kamar bilan chirmalgandek iskanjasida edi. Qarshilik ko‘rsatish befoyda. Agar ularning tutqunligidan chiqishga urinsam, changallarini ishga solishadi. Odam-mushuklar, aftidan, o‘z o‘ljalari zimdan tashlanadi, keyin esa bu bechora o‘zini qanday tutmasin, uni dahshatli qiynoqqa soladi. Bu shunday og‘riq tug‘diradiki, o‘lja o‘zining axloqiy ustunligini yoddan chiqarishga yoki bundan afsuslanishga majbur bo‘ladi. Endi bu mavjudotlar to‘g‘risida yanglish fikrda bo‘lganligim va birinchi bo‘lib kuch ishlatish siyosatini qo‘llamaganligimdan o‘kinayotgandim. Biroq keyingi pushaymon — o‘zingga dushman. Orzularimda nurafshon bo‘lib ko‘ringan dunyo o‘lim yashirinib yotgan chuqur zimiston quduq bo‘lib chiqdi.

Ko‘zimni ochdim. Ularning hammasi turqlarini ko‘rsatmaslik uchun orqa tomonimda turardi. Bunday makr meni yanada jirkantirdi. “Changalinglarga tushgan ekanman, o‘ldirib qo‘ya qolinglar. Yashirinishga ne hojat!”

– Nega bunday qilyapsizlar... – beixtiyor tilga kirdim, lekin darhol gapirishdan to‘xtadim: ular tilimni tushunishmaydi-ku.

Bu so‘zlarimning yagona oqibati — ularning qo‘llarimni yanada qattiqroq qisishlari bo‘ldi. Ular meni tushunishganida ham oliyjanob bo‘lib qolishlariga ishonib bo‘lmasdi. Meni arqon bilan chirmab tashlaganlari ma‘qulroq edi, chunki qalbim ham,

tanam ham bu yumshoq, baquvvat, qaynoq, jir-kanch changallarga toqat qila olmayotgandi.

Osmonda qanotlarini yozib, tumshuqlarini egib uchayotgan kalxatlar tobora ko‘payayotgandi, ular pastga qo‘nish va yana maza qilish uchun payt poylardi.

Qiziq, orqamda qaqqayib turgan la‘nati odam-mushuklar qanday reja tuzgan ekanlar? Seni o‘tmas pichoq bilan nimalashlaridan ortiq azob yo‘q. Tik turar va kalxatlarga boqardim. Bu qahrli maxluqlar bechora do‘stimni bir necha daqiqada tilkapor qilishdi. Bir necha daqiqada? Unda maxluqlarni shafqatsiz deb bo‘lmaydi. “Sen oson jon berding, – oshnamga havasim keldi. – Uzoq qiynoqqa mahkum qilinganim sabab sen menga qaraganda bir necha barobar baxtliroqsan!”

“Bo‘lar endi, bo‘lar!” – og‘zimdan befoyda so‘zlar otilib chiqishiga sal qoldi. Mushuk turqli odamlarning fe‘l-atvorlari va qiliqlarini bilmasdim, lekin bir necha daqiqa ichida o‘z qismatimda ularning ko‘notdagi eng shafqatsiz mavjudot ekanliklariga amin bo‘ldim. Jallodlar uchun “yetar” so‘zi mavjud emas: qurbonni uzoq qiynash ularga lazzat bag‘ishlaydi. Ularga gap qotishdan ne foyda! Men agar umuman Marsda igna va kerosin bo‘lsa, tirnoqlarim ostiga nina tiqishlari yoki burnimga kerosin quyishlariga tayyor turgandim.

Shu payt yig‘lab yubordim — qo‘rqinchdan emas, vatanimni qo‘msaganimdan. Shafqatsizlik ham, qiynash ham, murdani cho‘qilaydigan kalxatlar ham yo‘q porloq va buyuk Xitoy — ehtimol, endi hech qachon sening jannatmakon bag‘ringga qaytib borol-

masam va insondek adolatli turmush kechirish baxtidan bahramand bo'lolmasam kerak! Agar Marsda omon qolsam ham bu yerdagi eng totli lazzat — uqubat bo'ladi!

Bu paytda mushuk turqli mavjudotlar oyog'imni chirmab olishdi. Ular hali ham biror tovush chiqarmas, ammo ortimda qaynoq nafaslarini his etayotgandim. Go'yo tanamni ilonlar chirmab olganidek nafratlanayotgandim.

To'satdan tiniq jaranglash eshitilib, uzoq yillar davomidagi sukunatni buzgandek bo'ldi. O'zim hozir ham ba'zan o'sha ovozni eshitaman. Bu oyog'imdagi kishanlarning qulflanishi edi, ular shu qadar zich ediki, to'pig'imni his etmay qoldim.

Men qanday jinoyat qildim? Ular meni nima qilishmoqchi?

Qolaversa, nimani muhokama qilish mumkin: mushuklar jamiyatida hissiyotlarni qo'yaver, inson ongiga hojat bo'lmasa kerak.

Shundan so'ng qo'llarimni kishanlashdi, biroq ulardan changallarini bo'shatishmadi. Aftidan, bu o'ta ehtiyotkorlik (buning oqibatida albatta shafqatsizlik tug'iladi) g'ira-shirada yashashning zarur sharti bo'lsa kerak.

Endi qarshimdagi ter bosgan ikki changal bo'ynimga ham xippa yopishdi. Bu alanglamasligim kerakligini bildirardi — xuddi ularga boqqim kelayotgandek!

Balki o'sha o'ta ehtiyotkorlikdan bo'ynim uzra xanjarlar yaltillayotgandir? "Hozir sudrab ketishadi!" degan fikr o'yimga keldi va go'yo bunga javobdek mushuk turqli odamlar orqamga tepib qolishdi. Sal

bo'lmaganda to'ntarilardim, biroq changallar yumshoq ilgaklari bilan ushlab qolishdi. Ortimda odatda mushuklarga xo's bo'lgan pishqiriq eshitildi — aftidan, sitamgarlarim kulishayotgandi, ular meni tahqirlayotganlaridan quvonishayotgandi, albatta.

Ishni tezroq bitirish uchun meni yetaklab qolishadi, deb o'ylagandim, lekin yana qattiq yanglishdim: ular bu men uchun naqadar zahmatli bo'lishini sezganlaridek, o'zimni odimlashga majbur qilishdi.

Ko'zimga ter quyilardi, ammo orqamga bog'langan qo'lim bilan uni sidira olmasdim, bo'ynimdan mahkam ushlab olganlari uchun kallamni shunchaki qimirlatishning ham iloji yo'q edi. Bor kuchimni ishga solib qaddimni rosladim, odimlay boshladim — yo'q, qadam bosmayotgandim, nima qilayotganimning ta'rifini topa olmayotgandim: sakrardim, sudralardim, bilanglardim, oqsoqlanardim...

Bir necha qadam qo'yib qanotlarning shiddatli qarsillashini eshitdim. Baxtim yorlaqab, ular hali qulog'imni tiqinlashmagandi: bu kalxatlar galasi bo'lib, jang maydonidagidek hujumga tashlangandi... Qabrni kovlash va do'stimni dafn qilishga ulgurmaganim uchun o'zimni kechira olmasdim. Nimaga shuncha vaqt kalovlanib o'tirdim?! Agar sog' qolsam va qachonlardir bu yerga qaytib kelsam, ehtimol, do'stimning suyaklarini ham topa olmasam kerak. Hech narsa sharmandaligimni hech qachon yashira olmaydi, bu sitamli onlarni eslab, o'zimni dunyoda sariq chaqaga arzimaydigan odamdek his etaman.

Butun tanam zirqirardi, o'yim esa xuddi yomon tush ko'rayotgan kabi ilgarigidek halok bo'lgan oshnamga talpinardi. Ko'zimni yumib, uning mur-

dasini cho'qilayotgan kalxatlarni tasavvur etardim. Ular o'zimning yuragimni cho'qilayotgandek tuyulardi. Meni qayoqqa olib ketishyapti? Agar biror ma'nisiz atrofga boqmasdan qochmoqchi va yo'lni xotiramda saqlab qolmoqchi bo'lsam, ko'zni ochsa bo'lardi. Hozir gavdam o'zimmnikidek emasdi, og'ir jarohat olgan odamdek uni his etmayotgandim. Taqdirim o'zgalari qo'lida edi, biroq bu endi meni qayg'uga solmayotgandi.

Ko'zimni ochganimda karaxtlikdan keyin o'zimga kelgandek his etdim. Kishanband oyoqlarim zirqirar, og'riq yuragimda aks sado berardi. Qayiqda ekanligimni darhol payqamadim. Unga qanday qilib, qachon tushib qoldim? Lekin bularning hammasi ahamiyatsiz edi — asosiysi, qaynoq changallar va umuman atrofda hech kim yo'q edi. Tepamda — kumushsimon-kulrang osmon, pastda — sassiz, biroq qayig'imni ildam olib ketayotgan daryoning moyli qoramtir-kulrang sathi.

3

Biror xavf-xatar to'g'risida o'ylamayotgandim, yuragimda hech qanday qo'rquv yo'q edi. Jazirama, ochlik, og'riq — hech narsa charchoqni yenga olmayotgandi: axir men yarim oydan beri sayyoralararo kemada yotardim. Chalqancha yotishimga qo'llarim kishanlanganligi xalaqit berayotgandi, shuning uchun yonboshlab olib, taqdirimni moyli oqim qo'lga topshirib, uxlab qoldim. Axir hech bo'lmaganda yaxshi bir tush ko'rarman?

Yana yo quduqning, yo eshik va derazalari yo'q kulbaning burchagida ko'zimni ochdim. Pol o'rnida

bo'yrachaday keladigan maysazor, tomni — kumushsimon-kulrang osmonning bir tutami bosayotgandi. Hozir qo'llarim bo'shatilgan, ammo belimda yo'g'on arqon paydo bo'lgandi. Arqonning ikkinchi uchini ko'rmayotgandim — aftidan, u tepada qayergadir bog'lab qo'yilgandi. Bu yerga arqonda tushirishgan bo'lishlari kerak. To'pponcha esa avvalgidek cho'ntagimda edi. G'aroyib! Mendan nima istashyapti? Tovon pulimi? Bu dardisar narsa, chunki ular buning uchun Yerga uchib borishlari kerak bo'ladi. Ehtimol, ular tutib olgan maxluqni qo'lga o'rgatib, hayvonot bog'ida tomosha qilgani joylashtirarlar? Har holda bu maqsadga muvofiqlikdan xoli emasdi. Iljayib qo'ydim: aftidan, aqldan ozayotganga o'xshayman.

Og'zim quruqshab ketdi. Ular nega to'pponchamni olib qo'yishmadi? Bu g'alati va tinchlantiradigan holat, lekin u chanqog'imni qondirmadi. Atrofga alanglab, burchakda turgan ko'zani ko'rdim. Ichida nima bor ekan? Bunga qarash uchun oyog'imdagi kishanlar bilan sakrashimga to'g'ri keladi. Og'riqqa chidab, o'rnimdan turishga urinib ko'rdim, biroq oyoqlarim hamon menga itoat etmayotgandi. Quduq tor edi va yerga yotishim bilan ko'zagacha bir necha qarich qolgandi. Ammo belimdagi arqon bu befoyda urinishdan ehtiyot qilayotgandi. Agar qornim bilan yerga yotib, qo'llarimni cho'zsam, arqon meni oyoqqa turg'azardi.

Qaqrab ketgan tomog'im daho reja ixtiro qilishga yordam berdi: to'ntarilgan va o'girila olmayotgan qo'ng'izdek chalqancha yotib, oyog'im bilan oldinga siljishim kerak. Arqon ko'zaga qo'lim yetishiga

xalaqit qilmasligi uchun, u mahkam boylanganligiga qaramasdan tepaga, ko'kragimga siljirdim. Tashnalikdan ko'ra og'riq afzal! Arqon badanimni qontalash qilish darajasida qisayotganiga qaramasdan, bunga e'tibor bermay siljirdim va nihoyat qimmatga tushgan marraga yetdim.

Baxtga qarshi, ko'zani quchib olish uchun kishanlar oyoqlarimni kerishga yo'l qo'ymayotgandi, panjarlarimni kersam, xumga oyog'im yetmasdi. Beiloj!

Chalqancha yotib, osmonga boqishdan o'zga chora yo'q edi. Beixtiyor to'pponchani paypaslab topib, uni cho'ntagimdan chiqardim va kichikkina bejirim qurolga zavqlanib boqdim. Keyin uning yaltiroq og'zini peshanamga qadadim: barmoqni qimirlatsam kifoya — tashnalikdan abadulabad qutulaman. Ammo shu payt o'yimga yangi bir fikr keldi. Qorin tomonimga o'girilib, arqonga qarata ikki bor o'q uzdim. Arqonning cheti tutadi. Qo'llarim va tishimni shosha-pisha ishga solib, uni uzdim va quvonchda kishanlarimni unutib, o'rnimdan dast turdim, lekin shu zahotiyoyq to'ntarildim. Emaklab sudralib borib ko'za ichiga tikilganimda u yerda bir narsa yalt etdi. Balki suvdir, balki... Biroq shubhaga berilish vaqti emasdi. Muzdek ilk qultum asalday totli bo'lib tuyuldi. Tirishish hamisha mukofotini oladi: bu oddiy haqiqatni nihoyat tushunib yetdim.

Xaloskorim — ko'zani achomlab, Yerga qaytayotgan paytimda uni albatta o'zim bilan olib ketaman, degan xayollarga berildim. Biroq shu zahotiyoyq dilim xira tortdi: afsuski, bunga umid qilib bo'lmaydi... Ancha payt ko'za bo'g'ziga tikilgancha qimirlamay o'tirdim. Tepamdan uzuq-yuluq chiyil-

lashgancha qushlar galasi uchib o'tdi. Hushimga keldim, boshimni ko'tardim va tonggi shafaqning pushtirang tasmalariga ko'zim tushdi. Kulrang osmon go'yo tikroq va yorug'roq bo'lib qolgan, quduq devorlari ham pushtirang hoshiya bilan bezangandi. "Ko'p o'tmay qosh qorayadi, — o'ylardim men. — Nima qilish kerak?"

Yerda o'rinli bo'lgan barcha harakatlardan bu joyda biron ma'ni bo'lmasdi. Bu yerdagi raqibimni yaxshi bilmasdim va u bilan qanday kurashish kerakligini tasavvur eta olmasdim. Hatto Robinzon¹, ehtimol, bunga o'xshash holatga tushmagan: u hur bo'lgan, men esa shu paytgacha hech kim ular haqda hech narsa bilmaydigan mushuk turqli odamlar changalidan qutulishim kerak.

Ammo har holda nimadir qilish zarur?

Eng avvalo, kishanlarimdan qutulsam yaxshi bo'lardi. Shu paytgacha ularga sinchiklab qaramagan ekanman, temirdan yasalgan deb o'ylagandim, endi qo'rg'oshin tusdaligini payqadim. Shuning uchun sitamgarlarim to'pponchamni olib qo'yishmagan ekan: Marsda, aftidan, temir bo'lmasa kerak va odam-mushuklar o'ta ehtiyotkor ekanliklari uchun notanish narsaga qo'l tegizishga jur'at etishmagan ko'rinadi. Paypaslab ko'rishimcha, kishanlarim qattiq jismdan yasalgan. Ularni sindirmoqchi bo'ldim — uddasidan chiqa olmadim. Nimadan yasalgan ekan? Xalos bo'lish istagimga qiziqish qo'shildi. Kishanlarni to'pponchamning og'zi bilan urib ko'rdim, ular

¹ Robinzon — Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo" asarining 28 yil davomida hech kim yashamaydigan orolda kun kechirgan mashhur qahramoni (tarjimon izohlari).

jarangladi, lekin temirdek emas. Balki kumush yoki qo'rg'oshindir? Temirdan bo'lak har qanday jism bo'lsa, arralay olaman — ko'zani sindirib, uning o'tkirroq bo'lagini qo'lga olsam bas (tosh ko'zani Yerga olib ketish niyatimni yoddan chiqarishga ulgurgandim). Lekin qo'riqchilar e'tiborini tortmaslik uchun ko'zani devorga urishga jur'at qilmayotgandim. Yo'q, ular sezmaydilar: axir hozirgina to'pponchadan o'q uzdim, hech kim kelmadi-ku. Mardligim tutib, ko'zaning yupqa o'tkir bo'lagini sindirdim va ishga tushdim.

Sabot-matonatli mehnat bilan hatto temir to'sindan ham kashta to'qiydigan igna yasasa bo'ladi, biroq mening masalamda ish anchayin murakkabroq edi. Ko'pincha tajribani xatoning mevasi deyishadi, men esa faqat yanglishishim mumkin, chunki Yerdagi tajribam bu joyda hech vaqoga arzimadi. Anchadan beri arralayotgan bo'lsam ham go'yo tosh bilan olmosni yo'nayotgandek, kishanlarda hatto tiralish izi ham ko'rinmadi.

Kor-holimga yarab qoladigan biror narsa topish ilinjida uvada kiyim-boshim, tuflim, hatto sochimni titkilab ko'rdim. Kutilmaganda shimimning cho'ntagida temir g'ilofdagi gugurt qutisini topdim. Kashanda emasman, shuning uchun odatda gugurt qutisini olib yurmayman. Bir tanishim parvozimiz oldidan sovg'a qilish uchun hech narsa topolmay shu gugurt qutisini qo'limga tutqazgandi. "Gugurt sayyoralararo kemaga ortiqcha yuk bo'lmasligiga umid qilaman!" deb hazillashgandi u o'shanda.

Qutini qo'lda o'ynab, arzimasi, lekin yoqimli xotiralarga berildim. Kun qoraydi. Bir gugurt cho'pini

yoqdim, keyin ikkinchisini. Beixtiyor, tentakligim tutib uni kishanlarimga yaqinlashtirdim va birdan — psh-sh! Ulardan bir siqim oq kul qoldi, atrofni esa badbo‘y hid tutdi.

Qarang-a, bu mushuklar kimyodan ham xabardor ekanlar. Aslo kutmagandim!

4

Hamma narsani boy berganingdan keyin kishanlardan xalos bo‘lishning nafi nimaga arzirdi, biroq endi, hech bo‘lmasa bu mushuk qudug‘ini qo‘riqlashga majbur emasman. To‘pponcha va gugurt qutisini yashirib, osilib turgan arqonga tirmashdim va quduq devoridan ko‘tarila boshladim. Hammayoqni ochiq havodagidan ham ko‘proq bug‘xonada duch kelinadigan g‘ira-shira tuman qoplagandi. Tepaga ko‘tarilib olib, yerga sakrab tushdim. Qayoqqa boraman? Mardligimdan asar ham qolmayotgandi. Uylar ham, yorug‘ chiroq ham ko‘rinmaydi, biror sas eshitilmaydi. Olisda (ehtimol, yaqindadir — masofani aniqlay olmayotgandim) o‘rmonga o‘xshagan bir narsa qorayib turardi. O‘sha yoqqa borsam-mikan? Ammo kim biladi, u yerda qanday yirtqichlar meni kutyapti!

Yulduzlarga boqdim: kulrang, xiyol pushtirangga bo‘yalgan osmonda faqat bir nechta yirik yulduzlar ko‘zga tashlanardi. Yana tashnalik azob bera boshladi, endi bunga ochlik ham qo‘shilgandi. Tungi ov qilish, tag‘in noma‘lum yirtqichlar va qushlarni o‘lja olish qo‘limdan kelmasdi. Yaxshiyamki, sovuq emas. Aftidan bu yerda kun-u tun yalang‘och yursa bo‘lar. O‘zimning sobiq turmam devoriga suyanib cho‘kka

tushdim va hech narsani o‘ylamaslikka harakat qilib, yulduzlarga tikildim. Hozir eng odatiy fikrlar ham yig‘latishi mumkin. Yolg‘izlik og‘riq azobidan ham dahshatlidir.

Ko‘zim yumilib ketayotgandi, lekin uxlab qolish juda xavfli. Biroz vaqt mudrab, birdan seskanib ketdim va ko‘zlarimni katta ochdim: ro‘paramda go‘yoki odam soyasi lip etgandek tuyuldi. “Aftidan, bu alahsirash!” – o‘zimni koyib, ko‘zimni yumdim. Biroq uni yana ochishim bilanoq, oldimda tag‘in soya lip etib qoldi. Sochim tikka bo‘lib ketdi: Marsda sharpalarni ushlash rejalarimda yo‘q. Ko‘z yummaslikka qat‘iy qaror qildim.

Ancha vaqt hech narsa ko‘rinmadi. Shunda jo‘rttaga ko‘zimni qisib, qoshlarim orasida xiyolgina tirqish qoldirdim. Soya darhol paydo bo‘ldi!

Endi undan qo‘rqmayotgandim. Bu ko‘lanka emas, mushuk turqli mavjudot ekanligi aniq. Qarang-a, uning ko‘zi shu qadar o‘tkir ekanki, uzoqdan ham ko‘zim yumuq emasligini sezarkan. Quvonch bilan tin oldim va kuta boshladim. Agar u menga otiladigan bo‘lsa, adabini beraman! Nega o‘zimni mushukodamdan kuchliman deb hisoblashimni bilmasdim. Ehtimol, to‘pponcham borligigadir? Kulgili!

Bu yerda vaqtning ahamiyati yo‘q edi. Notanish mavjudot menga yaqinlashgunga qadar bir necha asr o‘tib ketgandek tuyuldi. U har bir odimiga chorak soat, balkim bir soat vaqt sarflayotgandi, har bir qadamida asrlar davomida avlodlar tomonidan to‘p-langani ehtiyotkorlik his etilardi. Avval o‘ng, keyin chap oyog‘ini qo‘yardi, bukilardi, sekin qaddini rostlardi, o‘girilardi, orqaga tisarilardi, yerga qor

uchqunidek ohista yastanardi, emaklardi, yana belini bukardi... Balki mushuk bolasi sichqon tutishni shunday o'rganadi.

Agar qimirlasam yoki ko'zimni ochsam, u, hech shubhasiz, darhol sapchib tislardi. Lekin men ko'zimni qisganimcha uni diqqat bilan kuzatib, qimir etmasdim.

U menga yomonlikni ravo ko'rmayotganligini, aksincha mendan qo'rqayotganligini his etayotgandim.

Uning qo'lida hech narsa yo'q, buning ustiga bir o'zi kelgandi. Unga umuman hujum qilmoqchi emasligimni qanday tushuntirsam ekan? Aftidan, eng ma'qul yo'l — qimirlamaslik, shunda u hech bo'lmaganda qochib qolmaydi.

Odam-mushuk juda yaqinlashib keldi, hozir uning issiq nafasini sezayotgandim. Estafeta tayoqchasi uzatilishiga tayyor sprinterdek¹ yon tomonga o'giri-lib yuzim oldida changalini ikki marta silkitdi. Men boshimni salgina qimirlatdim. U changalini darrov tortib oldi, lekin joyidan qo'zg'almadi. Men yana boshimni qimirlatdim, keyin qo'limni sekin ko'tarib, bo'sh kaftimni ko'rsatdim. Bu imo-ishorani tushungandek bo'ldi, o'zi ham boshini silkidi va qaddini rostladi. Uni barmog'im bilan o'zimga chorladim. U qochmoqchi emasligini bildirmoqchi bo'lganday yana boshini silkitdi. Bu imo-ishoralar yarim soat chamasi davom etdi, shundan keyingina o'rnimdan turdim.

Agar befoyda vaqt sarflash ish deb hisoblansa, odam-mushuklar dunyodagi eng mehnatsevar

¹ Sprinter — yaqin masofalarga yuguradigan yengil atletikachi.

mavjudotlar edilar. Rosa bir soat davomida u bilan imo-ishora ayirboshladik, boshimizni qimirlatdik, lablarimiz bilan tamshandik, burnilarimiz bilan pishqirdik — qisqasi, bir-birimizga ziyon yetkazishni xohlamasligimizni tasdiqlash uchun tom ma'noda tanamizning har bir mushagini ishga soldik. Agar uzoqda yana bir soya paydo bo'lmaganida bu mashg'ulot bilan yana bir soat, hatto bir hafta ham shug'ullanar edik. Sherigim sharpani birinchi bo'lib payqadi, o'zini chetga oldi va changalini da'vatnamo silkita ketdi. Uning ortidan yugurdim. Ochlik va tashnalikdan ko'zim jimirlardi, biroq bizni quvib yetishsa, o'zim va sherigimning holi voy bo'lishini his etardim. Yangi tanishimdan ajralishni xohlamadim, Marsdagi darbadarligimda u ajoyib yordamchi bo'ladi.

Odam-mushuklar bizni quvlayotganliklari aniq, chunki yo'l boshlovchim odimini ildamlatayotgandi. Yuragim qinidan chiqib ketay derdi — ortimizda quloqni teshadigan uvlash eshitildi. Odam-mushuklar ayyuhannos solayotgan ekanlar, aftidan, g'azabga mingandilar. Yana bir qadam qo'ysam — holdan toyib qulayman yoki bo'g'zimdanda qon otiladi...

So'nggi kuchimni to'plab, to'pponchani qo'lga oldim va tavakkaliga o'q uzdim. O'zim o'q ovozi eshitmadim, chunki shu ondayoq hushdan ketgandim.

Qandaydir xonada ko'zimni ochdim. Kulrang osmon, qizil chiroq... Yer... Sayyoralararo kema... Qon halqobi... Yana ko'zimni yumdim.

Biroz vaqt o'tgandan keyingina yangi sherigim meni o'lik itday uyiga sudrab olib kirganini tu-

shuntirishga urindi. Marsdagi tuproq shu qadar yumshoq va mayin ekanki, yiqilganimda hech joyim ko'karmabdi ham. Bizni ta'qib qilayotganlar uzgan o'qimdan o'takasi yorilgan shekilli, uch kun ortlariga qaramay qochishibdi. Bor-yo'g'i o'n ikkita o'qi bor jajjigina to'pponcham meni butun Marsga mashhur qildi.

5

Dong qotib uxlabman, pashshalar bo'lmagani-da mangu uyquga ketardim, shekilli. Aytgancha, ular qanday hasharot ekanligini bilmayman. O'zlari bag'oyat chiroyli, jajji ko'm-ko'k kapalaklarga o'xshaydi, ammo bizning pashshalarimizdan ham xira. Bu parvonalar Marsda behisob — qo'lingni silkitsang, undan darhol jonli yashil yaproqchalarning galasi ko'tariladi.

Badanim uvishib ketgandi, chunki tun bo'yi yerda yotdim: odam-mushuklar karavot nimaligini bilmaydi. Bir qo'lim bilan pashshalarni quvlab, ikkinchisi bilan badanimni qashlab kulbani ko'zdan kechirdim. Aslini olganda, qaraydigan narsaning o'zi yo'q. Yuvinish uchun tog'ora izlagandim, topolmadim. Kulba shipshiydam bo'lgach, devor va shiftni tomosha qilishga to'g'ri keldi. Ular loydan yasalgan, bezakdan esa asar ham yo'q. Kulbadagi havo dimiqib, bo'rsiganga o'xshaydi. Faqat bir devorda ham eshik, ham deraza vazifasini o'taydigan, bo'yi uch quloch keladigan tuynuk ko'rindi.

To'pponcha hamon yonimda, bu — ayni mudao. Uni yaxshilab yashirib, tuynuk orqali tashqariga chiqdim va shunda bu joyga deraza ortiqchaligini

tushundim: kulba, aftidan, kecha kechqurun o‘zim ko‘rgan o‘rmon ichida ekan. Daraxtlardagi yaproqlar shu qadar quyuq ediki, ulardan eng yorqin quyosh nurlari ham o‘ta olmasdi, buning ustiga ana shu joyda shu‘lalar kulrang sokin havoga singib ketayotgandi.

Atrofga alangladim, lekin meni faqat quyuq yaproqlar, zaxlik va qo‘lansa hid qurshab olgandi.

Ammo yanglishibman. Daraxtlardan birining ostida odam-mushuk o‘tirardi. U, shubhasiz, meni ko‘rib turardi, biroq ko‘zlarimiz to‘qnash kelgach, daraxtga tirmashdi va yaproqlar orasida g‘oyib bo‘ldi. Bu qiliq jahlimni chiqardi. Mehmomni ham shunday qarshi olishadimi: senga na ovqat, na choy berishadi, bor-yo‘g‘i badbo‘y kulbada boshpana! Pachakilashib o‘tirmasdan mezbon ketidan daraxtga tirmashdim va bitta shoxni ushlab olib, silkita boshladim. Odam-mushuk yolvorgandek chiyilladi va ko‘tarilishdan to‘xtadi. Qochadigan joyi yo‘q va u kaltak egan mushukdek quloqlarini qisganicha sekin pastga tusha boshladi.

Men ovqat va suvga muhtojligimni tushuntirish maqsadida barmog‘imni og‘zimga tiqdim, bo‘ynimni cho‘zdim va bir necha bor lablarimni chapillatdim. Bunga javoban u daraxtga imo qildi. “U menga mevalardan tatib ko‘rishni maslahat berayapti, shekilli” — bunga fahmim yetdi va odam-mushuk guruch yemasligini donolarcha taxmin qildim. Lekin shoxlarda mevalar ko‘rinmasdi. Bu paytda odam-mushuk yana daraxtga tirmashib chiqdi, bir necha yaproqni avaylab uzdi, ularni og‘ziga soldi va dam menga, dam yaproqlarga imo qilganicha yana yerga tushdi.

Mollarning bu yemishi umuman e'tiborimni tortmaganidan odam-mushukning afti, ehtimol, g'azabdan tirishdi. Uning nega jahli chiqayotganligiga hayron edim, mening nimadan noroziligimni u bilmasdi.

Nihoyat, yaproqlarni tatib ko'rishga qaror qildim, biroq ularni odam-mushuk uzatsin. Bu safar ham u hech narsani tushunmaganga o'xshaydi. G'azabim o'rmini shubha egalladi: balki oldimda turgan mavjudot ayoldir? Ehtimol, Marsda ham erkaklar va ayollar bir-birlariga yaqinlashmasdan muomalada bo'larlar? Yoki aytishning o'zi dahshat — ushbu taomil barcha odamlar o'rtasidagi muomalaga taalluqlidir (bir necha kundan keyin bu taxminim to'g'ri chiqqanligi ma'lum bo'ldi). Mayli, imo-ishorasini tushunmayotgan kimsa bilan janjallashib bo'lmaydi. Yaproqlarni terib oldim va odatim bo'yicha ularga qo'limni artdim, chunki qo'lim iflos va undan qon sizib turgandi. Keyin yaproqning bir chetini chaynab ko'rdim va uning mazali va shiradorligidan hayratga tushdim. Og'zimdanda sharbat tomgandi, shu zahotiyoq odam-mushuk u zoye ketishiga yo'l qo'ymaslik niyatida turgan joyidan saphidi. “Bu yaproqlar juda qimmatli, shekilli, — xayoldan o'tkazdim. — Atrofimiz o'rmon bo'lsa, u birgina yaproqqa nega shunchalar qaltiraydi? O'zi, bu yerda hamma narsa g'aroyib!”

Ketma-ket ikki yaproqni hazm qilgach, biroz boshim aylanganini sezdim. Xushbo'y sharbat butun badanimga singib, unga shirin orom bergandi. Mudray boshladim, ammo uxlab qolmadim, chunki bu

¹ Bu o'rinda muallif konfutsiylikning qat'iy axloqiy qoidalari, jumladan, miloddan avvalgi III asrdagi Men Szining “Agar erkak va ayol bir-biriga yaqinlashmasdan muomalada bo'lsalar, bu taomillarga muvofiqdir” degan fikri ustidan kinoya qilmoqda.

afyun qo‘lida shirakayf bo‘lgan paytdagidek badanini uyg‘otuvchi bir tomchi ham bor edi. Yana bir yaproqni ushlab turgandim, lekin qo‘limni ko‘tarishga holim kelmadi. O‘zimning ustimdan kulib (bu kulgi yuzimda aks etgan-etmaganini bilmayman), daraxtga suyandim, ko‘zimni yumdim va boshimni chayqadim. Shu daqiqadayoq kayf hissi tarqaldi, endi butun badanim, terimdagi har bir teshikcha xandon otardi. Ochlik va tashnalik unut bo‘lgandi, yuvingim kelmasdi, kir, ter va qon endi azob bermayotgandi.

O‘rmon yorishib ketgandek tuyuldi, kulrang havorisoladagidek — sovuq ham, dim ham emasdi, yashil daraxtlar qandaydir mayin shoirona latofat kashf etgandi. Rutubatli qo‘lansa hid go‘yo pishib o‘tib ketgan qovundek quyuq totli is bilan almashgandi. Yo‘q, bu huzur emas, balki maftunkor sarxushlik edi. Ikkitagina yaproq menga g‘oyibona kuchquvvat baxsh etdi va hozir Marsning kulrang havosida o‘zimni aynan suvdagi baliqdek his etardim.

Avval bunday o‘tirishni yoqtirmasam ham hozir cho‘kkaladim va boquvchimni sinchiklab kuzatdim. Undan dilsiyohligim o‘tib ketdi, u yoqimtoy bo‘lib qolgandi.

Odam-mushuk shunchaki orqa oyoqlarida yuradigan va kiyingan bahaybat mushuk emas ekan. Xuddi ana shu kiyimi yo‘q. Kulib yubordim, men ham ko‘ylagim va tuflimni yechdim: sovqotmasang, juldur ust-boshni gavgandga ko‘tarib yurishga ne hojat? Lekin shimimni yechmadim — uyalganimdan va to‘pponchani o‘ylab (uni qayishimga osib yura olardim) emas, balki cho‘ntak bo‘lmasa, gugurtni

yo‘qotib qo‘yishim mumkin edi. Yana odam-mushuklar kishanlashmoqchi bo‘lsa-chi?

Shunday qilib, uning tanasi uzun va oriq, oyoqlari va panjalari kalta edi (odam-mushuklar tez yugurishlari, lekin sekin qimirlashlariga ajablanmasa bo‘lardi; ular meni uzoq vaqt chirmaganliklari yodimga tushdi). Odam-mushukning bo‘yni odatiy, ammo pitrak: boshi orqa tomonigacha o‘girila olardi. Beti katta, ko‘zlari yumaloq, ichiga kirgan, ular ustida boshidagi kabi kalta soch qoplagan do‘ngpeshana. Burun va og‘iz birlashib ketgan, mushuklarniki kabi bejirim emas, balki cho‘chqalarnikidek qo‘pol. Quloqlari kichik va uzun. Tanasi kulrang, nozik va yaltiroq yung bilan qoplangan bo‘lib, uzoqdan qushning qanotlaridek yashil tuslanadi. Qornida sakkizta qora nuqta — emchaklar. Odam-mushuklarning ichi qandayligini hozirgacha bilmayman.

Yangi tanishimning harakatlari sustga o‘xshardi, lekin aslida ular juda epchil edi, shuning uchun biror marta oldindan uning niyatlarini uqib olmadim. Unga xos yagona xislat — o‘ta gumondorligiga fahmim yetdi, xolos. Uning qo‘l-oyoqlari bir daqiqa ham tek turmasdi, buning ustiga oyoqlari ham qo‘llaridek chaqqon. U ko‘pincha sezgirligini ishga solardi: bir joyni paypaslab ko‘rardi, boshqa yerni artardi yoki shunchaki teginardi. Qisqasi, pitir-pitir chumoliga o‘xshardi.

Nega u meni bu yerga olib keldi, yana yaproqlar bilan siyladi? U bilan juda gaplashgim kelardi, ammo qanday qilib? Axir tilini bilmayman-da.

Uch oydan keyin mushukcha bilan gaplasha oladigan bo'ldim. Malay tilini yarim yilda o'rganish mumkin, mushuk tilini esa yanada tezroq. Bu tilda bor-yo'g'i 400–500 so'z bor, ularni unday yoki bunday ishlatib, nima xohlasangiz ayta olishingiz mumkin. To'g'ri, bu taqchil so'zlar zaxirasi bilan ko'pgina tushuncha va fikrlarni ifoda qilishning iloji yo'q, ammo odam-mushuklar bu holatlar uchun ajoyib vositani o'ylab topganlar — umuman gapirmaslik. Gapda sifat va ravishlar juda kam, ot ham tanqis. Masalan, afyun daraxti bilan bog'liq hamma narsa quyidagilar: yo'g'on afyun daraxt, kichik afyun daraxt, yumaloq afyun daraxt, ingichka afyun daraxt, xorijiy afyun daraxt, katta afyun daraxt bilan chegaralanadi, holbuki amalda ular turlicha daraxtlardir. Olmosh ko'p ishlatilmaydi, zero otlarni almashtirmaslikni afzal ko'rishadi. Ba'zan bolalar shunaqa gapiradi. Bir nechta otni yodda saqlab qolsang — so'zlashaverasan, fe'llarni esa imo-ishora bilan tushuntirasan. Ularning yozuvi ham bor: mo'jazzgina minoracha yoki budda ibodatxonachasiga o'xshash kulgili belgilar, biroq ularni o'rganish juda qiyin. Oddiy odam-mushuklar nari borsa ana shunday yigirmatagacha belgini bilishadi.

Katta Chayon — do'stimni shunday atashardi, ko'pgina minorachalarni yodda saqlab qolgandi va hatto she'r to'qiy olardi. Hech qanday fikr bildirmaydigan bir nechta chiroyli so'zlarni qatorga qo'y-sang — mushuklar she'ri tug'iladi: qimmatbaho varaq, qimmatbaho gul, qimmatbaho tog', qimmatbaho mushuk, qimmatbaho qorin... Katta Chayonning

“Tarixni o‘qiganda paydo bo‘lgan tuyg‘ular” she’ri shunday jaranglardi. Odam-mushuklarning o‘z tarixi va yigirma besh ming yillik tamadduni bor ekan.

Gaplashishni o‘rganib, hamma narsani tushundim. Katta Chayon Mushuklar davlatida mo‘tabar zot: katta yer egasi va ayni paytda siyosiy arbob, shoir va harbiy edi. Butun boshli afyun daraxtlar o‘rmoniga ega bo‘lganligi uchun katta yer egasi hisoblanardi. Afyun yaproqlari odam-mushuklarning eng taniq taomiga aylangandi, bu esa o‘z navbatida afyun daraxtlarning tarixi bilan bog‘liq. U buni isbotlash uchun bir nechta tarixiy zarvaraqlarni (odam-mushuklarda kitob o‘rniga bo‘yi ikki quloch va qalinligi yarim qarich bo‘lgan, har birida o‘n beshtacha juda murakkab belgilar o‘yib yozilgan tosh plitalari ishlatiladi) ko‘rsatib, ular bundan besh yuz oldin dehqonchilik bilan kun kechirganliklari va Mushuklar davlatiga afyun yaproqlarini qandaydir chet ellik olib kelganligini tushuntirdi. Avvaliga bu yaproqlarni faqat yuqori mansabdor shaxslar iste’mol qilgan, keyinchalik esa ularni ko‘p keltirila boshlangach, boshqalar ham ishqiboz bo‘lib qolishgan. Ellik yil ham o‘tmay bu yaproqlarni iste’mol qilmaydigan fuqarolar istisnoga aylandi. Afyun yaproqlarini iste’mol qilish juda yoqimli va manfaatli, shundan keyin o‘ylaringni tizginlay olmaysan, biroq qo‘l va oyog‘ing ishlamay qoladi. Shu sababli dehqonlar ko‘p o‘tmay ekin-tikin qilmay qo‘ydilar, hunarmandlar kasbini tashladilar. Hamma dangasa bo‘lib qolganini ko‘rgan hukumat afyun yaproqlarini iste’mol qilishni taqiqlaydigan farmon chiqardi. Biroq bu taqiq joriy etilgan kunning ertasigayoq

imperatorning rafiqasi g'am-g'ussadan imperatorning betiga uch bor tarsaki tortib yubordi (Katta Chayon menga navbatdagi tarixiy zarvara qni namoyish qildi), bundan imperator duv-duv ko'z yoshi to'kib yig'ildi. Shuning uchun o'sha kun oqshomidayoq yangi farmon chiqdi: afyun yaproqlari "davlat taomi" deb hisoblansin. Katta Chayon mushuklar tarixida buningdek shonli va rahmdil ish bo'lmaganligini aytdi.

Afyun yaproqlari davlat taomi maqomini olgandan keyin mushuklar tamadduni avvalgiga qaraganda bir necha barobar tezroq rivojlana boshladi: afyun yaproqlari jismoniy mehnatga ishtiyoqni so'ndirdi, bu butun kuch-g'ayratni ma'naviy faoliyatga qaratish imkonini berdi. Ayniqsa, she'riyat va san'at jadal taraqqiy etdi: so'nggi to'rt yuz yil mobaynida mushuk shoirlar avvalgi yigirma besh ming yillik tarixlari davomida qo'llanilmagan yangi so'z birikmalarini, masalan, "qimmatbaho qorin"ni she'riyat tiliga kiritdilar.

Ammo bu jamiyatda ma'lum kelishmovchiliklar paydo bo'lmaganini bildirmasligi tushunarlidir. Uch yuz yil avval afyun yaproqlari hamma joyda yetishtiriladigan bo'ldi, biroq odamlar ularni qancha ko'p iste'mol qilganlari sari shu qadar dangasa bo'lib bordilar. Oxir-oqibat afyun daraxtlarini ekishga odam ham topilmay qoldi. Shunda kutilmaganda beqiyos suv toshqini ro'y berdi (Katta Chayon buni menga aytayotganida rangi quv o'chdi: ma'lum bo'lishicha, odam-mushuklarning dunyoda eng qo'rqadigan narsasi suv ekan). Toshqin juda ko'p afyun daraxtlarini oqizib ketdi. Bu yerdagi aholi boshqa narsalarsiz kun kechira oladilar, lekin afyun yaproqlarisiz

bekorchilik va dangasalikka berila olmayotgandilar, shuning uchun hamma joyda qaroqchilik avjiga chiqdi. Sudda ko‘rilayotgan ishlar shu qadar ko‘payib ketdiki, hukumat yana bitta o‘ta insonparvarlik farmonini chiqardi: afyun yaproqlarini o‘g‘irlash jinoyat hisoblanmasin. So‘nggi uch yuz yil bosqinchilik davri bo‘ldi, ammo bu chakki emasdi, chunki qaroqchilik shaxs erkinligidan dalolat berardi, erkinlik esa odam-mushuklarning oliy qadriyati edi¹.

– Shunday ekan, nega siz daraxtni ekishni davom ettirmoqdasizlar? – so‘radim men. Mushuk tilida bu gapni shunday ifoda qilish talab qilinadi: boshni chapga burish (“shunday ekan” so‘zini bildiradi), ko‘zni ikki marta qisish (“nega”), suhbatdoshi ko‘ksiga barmoqni qadash (“siz”) va “daraxt” so‘zini ikki marta takrorlash (birinchi holatda bu fe‘l vazifasini o‘taydi) kerak. “Davom ettirmoqdasiz” so‘zini ishlatish shart emasligi uchun uni ishora orqali bildirib o‘tirilmaydi.

Katta Chayon og‘zini yopdi. Odam-mushuklarning og‘zi hamma vaqt ochiq turadi va u vaqtincha yopilsa, qoniqishni yoki chuqur o‘yga tolganlikni anglatadi. Katta Chayon hozir afyun daraxtini faqat bir necha o‘n dunyoning eng nufuzli og‘zi kattalari: siyosiy arboblari, harbiylar va shoirlar (ular ayni paytda katta yer egalari ham) ekishlarini aytdi. Ular afyun

¹ Izoh: mushuklar tilida “erkinlik” so‘zi ma‘nosiga ko‘ra bunday xitoycha so‘zga mos tushmaydi. Odam-mushuklar “erkinlik” deb boshqalarga zo‘ravonlik qilishni, birgalikda faoliyat olib borishdan voz kechishni, o‘zboshimchalikni ataydilar... Shuning uchun faqat erkaklar va ayollargina emas, barcha odamlar ham bir-biridan ayri bo‘lib qolganlar. Erkin odam boshqalarning unga teginishiga yo‘l qo‘ymaydi. Odam-mushuklar to‘qnash kelib qolganlarida iltifotlarini so‘rashish yoki o‘pishish bilan emas, balki bir-birlariga orqa o‘girib olib bildiradilar.

daraxtini ekmasliklarining iloji yo‘q, aks holda hokimiyatni qo‘ldan boy beradilar. Siyosiy arboblar uchun afyun daraxtlari — imperator bilan yuz ko‘rishishning yagona vositasidir. Harbiylar uni armiya yemishi sifatida ishlatadilar, shoirlarga esa u kuppa-kunduz alahlash imkonini beradi. Umuman olganda, afyun yaproqlari cheksiz qudratdir, ular tufayli umr bo‘yi o‘zboshimchalik qilish mumkin. Yuqori martabali odam-mushuklar lutfidagi “o‘zboshimchalik” so‘zi — eng nazokatli tushunchadir.

Afyun daraxtlari o‘rmonini qo‘riqlash — Katta Chayon va boshqa katta yer egalarining asosiy vazifasidir. Ular o‘z armiyalariga ishona olmaydilar, chunki mushuk askarlar chinakam erkinlik tarafdorlari sifatida faqat afyun yaproqlarini paqqos tushirishni qoyillatadilar va buyruqqa bo‘ysunish nima ekanligini bilmaydilar. Askarlar o‘z xo‘jayinlarini tez-tez o‘marib turadilar — odam-mushuklar nuqtayi nazariga ko‘ra bu mantiqiydir (har holda Katta Chayon shunday fikrda edi). Afyun o‘rmonlarini chet elliklar qo‘riqlaydi. Har bir katta yer egasi bir nechta xorijiy yollanma qo‘riqchiga ega bo‘lishga majbur. Chet elliklardan qo‘rqish — mushuklarning azaliy xususiyatlaridan biridir. “Erkinlik” deb atalgan tushunchaga muhabbat tufayli mushuk askarlar qotillik qilmasdan hech bo‘lmasa uch kun yashay olmaydi, xorijliklar bilan urushish esa — ular uchun mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ishdir. Katta Chayon Mushuklar davlatida o‘zaro qirg‘inga intilish kundan-kunga ortib borayotganligini mamnuniyat bilan qo‘shib qo‘ydi, bunda qotillik usullari deyarli xuddi she‘riyat qonuniyatlaridek nafisdir.

– Qotillik o‘ziga xos san’atga aylanibdi-da! – uning gapini ma’qullagan bo‘ldim. Mushuklar tilida “san’at” so‘zi yo‘q edi, mening uzoq tushuntirishlarimdan biror narsani anglamadi, lekin baribir bu xitoycha so‘zni yodda saqlab qoldi.

Qadimda odam-mushuklar chet elliklar bilan jang olib borishgan va hatto ularni mag‘lub etishgan, biroq so‘nggi besh yuz yil mobaynida o‘zaro qirg‘in oqibatida buni yoddan ko‘targandilar, butun sa’y-harakatlarini esa ichki janjallarga qaratadigan va xorijliklardan juda qo‘rqadigan bo‘lib qoldilar. Chet elliklar qo‘llab-quvvatlamasa, ularning imperatori ham o‘z dasturxonida bironta ham afyun yaprog‘ini ko‘rmasdi.

Uch yil muqaddam Mushuklar davlatiga bir havo kemasi uchib kelgandi. Qayerdanligini bu yerdagi aholi bila olmadi, ammo ular dunyoda qanotsiz ulkan qushlar borligini esda saqlab qoldilar.

Bizning kemamiz uchib kelganida odam-mushuklar xorijliklar kelganligini bilishdi, lekin ular men ham marslik ekanligimga ishonchlari komil edi: bu mavjudotlar Marsdan boshqa sayyoralar borligini tasavvur qila olmasdilar.

Katta Chayon shu zahotiyiq boshqa katta yer egalari bilan o‘z afyun o‘rmonlarini qo‘riqlash uchun chet elliklarni qo‘lga tushirish maqsadida kemamiz qo‘ngan joyga yugurib ketishdi. Nimagadir avvalgi barcha chet ellik qo‘riqchilar o‘z vatanlariga qaytib ketgan, shu sababli darhol yangilarini yollash zarur edi.

Katta yer egalari meni bir-birlariga navbat bilan berib turishga kelishdilar, zero so‘nggi vaqtlarda xorijliklarni yollash oson bo‘lmay qolgandi.

Ular turqim mushuklarniki kabi emasligini ko'rib, jon-ponlari chiqib ketdi, biroq keyin do'lvarligimini uqib qolishdi va meni xizmatga taklif qilmasdan, oddiygina qo'lga olishga qaror qilishdi. Mushuklar davlatining haqiqiy fuqarolari sifatida ular o'ta mug'ambir va ba'zan tavakkalchilik qilishga qodir edilar. Agar men birinchi bo'lib kuch ishlatganimda ular darhol qochib qolgan, lekin rejalaridan voz kechmagan bo'lishlarini hozir tushunib turgandim. Buning ustiga o'zimga yemish topa olmagan bo'lardim. Umuman, o'shanda o'q uzmaganimdan mamnunman. Biroq ikkinchi tomondan, ular meni qo'lga olib, mutlaqo mensimay qo'ygan bo'lardilar. Endilikda qandaydir shartlar to'g'risida men bilan g'aplashmaslik mumkin bo'lib, biroz yemish berib tursalar kifoya qilardi. Ittifoqchilarning niyatlari ham o'zgargandi: tez orada men umumiy mulkdan xususiy mulkka aylanib qoldim. Katta Chayon o'z muvaffaqiyatidan nihoyatda g'ururlanardi, chunki qasamyodga xiyonat qilish ham ularning "erkinlik" tushunchasiga kirardi.

Ular meni kishanlangan holda qayiqqa o'tqazdilar, o'zlari suvdan qo'rqib, quduq-kulba tomon qirg'oq bo'ylab chopib ketdilar. Agar qayiq to'ntarilib ketganida, buning sababi omadsizligim bo'lardi, albatta. Qayiq quduq-kulba yaqinidagi sayozlik joyga kelib to'xtashi kerak edi.

Ular meni kulbaga olib kirib tashlab, o'zlari afyun yaproqlarini yeyish uchun uylariga tarqalib ketishdi. Bunday qimmatbaho narsani o'zing bilan olib yurish nihoyatda xavfli, shuning uchun odam-mushuklar uni uylarida iste'mol qilishni ma'qul topishadi.

Katta Chayonning o'rmonzori mening o'ziga xos turmanga boshqalardan eng yaqini edi, ammo u ham oldimga darrov kelmadi: afyun yaproqlarini iste'mol qilgandan so'ng biroz mijja qoqish kerak bo'larkan. Katta Chayon raqiblari tez orada kelmasa kerak deb o'ylagan ekan, ularning paydo bo'lishi aslo kutilmagan holat bo'ldi. "Yaxshiyamki, bu "san'at" yordam berdi!" – dedi u to'pponchamni zavqlanib ko'rsatar ekan. Endilikda u hamma notanish narsani "san'at" deb atardi.

Undan kishanlarim nimadan yasalganini so'radim. U yelkasini qisib chet eldan olib kelinganligini aytdi.

– Chegara ortida juda ko'p foydali narsalar bor, biroq ularga taqlid qilishning hojati yo'q. Davlatimiz dunyoda eng qadimiydir! – Katta Chayon mamnuniyat bilan bir on og'zini yopdi. – Ammo yo'lga otlanganingda yoningda kishanlar bo'lgani foydadan xoli emas.

U ustimdan kulyaptimi yoki jiddiy gapiryaptimi, tushunmadim. Hozir meni u tunni qayerda o'tkazgani qiziqtirayotgandi, chunki o'rmonda boshqa kulba ko'zga tashlanmasdi. U savolimga javob berishni istamasdan imperator huzuriga olib borsa bo'ladigan biron-bir "san'at"ni ko'rsatishni so'radi. "Erkin" jamiyatda har bir kimsa qandaydir o'z siriga ega bo'lishi kerak degan qarorga kelib, gugurtimni berdim va uning oilasi bor-yo'qligini so'radim.

U bosh silkitdi.

– Afyun yaproqlarini yig'ib bo'laylik, mening uyimga boramiz.

– Uying qayerda?

– Poytaxtda. U yerda imperator va juda ko‘p xorijliklar yashaydi. Sen o‘z do‘stlaringni ko‘rishning mumkin.

– Men Yerdan uchib kelganman, Marsda hech kimni tanimayman.

– Baribir, sen chet elliksan, xorijliklar esa hami-sha bir-biri bilan do‘st bo‘ladi.

Tushuntirishni davom ettirishning ma‘nisi yo‘q. Yaxshisi, o‘z ko‘zim bilan Mushuklar shahrini ko‘rish uchun afyun yaproqlarini yig‘ib olishning tugallanishini kutish va tezroq yo‘lga tushish lozim.

7

Men hech qachon Katta Chayon bilan do‘stlashib keta olmayman deb hisoblardim, u, aftidan, do‘st bo‘lishni samimiy xohlar, biroq samimiyligi barcha odam-mushuklarniki kabi juda cheklangandi. U faqat manfaati yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lganlar bilan do‘stlashmoqchi edi. Uch yoki to‘rt oy mobaynida halok bo‘lgan do‘stimning murdasini dafn qilish istagi bir daqiqa ham xayolimni tark etmasdi, lekin Katta Chayon bunga har tarafdama xalaqit berayotgandi. U Marsga uchib kelishimdan yakka-yu yagona maqsadim — afyun daraxtlarini qo‘riqlashdan iborat deb faraz qilardi. Odam-mushuklar do‘stlik burchi to‘g‘risida, aftidan, umuman tasavvurga ega emaslar. Katta Chayon doim: “Og‘ayning o‘ldi-ku, endi unga qarashning nima keragi bor?” degani-degandi. U kemamiz halokatga uchragan joy qaysi tomonda ekanligini yashirar va meni muntazam kuzatib yurardi. Daryo qirg‘og‘i bo‘ylab borsam, kemamiz siniqlarini topaman degan o‘yda zimdan yo‘l izlardim, ammo

har safar afyun o'rmonidan chiqishim bilanoq Katta Chayon qayerdandir ro'paramda paydo bo'lardi. U hech qachon meni orqaga qaytishimga majburlamasdi, balki yig'loqi bevaniki singari arzlari va faryodlari bilan gapiga ko'ndira olardi. Ichida ustimdan kulayotganligini, meni ahmoq deb hisoblashini tushunardim, biroq o'zimni idora eta olmayotgandim. Afyun o'rmonzorida u men bilan uchrashishni taqiqlagan yana qandaydir mavjudotlar yashardi. Uzoqdan ularni ko'rishim va o'sha tomon yurishim bilan ular darhol g'oyib bo'lardilar. Bu shubhasiz, katta Chayonning buyrug'iga ko'ra shunday bo'lardi.

Afyun yaproqlarini boshqa yemaslikka qaror qildim.

– Ularni yemasa bo'lmaydi, – Katta Chayon yumshoq qat'iyat bilan menga uqtirardi. – Ularsiz tomoq quruqshab qoladi, suv esa uzoq. Yuvinish, cho'milish kerak — qanchadan-qancha ovoragarchilik! Biz buni sinab ko'rganmiz: ularni yemaslik mumkin emas. Boshqa ovqatlar juda qimmat, lekin gap faqat pulda emas. Asosiysi, boshqa yemaklar mazali emas, ba'zan esa zaharli. Agar afyun yaproqlarini yemasang, o'lib qolishing ham mumkin!..

Shu joyda basharasini ko'z yoshlari bilan yuvishga tushardi, biroq men bu uning odatiy hiylasi ekanligini bilardim va bunga uchmasdim. Agar afyun yaproqlarini iste'mol qiladigan bo'lsam, ana shu odam-mushuklar kabi bo'lib qolardim, Katta Chayon esa xuddi shuni xohlardi! Yetar, busiz ham soddadilman. Chala o'lik dangasaga aylanmasdan yana insoniy hayotga qaytishim kerak: odamlardek ovqatlanishim, yuvinishim zarur. Yigirma ming yil

afyun domida bo'lgandan ko'ra ikki hafta oqilona va to'laqonli yashashga rozi bo'lishni afzal ko'raman. Bularning hammasini Katta Chayonga to'kib soldim, lekin u, albatta hech narsani tushunmadi va meni miyasi yo'q jinni deb hisoblagani aniq.

Uch kungi adi-badilardan keyin to'pponchani qo'lga olishimga to'g'ri keldi. Ha, sharaf va adolatni unutmaganim yo'q, to'pponchani yonimga qo'yib, Katta Chayonga dedim:

– Agar afyun yaproqlarini yeyishga majburlaydigan bo'lsang, seni o'ldiraman. O'zing hal qil!

Katta Chayon to'pponchamni tortib olishga ham urinmasdan o'zini chetga oldi. Unga changalimdagi o'q otar qurolim cho'pdan xavfli emasdi. Unga to'pponcham emas, o'zim kerak edi.

Nihoyat u murosaga kelishni taklif qildi: har tong bitta afyun yaprog'i yeyishim kerak.

– Havodan zaharlanmaslik uchun bittagina yaproqcha, atigi bittagina kichkina va qimmatbaho yemish!

To'pponchamni yashirib qo'ydim va bir-birimizga qarama-qarshi o'tirib oldik. U menga yemish berishni va'da qildi, lekin suv masalasi qiyinligini aytdi: uni daryodan ko'zada olib kelish kerak bo'ladi.

– Nega har kun shunchalik olisga yugurib yurish kerak, ustiga-ustak ko'za bilan? Bu aqldan emas. Hech bir tashvishsiz afyun yaproqlarini yeyish ma'qulroq emasmi? O'zining baxtiyor bo'lishini tushunmaydigan qanaqa jinnisan! – mulohaza yuritardi Katta Chayon, biroq fikrida qattiq turib olmadi, faqat o'zi bilan birga bo'lishim kerakligini aytdi. U yo'lini qilib qochib ketishimdan qo'rqardi,

albatta. Ammo xohlasam, u yonimda bo'lsa ham qochib keta olaman-ku. Buni eshitib, u rosa o'n daqiqa og'zini yopib turdi, men hatto qo'rquvdan o'lib qolmasmikim deb xavfsiradim.

– Men bilan birga yurishingga hojat yo'q, ont ichaman, qochib ketmayman! – taskin berdim unga.

U ohista boshini chayqadi:

– Bolalargina qasamyod qiladi.

Bunday beandishalikdan jahlim chiqib, birinchi marta kuch ishlatdim va Katta Chayonning sochlari yulib oldim. U buni hecham kutmagandi. Bir siqim sochini va balki shuncha terisini ham qurbon qilib, mendan uzoqroqqa qochib qoldi, so'ng avvallari odam-mushuklar o'rtasida qasamyod qilish keng yoyilganini, ammo so'nggi besh yuz yil davomida uni shu qadar ko'p beradigan bo'ldilarki, endilikda faqat hazillashib ont ichishlarini tushuntirdi. Bolalar qasamyodga amal qilish shart emasligini bilganlari uchun ham ont ichishni yaxshi ko'rarkanlar. Katta Chayon bularning hammasini hasrat bilan, yumdalgan joyini silagan holda gapirardi.

Ertasi kun tongda daryoning sayoz joyiga yetib bormasimdan yana zir yugurayotgan soyalarni ko'rdim: ular kechagidan ko'p edi. Gap nimadaligini bilish uchun cho'milib olishim kerak, Katta Chayon bilan esa keyinchalik hisob-kitob qilaman! Suvga tushib, o'zimni yuvinayotgandek ko'rsatib, galani kuzata boshladim. Katta Chayonning orqasida bo'yi iyagiga yetadigan yaproqlarning katta quchog'i bilan odam-mushuk turardi. Katta Chayon imlaganidan keyin uning xizmatkori gala bo'ylab odimlay boshladi va changalidagi yaproqlar quchog'i asta-sekin

kamayaverdi. Shunda Katta Chayon vaziyatdan foydalanib afyun yaproqlari bilan savdo qilayotganligi, yana ularni qimmat narxda pullayotganiga guvoh bo'ldim.

Kulishni yaxshi ko'raman, ammo hozir xandon otadigan payt emasdi. Odam-mushuklar mendan, chet ellikdan juda qo'rqishardi. Demak, bu maynavozchilikni Katta Chayon o'ylab topgan. Uning adabini berib qo'yish kerak, aks holda endi hech qachon ertalabki cho'milishdan rohatlanmaydigan bo'laman. Agar odam-mushuklar men bilan birga suzmoqchi bo'lganlarida e'tiroz bildirmasdim, daryo shaxsan o'zimniki emas. Lekin bir odam cho'milayotganda yuzdan ortiq ko'zlar buni kuzatib tursa, ustiga-ustak ular oldi-sotdi bilan mashg'ul bo'lishsa, bu — ablahlikdir.

Gap nimadaligini bilish uchun Katta Chayonni emas (u menga haqiqatni aytishiga ishonib bo'lmasdi), balki o'sha bekorchilardan birini tutib olmoqchi edim. Shuning uchun sezdirmasdan qirg'oqqa chiqish va odam-mushuklar tomon tashlanish maqsadida sekin orqaga tisarila boshladim.

Lekin endigina yugurishga tushgandim, cho'chqani bo'g'izlaganlaridan ham jirkanch, yovvoyilarcha o'kirish eshitildi. Daf'atan qilgan hujumim zilzildan ham kuchliroq sarosima uyg'otdi. Odam-mushuklar zing'illab, bir-birini turtib, yiqilishib, yana sakrab turishib yelib-yugurishardi... Daryo qirg'og'i bir zumda bo'm-bo'sh bo'lib qoldi, u yer-bu yerda endi qocha olmaydigan jarohat olganlar yotardi. Ulardan birini turg'azdim: ko'zi yumuq, nafas olmaydi! Boshqasini o'rnidan ko'tardim — oyog'i singan bo'lsa ham tirik. Keyinchalik yaralanganni

so‘roq qilganim uchun o‘zimni koyidim. O‘ylamasdan qilgan narsangni kechiraversang, odamlar hech qachon insonparvar bo‘lmaydi.

Dahshatdan chalajon odam-mushukni gapirishga, tag‘in chet ellik bilan gaplashishga majburlash — dunyodagi eng mushkul ish. Nihoyat, bu uni o‘ldirishi mumkinligini tushunib, urinishlarimni to‘xtatdim. Jabrlanganlarning ikkitasi hali ham yerda yotardi, qolganlari ildam chetga sudralardilar. Ularni quvlab yurmadi.

Juda ko‘ngilsiz voqeaga yo‘liqdim! Mushuk qonunlarini kim biladi deysiz? To‘g‘risi, bu baxtiqarolarni o‘z qo‘lim bilan o‘ldirmadim, ammo ochiq‘ini aytganda, bunga sababchi bo‘ldim. Aytganday, bu chalkashlikni Katta Chayonning o‘zi hal qilaversin, hozir esa ana shu holatdan foydalanib kemamiz halokatga uchragan joyga borib kelish kerak. Katta Chayon o‘ziga kelgach, meni izlagani yugurgilaydi, ana shunda uni siquvga olaman, agar yordam berishni xohlamasa, unikiga qaytmayman. Qo‘rqitib tovlashmi? Biroq bu aldamchi va manfur bilan boshqacha muomala qilib bo‘lmaydi.

To‘pponchamni yashirib, boshimni xam qilib, dar-yo bo‘ylab borardim. Quyosh rahm-shafqatni bilmay kuydirardi va o‘zimga bir narsa yetishmayotganini his etayotgandim. La‘nati afyun yaproqlari! Ularsiz quyosh jaziramasini va suvdan ko‘tarilayotgan zaharli bulutga tob bera olmasdim.

Mushuklar avliyosini bilmasdim, shu sababli o‘zimning beholligimni yashirish uchun faqat odam-mushuklarni koyish qolgandi. Fikrimga eng osoni — afyun yaproqlarini “jang maydoni”dan topish de-

gan o‘y keldi. O‘rmonzorga borib, butun bir shoxni sindirib olishim mumkin, ammo shu qadar olisga qaytib borishga erinayotgandim. Shuning uchun qirg‘oqqa qaytdim, qochib qolganlar tashlab ketgan bir nechta yaproqni topib, ulardan birini g‘ajidim va yana daryo bo‘ylab yo‘lga tushdim.

Ko‘p o‘tmay kulrang tepaliklar ko‘rindi. Kemamiz ular yaqinida qulaganligi esimda, ammo bu tepaliklarning qaysi tomonida bo‘lganligini bilmasdim. Jazirama chidab bo‘lmaydigan darajada edi. Yana ikkita yaproqdan keyin o‘zimni yengil sezdim. Atrofda birorta daraxt ko‘rinmaydi, dam oladigan joy yo‘q. Kemamizni topmaguncha yurishni davom ettirishga azm qildim.

Kutilmaganda orqa tomonimda qichqiriqlar eshitildi. Ular orasida Katta Chayonning ovozi taniydim, lekin o‘girilmasdan yo‘limda davom etdim. Ko‘p o‘tmay meni quvlab yetdi — u tez yugurardi. Uning yoqasidan tutib, qo‘rqitib jonini sug‘urib olmoqchi edim, biroq bunga qo‘lim ko‘tarilmadi: holi ayanchli edi — basharasi shishib ketgan, boshi va tanasi chaqa, juni suv kalamushinikidek yopishib qolgan. Uni kim do‘pposlagani bilan ishim yo‘q, lekin o‘takasi chiqqan va jarohatlangan Katta Chayonga rahmim keldi. U og‘zini ochib havoni simirdi va nihoyat zo‘rma-zo‘raki dedi:

– Tezroq, afyun o‘rmonzorini talon-toroj qilish-yapti!

Qahqaha otib yubordim, achinish hissim esa tarqalib ketgandi. Agar Katta Chayon hayotini himoya qilishimni so‘raganida, haqiqiy xitoylik sifatida darhol yordam qo‘lini cho‘zgan bo‘lardim. Ammo

katta yer egasining mol-mulkini kim himoya qiladi? Talon-toroj qilishayotgan bo'lsa, qilishaversin, mening nima ishim bor.

– Tezroq, afyun o'rmonzorini o'marishyapti! – takrorladi Katta Chayon ko'zlari qinidan chiqib ketayozib.

– Avval nima maqsadda tonggi tomoshani tashkil qilganingni gapirib ber, – talab qildim men.

Katta Chayon g'azabdan bo'yni titrab, tili arang kalimaga keldi:

– Afyun o'rmonini talon-toroj qilishyapti!

Agar jur'ati yetsa, meni bo'g'ishga tushardi. Lekin o'z so'zimda qattiq turib oldim va u butun haqiqatni aytmaguncha o'rnimdan qimirlamaslikka qaror qildim. Oxir-oqibat biz murosaga keldik: uning ortidan yuraman, yo'l-yo'lakay u hammasini tushuntiradi.

Ma'lum bo'lishicha, meni tomosha qilishgan odam-mushuklar u shahardan taklif qilgan zodagonlar davrasining vakillari ekan. Boylar hech qachon tong saharda turishmaydi, biroq cho'milishim o'ta noyob voqea edi; bundan tashqari Katta Chayon ularga eng a'lo afyun yaproqlarini keltirishni bo'yniga olgan ekan. Har bir zodagon bu tomosha uchun o'n milliy nufuz (Mushuklar davlatida asosiy pul birligi) to'lashiga, ularning har biriga ikkitadan a'lo, shirador afyun yaprog'i tekinga berilishiga kelishilgan ekan.

“Voy, nusxa-yey! Meni xuddi o'z mulkidek tomoshaga qo'ysa-ya!” – o'yimdan o'tdi, biroq Katta Chayonga g'azabimni to'kib solishga ulgurmasimdan o'zini oqlashga tushdi:

– Bilsang, milliy nufuz milliy nufuz-da. Birovning milliy nufuzini qo‘lga kiritsang, bu juda oliyjanob ish hisoblanadi. Sen bilan maslahatlashib olmagan bo‘lsam ham, – Katta Chayon juda tez odimlayotgandi, ammo bu o‘zini tobora kechirimli va nafislik bilan oqlashiga xalaqit qilmayotgandi, – sen bunday o‘tama’nili ishga qarshi bo‘lmasligingni bilardim. Sen doimgidek cho‘milasan, men bir dasta davlat nufuzini qo‘lga kiritaman, tomoshabinlar o‘z saviyasini oshiradi va hech kim ziyon ko‘rmaydi. Bu juda foydali ish!

– Ammo o‘lganlar uchun kim javob beradi?

– Bu arzimagan narsa! – harsillab javob berardi Katta Chayon. – Kimnidir o‘ldirib qo‘ysam, tovoniga bir nechta afyun yaprog‘ini uzatishim kifoya. Qonunlar — bu toshga o‘yilgan belgilar, xolos, yaproqlar esa hamma narsa. Hech kim sen birovni o‘ldirdingmi yoki yo‘qmi qiziqib o‘tirmaydi. Senga esa hatto bir dona afyun yaprog‘i ham to‘lanmaydi, chunki bizning qonunlarimiz chet elliklarga taalluqli emas. O‘zim xorijlik emasligimga afsuslanaman. Agar sen bu yerda, qishloqda, kimnidir o‘ldirib qo‘ysang, oq dumli kalxatlar maza qilishlari uchun murdani tashlab ketaver, shaharda bo‘lsa — sudga kirgin-da, ma’lum qil. Sudya senga iltifot bilan minnatdorchilik bildiradi.

Katta Chayonning menga havasi kelayotgandi, o‘zim esa sal bo‘lmasa yig‘lab yuborayozdim: “Bechora odam-mushuklar! Mana, umringiz ham nihoyasiga yetdi! Qani adolat?”

– Anavi o‘lganlarning ikkitasi boy odamlar. Ularning qarindoshlari sendan o‘ch olishni xohlashmaydimi?

– Istashadi, albatta. O‘rmonzorimga hujum qilganlar ham ular. Ular har bir qadamingni kuzatish uchun allaqachon ayg‘oqchilarini yuborishgandi. Sen o‘rmonzordan chetlashishing bilanoq ular hujum qilishdi. Tezroq yur!

– Nahotki inson afyun yaprog‘idan arzon tursa?

– O‘liklar — bu o‘liklar. Tiriklar afyun yaprog‘ini iste‘mol qilishlari kerak. Ketdik!

Balki tamagirlik kasali yuqqandir, ehtimol, Katta Chayon tomonidan aytilgan so‘nggi gap aqlimni kiritgandir, har holda undan milliy nufuzlarni so‘rashim kerakligi miyamga urdi. Agar ajoyib kunlarning birida uni tark etsam — biz Katta Chayon bilan hech qachon do‘st bo‘la olmaymiz, shekilli — qanday qilib tirikchilik o‘tkazaman? Mening yordamimda ishlab topilgan puldan ulushimni olishga haqqim bor. Boshqa vaziyatlarda bu hech qachon o‘yimga kelmasdi, ammo hozirgi holatimda hamma narsani ko‘zda tutish lozim. O‘liklar — bu o‘liklar, tiriklar afyun yaprog‘ini iste‘mol qilishlari kerak. Oqilona.

O‘rmonzorga yaqin qolganda to‘xtadim va undan so‘radim:

– Shu kunlarda qancha ishlab olding?

Katta Chayon dovdirab qoldi va ko‘zlarini chaqchaytirdi.

– Bor-yo‘g‘i ellik milliy nufuz, buning ustiga ularning ikkitasi qalbaki chiqdi. Tezroq yur!

Qat‘iy ravishda o‘girildim va ortimga qaytdim. U meni quvib yetdi:

– Yuzta! Yuzta!

To‘xtamayotganim uchun u bu raqamni mingtagacha olib bordi. Tomoshabinlar deyarli besh mingta

ekanligini bilardim, biroq u bilan savdolashib o'tirgim kelmadi.

– Mayli, besh yuzini berasan, aks holda alvido.

Katta Chayon kechikishning har daqiqasi unga afyun yaproqlarining yo'qotilishini tushunib turgandi va ko'z yoshini oqizgan holda rozi bo'ldi.

– Agar yana qachonlardir mening ustimdan xufiyona pul ishlab oladigan bo'lsang, o'rmonzoringa o't qo'yaman! – gugurt qutisini chertgan holda qo'shib qo'ydim.

U yana kallasini sarak-sarak qildi.

O'rmonzorda hech kim qolmabdi: aftidan, qaroqchilar yo'limizga ayg'oqchilar qo'ygan bo'lsa kerak va ular bizning yaqinlashayotganimizni xabar qilishga ulgurganga o'xshaydi. O'rmonzor chetidagi o'ttiztacha daraxt shipshiydam qilingandi. Katta Chayon hayqirib yubordi va hushidan ketgancha quladi.

9

Afyun o'rmonzori juda ko'rkam ko'rinardi. Qalin, yam-yashil, tillasimon-qizg'ish tomirchali yaproqlar kaftdan kattaroq. Eng shirador yaproqlardagi rang-barang dog'lar o'rmonzorni ulkan chipor gulguzorga aylantirgan. Kulrang havoni teshib o'tayotgan quyosh shu'lalari yaproqlarni yanada yorqin va jozibali qilardi. Ular bo'yoqlari deyarli oqarmagan, ammo o'tmish yillar tufayli nomaqbul ola-bulalikni yo'qotgan qadimiy rasmdek ko'zni qamashtirmas, balki yayratardi.

O'rmonzor oldida ertalabdan kechgacha behisob tomoshabinlar to'planardi. Aslida ular tomoshabin

emasdi, chunki bu olomonning ko‘zlari xushbaxtlik bilan yumilgan, burnilari mo‘jizali iforni hidlardi. Katta ochilgan og‘izlaridan esa so‘lak oqardi. Shamol esib qolsa, hammalari tik qotib turaverardi — faqat ularning bo‘ynilari chig‘anoqning muguzchalari kabi cho‘zilar va o‘girilardi. Biror obi-tobiga kelgan yaprog‘ to‘kilib qolardi. “Hidlovchilar” uning ohista tushishini ko‘rishmas va eshitmasdi, biroq burunlari bilan tuyishardi: ular shu ondayoq ko‘zlarini ochib, lablarini chapillatishardi. Biroq Katta Chayon hamisha bu tashnalardan ildamligini ko‘rsatardi. U go‘yo jun o‘ramidek dumalab kelardi va o‘z qimmatbaho yaprog‘ini terib olardi. Atrofdan chuqur xo‘rsinishlar eshitilardi.

Katta Chayon o‘rmonzorni qo‘riqlash uchun besh yuzta askarni yollab, bu yerdan bir kilometr-dan uzoqroq masofada joylashtirgandi, chunki ular birinchi bo‘lib o‘rmonzorni talon-toroj qila boshlagan bo‘lardilar. Askarlarni yollamaslikning iloji yo‘q, zero afyun yaproqlarini qo‘riqlash Mushuklar davlatida eng muhim vazifa hisoblanardi. Hamma askarlarning hech narsani himoya qila olmasliklarini bilardi, biroq ulardan voz kechish generallarni haqoratlashni anglatardi, Katta Chayon ezgu niyatli fuqaro bo‘lib, uni nimadadir ayblashlarini xohlamasdi. Lekin ular ko‘ngli sust ketishining oldini olish maqsadida qo‘shinni olisroqda saqlashayotgandi. Shamol kuchli, buning ustiga askarlar tomon esganida o‘rmonzor xo‘jayini askarlarni yana yarim kilometr narida bo‘lishga buyurardi. Agar Katta Chayonning yonida men bo‘lmaganimda askarlar uning buyruqlariga itoat etmagan va isyon ko‘targan bo‘lardilar.

Mushuklar davlatida “Xorijlik aksirsa — yuzta askar yiqiladi” degan naql bejiz yurmaydi.

Katta Chayonning qo‘shiniga yigirma nafar general qo‘mondonlik qilardi. Ushbu generallar zukko, adolatli, sodiq va ishonchli, biroq har bir daqiqada xo‘jayinning qo‘l-oyog‘ini tushovlab, o‘z-lari o‘rmonzorni o‘marishga tashlanishlari mumkin. Bu yerda men borligim uchungina ular talonchilik qilmas, balki sodiq va ishonarli bo‘lib qolayotgandilar.

Katta Chayonning g‘am-tashvishi boshidan oshib-toshib yotardi: generallarga ko‘z-quloq bo‘lib turish, shamolning esish yo‘nalishini kuzatish, askarlarni quvlab turish, tomoshabinlarni nazorat qilish talab etilardi. Yaqinda behuda isrof bo‘lmasin deb o‘ttizta to‘kilib yotgan yaproqni bir o‘tirishda iste‘mol qilishiga to‘g‘ri keldi. Aytishlaricha, qirqta yaproq yeganingdan keyin uch kun uxlamaslik mumkin, lekin to‘rtinchi kun marhum ota-bobolarining yoniga ravona bo‘lasan. Afyun yaproqlari shunaqa narsa: agar kam yesang, o‘zingni durust his etasan, ammo hech narsa qilging kelmaydi. Agar ko‘p iste‘mol qilsang, tog‘ni tolqon qilishing mumkin, lekin tez orada o‘lasan. Katta Chayon qo‘rqoq edi, yaproqlarni mukkadan ketib yeb bo‘lmaydi, biroq o‘zini idora eta olmasdi. Bechora Katta Chayon!

U kechki ovqatim cho‘g‘ini kamaytirdi, chunki qorning to‘q bo‘lmasa, tunni bedor o‘tkazasan. Amalda faqat o‘zim uning o‘rmonini qo‘riqlardim. Demak, meni och qoldirib, sillamni quritishi mumkin. Odamning xizmati qanchalik katta bo‘lsa, u shunchalik ko‘p azob tortishi kerak — mushuklar-

ning mantig'i shunaqa. Ammo men bunga chidamadim va tovog'imni sindirdim. Ertasiga meni yana to'yimli kechki ovqat kutardi. Vijdonim qiynalsa ham endi odam-mushuklar bilan qanday muomala qilishni biladigan bo'ldim.

Kun bo'yi shamol esayotgandi. Ushbu o'rmonga kelgan kunimdan beri ob-havo bunday bo'lmagandi. Yengil epkin esib turardi, u ham kun bo'yi bo'lmasdi: o'shanda afyun yaproqlari xiyol shafaq tusini olardi. Hozir esa ular muttasil titrar va bo'yoqlarning hamma ranglari bilan tovlanayotgandi. Tunda Katta Chayon generallar bilan o'rmon o'rtasida qandaydir yog'och sinch ko'tarishdi: bu menga mo'ljallangan qorovul minorasi ekan. Ular esayotgan shamol afyun deb atalishini va bu ob-havo o'zgarishidan dalolat ekanligini tushuntirdilar. Mushuklar davlatida faqat ikki mavsum bo'ladi: yilning birinchi yarmi — sokin mavsum, ikkinchisi — bo'ronli, sershamol va yomg'irli.

Ertalab qulog'imga uyqu aralash g'alati tovushlar chalindi. Kulbamdan chiqib, generallar safi oldida turgan Katta Chayonni ko'rdim. Uning qulog'iga kalxat dumining pati ilintirilgan, changalida uzun tayoq turardi. Generallar musiqa asboblariga o'xshash narsalarni ushlab turardi. Meni ko'rgach, Katta Chayon tayog'ini yerga urdi va generallar bab-ba-ravar o'z asboblarini qo'lga oldilar. Generallardan biri puflardi, ikkinchisi savalardi, qisqasi, barcha yigirmata asbob turli: baland, past, lekin hammasi quloqni qomatga keltiradigan, shovqinli tovush chiqarayotgandi. Generallarning ikkitasi nafasi qisib yiqildi, shunga qaramasdan ular puflashlarini da-

vom ettirardilar, chunki Mushuklar davlatida faqat davomli va shovqinli musiqa yuqori baholanardi.

Bu konsert uch soat davom etdi. Nihoyat Katta Chayon tayog'ini silkitdi, musiqa tindi va harsillagan generallar cho'kka tushdilar. Qulog'idagi kalxat patini qo'lga olgan Katta Chayon iltifot bilan menga yaqinlashdi:

– Vaqti keldi! Muqaddas mehrobgga ko'tarilib, ma'budlar nomidan afyun yaproqlari terilishini kuzatib borishingni iltimos qilaman.

Ularning musiqasidan boshim aylanib, kar bo'la-yozganimdan dastavval hech narsani tushunmadim. Keyin kulgim qistab ketdi, shunga qaramasdan Katta Chayon ketidan tushdim. U sochlarimga patni suqib qo'ydi, qorovul minorasiga ko'tarildi va ibodat qilishga tushdi. Yana musiqa jarangladi. Nihoyat u pastga tushdi va meni tepaga taklif qildi. Bolaligim yodimga tushib, yog'och narvondan yengil ko'tarildim. Katta Chayon tayog'ini silkitdi, generallar tarqab ketdi va nariroqqa tisarildi. Katta Chayonning buyrug'iga binoan ularning oldiga qo'lida tayoqlari bo'lgan bir talay askarlar yugurib keldi. Katta Chayon ularga minorani ko'rsatdi va askarlar menga hurmat bajo keltirayotgandek tayoqlarini ko'tardilar. Endi men Katta Chayonni hech shubhasiz juda sidqidildan sevadigan ma'budlar rolini ijro etayotganligimni uzil-kesil anglab yetdim. Bu vaqtda Katta Chayon askarlarga agar hosil terimi paytida atigi bitta yaproqni yashirishsa yoki yesalar, ma'budlar vakili askarlarni “qo'l chaqmog'i” bilan yakson qilishini tushuntirardi. Qo'l chaqmog'i anavi “san'at”dan otilib chiqadi. Generallar esa nazorat-

chi etib tayinlandilar, ular o'g'rilikni payqaganlarida o'z asboblarini chala boshlaydilar va Katta Chayon mendan qo'l chaqmog'imni chaqishni iltimos qiladi.

Askarlarga juft-juft bo'lish buyrug'i berildi: ulardan biri daraxtga chiqadi, ikkinchisi uzilgan yaproqlarni yig'ishtiradi. Menga yaqin daraxtlarda hech kim ko'rinmadi, chunki Katta Chayon askarlarni ular ma'budlar vakilining nafas chiqarishidan ham tosh bo'lib qotib qolishlari mumkinligidan ogohlantirgan ekan. Askarlar xo'jayin tomonidan gipnoz qilingandek ishga kirishdilar. Katta Chayon ular o'rtasida yana a'lo yaproqning o'ttiztasini paqqos tushirgan kabi bo'zchining mokisidek g'izillab yurardi. Uning tayog'i hamma vaqt askarlarning kallasini mo'ljal-lab turardi. Aytishlaricha, kelgusi yil hosil mo'l bo'lishini ta'minlash uchun afyun yaproqlarini te-rish paytida xo'jayin hech bo'lmaganda bitta askar-ni o'ldirishi va daraxt ostiga ko'mishi kerak ekan. Lekin katta yer egasida ma'budlar vakili sifatida haqiqiy chet ellik bo'lmasa, askarlar o'zlari xo'ja-yinni o'ldirishlari, barcha daraxtlardagi yaproqlarni sidirib olishlari, shoxlardan esa qurol, ya'ni tayoq yasashlari mumkin ekan. Mushuklar davlatida afyun daraxti tayoqlari bilan qurollangan qo'shin eng dah-shatli hisoblanadi.

Men xodachadagi to'tiqushdek qorovul mino-rasida turardim va o'zimni o'zim mazax qilardim. Baribir mushuklarga xos bo'lgan odatlarni buzishni istamasdim. Mahalliy aholini yaxshi o'rganib oli-shim kerak, buning uchun ularning barcha ishla-rida, bu qanchalik kulgili bo'lmasin, ishtirok etish darkor edi. Baxt yorlaqab, shabada esardi va issiq

u qadar qiynamayotgandi. Quyosh urmasligi uchun Katta Chayonga shlapa o'rniga ovqatning ustiga yopiladigan o'tdan to'qilgan qopqoqni olib kelishni buyurdim.

Askarlar oddiy odam-mushuklardan qulog'idagi patlari va qo'lidagi tayoqlari bilan ajralib turardi, xolos. Bu narsalar ularga oddiy aholi oldida ustunlik berardi, albatta, biroq hozir Katta Chayonning gipnozi ostida o'z qabiladoshlaridan ham ko'proq azob chekayotganga o'xshardilar. Ular ipak qurtlari dahadan turgan paytlaridagidek o'rmonni g'ajirdilar va ko'p o'tmay avval yaproqlar bilan quyuy qoplangan daraxt tanalari ko'zga tashlanib qoldi. Biroz vaqt o'tgandan keyin askarlar daraxtlarning ustlarini ham shipshiydam qildilar va hatto yaqin atrofimdagilarga ham kirishdilar. Lekin bu daraxtlardagi yaproqlarni bitta changali bilan yulishar, ikkinchisi bilan, aftidan, men ularning ko'zlarini qamashtirmasligim uchun betlarini to'sib turardilar.

“Odam-mushuklar juda anoyi emas, shekilli, – deb o'yladim. – Agar ularni afyundan xalos qilishga qodir haqiqiy rahbarlari bo'lganida ko'p narsaning uddasidan chiqardilar. Yo o'zim ular bilan shug'ullansammikin? Katta Chayon quvib yuborilsa, ular uchun ham katta yer egasi, ham general bo'lsam... Yo'q, bu xom xayollar. Biror narsa qilishga azm eta olmayman, chunki bu odam-mushuklarni hali yaxshi bilmayman”.

Shu onda kutilmaganda Katta Chayon qo'lidagi tayog'ini askarlardan birining boshi ustiga tushayotganligiga (atrofimdagi daraxtlar yalang'och bo'lib qolgan va pastda nima bo'layotganligini rav-

shan ko‘rib turgandim) ko‘zim tushdi. Ikki sarjin¹ keladigan balandlikdan sakraganimda va oyog‘imni sindirib olmaganimda ham bu tayoqning kalla ustiga tushishini to‘xtatib qolishga ulgurmasdim, biroq Katta Chayonni jazolashni juda xohlayotgandim. Sakradim, darhol qaddimni rostlab, yugurib bordim, lekin askar yerda yotardi va Katta Chayon uni ko‘mishni buyurayotgandi.

Yaqinlarini tushunmaydigan odam eng ezgu niyatlar bilan ham ularga ziyon keltira oladi. Sakraganimda askarlar hozir qo‘l chaqmog‘i chaqiladi deb o‘ylab, deyarli hammasi daraxtlardan sakrab tushishgandi. Ularning ko‘pchiligi jarohatlanganga o‘xshardi, tevarak-atrofdan keti uzilmaydigan ingrashlar eshitalardi. Ammo o‘shanda bularga e‘tibor bermasdan Katta Chayonni tutib oldim. Katta Chayon sakrab tushganligimni o‘zicha, unga yordam berish niyatida qilganman, umuman sodiq hamtovog‘i bo‘lib qolganman, axir bu tong juda itoatkor edi, degan o‘yga borgan. Uni ushlab olganimda juda hayron bo‘ldi: o‘zini biror ayb ish qilmagan deb his etayotgandi.

– Nima uchun askarni o‘ldirding? – qichqirdim men.

– U yaproqning poyasini g‘ajidi...

– Shuning uchun sen?..

Shu paytda tinchitish befoyda bo‘lgan odam-mushuklar orasida ekanligim yodimga tushdi. Askarlarga imo qildim:

– Uni bog‘langlar!

Askarlar menga qarab turishar va hech narsani tushunmayotganga o‘xshardilar.

¹ Sarjin — uch gaz yoki 2,134 metr uzunlikka teng o‘lchov birligi.

– Katta Chayonni bog‘langlar! – tushuntirdim men, biroq hech kim joyidan qo‘zg‘almadi.

Yuragim orqaga tortib ketdi. Agar haqiqatan ham ana shu askarlarga bosh bo‘lsam, ular bilan hech qachon til topisha olmayman, shekilli. Ular Katta Chayonni yaxshi ko‘rganliklari uchun menga yordam berishga jur‘at qilmayaptilar, mening haqligimni anglashmayapti. Do‘sting uchun o‘ch olishing mumkinligi ularning xayollariga ham kelmaydi. Bu meni boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ydi: agar Katta Chayonni qo‘yib yuboradigan bo‘lsam, uning mendan nafratlanishi turgan gap. Biroq uni o‘ldirish ham kerak emasdi — menga Marsda, hech bo‘lmaganda Mushuklar davlatida hali kerak bo‘lib qolishi mumkin. O‘zining hamma yaramas xislatlariga qaramasdan u anavi nochor jangarilardan foydaliroqdir. O‘zimni g‘azab o‘tim biroz o‘chgandek qilib ko‘rsatdim.

– Aybingni bo‘yningga olasanmi? – so‘radim Katta Chayondan. – Yoki o‘rmoningni talon-toroj qildiraymi?

O‘marish imkoniyati borligi qulog‘iga chalingan askarlar jonlanib qoldi, changallarini yaproqlar tomon cho‘za boshladi, ammo men Katta Chayonni ikki bor tepganimdan keyin ularning hammalari yana tinchlandi. Katta Chayonning ko‘zlari zig‘irday tirqishga aylanib qolgandi. U menga nafrat ko‘zi bilan qarayotganligini his qilayotgandim: axir askarlar oldida kimsan ma‘budning vakili arzimagan narsa uchun jazolanmoqda. Biroq men bilan urishishga jazm eta olmadi.

Undan afyun yaproqlarini terayotganlarga qancha haq to‘layotganligini so‘radim. U ikkitadan

yaproq, deb javob qaytarganini eshitgan askarlar maoshlari ko'tarilishi imkoniyatini kutishgan shekilli, quloqlarini ding qildilar. Katta Chayondan ishdan keyin yaproq teruvchilarning qornini yaxshilab to'yg'azishni talab qilganimdan so'ng bu quloqlar yana osilib qoldi. Ularning hasratli xo'rsinishlari bilan ishim yo'q — meni o'ldirilgan askarning oilasi ko'proq qiziqtirayotgandi. Bu oilaga yuz milliy nufuz to'lashni buyurdim. Katta Chayon bunga rozi bo'ldi, lekin halok bo'lganning qayerda yashashini so'raganimda hech kimdan sado chiqmadi. Odam-mushuklarda boshqalar haqida og'iz ochish odati yo'q. Buni faqat bir necha oydan keyingina bildim, Katta Chayon esa bexabarligimdan foydalanib, milliy nufuzlarini tejab qoldi.

10

Yaproqlarni terish mavsumi tugaganidan keyin ham shamol esishi to'xtamasdi, havo soviy boshlagandi, osmonda ahyon-ahyonda qora bulutlar paydo bo'lar, lekin yomg'ir yog'mayotgandi. Bu katta yer egalari afyun yaproqlarini shaharga olib boradigan "suronli mavsum" boshlangan vaqt edi. Katta Chayon mendan nihoyatda norozi bo'lsa ham o'zini o'ta olijanob qilib ko'rsatishga harakat qilardi, chunki mensiz yo'lga chiqish o'z joniga qasd qilish bilan barobar edi.

Quritilgan yaproqlar toy qilindi. Har bir toyni ikki askar navbat bilan boshida ko'tarib ketayotgandi. Ular oldida Katta Chayonni zambilda olib ketishayotgandi: to'rt askar kallalari bilan uning tanasini, yuqoriroqda yana ikki askar oyog'ini, yana bittasi

bo‘ynini suyab borardi. Bu u qadar qulay bo‘lmasa ham Mushuklar davlatida jilishning eng faxrli vositasi hisoblanardi. Hammollarning ikki tomonida yigirma nafar general musiqa asboblari bilan borardi. Agar askarlar intizomga rioya qilmayotgan bo‘lsa — masalan, afyunni hidlash maqsadida changallarini toy ichiga suqadigan bo‘lsalar, generallar Katta Chayonga buni eng nafis musiqa orqali yetkazishardi. Mus-huklar davlatida hamma narsa, shu jumladan musiqa ham foyda keltirishi zarur edi: musiqachilar odatda ayg‘oqchi bo‘lib xizmat qilardilar.

Men safning o‘rtasida eng mas’uliyatli joyni egallashim kerak edi. Katta Chayon men uchun yetti nafar hammolni tayyorlab qo‘ygandi, biroq bu saxovatdan voz kechib, mustaqil odimlashga qaror qildim. U bunga hech ko‘nmasdi: mumtoz adiblar asarlaridan iqtiboslar keltirar, imperatorni yigirma bir, vazirni o‘n besh, zodagonlarni yetti nafar ham-mol ko‘tarib olib yurishini, bu rioya etmaslikka yo‘l qo‘yilmaydigan qadimiy urf ekanligini tushuntirardi. “Yerda o‘z oyog‘i bilan yuradigan zodagon ajdod-lariga isnod qiladi!” – xitob qilardi u. Agar meni boshlarida ko‘tarib olib yurmasalar ham ajdodlarim isnodga qolmasligiga Katta Chayonni ishontirdim. O‘shanda u sal bo‘lmasa yig‘lab yuborayozdi va bir baytni yoddan aytdi:

*Afyun yaprog‘ini iste‘mol qilgan,
Hamisha zodagon bo‘lgan.*

– O‘z zodagonlaring bilan quri! – bu qofiyaga mos tushadigan baytni yodga ola olmasdan gapini bo‘ldim.

Katta Chayon uf tortdi, eshittirmasdan soʻkkan ham boʻlishi kerak, ammo buni ochiqchasiga aytishga jurʼat qila olmadi.

Safni tizishga ikki soatdan koʻproq vaqt ketdi. Katta Chayon goh oʻz hammollarining boshi uzra choʻzilardi, goh yana sakrab turardi va buni yetti marta takrorladi, chunki mushuk askarlari hech tek tura olmayotgandi. Ular endi men Katta Chayonga hamma vaqt ham yordam bermasligimni bilishardi, xoʻjayin tayoqni ishga solishga yuragi dov bermayotgandi, kaltaklashsiz soʻkish esa taʼsir qilmayotgandi. Askarlarni toʻgʻri saflashdan umidini uzgan Katta Chayon taslim boʻldi va yurishni boshlashni buyurdi.

Biroq biz odimlay boshlashimiz bilan osmonda bir nechta oq dumli kalxatlar paydo boʻldi. Katta Chayonni bu yomon alomat qoʻrqinchga soldi, u yana yerga sakrab tushdi va safarni ertaga qoldirdi. Tamoman gʻazabga minib, toʻpponchamni chiqardim:

– Agar hozir joʻnamasak, umuman joʻnamaymiz!

Katta Chayonning turqi koʻkarib ketdi. U ogʻzi bilan tamshandi, biroq tili gapga aylanmadi. U men bilan bahslashish befoyda ekanligini bilardi, ayni paytda alomatlarga ishonmaslik ham xavfli ekanligidan xabardor edi. Qoʻrqib ketganidanmi, hammolarning shoʻxligidanmi, har holda u tez-tez yerga yiqilardi, lekin shu ondayoq boshlariga chiqib olardi — Katta Chayon ajdodlarining odatlarini muqaddas sanardi.

Kichik qishloqlardan oʻtar ekanmiz, oʻz kulbalari devorlariga suyanib, koʻzlarini qisib oʻtirgan shu

yerlik odam-mushuklarni ko‘rardik. Ular hatto biz tomonga qaramayotgani ham meni juda ajablantirdi. Agar ular askarlardan qo‘rqayotgan bo‘lsa, nega yashirinishmagan, agar qo‘rqmayotgan bo‘lsa, nima uchun ko‘zlarini qisgan holda o‘tiribdilar? Shunda o‘tirgan odam-mushuklarning boshlarida ham oq bo‘yoq bilan bitilgan belgilarni payqadim, ulardan “Katta Chayonni qutlaymiz!” kabi shiorlar shakllanardi. Qishloq ahli hanuz ko‘zlarini ochmagan bo‘lsalar ham Katta Chayon ularning iltifotlariga marhamat qilib, bosh qimirlatib qo‘yardi.

Ushbu qishloqlar uning homiyligi ostida edi, aholining ko‘rinishlari ayanchli, hazin, tinka-madori qurigan holatdaligi Katta Chayonning ular haqida qanday g‘amxo‘rlik qilayotganligini og‘iz ochmasa ham bilish mumkin edi. Katta Chayonga nisbatan nafratim yanada ortdi.

Bir o‘zim Mushuklar shahriga ko‘pi bilan yarim kunda yetib borgan bo‘lardim, lekin mushuk askarlari bilan yurish jiddiy ko‘nikma va sabotni talab qilardi. Umuman olganda, odam-mushuklar ildam yura oladi, biroq askar bo‘lgach, bu qobiliyatlarini yo‘qotadilar. To‘g‘rirog‘i, qobiliyatlarini olg‘a bor-ganda yo‘qotadilar, chekinish zarur bo‘lsa, yana chaqqon bo‘lib qoladilar. Bunday qonuniyat dush-manga har safar duch kelganlarida namoyon bo‘ladi.

Tush, soat bir edi. Osmonda bulutlar uchib yur-gan bo‘lsa ham, quyosh obdan qizdirardi. Askarlar og‘izlarini katta ochgan holda sudralardilar, terlab ketganlaridan ularning yungi yopishib qolgandi — bunday nochor qo‘shinga hali duch kelmagandim. Nihoyat olisda afyun o‘rmoni ko‘zga tashlandi va

Katta Chayon to'ppa-to'g'ri yo'l solib, uning ichidan o'tishni buyurdi. U askarlarga rahmi kelib, soyada dam olishlarini ko'zlab shunday qilyapti deb o'ylagandim. Ammo biz o'sha yerga yaqinlashganimizda u mendan bu o'rmonni talon-toroj qilishning iloji yo'qmi, deb so'radi. "Yaproqlar — hech vaqo emas. Asosiysi, qo'shinni jangovar tajriba bilan boyitish!" — tushuntirdi u.

Hech narsa demasdan hamrohlarimga boqdim. Ular og'izlarini yumishgan va deyarli bardam ko'rinardi. "Qolaversa, talon-taroj — mushuk askarlarining asosiy mashg'uloti, — o'ylardim men. — Askarlar meniyam Katta Chayon kabi yomon ko'rishadi va hamma vaqt ularga to'pponcha bilan do'q qilaversam, ertami-kechmi o'ldirishadi. Oliyjanobligimning qadriga kim yetardi?" O'zimda mushuklar psixologiyasi paydo bo'layotganligini his etayotgandim, jasurligim tobora ko'proq moslashuvchanlikka joy bo'shatib berayotgandi. Endigina Katta Chayonning fikriga qo'shilgandim, u bu ishga bosh bo'lishimni iltimos qilishni kechiktirmadi. Bu safar javobim qat'iy edi: talon-toroj qilaveringlar, ammo meni bu ishga aralashtirmanglar.

Askarlar allaqachon o'lja isini tuyishgandi. Ular buyruqni kutmasdan, toylarni yerga uloqtirdilar va tayoqlari bilan olg'a tashlandilar. Katta Chayonni ham bunday jasur holatda hali ko'rmagandim: uning ko'zlari mardonavor yumaloqlashgan, yunglari dik-kaygan, tayog'i tepaga irg'itilayotgandi. Jangchilar hali o'rmonga otilib kirmasdan, uning atrofida tel-balardek yugurardilar. Ular o'rmondagi qo'riqchilarni aldab-suldab o'z tomonlariga chorlamoqchi

bo'layotganlarini tushundim. U tarafda biror kimsa ko'rinmaganidan keyin Katta Chayon ham, askarlar ham kulib yuborishdi va butun qo'shin afyun daraxtlari tomon tashlandi.

Shunda kutilmaganda o'rmondan qichqiriqlar eshitila boshladi. Katta Chayon o'zining endi noyumaloq ko'zlarini pирpiratardi, askarlar tayoqlarini uloqtirdilar, orqaga tisarildilar va boshlarini chagallab uvlay ketdilar:

– U yerda chet ellik! Chet ellik!

Xo'jayin ularga ishonqiramayotgandek edi, lekin e'tirozi u qadar dadil chiqmadi:

– Chet ellik? U yerda chet ellik yo'qligini aniq bilaman...

U ming'illayotgan mahal o'rmondan ko'p sonli mushuk askarlari va yaltiroq tayoqlar bilan qurollangan ikki nafar daroz oq sochli mavjudot chiqdi. "Ular xorijlik ekanligi shubhasiz, – mulohaza yuritardim men. – Katta Chayon mendan ular bilan kurashishni iltimos qiladigan bo'lsa, nima qilishim kerak?! Bu yaltiroq tayoqlar nimaligini ham bilmasam". Men talon-torojni boshlamagan bo'lsam ham o'zimni Katta Chayonning safdoshi deb hisoblardim: uning mag'lubiyatga uchrashi o'zinning obro'yimni ham tushirib yuborardi, bu esa Mushuklar davlatining kelajagini hal qiladigan masala edi".

– Ularni tezroq ushla! – pichirladi menga Katta Chayon.

Mushohadalarimni yig'ishtirib qo'yib, to'pponchamni chiqardim va olg'a tomon talpindim. Oq sochli mavjudotlar (ular ham mushukka o'xshardi) meni ajablantirib, to'xtashdi. Katta Chayon yonim-

ga yugurib keldi, bundan ortiqcha xavf yoʻqligini anglab yetdim.

– Muzokaralarni boshlanglar! – dedi u orqamga yashirinar ekan.

Biroz dovdirab qoldim. Nega endi u meni jangga tashlamayapti? Bu oq mavjudotlar bilan nima toʻgʻrisida gaplashish mumkin? Odam, agar undan oʻzi qilmoqchi boʻlganidan kam narsani talab qilishsa, hamisha dovdirab qoladi. Raqiblarimdan biri Katta Chayonga murojaat qilayotganida ogʻzidan chiqib ketdi:

– Senga har birimizga ikkitadan — olti toy afyun yaprogʻi miqdorida jarima solamiz.

Oʻgirilib qaradim. Oq odam-mushuk ikki nafar edi. Nima uchun u olti toy deyapti.

– Ular bilan gaplash! – shoshilib pichirladi Katta Chayon.

Lekin nima deyish kerak? Beixtiyor ularning gapini takrorladim:

– Senga olti toy jarima solamiz...

Oq mavjudotlar iljayishdi va mamnun boʻlgan holda boshlarini silkitdilar. Katta Chayon yengil tortib, ufladi, oʻzim esa hanuz hech narsani tushunmayotgandim. Faqat toylarni olib kelishganda va oq odam-mushuklar menga birinchi boʻlib ularni tanlashni taklif qilishganida bu mavjudotlar meni ham oʻzlariga sherik qilganlarini anglab yetdim. Oʻz tomonimdan ham ana shunday iltifot bildirish va ularga eng yaxshi toylarni berish qolgandi. Chet elliklar taʼzim qilgan holda dedilar:

– Biz ham tez orada yaproqlarni terishni tugalaymiz, sizlar bilan hali shaharda uchrashib qolamiz.

– Yana ko‘rishamiz... – takrorladim men va yana qandaydir g‘alati odatga duch kelganligimni his etdim. Oq mavjudotlar o‘z askarlariga toylarni olishni buyurdilar va o‘rmon ichida g‘oyib bo‘ldilar.

Mushuklar shahriga kelib, shuningdek, boshqa chet elliklar bilan gaplashib, nihoyat ushbu sarguzashtning tagiga etdim. Odam-mushuklar chet elliklarni yenga olmasliklarini bilishlari uchun ular bir narsaga — xorijliklar bir-birlarini qirishlariga umid bog‘laydilar. O‘z qudratingni mustahkamlash uchun harakat qilish zarur, mushuklar esa kuch sarflashni xush ko‘rmaydilar. Buning o‘rniga ular ma‘budlaridan chet elliklar orasida ichki nizo chiqarishini iltijo qiladilar, bu o‘zlarining, mushuklarning kuchliroq bo‘lishlarini — to‘g‘rirog‘i, boshqa mamlakatlarni ham Mushuklar davlatidek zaif holatda ko‘rishni istaydilar. Chet elliklar ularning bu niyatlarini anglab yetganlar. Ular bilan Mushuklar davlati o‘rtasida ko‘p marta ixtilof chiqqan, biroq oq mavjudotlar hech qachon o‘zaro ichki nizolaridan raqiblari naf ko‘rishlariga yo‘l qo‘ymaganlar. Ular tarqoq bo‘lsalar, hatto g‘alaba ham o‘zlari uchun mag‘lubiyatga aylanishi mumkinligini juda yaxshi bilardilar. Va aksincha, birlashgan holda odam-mushuklardan talaygina manfaat ko‘ra oladilar. Mushuklar mamlakatida xalqaro siyosatgina emas, shuningdek, barcha chet elliklarning turmushi ham shunday yo‘lga qo‘yilgan edi. Xorijliklarning asosiy kasbi afyun o‘rmonlarini qo‘riqlash edi, biroq ular o‘rmonni faqat mahalliy aholidan emas, bir-birlaridan ham qo‘riqlashga kelishgandilar. Bu qoidadan chetga chiqqan jazolanardi, shuning uchun odam-mushuklar chet elliklarni tobora yuqori baholardilar.

“Himoyachilar”ga mazkur tizim chakki emasdi, lekin tub aholi uchun-chi? Katta Chayon uchun beix-tiyor dilsiyoh bo‘ldim, biroq keyin o‘ylanib qoldim: bunga toqat qilayotganliklariga o‘zlari aybdorlar, kuchli bo‘lishga intilishmaydi, o‘z qabiladoshlarini chet elliklar yordamida ezadilar. Munosib odam-larnigina hurmat qilish mumkin, odam-mushuklar esa o‘z sha’ni va vijdonini yo‘qotganlar — chet elliklarning ulardan iymenib o‘tirmasliklari ajablanarli emas.

Ushbu mavzudagi gap-so‘zlardan keyin uzoq vaqt kayfiyatim buzilib yurdi.

Ammo Katta Chayonga qaytaman: tovon to‘la-ganligi uni aslo uyaltirmadi, aksincha o‘zini g‘olib chiqqan deb his etar, gerdayib mushuklar boshiga chiqib olgandi va agar shu miqdordagi afyun yaproq-lariga muhtoj bo‘lmasam (ular menga u qadar yoq-masdi), o‘zi bu toylarni o‘ttiz milliy nufuzga sotib olishga tayyorligini aytdi. Ikki toy kamida uch yuz nufuz turishini bilardim, biroq u bilan savdolash-madim va umuman taklifiga javob bermadim.

Oldinda Mushuklar shahri ko‘ringanida quyosh ufqqa bosh qo‘yayotgandi.

11

Bu shaharni ko‘rishim bilan negadir ushbu ta-maddun tez orada halokatga uchraydi, degan qarorga keldim. Mushuklar tamadduni bilan hali tanish emas-dim, uning qishloqda men duch kelgan qismi faqat qiziqish, yashirin mohiyatini anglab yetish istagini uyg‘otdi. Bu yerdagi madaniyat butkul dahshatdan iborat ekanligiga ishongim kelmasdi. To‘g‘ri, tamad-

dun ham ba'zan halok bo'ladi, bizning Yerdagi tarix nuqul pushtirang siyohlarda bitilmagan, biroq agar tariximizni o'qiyotganda zor-zor yig'lashga qodir bo'lsak, halok bo'layotgan tamaddunni o'z ko'zing bilan ko'rish yanada ayanchlidir.

O'limi oldida odam gulday ochilgan ko'rinishga ega bo'lishi mumkin, o'limga hukm qilingan shahar ba'zan shovqin-suronli, jo'shqin ko'rinadi, ammo baribir asta-sekin va muqarrar ravishda halok bo'ladi. Alohida bir odamni qutqarib qolish mumkin, lekin shaharni emas. Uning ham ablah, ham raso aholisi ustida taqdirning yakson etuvchi qilichi o'ynayotgandek tuyuldi. Ochiq ko'ngilli odamlar ko'p emas, ular o'zlarining halokatini tezlashtirmoqdalar yoki vasiyatnoma bitmoqdalar, biroq ularning ham qayg'uli, ham quvnoq hayqiriqlari xuddi chirildoqning kuzgi shamol guvillashini pasaytirishga tirishishidek bema'nidir.

Taqdirning yakson etuvchi qilichini Mushuklar shahrining shovqin-suronli va pitrak aholisi ustida ko'rdim — ko'p o'tmay ulardan faqat to'zon va kul qoladi!

Mushuklar shahri juda g'ovur-g'uvur tuyulardi. Uning tarhi harbiy lagerniki kabi nihoyatda jo'n ko'rindi. Hech qanday keng va tor ko'chalar yo'q, faqat uylar va xarobazorlar, aniqrog'i — talaygina bir tusdagi uylar qo'qqaygan xarobazorlar. Uylar orasidagi barcha bo'shliq nima bilan shug'ullaniishi noma'lum bo'lgan xaloyiqqa to'lgan. Bironta kimsa to'g'ri yurmaydi, albatta boshqalarga xalaqit beradi. Baxt yorlaqab, xarobazorlar anchayin keng, shuning uchun yo'lovchilar oqimi xuddi to'g'onga

duch kelgandek uylarga urilib, dam bo'ylamasiga, dam ko'ndalangiga harakat qiladi. Bu uylarning raqamlari bor-yo'qligini hali bilmasdim. Agar bor bo'lsa, beshinchi uydan o'ninчисiga ikki kilometrcha yurish kerak bo'ladi. Avval seni chapga, keyin o'ngga uloqtirishadi, so'ng oldinga sudrab ketishadi, orqaga uloqtirishadi va hokazo. Bu sayohat davomida tasodifan manzilingga yetib kelishing, yoki hatto uyingni ham topolmasliging mumkin.

Qachonlardir bu yerda ko'chalar bo'lganligi shubhasiz, lekin ular xavf-xatarli, shuning uchun odam-mushuklar boshqalarga yo'l berishni sharmandalik deb hisoblashadi. Yo'lni turli tomonlarga solish esa ularning erkin ruhini yanada g'azablantiradi. Buning yagona vositasi — yo'llarni yo'q qilish bo'ldi. To'g'ri, bu tirbandlikdan xalos etmadi, ammo hech bo'lmaganda anchagina hayotni saqlab qoldi (ko'rib turganingizdek, ba'zan odam-mushuklar juda insonparvarlarcha ish tutadilar). Dam olmasdan olti kilometr zing'illash, keyin orqaga qaytish charchatsa ham u qadar xavfli emas. Aytgandek, bu charchatmaydi ham: axir sen xuddi bepul poyezdga chiqib olgandek hamrohlar yelkasida ketaverasan. Men o'z taxminlarimni albatta tekshirib ko'rishga va bu yerda sobiq ko'chalarning izini qidirishga qaror qildim.

Tiqilinchlikning o'zida noodatiy hech narsa yo'q edi. Biroq yo'lovchilar oqimining dam tepaga ko'tarilib, dam pastga tushayotganligi g'alati ko'rinar edi. Yo'lovchilar ko'chada toshni ko'rib qolsalar, ajabtovur tomoshadan lazzatlanish uchun cho'kka tushardilar, keyin esa umuman unga o'tirib olardilar. Yangi yo'lovchilar ham cho'kkalardi, orqadagilar

bostirib kelardi va chinakam girdob paydo bo'lar-
di. Eng orqadagilarga boshqalar boshiga tirmashib
chiqishga to'g'ri kelardi. O'tirganlar ostlaridagi
toshni yoddan chiqarib, tepalaridagi tomoshabinlarni
kuzata boshlardilar, shu payt qaysidir tarafda ikki
tanish bir-birini ko'rib qolardi. Olomon shu zahoti-
tiyoq aralash-quralash bo'lib ketardi. Yo'lovchilar-
ning har biri uchrashib qolgan tanishlarning suh-
bat qurishlariga yordamlashishni o'zlarining burchi
hisoblardi, bu muqarrar ravishda yoqalashishga olib
kelardi. Birdaniga ikkita girdob hosil bo'lar-
di, tanishlar esa yerda o'tirganlaricha shaxmat o'ynashga
tushardilar. Nihoyat ikki girdob ushbu safar shaxmat
atrofida bittaga birlashardi.

Olomonlar o'rtasida ba'zan yahudiylar Qizil den-
gizdan kechib o'tayotganda suv ikki tomonga surilib,
yo'l ochgan paytidagidek bo'shliq paydo bo'lar-
di. Katta Chayon askarlari bilan Mushuklar shahrining
markazida joylashgan uyiga qanday o'tib olishini
tasavvur eta olmasdim. Oldinda odamlar oqimini
ko'rib, Katta Chayon uni aylanib o'tsa kerak deb
o'ylagandim, ammo u girdob markaziga bostirib kir-
di. Avval men orani ochishga buyruq belgisi deb
hisoblagan musiqa yangradi, lekin tomoshabinlar
musiqachilar tomon otilganlaridan keyin xatoyimni
tushundim. Katta Chayonning rejasi boshqacha edi:
musiqa ostida askarlar yo'lovchilarning boshlari-
ni tayoqlari bilan nog'ora chalayotgandek savalab
ketdilar. Shunda odamlar oqimi orani ochdi. Eng
qizig'i, askarlarning tayoqlari savalashda davom
etayotganiga qaramasdan olomonning bizga qiziqi-
shi so'nmagandi.

Shaharlik odam-mushuklar qishloqlardagilardan birmuncha farq qilardi. Ularning, aftidan, uzoq davom etgan tarixiy-tadrijiy rivojlanish va askarlarning tayoqlari tufayli kal bo'lgan boshlari oqarib turardi. Ma'lum bo'lishicha, askarlar yo'lovchilarni faqat shunchaki yo'lni ochishlari uchungina emas, shuningdek, oliy mulohazalarga ko'ra ham savalar ekanlar. Tomoshabinlar oldinga o'tib olish uchun turtinishar, mushtlashar, hatto tishlashar ekanlar. Oldindagilar tirishib o'z turgan joylarini mudofaa qilishar, askarlar esa qabiladoshlarining ur-yiqitga mayllarini susaytirishga intilib, ularni surishtirib o'tirmasdan savalar ekanlar.

Bu yerdagi aholiga ham qiziqish, ham achinish bilan boqardim. Atrofimdagi uylarni deyarli payqamayotgandim, chunki ular darhol menga xunuk, har holda iflos ko'rindi, buni hatto burnim ham his etayotgandi. Agar go'zallik va ifloslik mushtarak deb hisoblanadigan bo'lsa, o'zimning mushuklar me'morchiligi to'g'risidagi mulohazalarim noto'g'ri chiqadi, holbuki, avvalgidek saroylardan qo'lansa hid tarqaladigan bo'lsa ham ulardan zavq olaman.

Shunday qilib, yo'lovchilarni kuzatardim, ko'p o'tmay bundan zerikdim, chunki ular ko'z ko'zga tushganida quloqni teshar ovozda qattiq baqirardilar. Shaharlik aholi chet elliklardan qishloqdagilarga qaraganda kamroq qo'rqardi, ularning qichqiriqlariga ko'p jihatdan hayratlanayotganliklari sabab bo'layotgandi, lekin bu ularga bizni turtishlariga yoki barmoqlarini bigiz qilishga xalaqit bermayotgandi. Odam-mushuklar — soddadil mavjudotlar: nimani ko'rsalar, o'shanga barmoqlarini bigiz qiladi. Biroq

o'zim Yerdagi tushunchalardan qutula olmayotgandim, shu bois bu yerda ko'rganlarim g'ashimga tegar va aziyat chektirardi. Minglab barmoqlar xuddi to'pponchalardek menga o'qtagandi, har bir barmoq orqasida esa burun dikkayib turar va yumaloq ko'zlar yaltirardi. Ularning barmoqlari, burunlari va nigohlari go'yo meni o'zligimdan mahrum etayotgandi.

Endi boshimni ko'tarishga jur'at eta olmayotgandim. Bu o'zimga muayyan ustuvorlik ham berardi, chunki yo'l o'nqir-cho'nqir va badbo'y ko'loblar bilan qoplangandi. Atrofga alanglaydigan bo'lsam, cho'chqaday belanishim ehtimoldan xoli emasdi. Odam-mushuklar o'zlari maqtanadigan ko'p asrlik tarixlari mobaynida yo'llarini tuzatmagan bo'lsalar kerak. Umuman tarixdan, ayniqsa ko'p asrlik tarixdan nafratlanadigan bo'lib qolmasaydim!

Yaxshiyamki, tez orada Katta Chayonning turar joyiga yetib keldik. Bu yerda shahardagi uylar afyun o'rmonida menga ajratilgan xarob kulbadan deyarli farq qilmasligiga batamom amin bo'ldim.

12

Katta Chayonning uyi, yuqorida aytilganidek, shahar markazida bo'lib, oyna va eshiklari yo'q to'rt baland devordan iborat edi. Kechki salqin tomoshabinlar olomonini tarqatib yuborganligi uchungina ko'zimga tashlangan qo'shni uylar ham xuddi shunday ko'rinishda edi.

Devorlar ustida bir nechta mushuk kallalari ko'rindi. Katta Chayon nimadir deb qichqirdi va kallalar g'oyib bo'ldi. Keyin yana paydo bo'lib, biz tomon toylar uchun yo'g'on arqonlarni tushirdilar.

Qorong‘i tushgan, ko‘chada birorta yo‘lovchi qolmagandi. Toylarning hammasi hali olib kirilmagandi, biroq askarlar tunda ham kunduzgi paytdagidek yaxshi ko‘rishlariga qaramasdan dangasaliklari tutib, hayajonlana boshladilar. Agar qo‘l chirog‘im bo‘lganida Mushuklar shahrini bamaylixotir, shilqim kuzatuvchilarsiz ko‘zdan kechirgan bo‘lardim. Yotoq masalasiga kelganda esa, qishloqdagi tajribam ochiq havoda uxlash mushuklar uyidagidan sira noqulay emasdi, bu turar joyni ko‘zdan kechirishga hali ulguraman. Katta Chayon juda mamnun bo‘ldi, askarlarni jo‘natib yubordi va arqonga osilib, devor ortida g‘oyib bo‘ldi.

Bir o‘zim qoldim. Shamol esardi, yulduzlar odatdagidan ravshanroqqa o‘xshardi. Qisqasi, hamma narsa kuz yaqinlashganidan dalolat berardi. Faqat yaqin atrofdagi sassiq zovur sokinlik va oqshom salqinidan rohatlanishga xalaqit berayotgandi. Bu qo‘lansa hiddan qutulish, biryo‘la tamaddi qilib olish uchun bir nechta afyun yaprog‘ini yedim va u yoqdan-bu yoqqa yurib, kun bo‘yi ko‘rganlarim haqida mushohada qilardim.

Odam-mushuklar nega kunduzlari bu qadar faol, tunlari esa yashirinishadi? Balki bunga ijtimoiy ish-kalliklar sababdir? Ular yorug‘lik tushmaydigan, havo yetishmaydigan, faqat badbo‘ylik, ifloslik va pashshalar bosgan uylarda qanday yashaydilar? E, tushunaman, ular talonchilikdan qo‘rqishadi! Biroq eng ashaddiy talonchilik ham hayotga zomin bo‘ladigan kasalliklar oldida nima degan gap?

Yana ko‘z oldimga yakson etuvchi qilich keldi va titrab ketdim. Agar bu shaharni o‘lat yoki vabo

bossa, u bir hafta ichida huvillab qolgan bo'lardi! Ushbu shahar menga tobora jirkanch ko'rinardi: u yulduzlar charaqlagan osmon ostida, mutlaq sukunatda faqat qo'lansa hid tarqatib ulkan qora soyadek yastangandi.

Toylarning bir nechtasini zovurdan nariga sudrab borib, ularga cho'zildim va yulduzlarga tikildim. Yotog'im chakki emasdi, ammo hamon ma'yus edim. Hatto odam-mushuklarga havasim kela boshladi. Ular jirkanchlikda yashayotgan bo'lsalar ham o'z qarindoshlari bilan birgalar, mening esa Marsda yulduzlar va Katta Chayondan boshqa hech kimim yo'q. Qahrli iljaydim, ko'zlarimga yosh keldi.

Afyun yaproqlarini qo'riqlashim kerakligi ham uxlashimga xalaqit berayotgandi. Bu mas'uliyatimdan voz kechishga ham tayyor bo'lganimda kimdir yelkanga qoqdi. Sakrab turib, ko'zlarimni ishqalab, ikki nafar odam-mushukni ko'rdim. Ular menga arvohtardek tuyuldi, zero bir daqiqa ilgari bu yerda hech kim yo'q edi. Aftidan, zamonaviy odamlarga ham ibtidoiy bid'atlar ta'sir qilarkan.

Kelgindilarni ko'zdan kechirmasdanoq ular menga yaqinlashishga jur'at etgan ekanlar, oddiy mushuklar emasligini anglab yetgandim. To'pponchamni, boshqa sayyorada ekanligimni ham yoddan ko'targandim.

– O'tiring! – bu o'shanda yodinga kelgan yagona iltifotli so'z edi.

Ular vazmin cho'kkalashdi. Bu meni yanada hayratga soldi: Marsda bo'lgan uzundan-uzoq kunlarimda odam-mushuklar ilk marotaba e'tiborlilikim belgilarini shunchalik erkin qabul qilayotgandilar.

– Biz chet elliklarmiz, – dedi to‘laroq keladigani. – Nima uchun bu haqda gapirayotganimizni fahmlayotgan bo‘lsangiz kerak?

Ularning gapini tasdiqlab, bosh silkib qo‘ydim.

– Siz ham chet elliksiz-ku, – har ehtimolga qarshi qo‘shib qo‘ydi oriqrug‘i.

Ular o‘zining munofiq hikmatlarini oldindan tayyorlab qo‘yib, bittalab chiqaradigan Katta Chayondek emas, balki tortinmasdan, bir-birlariga hurmat bilan gapirardilar.

– Men Yerdan uchib keldim.

– E! – hayratlangancha cho‘zib qo‘yishdi ular. – Biz ko‘pdan beri boshqa sayyoralar bilan aloqa o‘rnatishni orzu qilardik, biroq hech buning uddasidan chiqa olmadik. Biz yerlikni ko‘rishdan baxtiyormiz!

Ular menga hurmat bajo keltirayotgandek o‘rnidan turdilar. O‘zimni yana insonlar jamiyatida his etdim va yo‘qotishlarim haqidagi xotiralarimdan shu qadar tundlashib ketibmanki, iltifotga javob qaytarish ham yodinga kelmabdi. Ular mendan Yer haqida so‘ray boshladilar. Bu kimsalarning gapi sodda, tushunarli, marosim bezaklaridan xoli va ayni paytda muloyim — bir so‘z bilan aytganda, odatiy insoniy lutf edi. Ular boshqa odam-mushuklar u yoqda tursin, Katta Chayondan ham ko‘p marta aqlliroq va menga muqarrar yoqayotgandilar.

Aytishlaricha, ularning mamlakatlarini Yaltiroq davlat deb atasharkan va u Mushuklar davlatidan yetti kunlik masofada joylashgan ekan. Bu yerda esa ular menga o‘xshab mahalliy katta yer egalarining o‘rmonlarini qo‘riqlasharkanlar.

Ularning vatanlari to'g'risida so'rab-surishtirganidan keyin yangi tanishlarimning semizi shunday dedi:

– Yerlik janob! – aftidan, u ana shunday murojaat men uchun eng xush yoqadigani degan qarorga kelgan. – Sizga taklifimiz bor: bu toylarni oling va biz bilan yashash uchun ko'chib o'ting.

Qo'rqqanimdan sapchib turib ketay dedim.

– Qiyin bo'lmasa, iltimos, tushuntirib ber, – so'radi semizi orig'idan. – Yerlik janob niyatimizni tushunmadi, shekilli.

– Sizni qo'rqitib yubordikmi? – iljaydi oriq. – Xotirjam bo'ling, biz faqat taklif qildik. Katta Chayon baribir sodiqligingiz qadriga yetmaydi va unga xiyonat qilsangiz, ajablanmaydi ham. Aftidan, Mushuklar davlatining odatlaridan xabardor emassiz?

“Biroq ular ham mushuk-ku!” – yalt etib miyanga keldi. U fikrimni uqqandi:

– Ha, ajdodlarimiz mushuk bo'lgan, sizlarniki kabi...

– Maymun bo'lganidek, – deb shipshidim.

– Ayni haqiqat. Hammamiz hayvonlardan paydo bo'lganmiz, – u men chindan ham maymunlarga mansubligimni tekshirib ko'rayotgandek sinchkov nazar tashladi. – Lekin afyun yaproqlariga qaytsak. Katta Chayon ular g'oyib bo'lganidan qayg'urmaydi. Aksincha, yaproqlar talon-toroj qilinganligi to'g'risida hamma yoqda shov-shuv ko'taradi va qolgan mollarining narxini ko'taradi. Boyni o'marishganda kambag'al aziyat chekadi.

– To‘ppa-to‘g‘ri. Bundan tashqari, men yaproqlarni qo‘riqlashga va‘da berganman va vijdonimga qarshi ish tuta olmayman.

– Haqsiz, yerlik janob. Biz ham vatanimizda shunday mulohaza yuritimiz, ammo bu yer, Mushuklar davlatida halollikning ma‘nisi yo‘q. Ochiq‘ini aytganda, Marsda shunday davlatning borligi sharmandali hol. Biz uning aholisini odam deb hisoblamaymiz.

– Shunday ekan, biz halol bo‘lishimiz yanada zarur. Mayli, ular odam emasdir, lekin biz insonlar-miz-ku! – qat‘iy dedim men.

– Yerlik janob, – gapga qo‘shildi yo‘g‘oni. – Biz vijdongingizni qiynashni aslo xohlamaymiz, biz sizni ogohlantirish, aldanib qolmaslikka o‘rgatish uchun keldik. Chet elliklar bir-birlariga yordam berishlari kerak-ku.

– Ehtimol, xorijliklar Mushuklar davlatiga qarshi birlashganliklari uchun u zaiflashib qolgandir.

– Qisman shunday. Biroq bizda — men o‘z sayyoramizni nazarda tutmoqdaman, harbiy kuchning o‘jizligi hech qachon xalqaro nufuzning pasayishi uchun sabab bo‘lmagan. Asosiy sabab qadr-qimmat va sha‘ning yo‘qotilishidir. Bunday davlat bilan hech kim hamkorlik qilishni xohlamaydi. Biz ko‘p jihatdan Mushuklar davlati oldida aybdor ekanligimizni bilamiz, ammo uni deb boshqa mamlakatlar bilan nizoga borishimiz ehtimoli kam. Marsda zaif davlatlar hali ko‘pligiga qaramasdan, ular qo‘shnilarining hurmatini yo‘qotmaganlar. Zero, o‘jizlikning sabablari ko‘p: jug‘rofiy joylashganlik, tabiiy ofatlar — bularning hammasi ahamiyatli. Bi-

roq bu davlatlarning birortasi o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q — hammasi aholining o'ziga bog'liq. Siz Yerdan uchib kelgan mehmonsiz, siz Katta Chayonning quli emassiz, ammo u sizni uyiga taklif qildimi? Mehmon qildimi? Yo'q, u faqat sizning afyun yaproqlarini qo'riqlashingiz bilan qiziqadi. Sizga aslo ig'vogarlik qilmoqchi emasman, faqat biz, chet elliklar nima uchun Mushuklar davlatidan hazar qilishimizni tushuntirmoqchimiz, xolos.

Yo'g'on kimsa nafasini rostdash uchun gapini to'xtatdi, suhbatga oriq qo'shildi:

– Siz hatto ertaga Katta Chayon uyiga kirishga ruxsat so'rasangiz ham, u yana sizni kiritmaydi. Nima uchunligiga qiziqayapsizmi? Hali bilib olasiz. Hozir sizga faqat bir narsani ma'lum qilaman: bu yerdagi chet elliklar shaharning g'arbiy qismida, o'z millatlari bilan ajralmasdan katta oiladek yashaydi. Biz ikkimizga mehmonlarni kutib olish topshirilgan. Ko'pni ko'rgan tashrif buyuruvchilar biznikiga o'zlari keladilar, yangi tashrif buyuruvchilarni kutib olish uchun har kuni soqchilarni yuboramiz. Nima uchun alohida koloniya¹ tashkil etganligimizni bilmogchimisiz? Chunki mahalliy aholini ozodalikka o'rgatishning mutlaqo iloji yo'q. Ularning ovqati — chinakam zahar, ularning shifokorlari... Eh, ularda umuman shifokorlar yo'q! Hozir batafsil to'xtalib o'tirishga hojat bo'lmagan boshqa sabablar ham bor. Qisqasi, siz to'g'ringizda g'amxo'rlik qilish uchun keldik. Bizga ishonavering!

¹ Koloniya — o'zga mamlakat yoki o'lkalarga ko'chib kelib o'rnatilgan kishilarning shaharchasi, mahallasi, qishlog'i.

Men ishonardim va hatto tilga olinmagan sabablarni fahmlayotgandim. Biroq men Mushuklar shahriga kelib qoldim, eng avvalo u bilan shug'ullaniшим kerak edi. Boshqa mamlakatlar yanada qiziqarlir, aytaylik, Yaltiroq mamlakat, aftidan, Mushuklar davlatiga qaraganda madaniyatliroq bo'lishi kerak. Shunday bo'lsa ham halokatga yuz tutgan tamaddunni o'rganish muhimroqdir. Tarixga umidsiz ko'z bilan qarash niyatim yo'q edi, balki mahalliy aholiga biroz bo'lsa ham yordam bermoqchidim. Ha, suhbatdoshlarimning samimiyligiga ishonardim, biroq bu yerda barcha aholi Katta Chayonga o'xshaydi deb o'ylamasdim.

Mehmonlar yana fikrlarimni uqishdi.

– Keling, hozir hech narsani hal qilmaylik, – so'z qotdi yo'g'on. – Siz biznikiga qachon kelsangiz ham xursand bo'lamiz. Yaxshisi, tunda yuring, bu sira toliqtirmaydi! To'g'ri G'arb tomon. Ko'rishguncha, yerlik janob!

– Rahmat. Albatta sizlarnikiga boraman, ammo avval hamma narsani o'z ko'zim bilan ko'rmoqchiman.

– Bu yerdagi ovqatdan ehtiyot bo'ling. Ko'rishguncha! – takrorlashdi ular. Men esa o'z fikrimda sobit qoldim.

Mahalliy aholini tarbiyalasa bo'ladi, ular juda soddadillar: askarlar o'zlarini savalasalar, kulishadi! Kun sal qorayishi bilan uyquga ketadilar va churq etmaydilar. Axir shunday xalqni dunyoviy qilsa bo'lmaydimi?! Ularning yaxshi rahbari paydo bo'lsa, shubhasiz, tinch va munosib fuqaro bo'la oladilar.

Uyqum kelmasdi. Tasavvurimda kamalakdek rang-barang manzaralar gavdalanardi: Mushuklar shahri qayta qurilib, ulkan gulzorga aylantirilgan. Hamma yoq top-toza, tartibli, chiroyli haykallar qad rostlagan, qushlarning quvnoq sayrashlari eshitiladi, musiqa jaranglaydi...

13

Katta Chayon uning toylarini saqlab qolganligim uchun rahmat ham demadi va navbatdagi tunda qayerda uxlashim bilan qiziqib ko'rmadi. Har holda uning uyida emas.

– Yo'q, yo'q! Biz bilan yashaydigan bo'lsang, seni hurmat qilmay qo'yishadi. Axir sen chet elliksan-ku. Nima uchun chet elliklarning mavzesiga bormaysan?

Qanday uyatsiz surbetlik! Yaltiroq mamlakat aholisining bashoratlari ro'yobga chiqayotgandi.

G'azabimni jilovlab, nega bu yerda qolgim kelayotganligini tushuntirishga harakat qildim. Keyin uning uyida yashamaslikka tayyorligim, faqat bu joyni ko'raman-u, keyin ketishimga shama qildim. U yana rozi bo'lmadi. Buni kutsa bo'lardi: o'rmonda o'tkazgan bir necha oy ichida hatto u qayerda tunashini aniqlamagandim. Hozir u afyun yaproqlari omboriga bir amallab kirib olishimdan qo'rqyapti, shekilli. Biroq ularni o'marmoqchi bo'lsam, buni kecha tunda qilishim mumkin edi.

Katta Chayon rozi emasligini bildirib, boshini sarak-sarak qildi: uyida ayollar borligi uchun meni qabul qila olmas ekan. Nigohimdan ayollar zahmat chekmasalar ham mantiqiy vaj. O'zi bu masalada nimani mulohaza qilasan!

Shu daqiqada devor ustida qari mushukning sochlari butkul oqargan, quritilgan qovoqqa o'xshash mo'ylovli boshi paydo bo'ldi. Bu Katta Chayonning otasi edi.

– Bizga chet elliklar kerak emas! Kerak emas! Kerak emas! – miyovlay ketdi u.

Sal bo'lmasa kulib yuboray dedim va shu bilan birga qovoq boshli qari mushukka hurmatni his etdim: u hech bo'lmaganda kuchlilardan qo'rqmasdi, hatto ulardan nafratlanardi.

Nafratlanish balki jaholatdan paydo bo'lgandir, ammo baribir u menga Katta Chayonga qaraganda vijdonliroq ko'rindi.

Bu vaqt meni qandaydir yosh mavjudot chalg'itdi, Katta Chayon esa bundan foydalanib, devor orqasida g'oyib bo'ldi.

Yosh yigit-mushuk Katta Chayonning o'g'li edi. Bu uchrashuvdan xursand bo'ldim: endi biryo'la uch avlod bilan tanishgandim. Katta avlodlar hayot va qudratlarini saqlab tursalar ham ular baribir o'tmishga mansub edilar. Mushuklar davlatining yurak urishini yoshlar orqali bilish kerak.

– Olisdan! – xitob qildim men. – Ayt-chi, bu chol buvangmi?

– Ha. U barcha kulfatlarga chet elliklar sababchi deb hisoblaydi, shuning uchun ulardan juda qo'rqadi.

– U ham afyun yaprog'ini iste'mol qiladimi?

– Tasavvur qilib ko'r, iste'mol qiladi, holbuki ular chegara ortidan olib kirilgan. U bu bilan chet elliklarni sharmanda qilyapmiz deb o'ylaydi.

Atrofimizda talaygina o'tkinchi yo'lovchilar to'planishga ulgurgandi, ular xuddi afsonaviy maxluqqa

duch kelganlaridek og'izlarini ochib va ko'zlarini yumaloq qilganicha menga boqardilar.

– Suhbatlashish uchun xoliroq joy topilmaydimi?

– Qayoqqa bormaylik, ular orqamizdan ergashadilar. Yaxshisi shu yerda gaplashaveraylik. Ular umuman bizni eshitishmayapti, faqat senga qiziqsinib qarashmoqda.

Kichik Chayonning to'g'riso'zligi menga juda yoqayotgandi.

– Mayli, shu yerda qolamiz. Otang to'g'risida gapirib bersang.

– U taraqqiyparvar shaxs, har holda yigirma yoshga to'lguncha shunday edi. O'shanda u afyun yaproqlariga qarshi bo'lgan, ammo keyin buvamning o'rmonini meros qilib olgan. U yana ayollarning ozodligini targ'ib qilardi, hozir esa uyimizda ayollar borligi uchun seni biznikiga kiritmayapti. Buvam ko'pincha men ham shunday bo'laman deydi: yetuk yoshga yetganda hamma ajdodlarining o'gitlarini eslab qoladilar. Buvam o'gitlardan boshqa hech narsani bilmaydi. Otam birmuncha o'zgacharoq. Yoshligida u hatto chet elliklarga taqlid qilardi, hozir esa bilimlaridan boylik orttirish uchungina foydalanadi. Yangilik kiritish kerak bo'lsa, manfaat uchun undan foydalanadi, biroq u, asosan buvam bilan bir xil.

Suhbatdoshimning hikoyasi meni hayratga soldi va ko'zimni qisdim. U ijtimoiy uzluksiz aylanib turish manzarasini chizib bergandek tuyuldi. Bu doiraning tashqarisida nimadir yalt-yalt etadi, ichida esa zim-ziyo va tobora quyuqlashayotgan qorong'ilik. Bu zimiston qachonlardir tarqab ketishi Kichik Chayon kabilarga bog'liq deb o'ylardim,

holbuki ularning asl dunyoqarashlarini ham, imkoniyatlarini ham bilmasdim.

– Sen afyun yaproqlarini iste'mol qilasanmi? – barcha kulfatlar ana shu yaproq ichiga yashirilgandek birdan shunday deb so'radim.

– Yeyman, – javob berdi Kichik Chayon.

Ijtimoiy uzluksiz aylanib turish manzarasi yanada xiralashdi.

– Chunki afyun yaproqlarisiz kurashib bo'lmaydi.

– Kurashish? Balki moslashishdir?

Kichik Chayon ancha vaqt sukut saqlab turdi.

– Ha, ehtimol, moslashishdir... – nihoyat javob qaytardi u. – Men chet ellarda bo'lganman, dunyoni ko'rdim, lekin hech narsa qilishni xohlamaydigan xalq orasida faqat moslashish mumkin, aks holda yashay olmaysan.

– Axir harakat qilishga o'zingning qurbing yetmaydimi?

– Befoyda! Tentak, soddadil, nochor, kayfiyati o'zgarib turadigan olomon. Faqat tayoqlarini ishga soladigan, afyun o'rmonlarini talon-toroj qiladigan va ayollarni zo'rlaydigan askarlar, o'ta dono, tamagir, kaltafahm va uyatsiz siyosatdonlar qarshisida men kimman? Qolaversa, o'z joning o'zingga shirin...

– Yoshlarning ko'pchiligi ham shunday fikrdami?

– Nima? Yoshlar? Bizda bundaylar yo'q. Aniqrog'i, bu toifa yoshi bilan belgilanadi, ulardan keyin keksalar keladi...

U so'kindi shekilli, biroq men tushunmadim.

– Bizning yoshlarimiz qariyalardan ham keksaroqdir, otamdan ham yomonroq...

– Yaramas muhit ta’sirini yodda tutish kerak, – uni yumshatishga urinib ko’rdim. – Juda katta ketmaylik.

– Yaramas muhit xalaqit beradi, albatta, biroq u uyg’otishga ham qodir! Yoshlar jo’shqin bo’lishlari kerak, tengdoshlarim esa tug’ilganlaridan beri chala-jonlar. Ular hamma narsadan norozi, ammo o’zlar uchun salgina manfaatli narsani sezib qolsalar, yuraklari toshga aylanadi...

Endi men tashvishlanib qoldim.

– Sen juda bo’rttirib yuborayotganga o’xshaysan. Gaplarimni ko’nglingga olma, biroq jasurlik yetishmayotgan mulohazali noumid shaxsga aylanish shartmi? O’zingning harakat qilishga no’noqligingni boshqalarning ayblari orqali tushuntirmoqchi bo’lyapsan, shuning uchun hamma narsani qora bo’yoqlarda ko’rmoqdasan. Atrofga boq, dunyo senga noumid bo’lib ko’rinmaydi.

– Balki, – kulumsiradi Kichik Chayon. – Ammo bu tadqiqot ishini o’zingga topshiraman. Sen olisdan kelding, ehtimol, hamma narsani menga qaraganda ravshanroq ko’ra olasan.

Bizni o’rab turgan tomoshabinlar o’z navbatida qanday kiprik qoqayotganligim va og’zimni ochayotganligimni o’rganib bo’lishgandi. Endi ularning qiziqishi shimlarimda mujassamlashgandi. Hali Kichik Chayonga behisob savollarim bor edi, lekin atrofimizda bir qultum ham toza havo qolmagandi. Suhbatdoshimdan o’zimga biror boshpana topib berishini iltimos qildim. U ham avval chet el mavzesiga borishni taklif qildi, bunda uning dalillari mushuk xorijliklarnikiga qaraganda ishonarliroq edi. Nihoyat shunday dedi:

– Sen hayotimizni o‘rganish bilan jiddiy shug‘ullanasan deb o‘ylamayman, qiziqqonliging hovuri tez orada uchib ketadi. Biroq haqiqatan ham shu yerda yashashga qaror qilgan bo‘lsang, senga joy topib beraman. Uning maqbulligi, to‘g‘risini aytganda, faqat u yerda afyun yaproqlarining iste‘mol qilinmasligidir.

– Asosiysi joy, qolganlari ahamiyatsiz! – xitob qildim men, chet el mavzesi xususidagi fikrlarimni quvishga harakat qilgan holda.

14

Vakil uyida joylashdim. Uy egasi allaqachon vafot etgan, uning bevasi o‘ziga xos bir xususiyatga (chet elga borib kelganidan tashqari) ega edi: afyun yaproqlarini yemasdi va bu haqda kuniga yuz marta takrorlardi. Qanday bo‘lmasin, nihoyat qo‘nim joy topdim va shahar uyining ichki tomonini ko‘zdan kechirish uchun devorga tirmashdim.

Ushbu devorga qo‘limni tegizganimda yuragim orqaga tortib ketdi: menga devor chayqalayotgandek va barmoqlarim orasidan to‘kilib tushayotgandek tuyuldi. Umuman devor zax loy nonga o‘xshardi, uning tepasiga chiqqanimda bunga uzil-kesil ishonch hosil qildim.

Uyning tomi umuman yo‘q edi. Yomg‘ir paytida nima qilisharkin? Qiziqish bu yerda yashab ko‘rish niyatimni yanada mustahkamladi. Devordan besh sarjin narida taxtasupa boshlanardi, uning tirqishidan vakilning bevasi qarab turardi.

Uning yapaloq yuzi va yeb yuborguday qarashi meni ajablantirmadi. Lekin undagi qalin upa qat-

lamidan qirov bosgan qovoqdagidek kulrang tuklar nish urib turardi. Ana shu biroz xijolatga solayotgandi.

– Buyumlarni taxtasupaga qo‘yish mumkin, tepa butunlay seniki, pastga tushmaysan. Kuniga ikki marta — tongda va qosh qorayganda ovqatlantiraman, kech qolma. Biz afyun yaproqlarini yemaymiz, ijara haqini oldindan to‘laysan! – vakila diplomatik muzokaralardan boxabar edi.

Qishloqda ekanligimda Katta Chayondan olgan milliy nufuzlardan besh yuztasini sanab berdim. Hamma yukim o‘zimda edi, buni ustunlik desa bo‘lardi, chunki taxtasupa va to‘rt devordan iborat uyga mebel olib kirish ahmoqlik bo‘lardi. Ushbu taxtasupadagi teshikdan yiqilib tushmasam bo‘lgani, qolgani risoladagidek. To‘g‘ri, taxtasupada teshikdan tashqari yana loy qatlami ham bor edi, uning hidi o‘zimning elchi qarorgohi to‘g‘risidagi tasavvurlaringa zid tushayotgandi. Tepadan kuydiradi, pastdan sasiydi... Umuman olganda odam-mushuklar nega kun bo‘yi ko‘chada tirband bo‘lishlarini tushundim.

Ulardan ibrat olishga ulgurmasimdan teshikdan yana xonim, orqasida esa undan yoshroq sakkizta mushuk ko‘rindi. Ular menga qat‘iyatsiz alanglab, devorga sakradilar. Beva ham endi devorda turgan holda razm tashlayotgandi.

– Biz ketyapmiz, ko‘rishguncha! – dedi u. – Nachora, erim vafot etganidan keyin bu ahmoqlar yelkanga mingashib oldi. Pul ham, er ham yo‘q, faqat ko‘z-quloq bo‘lib turishim kerak bo‘lgan sakkiz yosh maxluq. Biz afyun yaproqlarini yemaymiz. Erim vakil edi, o‘zim — uning rafiqasi, endi esa

tun-u kun bu suyuqoyoqlarni nazorat qilib turishim zarur!

Bu va'zdan keyin faqat juftakni rostlash qolgandi, aks holda beva qarg'ashi uchun so'z topolmayotgandi. Baxtinga, u fahmli ekan va darhol g'oyib bo'ldi.

Gumonlarimning tagiga yeta olmayotgandim. Bu yosh ayollar kimlar? Vakilning qizlarimi, singillarimi yoki jazmanlarimi? Albatta, jazmanlari! Undaylar Katta Chayonda ham bo'lsa kerak, shuning uchun meni uyiga kirgizmadi. Qari mushuk o'z ta'rifi bilan aytganda sakkizta "suyuqoyoqlar"ni qo'riqlayotgan taxtasupa pastida qanday ifloslik, chatoqlik, qo'lansa hukmronligini tasavvur etsa bo'ladi. Ana shunday uyda bekorga joylashdim... Ammo ijara puli to'langan va pastda nima ro'y berayotganligiga qiyo boqishim kerak emas. Ehtimol, uy egalari-ning yo'qligidan foydalanib qolsammikin? Yo'q, bu noqulay. Ikkilanib turar ekanman, devor ustida yana vakil rafiqasining boshi ko'rindi:

– Tezroq uydan chiq, sizlarni bilaman: mo'ralashga tushasizlar!

Xijolat tortib, devordan oshib tushdim. Qayoqqa boraman? Faqat Kichik Chayon bilan, u ishonqirama ham gaplashib ko'rish mumkin. Ammo hozir uni qayerdan topaman! U uyida emas, albatta, ko'chadan topish esa bir g'aram somon ichidan igna qidirgan bilan barobar. Olomon orasidan suqilib o'tar ekanman, uzoqdan, aftidan, zodagonlarning yoki davlat muassasalarining uylarini ko'rdim, chunki ular boshqalarga qaraganda ancha baland edi. Markazdan qanchalik uzoqlashsang, binolar shunchalik pastqam

va xarob edi — ular do‘konlar va kambag‘allar kulbalari, shekilli. Buni fahmlasangiz, Mushuklar shahrida yo‘l topish juda oson.

Olomondan bir gala ayol-mushuklar (ular odatda oq tanlilar) otilib chiqib, to‘g‘ri men tomon yo‘naldilar. Yana uyalib ketdim: Katta Chayon va vakil bevasi mahalliy ayollar nihoyatda ezilganligini tushuntirishgandi, bular esa xohlagan joylarida sanqib yurishadi — suyuqoyoqlar, shekilli. Notanishlardan ehtiyot bo‘lgan maqbul. Biroq qochib qolishga ulgurmasimdan Kichik Chayonning ovozini eshitdim:

– Xo‘sh, bittasini sovg‘a qilaymi? – tirjayardi Kichik Chayon o‘z dugonalariga boqar ekan. – Bu — Gul, anavisi — Afyun, afyun yaproqlaridan ham o‘tadi, narigisi esa — Yulduzcha...

U hamma ayollarning nomlarini aytib chiqdi, lekin barchasini yodimda saqlab qola olmadim. Afyun menga ko‘zini qisdi va bundan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Agar ular suyuqoyoqlar bo‘lsa, o‘z obro‘yimni o‘ylashim foydadan xoli emas, agar andishali bo‘lsa, ularni ranjitib qo‘ymasligim kerak. Ochig‘ini aytganda, ayollarni u qadar yoqtirmayman. Ularning suykalish odati, fikrimcha, aldanchiliklari va nosamiyliklaridan dalolat beradi. To‘g‘ri, ba‘zi ayollar suykalishmaydi, baribir ular ham mug‘ambirdir. Umuman, ayollardan uzoqroq yurishga va ular bilan olisroqdan munosabatda bo‘lishga harakat qilaman.

Kichik Chayon meni tushundi shekilli, hazillashib qizlarni chetga sura boshladi:

– Jo‘nanglar, jo‘nanglar! Gaplashib olishimizga xalaqit bermanglar!

Qizlar kulib yuborishdi, olomonga suqilib kirdilar, men esa hamon gangib turardim.

– Eski /arboblar jazman tutishga, yangi arboblar ayollarga uylanishga moyillar, biz — eskilardan bezganlar, yangilarni ko‘rgani ko‘zimiz yo‘qlar jazmanlarni ham, xotinlarni ham yaxshi ko‘rmaymiz, – xayolga cho‘mgan holda dedi Kichik Chayon. – Oddiygina xursandchilik qilganga nima yetsin. Bu — moslashuvchanlik. Biroq kim ayollarga moslashuvchanlikdan o‘zini tiyib tura oladi?

– Dugonalaring shundayki... – fikrimni qanday qilib yaxshiroq ifoda qilishni bilmayotgandim.

– Ular barcha ayollarga o‘xshaydi. Ularni kim qanday xohlasa yaxshi ko‘rishi ham, hurmat qilishi ham, boqishi ham mumkin. Ayollarning o‘zi hech qachon o‘zgarmaydi. Katta buvimning upa surtish odati bo‘lgandi, buvim ham, oyim ham, opa-singillarim ham, bu qizlar ham shunday qiladi, umuman bu qizlarning nevaralari ham upa surtadigan bo‘ladi. Ularni uyga qamab qo‘ysang ham upa surtadi, ko‘chaga quvsang ham bilganidan qolmaydi.

– Xuddi shunday! – xitob bilan dedim.

– Nima bo‘pti? Ularning zaifaligini tan olgan holda bevosita bu bilan ayollarga hurmatimizni ko‘rsatamiz. Erkaklar ayollarga dam tin olmasdan aldanchilik qiladilar, dam avliyoga aylanadilar, dam yirtqichga. Ayollar esa hamisha pokiza, doimo tez zabtli va tabiatan u qadar go‘zal bo‘lmasalar upa surtadilar. Agar erkaklar o‘zlarining yuzlari yetarlicha chiroyli emasligini his etganlarida ular ham upa surtadigan bo‘lardilar.

U o'zining antiqa nazariyasiga o'zi ishonishini tushunmasdan o'yg'a toldim. Kichik Chayon esa davom etdi:

– Hozir sen vakil bevasining va otamning ashad-diy dushmanlari — nomi ayol deb ataladiganlarni ko'rding. Bu otamning ular bilan mushtlashishga tayyorligini bildirmaydi. U bu ayollarni o'z qizlari kabi pullay olmasligi yoki jazmanlari singari uyda qamab qo'ya olmasligi uchun ko'rgani ko'zi yo'q. Ularni vakil bevasi yoki onamga nisbatan aqlliroq yoki kuchliroq deb bo'lmaydi. Yo'q, ular chinakam ayollardir, yanada dangasaroqlar, yanada kam mulohazaliroqlar, ammo upani yaxshiroq surtadilar. Ular juda dilbarlar, hatto mendek odamovi ham ularga ilakishmay qolmaydi.

– Nima, ularni yangi ruhda tarbiyalashganmi?

– Tarbiyalaganlar? – qichqirib yubordi Kichik Chayon juda g'alati asabiylashgan holda. – Bizda maktabdan boshqa hamma yerda tarbiyalashadi. Buvam so'kinadi — tarbiya, otam afyun yaproqlari bilan savdo qiladi — tarbiya, vakilning bevasi erining sakkizta jazmanini tiriklayin ko'madi — tarbiya, ko'chadagi badbo'y zovur — tarbiya. Bunga odamlarni boshini savalaydigan askarlar ham, boshqalarga qaraganda yaxshiroq upa surtadigan ayollar ham xizmat qiladi. Menga tarbiya to'g'risida gapirganlarida keragidan ortiqcha afyun yaprog'ini yeyman, aks holda ko'nglim ayniydi.

– Bu yerda maktablar ko'pmi?

– Ko'p. Ularni hali ko'rmadingmi?

– Yo'q.

– Ko‘rishing kerak. Bizda hamma yoqda madaniyat muassasalari. Ular madaniyatga taalluqliligi jumboq, ammo muassasalar bor, – zaharxandalik bilan tirjaydi Kichik Chayon va to‘satdan boshini ozod ko‘tardi. – Ish chatoq, yomg‘ir yog‘adiganga o‘xshaydi!

Osmonda bulutlar kam edi, biroq shamol tobora kuchliroq esayotgandi.

– Uyg’a qaytish vaqti keldi! – dedi yomg‘irdan qo‘rqayotgani bilinib turgan Kichik Chayon. – Havo ochilib ketganida shu yerda uchrashamiz.

Odamlar oqimi bo‘ron uchirayotgandek yela boshladi. Men tomsiz uyda baribir jiqqa ho‘l bo‘lishimni bilsam ham yugurardim. O‘zim shunchaki butun shahar go‘yo telbadek devorlarga tirmashi-shini ko‘rish uchun chopqilardim.

Shamolning shiddati kuchaydi, osmon darrov qoraydi, ulkan qizil chaqmoq yergacha uchib keldi va uylar chizig‘i bilan kesishdi. Momaqaldiraq gulduradi, shundan keyin tovuq tuxumidek keladigan yomg‘ir tomchilari yog‘ildi. Uzoqda nimadir shitirladi, yomg‘ir bir lahza tindi, osmon biroz yorishdi va to‘satdan yana shamol, yana chaqmoq chaqishi, yomg‘ir tomchilari esa qudratli oqimga birlashdi. Osmon ko‘rinmay qoldi. Keyin yomg‘ir oqimi kutilmaganda egildi, titray ketdi va u ham yo‘qoldi. Chaqmoq chaqishidan boshqa hamma narsa g‘oyib bo‘ldi.

Lekin men ivib ketgandim va asosiysi, uyim qayerdaligini bilmasdim. Qaysidir devordan chetlashib, yangi chaqmoq chaqishini kutardim. Menga osmonda bahaybat qora mal‘un ko‘zlarini charaqlata-

yotganga o‘xshab tuyulardi — bu yaltirash o‘zimga yordam bermagani ajablanarli emasdi. Kimning uyi bo‘lsa ham mayli, tirmashay, u yog‘i bir gap bo‘lar! Devorga ko‘tarilganimda tanish tebranishdan to‘satdan vakilning uyiga kelib qolganimni tushundim. Ammo shu lahzada alohida bir yorqin chaqmoq chaqnadi, devor qiyshaydi va men ko‘zimni qisganimcha qayoqqadir uchib ketdim.

15

Chaqmoq chaqishlar uzoqlasha boshladi. Buni tushimda eshityapmanmi yoki o‘ngimda? Ko‘zimni ochishga urinaman, ammo uddasidan chiqa olmayman, chunki vakil uyining hamma loyi menga yopishganga o‘xshaydi. Ha, bu chinakamiga momaqal-diroq ekan, o‘zimga kelganim aniq. Qo‘limni ham, oyoqlarimni ham qimirlata olmayman — ular kimdir meni yerga urug‘ o‘rniga suqqanidek toshlar va loy bilan ko‘milgan.

Nihoyat qo‘lim va boshimni bo‘shata oldim: vakilning uyi shaklsiz loy uyumiga aylangandi. Qaddimni biroz ko‘tarib, o‘zim haqimda emas, tiriklayin ko‘milgan uy egalari haqida tashvishlanib, yordamga chaqiraman. Yomg‘ir hali tomchilab turibdi, baqirishimga hech kim javob bermayapti. Chunki odam-mushuklar suvdan qo‘rqishadi va yomg‘ir to‘xtamaguncha aslo yordamga kelmaydilar.

Loydan butkul sug‘urilib chiqib, hatto jarohat olgan-olmaganligimga qaramasdan telbalardek loyni atrofga uloqtiraman. Bu vaqtda yomg‘ir to‘xtadi va barcha aholi ko‘chaga chiqdi. Men yana yordamga chaqirdim, odam-mushuklar yugurib keldi va chetda

turib olishdi. Ular meni tushunmayaptilar deb o‘y-lab, o‘zimni emas, yerga ko‘milgan ayollarni qutqarish zarurligini uqtirardim. Mushuklar yaqinlashdi va yana to‘xtashdi. Shunda ularga iltijo qilish befoydaligi yodimga keldi va pulimni qidirishga tushdim, baxtinga ular cho‘ntagimda ekan.

– Qazishga yordam beradigan har kim bir milliy nufuzdan oladi!

Ular menga ishonqiramasalar ham biroz jonlandilar. Men tangani qo‘lda aylantirdim. Tomoshabinlar ari uyasidek uyumga tashlanishdi, biroq ularning har biri mening hisobimga boyib olish uchun atigi bittadan tosh yoki g‘ishtni sug‘urib olardi. Mayli, jin ursin, qazishga yordam bersalar bo‘lgani. Ammo naqadar ajablanarli bo‘lmasin, ularning ishi bir to‘p sholini tashib ketayotgan chumolilarnikidek barakali bo‘layotgandi. Bir daqiqadan keyinoq yer ostidan ovoz eshitildi, tinchlandim va shu ondayoq yana hayajonlanib ketdim, chunki birgina uy bekasining o‘zi baqirayotgandi. U teshikda o‘tirardi (biz buni xarobalarni tozalaganimizdan keyin bildik), boshqa ayollarni taxtasupa bosib qolgandi va ular qimir-lamasdi.

Bevaga yordam bermoqchi edim, biroq u g‘azab bilan qo‘limni itarib yubordi.

– Teginma, men vakilning bevasiman! Hozirning o‘zidayoq g‘ishtlarimni qaytarib beringlar, aks holda Janobi Oliylari huzuriga shikoyat qilib boraman!

Bevaning ko‘zlariga loy chaplangandi, lekin u o‘z qabiladoshlarining odatlarini bilgani uchun uyini talon-toroj qilayotganliklarini payqagan edi.

Ammo g'ishtlarni qidirish befoyda edi: ayrim yordamchilar tuproqni ham hovuchlab olib ketishayotgandi. "Qashshoqlik odamlarni qanday ahvolga solib qo'ygan-a, – deb o'yladim. – Ular uylariga qup-quruq borgandan ko'ra bir hovuch tuproq eltishni afzal deb biladilar".

Vakil bevasi boshidagi loyni tatalab, tiralgan lunjini, boshining tepasidagi kattagina shishni va g'azabdan charaqlayotgan ko'zlarini namoyon qildi. U oqsoqlangan holda to'satdan talonchilardan biriga tashlandi va haqiqiy mushukning chaqqonligini ko'rsatib, tishlari bilan uning qulog'iga yopishdi. Talonchi dodlab yubordi va ayolning qornini chaggallari bilan do'pposlab, hujumni daf qila boshladi. Ular bir joyda uzoq vaqt yumdalashdilar. Nihoyat kampirshoning ko'zi halok bo'lgan qizlardan biriga tushdi, shundan so'ng talonchini qo'yib yubordi, u esa o'q bo'lib juftakni rostladi. Boshqa yordamchilar ham qo'rqinchdan xo'rsinganlaricha tarqaldilar. Beva qiz murdasini quchoqlab, achchiq ko'z yoshlarini to'kishga tushdi.

"Qarang-a, u rahmdillik hissini yo'qotmagan ekan!" – deya o'yladim, ammo o'z qulog'imdan xavfsirab, uni yupatishga tushmadim.

Kampirsho to'yib yig'lab olgach, menga yuzlandi: – Hammasiga sen aybdorsan! Sen uyimni yakson etding, ular esa talon-toroj qilishdi. Biroq sizlar mendan qochib qutula olmaysizlar! Men Janobi Oliylariga shikoyat qilaman va u hammangizni qatl qiladi!

– Qochish niyatim yo'q, – dedim ohista. – Aksincha, sizga yordam bermoqchiman.

– Senga ishonaman, chunki chet elliksan. Anavi muttahamlar ustidan esa Janobi Oliylariga shikoyat qilishga to‘g‘ri keladi. Ularning uylarida tintuv o‘tkazish kerak va kimnikida bitta g‘isht topilsa ham qatl qilinishi zarur! Men vakilning bevasiman!

G‘azabdan uning og‘zidan so‘lak otilardi. Beva xonim haqiqatan ham imperator huzuriga kirish huquqiga egaligiga ishonchim komil emasdi, biroq uning aqldan ozganidan xavfsirab, ayolni tinchlantirishga tushdim:

– Keling, avval ularni dafn qilaylik...

– Sen ularni qanday ko‘mish kerakligini bilasanmi? Bu suyuqoyoqlar tirikligida tashvishlaridan to‘yganman. Ular bilan o‘zing shug‘ullanishing mumkin.

Sukut saqladim, chunki mushuklarni dafn etish qoidalaridan zarracha xabarim yo‘q edi. Vakil bevasining qarashi yanada dahshatliroq tus oldi: ko‘z yoshlari telbalarcha yonishdan qurib qolganga o‘xshardi, ko‘zining oqlari esa qandaydir fosfor nurini taratardi.

– Hech bo‘lmasa senga shikoyat qilishga ruxsat ber! – qichqira ketdi u. – Men vakilning bevasiman, afyun yaproqlarini yemayman, pulim ham, erim ham yo‘q, hech bo‘lmasa senga shikoyat qilishga ruxsat ber!

Kampirsho chindan ham aqldan ozganligini tushundim: u boshiga tushgan barcha kulfatlarda meni aybdor qilganini unutgandi va ko‘nglidagini to‘kib solmoqchi edi.

– Mana bu shaytonchani, – u murdalardan biriga barmog‘ini bigiz qildi, – erim o‘n yoshligida olib kelgan edi. Uning tanasi hali qotmagan, erim esa

qizchadan lazzatlanishni boshlab yuborgandi. Esimda, birinchi oylarda bu shaytoncha qosh qorayishi bilan yig'lashga tushar, otasi, onasini chaqirar, qo'limni mahkam tutganicha o'zini yolg'iz qoldirmaslikni iltijo qilardi. Ammo men oqila xotinman, qandaydir o'n yashar shumtaka deb vakil bilan janjallasha olmasdim. Erim lazzatlanar ekan, xalaqit bermayman, men xotiniman. Bu shaytoncha esa xo'jayin yaqinlashi bilanoq qichqirishga tushardi: "Vakila xonim, vakila xonim! Mehribonim, meni qutqaring!" Biroq men unga o'xshaymanmi, janobimning lazzatlanishiga xalaqit qilishga qodirmanmi? Keyin esa u o'likdek yotardi, balki mug'ambirlik qilardi, balki haqiqatan ham hushidan ketardi. Bu bilan ishim yo'q edi. Unga dori, ovqatlar tiqishtirardim, shumtaka esa biror marta bunga rahmat ham demadi! Keyin u ulg'aydi va shu darajaga yetdiki, o'zi vakilni yutib yuborishga tayyor edi. Erim har gal yangi qizni yetaklab kelganida bu shaytoncha kun-u tun ho'ngrardi, yana vakilga xalaqit berishimni so'rar-di, lekin men uning xotiniman, agar qizlarni sotib olmaydigan bo'lsa, kim uni hurmat qiladi? Qizaloq yana meni erimni ehtiyot qilmasligimda, uni holdan toydirishda ayblardi.

Kampir o'lik mushuk boshini o'zidan itarib yubordi va boshqasining sochini changalladi.

– Bu maraz o'shalardan edi. Kun bo'yi afyun yaproqlarini yerdi va bunga erimni ham o'rgatish payida bo'lardi. Afyun yaproqlarini iste'mol qiladigan vakilni chet elga yuborishadimi? Erimga ayollar bilan don olishishini man etmasdim, ammo uning issiq joyini yo'qotishiga ham yo'l qo'ya olmasdim.

Sen vakilning xotini bo'lish naqadar mashaqqatli ekanligini tasavvur ham eta olmaysan! Kunduzi bu surayyo afyun yaproqlarini o'g'irlamasligini, kechqurun esa ularni erimga yedirmasligini nazorat qildim... La'nati mal'un! U hamisha qochib ketish payida edi. Agar vakilning jazmani qochib ketsa, biz abadulabad sharmanda bo'lardik!

Vakil rafiqasining ko'zi yana charaqladi, u navbatdagi boshni tutdi.

– Manavi harom o'lgur g'irt ablah edi! Tag'in zamonaviylardan. Uyimiz ostonasidan hatlamasdan turib, vakildan hammamizni quvib yuborishni va faqat birgina o'zi uning xotini bo'lishini talab qildi. Hah, hah, hah! Qarang-a! Erim unga faqat unvoni tufayli yoqib qolganmish. Vakil boshqa jazmanlarini sotib olgan bo'lsa, bunisi o'zi, tekinga qo'yniga kirdi. U butun boshli ayol zotini sharmanda qildi! Bu yerda u paydo bo'lgach, erim bizga og'zini ham ocha olmaydigan bo'lib qoldi. Va hamma vaqt uning ketidan ko'chaga sudralardi, qonuniy xotinidek mehmonga olib borardi. U holda men kim bo'laman? Vakilga manjalaqilarni sotib olishiga to'sqinlik qilmasdim, bu kerak, biroq xotini men edim va anavi turqing qurg'urning adabini berib qo'yish kerak edi. Uch marta chirmab bog'lab tashladim, yomg'ir ostida ivitdim, oqibatda halimdek bo'ldi-qoldi. Janobimdan uyiga qo'yib yuborishni so'ray boshladi, go'yo u o'zini aldangan deb valdirardi... Buni qo'yib yuborishim, yana erga chiqishga yo'l qo'yishim mumkinmidi? Bekorlarni aytibdi...

Vakilning rafiqasi bo'lish qiyin, juda qiyin. Kun-untun undan ko'zimni uzmasdim. Baxtinga erim anavi

qizni sotib oldi, – kampir o‘girildi va boshqa murdaga barmog‘ini o‘qtaldi. – U menga yomon munosabatda emasdi, hatto o‘sha manjalaqiga qarshi ittifoq tuzdik. Biroq hamma ayol bir go‘r, erkaksiz yashay olmaydi. Vakil yangi jazmani bilan ko‘rpadaligida tun bo‘yi o‘kirardi, men esa hozir-u nozir edim: “Sen qonuniy xotin bo‘lishni xohlardingmi? – so‘rardim undan. – Vakil bilan birga yashamoqchiydingmi? Menga boq! Haqiqiy xotin erihi, yana vakilni to‘laligicha o‘ziniki qila olmaydi: bu senga bir umr bir xotin bilan yashaydigan baqqol emas!”

Xonim yana o‘z raqibasining boshini tutamladi, bir necha bor yerga urdi va menga tikildi. Qo‘rqqa-nimdan tisarildim.

– Erim tirikligida tinim bilmasdim: bu qari qizlardan birini do‘pposlash, boshqasini qarg‘ash, uchinchisidan ehtiyot bo‘lish kerak edi. Ular vakilning hamma pulini sovurdilar, butun kuchini zulukdek so‘rib oldilar, ammo o‘zlaridan bitta o‘g‘il ham qoldirmadilar. Tug‘ishga tug‘ardilar, lekin chaqaloqlarning birontasi tirik qolmasdi. Birontasi o‘g‘il ko‘rsa, u bosh jazmanga aylanib, xo‘jayinning alohida sevgisiga sazovor bo‘lmasligi uchun qolgan yettitasi kun-u tun bolani holdan toydirish payida bo‘lardilar. Ularga havas ham qilmasdim, xalaqit ham bermasdim: o‘z farzandlari hayotiga zomin bo‘lishayotgan bo‘lsa, bu — ularning ishi. Men qonuniy xotinman, mening o‘z mavqeyim bor... Vakil vafotidan keyin bu sakkiz jazman menga pul va o‘g‘illar o‘rniga qoldi! Lekin ularning qochib ketishiga yoki yana erga tegishiga yo‘l qo‘ya olmasdim. Ertalabdan kechgacha xirillab, bo‘g‘ilib qolgunim-

cha ularni tinchlantirar, hayotning buyuk hikmatlariga o'rgatardim. Ular biror narsani tushunardi deb o'ylaysanmi? Qani edi! Ammo umidsizlanmasdim va o'zimning o'ta himmatli ishimni davom ettirardim. Nimaga umid qilardim deysanmi? Hech narsaga, faqat yuksak ruhiy fazilatlarim, oliyjanobligim Janobi Oliylarining qulog'iga yetib borishiga va u zot menga nafaqa tayinlashiga, shuningdek, "Sodiq va matonatli rafiq" so'zlari bitilgan katta lavhaga. Biroq... eshitdingmi, hozir yig'laganimni eshitdingmi?

Men bosh silkitdim.

– Nima uchun yig'ladim? Manavi o'lik hayvonlar uchun deb o'ylaysanmi? Shunisi kam edi! O'z taqdirimga, afyun yaproqlarini iste'mol qilmaydigan va hozirgina uyi qulab tushgan vakil bevasining qismatiga yig'ladim. Hamma topgan-tutganlarim yakson bo'ldi. Agar Janobi Oliylari meni qabul qilsalar va qimmatbaho taxtlarida o'tirib: "Vakila xonim, sizning qanday xizmatlaringiz bor?" deb so'rasalar, ularga nima deb javob beraman? Vafot etgan erimning sak-kizta jazmanini qo'riqladim, ular yomon yo'lga kirib ketishlariga yoki qochishlariga yo'l qo'ymadim, deb guvranamanmi? Janobi Oliylari: "Ular qani?" – deb so'raydilar va men jazmanlar o'lganligini aytishga majbur bo'laman. "Jasorating dalillarini ko'rsat?" – deb yana so'roqqa tutadi Janobi Oliylari...

Vakilaning boshi ko'ksiga qadaldi. Unga yaqinlashmoqchi edim, lekin beva menga yopishib qoladi deb qo'rqardim. Kutilmaganda kampir boshini ko'tardi:

– Vakilning bevasi chet elga borgan, afyun yaproqlaridan voz kechgan!.. Nafaqa!.. Katta lavha!..

Uning ko'zlari nursiz bo'lib qoldi, boshi egildi va o'zi ikki mushuk murdasi o'rtasida cho'zildi.

16

Vakil bevasining arz-dodidan dilim xufton bo'lgandi, chunki uning hikoyasida Mushuklar davlatida yuzlab yillar davomidagi ayollarning qismati o'z ifodasini topgan, qo'lim tarixning eng qabih sahifalarini varaqlab chiqqan va ularni o'qishni davom ettirishga qurbim yetmay qolgandi.

Chet el mavzesiga bormaganim chakki bo'ldi, yana boshpanasiz qoldim. Qayerga borsam ekan? Qulab tushgan uyni qazishda menga yordam bergan odam-mushuklar o'z haqlarini olishni kutishayotgandek hamon menga tikilib turardilar. Ha, ular vakil qarorgohi vayronalarini tashib ketdilar, biroq bu ularni va'da qilingan puldan mahrum etmasdi.

Qo'limni cho'ntagimga suqib, o'n besh milliy nufuz oldim va yerga uloqtirdim, uni o'zlari bo'lib olishaversin. Boshim tars yorilib ketay derdi — kasallanib qolayotganga o'xshayman. Uy egalari-ni tiriltira olmayman, kampir ostida qon halqobi ko'rinardi, u xuddi vafotidan keyin ham erining jazmanlarini kuzatayotganidek ko'zlari baqrayib turardi. Ularni dafn etish uchun kuchim yetmasdi, qo'shnilarining bu bilan ishlari yo'q, umuman jirkanishdan va noumidlikdan bo'g'ilayotgandim.

Shunday ekan, bu yerda nima qilib turibman? O'rnimdan zo'rg'a ko'tarildim va aholining chet elliklar kuchiga ishonchini qo'porib, oqsab-to'qsab zo'rg'a sudrala boshladim. Ko'chalar yana odamlar bilan gavjum edi. Bir nechta yosh odam-mushuk

devorlarga bo‘r bilan allanimalarni yozardi. Devorlar deyarli qurigandi va shamol esa boshlashi bilan yozuvlar juda yaqqol ko‘zga tashlandi: “Ozodalik uchun harakat”, “Hammasi yuvilgan”... Boshim lo‘qillab og‘riyotganiga qaramasdan kulishdan o‘zimni to‘xtata olmadim. Ular o‘ta chaqqon chiqib qolishdi: yomg‘ir butun shaharni yuvganidan keyin hamma yoqni tozalash biror sa’y-harakat talab qilmaydi! Hatto qo‘lansa zovurdagi suv ham shaffof bo‘lib qolgandi. Ozodalik uchun harakat! Hah, hah, hah! Ehtimol, aqldan ozgandirman? To‘pponchamni olib, bu shiorlarni yozganlarni otib tashlagim keldi.

Shu vaqtda Kichik Chayonning madaniyat muassasalari haqidagi hazili yodimga tushdi va ularni ko‘rish uchun emas, shunchaki, ovloq joy topish uchun chetga burildim. Menga hamisha ko‘chadagi uylar bir-biriga qarab turishi kerakdek tuyulardi, bu yerda esa faqat orqa devorlar ko‘rinardi. Shaharsozlikdagi bu yangi tartib bosh og‘rig‘imdan chalg‘itdi, holbuki, uylarning bunday joylashishi toza havo va quyosh nurini xush ko‘rmaydigan odam-mushuklarga juda ma‘qul kelishini anglardim. Uylar orasida yorug‘ tushadigan biror bo‘shliq yo‘q — umuman ko‘cha emas, yuqumli kasalliklar tarqatadigan korxonalar. Boshim yana og‘riy boshladi, bundan kayfiyatim juda buzildi, chunki o‘zga yurtda kasallanish Xitoyga qaytib borish imkoniyatidan mahrum bo‘lishni anglatardi.

Birinchi duch kelgan soya joyga ko‘zim tushib, o‘sha yerga cho‘zildim va shu ondayoq hushimdan ketdim.

Ko‘zimni esa xonada, tag‘in ozoda xonada ochdim. Bu menga shu qadar g‘ayritabiiy ko‘rindiki, xuddi haroratim ko‘tarilib ketib, alahsirayapman deb o‘ylab, peshanamni ushlab ko‘rdim. Ammo peshanam issiq emasdi. Bundan yanada taajjublandim va o‘zimni behol sezayotganim uchun tag‘in uxlamochi bo‘ldim. Ohista odimlar quloqqa chalindi, ko‘zimni xiyol ochdim — e, bu afyun yaproqlaridan ham a‘lo Afyun ekan. U menga yaqinlashdi, peshanamni ushlab ko‘rdi, keyin sekingina dedi:

– U o‘zini yaxshiroq his etyapti.

Ko‘zimni to‘la ochishga jur‘at eta olmayotgandim, chunki bu qizga nima uchun kerak bo‘lib qolganimni bilmasdim. Lekin shu payt Kichik Chayon kirdi va men tinchlandim.

– Xo‘sh, ahvoli qalay? – so‘radi sherigim. Afyun javob qaytarishini kutmasdan ko‘zimni ochdim.

– Tuzalib qoldingmi? – xursand bo‘lib ketdi Kichik Chayon.

O‘rnimdan turib o‘tirdim va darhol o‘z qiziqishimni qondirmochi bo‘ldim.

– Bu sening xonangmi?

– Ikkalamizniki, – Kichik Chayon Afyunga ishora qildi. – Avval boshdan seni shu yerga joylash-tirmochi edim, biroq otamning jahli chiqishidan qo‘rqdim. U seni o‘z xususiy mulki deb biladi va sen bilan do‘stlashishimga yo‘l qo‘ymaydi. Otam busiz ham menda chet elliklarga xos qiliqlarim ko‘pligini aytadi.

– Sizlardan minnatdorman, – deya oldim men xonani ko‘zdan kechirar ekanman.

– Bu yer ozodaligidan ajablanayotgan bo‘lsang kerak? Bu — otam aytgan o‘sha chet el qiliqlarim.

Kichik Chayon va Afyun kulib yuborishdi, o‘zim esa yigit chindan ham chet ellikka o‘xshaydi degan xayolga bordim. Hatto uning lug‘ati ham otasinikidan ikki baravar boy edi. Aftidan, Kichik Chayonning ko‘pgina so‘zlari boshqa mushuk tillaridan olingan.

– Bu o‘zingizning uyingizmi? – so‘radim men.

– Yo‘q, bu madaniyat muassasalaridan bittasi, biz shunchaki uni egalladik. Yuqori martabali kishilar muassasalarni egallab olishlari mumkin. Bu odat to‘g‘riligiga ishonchim komil emas, biroq biz hech bo‘lmaganda uni ozoda saqlaymiz, aks holda ushbu joyda madaniyatdan asar ham qolmasdi. Umuman, bir safar aytganingdek, moslashyapmiz. Afyun, unga yaproqlardan yana uzat!

– Ularni yedimmi?!

– Agar senga afyun yaproqlarining sharbatlarini ichirmaganimizda hech qachon ko‘zingni ochmasding. Bu yerda u hammabop vosita. Agar u davolamasa, demak, holing voy. Afyun yaproqlarining bitta qusuri bor: kasallarni davolaydi, mamlakatni esa xonavayron qiladi! – dedi Kichik Chayon o‘zining ishonqiramovchi iljayishi bilan.

Yana biroz sharbat ichdim va haqiqatan ham tetik tortdim. Ammo hech narsa qilgim kelmayotgandi. Yaltiroq davlatning aholisi va boshqa xorijliklar alohida joylashib, juda zukkolik ko‘rsatganlar. Mus-huklar tamadduni bilan hazillashib bo‘lmaydi: unga yaqinlashsang, hamma yog‘ingni moydek chulg‘aydi yoki girdobdek hech qachon chiqa olmaydigan domiga tortadi.

Mushuklar davlatiga kelmagan ma'qul, lekin qadaming yetgan bo'lsa, muqarrar ravishda mushukka aylanasan. Mana, o'zim: afyun yaproqlarini iste'mol qilishni xohlamasdim, xo'sh oqibatda-chi? Baribir yemoqdaman! Tanlov chinakamiga o'ta qat'iy: yoki sen bu yerdamassan va afyun yaproqlarini yemaysan yoxud shu yerdasan va yeysan! Agar bu tamaddun butun Marsni qamrab olganida — Mushuklar davlati aholisining ko'pchiligi bu orzularidan umidvorlar — marsliklar tez orada ifloslik, kasalliklar, tartibsizliklar, ahmoqlik, o'taketgan jaholatdan qirilib ketgan bo'lardilar. To'g'ri, mushuklar tamadduni-ning yorug' tomonlari ham bor, biroq ular zimiston bilan kurashda g'olib chiqishga qodir emaslar. Ajoyib kunlarning birida bu nodonlik haqiqiy ezgulik tomonidan mag'lub etilishini yoki mikroblarni qiradigan og'u singari yo'q qilinishini sezardim. Biroq bu odam-mushuklarning xayoliga ham kelmasdi. Balki Kichik Chayon bu haqda o'ylayotgandir, ammo shaxmat o'yini yutqizilgan deb hisoblar, beparvolik bilan shaxmat donalarini aralashtirar va o'z mag'lubiyati ustidan kulardi. Boshqa odam-mushuklar esa bamaylixotir uyqudalar.

Kichik Chayondan siyosat to'g'risida ham, ta'lim to'g'risida ham, armiya to'g'risida ham, molliya to'g'risida ham, xo'jalik to'g'risida ham, oila to'g'risida ham so'rab-surishtirmoqchiydim...

— Siyosatni yaxshi tushunmayman, — dedi u. — Bu to'g'risida otamdan so'rash kerak, u — mutaxassis. Boshqa narsalardan ozmi-ko'pmi xabardorman, lekin o'zing bularni kuzatib yurishing, keyin mendan so'raganing ma'qul. Chinakamiga faqat mada-

niyat sohasiga fahmim yetadi, chunki otam hamma narsani kuzatib borishga ulgurmagani uchun uni menga topshirgan. Agar sen maktablar, muzeylar, kutubxonalarni ko'zdan kechirmoqchi bo'lsang, bir og'iz shipshitsang yetarli...

Afyun sharbatini ichganimdan keyin o'zimni yaxshiroq his eta boshladim: ota-bola Chayonlar tufayli Mushuklar davlatidagi hayotning deyarli eng asosiy sohalari — siyosat va madaniyat bilan tanishaman! Biroq bu pokiza xonada qola olamanmi? Rostini aytganda, uni tark etishni aslo xohlamayotgandim va ayni paytda uy egalari oldida o'zimni yerga urishni istamasdim. Mayli, kutay-chi, buni o'zlari hal qilsin.

Kichik Chayon, eng avvalo nimani ko'rishni xohlayotganligimni so'radi. Hali ham qo'zg'alishga tobim yo'q bo'lib, undan o'z hayoti to'g'risida gapirib berishni so'radim. U kulumsiradi. Bu iljayish menga har safar ham dilbar, ham yoqimsiz bo'lib tuyulardi: Kichik Chayon boshqa odam-mushuklardan ustunligini aniq his etardi, biroq changallarini iflos qilmaslik uchun hech narsaga qo'l urgisi kelmasdi! U, balki Mushuklar davlatida tug'ilganidan aziyat chekardi, o'zini tikanli yovvoyi qushqo'nmas o'tlar ichida yagona atirguldek tasavvur etardi, men esa kekkayishni suymayman.

– Bolalik yillarim to'g'risida gapirish qiziqarli emas, – deb boshladi Kichik Chayon undan ko'zini uzmayotgan Afyun yonida o'tirar ekan. – Ota-onam meni yaxshi ko'rardi, ammo bunga o'zimning qanday aloqam bor? Buvam ham yaxshi ko'rardi — buning ham ajablanarli joyi yo'q, chunki barcha buvalar nevaralarini suyadi. U o'ylanib qoldi,

boshini ko'tardi, Afyun ham bularni nigohi bilan kuzatib turardi: — Lekin sen bilishing kerak bo'lgan, o'zim gapirishni xush ko'rmaydigan bir masala bor: meni fohisha emizgan. Bu menga boshqa bolalar bilan birga o'ynash man qilinganidek oilamizdagi odatiy holdir. Fohisha nega bola bilan kuymalanishga rozi bo'lganini so'rashing mumkin? Pul uchun. Bizda "Pul hatto iblisni ham shaydo etadi" deyishadi. Uni shuning uchun yollashganki, fohishalar — o'g'il bolalar, askarlar — qiz bolalar uchun eng yaxshi tarbiyachi hisoblanadi. Jins masalasida saboq olgan bolalar erta uylanadilar, o'zlari farzand ko'radilar va bu bilan ajdodlarini mamnun qiladilar.

Mushuklar davlatining barcha fanlari bo'yicha fohishadan tashqari to'nkaga o'xshaydigan yana besh-ta o'qituvchi ta'lim berdi. Keyin o'qituvchilardan biri to'nkaga o'xshamay qoldi va emizuvchim bilan birga qochib ketdi, qolganlari esa asta-sekin ishdan bo'shadilar. Ulg'ayganimdan keyin otam meni chet elga yubordi. U chet tilda bir nechta so'zni aytadigan odamni hamma narsani egallagan deb hisoblardi. Unga bilimdon kerak edi. Chet elda to'rt yil yashadim, hamma narsani tushundim, biroq otamning istagidek hamma narsani egallay olmadim, faqat chet elliklarning qiliqlarini o'rgandim. Baxtinga buning uchun u meni yaxshi ko'rishidan voz kechmadi, hali ham pul berib turadi va men Yulduzcha, Atirgul va Afyun bilan ko'ngilxushlik qilish imkoniyatiga egaman. Tashqaridan qaraganda otamning merosxo'ri, madaniyat masalalarida uning muxtor vakiliman, amalda esa bor-yo'g'i tekinxo'r-

man. Ahmoqona ishlarga aralashmayman, biroq ezgu ishlarga ham qodir emasman. Moslashyapman: bu soʻz menga tobora koʻproq yoqyapti! – kuldi Kichik Chayon, Afyun ham u bilan birga tabassum qildi.

– Afyun — mahbubam, – davom etdi Kichik Chayon savolimning oldini olib, – xotinimdan tashqari birga yashaydigan maʼshuqamdir. Bu ham chet ellik qiliq. Emizuvchi ayol olti yoshimdayoq hamma narsaga oʻrgatib ulgurgandi, shuning uchun oʻn ikki yoshimda uylanganimda meni bexabar noshud deb boʻlmasdi. Xotinim hamma narsani, ayniqsa tugʻishni biladi, otamning aytishicha, bebaho rafiq. Ammo menga Afyun koʻproq yoqadi. Otamning oʻn ikkita jazmani bor, shuning uchun Afyunni koʻrgani koʻzi yoʻq boʻlsa ham uni jazman qilib olishga undaydi. Menga esa u yaxshiroq munosabatda, chunki hamma qilmishlarimni chet el qiliqlariga yoʻyadi, ammo baʼzida dargʻazab boʻladi. Gap shundaki, Afyun bilan munosabatlarim yoshlarimizga juda katta taʼsir koʻrsatadi. Axir sen bizda erkak va ayollarning munosabatlari faqat zinodan iborat deb hisoblanishini bilasan-ku. Shu maqsadda uylanadilar, jazman tuta-dilar, fohishalarga boradilar, erkin ittifoqlar tuzadilar. Birinchi oʻrinda afyun yaproqlari tursa, ikkinchi oʻrinda — zinokorlik. Hamma xotinlaridan tashqari maʼshuqalariga ham ega. Biroq qariyalar menga naf-rat bilan qaraydilar, chunki maʼshuqalar uchun alohi-da ijaraga turar joy olish, ularga pul sarflash, pul yet-masa, ota-onalar bilan janjallashish kerak. Umuman, biz Afyun bilan birga — ashaddiy jinoyatchilarmiz.

– Rafiqang bilan aloqalarni butunlay uza olmay-sanmi? – soʻradim men.

– Nima deyapsan! Pul yo‘q. Erkin ittifoq — chet elcha odat, lekin bu qariyalardan pul so‘rash milliy udumini aslo bekor qilmaydi. Agar bu odatlar mu-rosaga keltirilmasa, hayotga moslasha olmaysan.

– Qariyalar nima uchun sizlarni ajratishmaydi?

– Ular nima qila oladi? Axir bu odatlarni ular kiritgan, o‘zlari jazman tutadilar, erkin ittifoq bilan chinakamiga kurash olib borishni xohlamaydilar. Ular ham, bizlar ham, hech kim hech narsa qila olmaymiz. Qariyalar xiralik bilan jazmanlarga talpinadilar, yoshlar erkinlikka. Tashqaridan qaraganda, tamoyillar uchun kurash ketmoqda, amalda esa kim bilan xohlasang yashayver. Bularning oqibatida hech kim boqmaydigan ham, tarbiya qilmaydigan ham ko‘plab mushuklar tug‘ilmoqda. Bobolarimiz ham, otalarimiz ham shunday qilgan, biz ham shunday ish tutmoqdamiz. Dunyoda mas’uliyatdan ham og‘ir hech narsa yo‘q.

– Biroq ayollar bunga qanday munosabatdalar?

– Afyun, ayt! Axir sen ayolsan-ku, – iltimos qildi Kichik Chayon.

– Menmi? Seni yaxshi ko‘raman va boshqa hech narsa deya olmayman. Agar sen faqat tug‘ishni biladigan xotining oldiga qaytmoqchi bo‘lsang, oq yo‘l! Sen meni sevmay qo‘yganingni bilsam, qirqta afyun yaprog‘ini yeyman va hammasi tamom!..

17

O‘zim ham, Kichik Chayon ham bu haqda og‘iz ochmagan bo‘lsak-da, xona menga qoldi. Ertasiga-yoq tadqiqot ishlarimni boshlab yubordim. Hech qanday aniq bir rejam yo‘q edi. Shunchaki kezar va kuzatardim. Ko‘cha oxirida bolalar ko‘rinmasdi —

ularning hammasi shu yerda, madaniyat muassasalari atrofida to'plangandilar va bundan xursand bo'ldim: odam-mushuklar, aftidan, o'z bolalarini esdan chiqarmaydilar, ularni tarbiyalaydilar va hozir maktabga ham yuborgan bo'lishlari kerak. Mushuk bolalari — dunyoda eng xushchaqchaq mavjudotlardir. Ular irkitlar (aql bovar qilmaydigan darajada irkitlar, naqadar irkitliklarini tasvirlab ham bo'lmaydi), oriqlar, sassiqlar, badbasharalar, burunsizlar va shunday bo'lsa ham xushchaqchaqlar. Men basharasi sopol xumdek shishib ketgan, og'zi hatto yopilmaydigan, lunji qontalash timdalangan bir bolani ko'rdim, u esa hamma bilan birga sakrar, yugurar va kulardi. Hayotbaxsh kayfiyatim shu zahotiyog uchib ketdi. Bunday bolani odatiy oila yoki maktabda tasavvur eta olmasdim. Tiyraklikmi? Faqat telbalar jamiyatigina irkit, oriq, sassiq, badbashara, burunsiz va shunday bo'lsa ham xushchaqchaq bolalarni dunyoga keltirishi mumkin. Bu kattalarga taqlid va ular uchun jazodir. Bolalar katta bo'lgach, yanada irkit, sassiq va badbashara bo'ladilar. Yana Mushuklar davlati ustidagi dahshatli yaltiroq qilichni ko'rdim. Ko'pxotinlik, erkin ittifoqlar, zino va kelajak to'g'risida birorta fikrning mavjud emasligi. Naqadar beparvolik!

Shunday bo'lsa ham xulosa chiqarishga shoshilmadim va bolalar orqasidan maktabga yo'l oldim. Bu devor bilan o'ralgan bo'm-bo'sh maydoncha edi. Bolalar darvozadan kirdilar, men esa ularni ko'chadan kuzata boshladim. Ayrim bolalar yerda dumalashardi, boshqalari devorga tirmashardi, uchinchilari unda qandaydir rasm chizardilar. Nihoyat uzoqda quruq

suyakdek oriq uch nafar katta yoshdagilar ko‘rindi. Ular tug‘ilganidan beri to‘yib ovqat yemaganga o‘xshardilar. O‘qituvchilar (ularning kasbini hozir aniqlash oson edi) devorni ushlagan holda sekin odimlardilar, shamolning har bir esishida to‘xtardilar va ancha vaqt titrardilar. Ular darvozadan sudralib kirganlarida bolalar dumalashlari, baqirishlari, devorga tirmashishlarini davom ettirardilar. O‘qituvchilar nafaslarini rostdlash uchun yerga cho‘nqayishdi va bolalar yanada qiy-chuv ko‘targanlari uchun quloqlarini bekitdilar. Keyin o‘qituvchilar o‘rnilaridan turdilar va bolalarni o‘tirishga ko‘ndirishga harakat qilib ko‘rdilar, ammo ular bunga aslo quloq solmaslikka jazm qilgandilar. Ana shunday bir soatcha qiynalib, o‘qituvchilarning o‘ylariga:

– Darvoza tashqarisida chet elliklar, – deb xitob qilish keldi.

Shunda bolalar yerga o‘zlarini tappa tashladilar va boshlarini boshqa o‘gira olmay qoldilar.

O‘qituvchilardan biri tilga kirdi.

– Eng avvalo davlat madhiyasini ijro etamiz, – dedi u.

Lekin hech kim og‘zini ochmadi, hamma dovdiragancha o‘qituvchilarga qarab turardi.

– Bo‘lmasa imperatorni sharaflaymiz.

Hamma avvalgidek sukut saqlardi.

– Ma‘budlarga cho‘qinaylik!

Shunda bolalarning toqati toq bo‘ldi, bir-birini turtishga, baqirish va so‘kinishga tushdilar.

– Darvoza orqasida chet elliklar!

O‘quvchilar yana tinchlandilar.

– Siz bilan direktor gaplashmoqchi.

Direktor oldinga chiqdi va egilgan boshlarga tikildi.

– Bugun sizlar uchun tantanali kun, institutni tugallayapsizlar...

Hushimdan ketishimga ozgina qoldi. Qanday qilib?! Bu institutmi va anavi mishiqlar uni tugallayaptimi? Lekin his-tuygʻularga erk berish kerak emas, yaxshisi diqqat bilan eshitish.

– Siz oliy oʻquv yurtini tugallayapsiz, – davom etardi direktor, – va bu qanday tantanali daqiqa ekanligini anglab yetishingiz kerak. Sizlar barcha fanlarni egalladingiz va davlatning eng muhim yumushlari zimmangizga tushdi. Bu ulkan sharaf! – direktor uzoq va qattiq esnadi. – Tamom!

Oʻqituvchilar qahr bilan chapak chalishga tushdilar, “talaba”lar esa yana toʻpolonni boshlab yubordilar.

– Chet ellik!

Hamma jim boʻldi.

– Soʻz oʻqituvchilarga.

Oʻqituvchilar navbatni bir-birlariga berish uchun uzoq vaqt tortishib-talashishdi. Nihoyat ulardan biri — eng origʻi bir qadam olgʻa qoʻydi. Bu janob umidsiz ekanligini darrov angladim, chunki koʻzlarining ikki chetida bir juft katta yosh qalqib turardi.

– Janoblar, – dedi u tasavvur etib boʻlmaydigan oʻkinch bilan. – Bugun oliy oʻquv yurtini tugallayapsiz va bu qanday tantanali daqiqa ekanligini anglab yetishingiz kerak. Koʻz yoshlaridan biri toʻkildi: – Mamlakatimizdagi barcha taʼlim muassasalari — oliy oʻquv yurtlaridir, bu nihoyatda koʻngilli! Ikkinchi koʻz yoshi dumaladi: – Sizlarga direktor va

o'qituvchilar qilgan yaxshiliklarni yodingizda saqlang. Biz uchun o'qituvchi bo'lish katta sharaf, ammo kecha kechqurun xotinim ochlikdan o'ldi, bu... U uzoq vaqt o'zi bilan kurashdi va nihoyat o'zini qo'lga ola oldi. – O'qituvchilarni esingizdan chiqarmang, ularga qo'lingizdan kelgancha: pul yoki afyun yaproqlari bilan yordam bering. Siz, ehtimol, biz yigirma besh yildan beri maosh olmayotganligimizni bilsangiz kerak. Janoblar! U so'zini davom ettira olmadi va gandraklab, yerga o'tirdi.

– Hozir diplomlar topshiriladi.

Direktor devor ostidan nimalardir bitilgan (bevosita nimaligini ko'ra olmadim) bir uyum tosh taxtachalarini olib, oldiga qo'ydi va shunday dedi:

– Siz hammangiz birinchi o'rinni oldingiz, bu bilan faxrlanishingiz mumkin. Endi keling va o'z diplomingizni oling. Ular mutlaqo bir xil, chunki hammangiz birinchi o'rinni oldingiz. Tantanali yig'ilishni yopiq deb e'lon qilaman.

Direktor o'girildi va darvoza tomon yo'l oldi, orqasidan o'qituvchilar sudraldi. Lekin talabalar diplomlar to'g'risida o'ylashmasdi ham — ular yana devorga tirmashishni, qichqirishni va o'mbaloq oshishni maqbul topishgandi.

“Bu yerda nima bo'lyapti o'zi?!” – degan o'yda tushuntirish olish uchun Kichik Chayon oldiga ravona bo'ldim. U uyda yo'q ekan, orqaga qaytishga va kuzatishni davom ettirishga to'g'ri keldi.

Hozirgina ko'rgan “institut”ga qiya tomonda o'n besh-o'n olti yoshli o'spirinlar bilan to'la boshqa ta'lim muassasasi bor ekan. Bir nechta o'smir kimnidir yerga bosib, uni operatsiya qilmoqchiga o'x-

shardi. Boshqa tomonda o'quvchilar olomoni birdaniga ikki kishining qo'l-oyog'ini bog'layotgandi. Aftidan, bu biologiya bo'yicha seminar edi. Bunday tajriba o'tkazishlar menga juda shafqatsiz bo'lib tuyulsa ham manzarani oxirigacha kuzatishga qaror qildim. Bu vaqtda kishanlanganlarni devor oldiga uloqtirishdi, operatsiya qilinayotganning qo'lini kesib, tepaga otishdi!

– Ko'ramiz, endi u qanday qilib bizga rahbarlik qilarkin, o'laksa maxluq! – bo'kirardi o'spirinlar. – Biz azob tortishimizni xohlaganmiding? Yana qizlarga qo'l tegizdirmoqchi emasmiding? Jamiyat parokanda bo'lib ketdi, sen esa bizlarni o'qishga majburlamoqchimiding? Yaramasning yuragini sug'urib oling! Ko'kka qandaydir qontalash-qizil narsa otildi.

– Anavi ikkitasini bog'ladinglarmi? Bu yoqqa sudrab keling!

– Direktornimi yoki tarix o'qituvchisinimi?

– Direktorni!

Dahshatdan qotib qoldim. Ma'lum bo'lishicha, ular o'qituvchilarni nimtalashayotgan ekan! Ushbu o'qituvchilar hurmatga loyiq emasliklari ehtimoldan xoli emas, biroq o'quvchilarning o'zlari ularni jazolashlarini, tag'in shafqatsiz jazolashlarini hali hech uchratmagandim. Bunday aql bovar qilmaydigan zo'rvonlikdan quturib, to'pponchamni oldim, odam-mushuklar uchun do'q-po'pisaning o'zi kifoya qilishini unutib, tepkini bosdim. Yomg'irdan keyin nam tortgan devorlar qochayotganlarning shiddatiga dosh bera olmay quladi va o'qituvchilarni ham, ularning qotillarini ham bosib qoldi.

Men o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. To‘g‘ri, direktor o‘limga hukm qilinishga loyiq edi: devorni qandaydir chiqindilardan ko‘tarib, qurilishga ajratilgan mablag‘ni o‘zlashtirib yuborgan bo‘lishi kerak. Biroq devor bosib qolganlarga yordam berish kerak edi. Shosha-pisha xarobani atrofga sochib tashlay boshladim va devor bosib qolganlarning ko‘plarini xalos etdim, lekin ulardan har biri o‘ziga chaplangan loylarni ham sidirib tashlamasdan, telbalardek shataloq otishga tushdi. Og‘ir jarohat olganlar yo‘q edi. Yengil tortib, nafasimni rostladim va hatto hodisani kulgiga yo‘ydim. Pirovard natijada direktorni va omon qolgan o‘qituvchini vayronalar ostidan sug‘urib oldim, ular kishanlanganlari uchun qochib qola olmadilar. Ularni chetga o‘tqazib qo‘yib, devor tagida hech kim qolmaganligini aniqlash uchun vayronani titkilay ketdim. Ammo hech kim topilmadi va kishanlanganlarning oldiga kelib, ularning qo‘l va oyoqlarini bo‘shatdim.

Baxt yorlaqab, biror dori-darmonsiz (ular menda o‘zi yo‘q edi) o‘zlariga keldilar va atrofga qo‘rqinch bilan alanglab, ohista tiz cho‘kdilar. Bundan kulgim qistadi va meni qiziqtirayotgan ko‘plab savollardan birinchisini berdim:

– Qaysi biringiz direktorsiz?

Ular qo‘rqqancha o‘zaro ko‘z tashlashdi va birbirlarini ko‘rsatishdi.

“Rosa es-hushlarini yo‘qotishibdi”, deb o‘yladim.

Ular sekin o‘rnilaridan turdilar, boshlarini silkitdilar va to‘satdan bir-biri bilan quvlashayotgan nina-chilardek qochib qoldilar. Ular chigil yozdi qilmoqchilar, shekilli deb o‘ylagandim, biroq qoralari ham

ko‘rinmay qoldi. Odam-mushuklar bilan yugurishda musobaqalashish befoyda edi. Tin oldim va yerga cho‘nqaydim.

Qarang, gap nimada ekan! Ular hushiga kelar-kelmas o‘z jonlari uchun tashvishlanib qaltirar va menda ham direktorni o‘ldirish niyati bor degan xayolda bir-birlarini ko‘rsatardilar! Men o‘kinch bilan kulardim — ular ustidan emas, balki ular yashayotgan jamiyat ustidan. Ularda hamma yoqda shubhalanish, xudbinlik, razillik, shafqatsizlik hukmron. Ishonch, ezgulik, oliyjanoblikdan asar ham yo‘q! O‘quvchilar direktorni qatl etayotgan ekanlar, demak, u boshqalarga ham o‘zini direktor deb ayta olmaydi. Zimiston, zimiston, jahannam zimistoni! Nahotki men ularni qutqarganimni bilishmadi? Ha, ularga hech kim hech qachon yordam bermagan bo‘lsa kerak! Yodimga vakil bevasi va uning yosh mushuklari tushdi. Ular hanuz o‘sha yerda chirib yotgan bo‘lishlari kerak. Direktorlar, o‘qituvchilar, vakilalar, yosh suyuqoyoqlar... Insonlar qayerda? Umuman, atrofda nimalar bo‘lyapti?!

Azbaroyi yig‘lab yuboray deb tushuntirish olish uchun yana Kichik Chayon oldiga ravona bo‘ldim.

18

Kichik Chayon quyidagilarni gapirib berdi:

– Mushuklar davlati qadimiydir va Marsdagi ko‘pgina mamlakatlarda yovvoyilar yashagan paytlardayoq o‘z ta‘lim tizimiga ega edi. Lekin bugun sen ko‘rgan zamonaviy ta‘lim muassasalari chet ellardan o‘zlashtirib olingan. Bu taqlid zararli ekanligini bildirmaydi. Aksincha, u zarur

va taraqqiyotni harakatga keltiradigan kuchlardan biridir. Bundan tashqari u kim oldinga chiqib olganligini va kim orqada qolayotganligini ko'rsatadi. Bizning ta'lim tizimimizni hech kim o'zlashtirib olmagan bejiz emas, o'zimiz esa bundan ikki yuz ilgari o'zlashtirish bilan shug'ullanishga majbur bo'lganmiz. Agar biz to'g'ri taqlid qilganimizda boshqa davlatlarga allaqachon tenglashib olardik, ammo taqlid qilish ham qo'limizdan kelmadi va shuning uchun faqat ahmoqlikka egamiz. O'zimiznikini rivojlantirmadik, o'zgalarnikini o'zlashtira olmadik... Ha, men — umidsizman va millatimizni zaif deb hisoblayman. Ta'limimizga umid bog'lab bo'lmagani-dek, davlatimizni qayta qurish ham kulgilidir. Sen nima uchun yosh bolalar institutlarda o'qiydilar, deb so'rayapsan?! Sen juda do'lvarsan va kamfahmsan. O'sha bolalar umuman o'qishmagan, ular o'sha yerga birinchi bor kelganlar. Tomosha qo'yiladigan bo'lsa, uni oxirigacha ko'rsatish kerak — biz shu bilangina shuhrat qozonganmiz. Keyingi ikki yuz yil davomidagi ta'limimiz tarixi — bu latifalar tarixidir. Hozir uning xotima sahifalariga yetib keldik va birorta donishmand avvalgilaridan kulgili bo'ladigan latifa to'qib chiqara olmaydi. Yangi ta'lim tizimi endi joriy qilinayotgan paytda maktablarimizda turli sinflar bo'lardi, o'quvchilar bilimi darajasiga qarab baholanardi, lekin asta-sekin imtihonlar bekor qilindi (qoloqlik ramzi sifatida) va o'quvchi maktabga qatnamasa ham uni tamomlardi. Afsuski, boshlang'ich maktablar va universitetlar bitiruvchilari teng bo'lmagan imtiyozlarga ega edilar va bu boshlang'ich maktablar o'quvchilarida noro-

zilik tug'dirdi: "Axir biz mashg'ulotlarga talabalar-dan kam qatnamaymiz-ku!" O'shanda tub islohotlar o'tkazilib, ularga muvofiq maktabga o'qishga qabul qilingan kun biryo'la universitetni tugallangan kun deb hisoblanadigan bo'ldi. Keyin esa... Kechirasan, "keyin" bo'lmadi. Bunday holatda "keyin" bo'lishi mumkinmi?

Mushuklar davlati uchun islohotlar nihoyatda qo'l keldi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz oliy ma'lumotga ega bo'lgan odamlar soni bo'yicha Marsda darhol birinchi o'rinni egalladi. Kek-kaymagan bo'lsak ham juda quvondik: odam-mushuklar faqat raqamlarni xush ko'radilar. Bizda oliy ma'lumotga ega odamlar soni eng ko'pligi ma'lum bo'ldi, shuning uchun hamma mamnun edi. Imperator islohotdan mamnun, chunki bu uning xalqqa, maorifga muhabbatining dalolati bo'ldi. O'qituvchilarning hammasi universitet o'qituvchilariga aylanganliklaridan, barcha ta'lim muassasalari oliy o'quv yurtlari, hamma o'quvchilar a'lochi bo'lganligidan quvonchda edilar. Oila boshliqlari universitetlarni tugallayotgan yetti yashar mishiqlariga mamnuniyat bilan boqardilar, zero aqlli farzandlar — otalar va onalarning faxridir. O'quvchilar to'g'risida gapirmay qo'ya qolay: ular Mushuklar davlatida tug'ilganlaridan baxtiyor edilar. Ular yetti yoshga to'lganlaricha o'lmasalar kifoya edi, chunki oliy ma'lumotli bo'lish ta'minlangandi. Avvallari imperatorga har yili ta'limga mablag' ajratishga to'g'ri kelardi, o'qimishlilar esa ko'pincha unga zarar yetkazardilar. O'z pulingga shunchalar ko'ngilsizlik! Endi esa boshqacha: imperator bir chaqa ham sarflamas-

di, oliy ma'lumotli odamlar soni tobora ko'payib borayotgandi va ulardan birortasi Janobi Oliylariga til tegiza olmasdi. To'g'ri, ko'p o'qituvchilar ochlikdan o'lib ketdi, ammo avvallari ular maosh uchun bir-birlarini badnom qilishlari, hamkasblarining umriga zomin bo'lishlari va talabalarni g'alayon ko'tarishga avrashlari oqibatidagi qon to'kilishlar ancha kamaydi. Hozir imperator ularga oylik to'lamaydi, shuning uchun o'qituvchilarning o'zaro raqobat qilishlariga hojat qolmadi. Janobi Oliylari noroziliklarga umuman e'tibor bermaydi yoki hakamlar sifatida askarlarni yuborardi. Ilgarilari o'qituvchilarni talabalar himoya qilardi, endi talabalar muttasil almashib turar va hech kimni himoya qilishni istashmaydi. O'qituvchilarga faqat ochlikdan o'lish qolgandi, bu oliyjanob tarzidagi o'lim bo'lib, imperator bunga e'tiroz bildirmaydi. Ta'lim uchun pul to'lash muammosi ham hal qilingandi. Endilikda oila boshliqlariga farzandini maktabga yuborish va bor bo'lsa, unga ozroq yemish berish kifoya qilardi. Agar yemak bo'lmasa, maktabda yoki uyda och qolish baribir emasmi? Juda bo'lmaganda bolasi oliy ma'lumot oladi. Darsliklar va o'quv qurollari uchun pul sarflash talab qilinmaydi, zero maktabga o'qish uchun emas, balki diplom olishga boriladi. O'zing tan ol, axir bu ajoyib islohot emasmi?

Sen odamlar nega direktor yoki o'qituvchi bo'lishga ko'nadi, deb so'rayapsanmi? Bu ikki yuz yillik tarixiy-tadrijiy rivojlanish bilan bog'liq. Avvallari maktablarda turli fanlar o'qitilardi va ta'lim muassasalari turli ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlardi. Ayrimlar sanoat sohasini, boshqalar

savdoni, yana birovlar qishloq xo'jaligini o'rganardi... Ammo ular maktabni tugallaganidan keyin nima qilishlari mumkin? Mashinalarni o'rganganlar uchun biz zamonaviy sanoat korxonalarini tayyorlab qo'ya olmadik, savdo sohasida o'qiganlar do'kon sotuvchilari bo'ldilar, qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassislarga afyun daraxtlarini o'stirish qolgandi. Bir so'z bilan aytganda, maktab hayot bilan mutlaqo bog'liq emasdi va bitiruvchilarga tanlash uchun ikki yo'l qolardi: amaldor yoki o'qituvchi bo'lish. Amaldor bo'lish uchun pul va tanishlar bo'lishi zarur: homiylaring saroy ahlidan bo'lgani ma'qul — bir sakrashda yuqori mansab kursisiga o'tirib olish mumkin. Ammo hammada ham pul va yaxshi tanishlar bo'lavermaydi-ku. Shuning uchun ko'pchilik o'qituvchilik qilishiga to'g'ri keladi, chunki ma'lumot olganlar hunarmand yoki do'kon sotuvchisi bo'lishni xohlashmasdi.

Asta-sekin jamiyat ikki sinfga: maktabni tugallaganlarga va tugallamaganlarga ajraldi. Maktabni tugallaganlar amaldorlar yoki o'qituvchilar edi, tugallamaganlar esa oddiy xalq bo'lib qolaverardi. Hozir bu siyosatga qanday ta'sir qilgani to'g'risida gapirib o'tirmayman, ammo ta'lim tizimimiz dardi bedavoga aylandi. Aytaylik, men maktabni tugalladim va bolalaringni o'qita boshladim, sening bolalaring maktabni tugalladilar va mening nevaralarimga dars beradigan bo'ldilar. Hamma vaqt bir narsani o'qitishadigan bo'lishdi, o'qituvchilar ayniy boshladi, tobora ko'proq o'smirlar maktabni tugallardi va amaldor kursisini egallagan ayrim bitiruvchilardan boshqalari ham o'qituvchilik qilardi. Biroq

shuncha o'qituvchiga maktabni qayerdan topasan? Tag'in latifa! Ushbu davriy ta'lim atigi bir nechta qonunlashtirilgan darsliklarga asoslanardi va ma'naviy ta'limni mutlaqo talab etmasdi. Oliyjanoblik va ezgu ishlar unutilgandi. O'qituvchi o'rni uchun kurash qon to'kish va qotillik hamroh bo'lgan haqiqiy urushga — maorifga intilish deb tushuntiriladigan janglarga aylanib ketgani ajablanarli emas. Ayni paytda imperator, siyosatchilar va harbiylar o'qituvchilar maoshlarini o'zlashtirardilar, qozon qaynatish uchun tilanchilik qilishga majbur bo'lgan o'qituvchilar esa darslarga mutlaqo tayyorlanmay qo'ydilar.

O'quvchilar o'z murabbiylarining ahvolini fahmlab, darsga bormay qo'ydilar va hozirgina tilga olganimdek, maktabni o'qimasdan tugallash harakatini boshlab yubordilar. Imperator, siyosatchilar va harbiylar bu kompaniyani qo'llab-quvvatladilar va ta'limga mablag' ajratishni to'xtatdilar — ularga anchadan beri o'qituvchilar umuman kerakmas bo'lib tuyulardi. Lekin ular xorijliklar ustlaridan kulishlaridan qo'rqib, maktablarni bekita olmadi- lar, shuning uchun universitetni bir kunda tugallash huquqini e'lon qildilar. Shunday qilib davriy ta'lim tizimi biror narsaga o'qitishni yo'q qilishga olib keldi. Maktablar hali ham ochiq edi, ammo ularning xarajatlariga bir tiyin ham ajratilmayotgandi.

Mazkur harakat avjiga chiqqanida yoshlar ustozlarini "fan"ga alohida ehtiros chulg'ab oldi, ular kun-u tun maktab mulki xususida, masalan, stol va stullar masalasida janjallashishardi. Maktablarni moliyalashtirish to'xtatilganidan so'ng direktorlar va o'qituvchilar ularning mulkini xufiyona sotishga

oʻtdilar, bunda ular stol va stullari koʻproq qolgan maktablarga ishga oʻtishga intiladilar. Yana qonli mushtlashishlar boshlanib ketdi. Ammo imperator insonparvar edi va oʻzi gado qilgan oʻqituvchilarga stol va stullar bilan savdo qilishni man eta olmasdi. Maktablar bozorga, keyin esa devor bilan oʻralgan yaydoqqa aylandi.

Endilikda direktorlar va oʻqituvchilar qayerdan ishga olinishini oʻzing bilasan. Ular baribir tanballar, shunday ekan, nega xizmatdalar, deb hisoblanmasliklari kerak? Bundan tashqari muallim unvoni faxrli: talaba mavjud boʻlmagan xizmat vazifasida koʻtarilib, oʻqituvchi boʻladi, oʻqituvchi maktab direktori. Oʻqituvchilarga maosh toʻlanmaydi, ammo baʼzida ular amaldorlar boʻlishlari mumkin, bu esa hazilakam gap emas. Agar maktabda hech narsaga oʻrgatilmasa, oʻqishni qanday qilib bilib olish mumkin? Eskichasiga: haqiqiy oʻqituvchini qidirib topish va uni uyda oʻqitishga taklif qilish kerak. Bunga faqat boylarning qurbi yetadi, albatta. Aksariyat bolalar esa maktabga qatnashga majburlar.

Ilgarilari maktablarda nimalargadir oʻrgatilardi. Biroq fan muttasil taraqqiy etib boradi, haqiqatni izlaydi, lekin bu fan bizga yetib kelgancha, sochi oqaradi va uni mogʻor bosadi. Biz goʻyo oʻzgalar goʻshtining bir boʻlagini kesib olib, oʻzimizga yopishtirganmiz va u tutib qolishi uchun oʻzimiz zigʻircha ham harakat qilmadik. Bir gʻaram maʼlumotlarni yodlab olib, mustaqil fikrlashga esa oʻrganmadik. Bu fanni oyoqosti qilish edi, ammo oʻshanda, hech boʻlmaganda, goʻshtning bir boʻlagi Mushuklar davlatining boshqa mamlakatlarga tenglashishiga yordam

beradi, deb ishongandik. Hozir esa hamma maktablar direktorlik kursisi uchun kurash olib borishga, o'qituvchilarni do'pposlashga va o'zaro mushtlashishga mo'ljallangan deb o'ylaydi, ya'ni biz fanni oyoqosti qilishdan uni qulatishga o'tdik.

Uy maktablarida ham yangi bilimlarni olib bo'lmaydi, ularda keyingi vaqtda o'n baravarga qimmatlashgan qadimiy kitoblar sinchiklab o'rganiladi, xolos. Bobom bundan juda mamnun, u chetdan kelgan barcha yangiliklar barbod bo'ldi va millatimizning qadr-qimmatini saqlab qolindi deb hisoblaydi. Otam ham mamnun, faqat boshqa sababga ko'ra: u meni chet elga turli yangiliklarni o'rganib olishim va unga tosh kitoblar egalarini aldashda yordam berishim uchun yuborgan. Ayyor kishi sifatida u chet el ma'lumotiga ega bo'lganlargina mamlakatning ravnaq toptirishi mumkinligini tushunadi. Lekin fuqarolarimizning ko'pchiligi yangi fanlarni odamlarning miyasini achitadigan, yoshlarni ota-onalari, o'qituvchilar va hokazolarga gij-gijlatadigan iblislarning ko'zbo'yamachiligi sifatida faraz qiladilar, ular buvam bilan hamfikrlar. Fanning bunday qulatilishi davlatni halokatga yetaklaydi.

Sen ta'lim tizimizning barbod bo'lishiga nima sabab bo'lgan deb so'rayapsan. Aniq bir narsa deya olmayman... O'ylashimcha, bunga insoniylikning yo'qotilishi turtki bo'lgan. Yangi fanlar bilan tanishila boshlangan ilk davrlardayoq ular kelgusi avlodlar uchun meros qilib qoldirilishi mumkin bo'lgan haqiqatni anglashga emas, balki faqat boylik orttirish, turli qimmatbaho mayda-chuyda bezaklar yaratish uchun kerak bo'lib qolgan. Ta'limga bunday

munosabat tarbiyachilarni eng asosiy vazifalari — o‘quvchilarni tarbiyalashdan, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdan mahrum qildi. Ha, yangi maktablarda zarur mutaxassislar topilmasdi: direktorlar va o‘qituvchilar pul talashib janjallashishardi, o‘quvchilar ham shunga tayyorlanayotgandilar. Bir so‘z bilan aytganda, maktablarda faqat tarbiyalashdan boshqa hamma narsa bilan band edilar. Imperatorlarda ham, siyosatchilarda ham, xalqda ham insoniylik yetishmasdi — buning oqibatida mamlakatning qashshoqlashib ketishi tabiiy edi. Aholi to‘yib ovqat yemaydigan davlatda odamlar insoniylik qiyofasini ko‘proq yo‘qotadilar. Ammo bu tarbiyachilarni oqlay olmaydi. Ular mamlakatni faqat bilimlar va insoniylik bilan qutqarish mumkinligini anglab yetishlari, maktab direktorlari yoki o‘qituvchilar bo‘lishga rozilik bergan ekanlar, o‘zlarining arzimas manfaatlarini qurbon qilishlari shart edi. Balki ularga ortiqcha talablar qo‘yayotgandirman. Barcha odamlar — fohishalardan tortib o‘qituvchilargacha — ochlikdan o‘lishdan qo‘rqadi. Lekin o‘z tanasi bilan oldi-sotdi qilishdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘radigan ayollar bor-ku! Shunday ekan, nima uchun tarbiya bilan shug‘ullanadigan vatandoshlarim o‘zlarida insoniylik qadr-qimmatining bir qatrasini ham saqlab qola olmadilar?

Hukumat halol odamlarning hamisha ko‘nglini og‘ritadi va ular qanchalar halol bo‘lsa, shuncha ko‘p dilini ranjitadi. Ammo eng ahmoqona hukumat ham xalq bilan hisoblashmasligi mumkin emas. Agar bizning tarbiyachilarimiz haqiqiy inson bo‘lganlarida va o‘zlaridek haqiqiy insonlarni tarbiyalashga harakat qilganlarida va bu o‘z samarasini berganida

jamiyat ertami-kech ularning sa'y-harakatlarini baholardi. O'shanda hozir ta'limdan hazar qiladigan va unga pul bermayotgan hukumat ham o'ylanib qolgan bo'lardi. Bizda ko'pincha mamlakat zimistonga cho'milgan deyishadi. Ammo uni madaniyatli odamlar ma'rifatli qilmasa, kim ma'rifatli qiladi? Agar ular o'zlarining mas'uliyatini his etmasalar, qora osmondagi yulduzmiz deb hisoblamasalar, boshqa hech kimdan najot kuta olmaymiz! Qarashlarim bir yoqlama, oliy maqsaddir, biroq qandaydir oliy maqsad bo'lishi kerak-ku! Hukumat ham, jamiyat ham madaniyatli odamlarga yordam ko'rsatishni yaxshi ko'rmasligini bilaman, biroq nodon kishilarga umuman hech kim madad qo'lini cho'zmaydi.

Sen o'qituvchilarning kallalaridan judo qilinishlarini ko'rdingmi? Buning ajablanarli joyi yo'q — bu tarbiyaning oqibati. O'qituvchilar shafqatsiz ekan, o'quvchilar ham shafqatsiz bo'ladi. Ular zavol topadi, ibtidoiy ahvolga tushib qoladi. Insoniyatning taraqqiy etishi juda sekin, orqaga ketishi esa darhol ro'y beradi: insoniylikni yo'qotishing bilan sen yana yovvoyisan. Bundan tashqari bizning "yangi" maktablarimiz ikki yuz yildan ko'proq vaqtdan beri mavjud va ana shu davr mobaynida har kuni direktorlar, o'qituvchilar, o'quvchilar o'rtasida mushtlashish bo'lgan. Urishish yovvoyilashishga eltadi, shu sababli hozirgi vaqtda direktorlar va o'qituvchilarni o'ldirish juda oddiy hodisa. Ular to'g'risida qayg'urma: bizning davriy tizimimiz tufayli o'quvchilar o'z navbatida o'qituvchi bo'lishadi va ularni ham bo'g'izlaydilar. Bu zim-ziyo jamiyatda odamlar dunyoga kelishlari bilan yovvoyilasha boshlaydilar.

Ular og'iz suvini keltiradigan narsa, arzimas shaxsiy manfaat uchun hamma joyda izg'ib yuradilar va hamisha tishlarini ham, changallarini ham ishga solishga tayyorlar. Ular yakka-yu yagona afyun yaprog'i uchun yerni murdalarga to'ldirib tashlashga qodirlar. Yoshlar uchun tug'yon tabiiydir, biroq bu bizda alohida xususiyat kasb etmoqda. O'quvchilar qandaydir da'vatkor shiorga yopishib, uylarni buzadilar, buyumlarni sindiradilar, keyin g'ishtlar va qolgan-qutgan narsalarni o'marishadi. Oila boshliqlari bundan juda mamnunlar, chunki talabalarning har bir g'alayonidan keyin uyda bir nechta qo'shimcha tayoq yoki g'isht paydo bo'ladi. Omon qolgan direktorlar va o'qituvchilarga o'marish uchun yangi imkoniyat yaratiladi, umuman, ularning hammasi bir-biri bilan raqib bo'lgan yaramaslardir. Tarbiyamiz shunday. U odamni yirtqichga aylantiradi, demak, buni bekorchilikka yo'yib bo'lmaydi!

19

Kichik Chayonni tinglar ekanman, uning umidsizlikka moyilligini hisobga olmasligi mumkin emasdi, biroq o'qituvchilarni o'ldirish ko'z o'ngimda ro'y berdi-ku. Suhbatdoshimning xulosalari yuzasidan qanchalik ikkilanmay, e'tirozga o'rin yo'q edi va shuning uchun so'radim:

– Sizda olimlar bormi o'zi?

– Bor va juda ko'p! – istehzo bilan javob berdi Kichik Chayon. – Olimlarning behisobligi yoki madaniyatning gullab yashnashi yoxud uning tanazzulga yuz tutishidan dalolat beradi. O'zi olim deganda nimanani tushunish muhim? Bunga o'z ta'rifimni berish

niyatim yo‘q, lekin olimlarimizga bir nazar tashla-
moqchi bo‘lsang, ularni atab chaqirishim mumkin.

– Ya’ni, taklif qilmoqchisan?

– Atab chaqirmoqchiman! Ularni hali bilmaysan, bevosita taklif qilsang, kelishmaydi. Afyun, bu yer-
ga bir nechta donolarni sudrab kel, ularga yaproq berishimni ayt. Yulduzcha va Atirgul senga qarashib yuborishsin.

Qiz kulganicha chiqib ketdi. Olimlarni ko‘rishni shu qadar istardimki, bermoqchi bo‘lgan savollarimni yoddan ko‘tardim va sukut saqlab o‘tirdim. Lekin ko‘p o‘tmay Afyun hozircha olimlarsiz, dugonalari bilan paydo bo‘ldi. Ular yonimga o‘tirishdi.

– Ehtiyotroq bo‘ling, so‘roqqa tutib qolishi mumkin! – hazil aralash ogohlantirdi Kichik Chayon.

Qizlar qiqirlashdi.

– Sendan chindan ham ba’zi narsalarni so‘rasa bo‘ladimi? – gap boshladi Afyun.

– Bemalol, faqat navozish qilishga usta emasman, – beixtiyor Kichik Chayonning ishvali ohangiga taqlid qilgan holda javob berdim.

– Ayt-chi, ayollaringizning ko‘rinishi qanaqa?

Ularning tasavvurini ag‘dar-to‘ntar qilishim mumkinligini his etdim.

– Bizning ayollar ham upa surtishadi. (Hammaning og‘zi ochilib qoldi). Lekin sochlarini turlicha chiroyda turmaklashadi: dam ularni o‘stirishadi, dam kalta qilishadi, dam o‘rtasidan farq ochib tarashadi, dam bir tutam qilishadi, dam iforli yog‘ surtishadi yoki atir sepishadi. (Tinglovchilarim bir-birlarining cho‘ltoq sochlariga qarashdi va o‘zlarining kulgili yumaloq og‘izlarini ixloslari qaytgancha yopdilar). Quloqla-

riga marvarid yoki qimmatbaho toshli, yurganlarida silkillaydigan zirak taqishadi. (Qizlar o'zlarining zig'irdek quloqchalarini changalladilar, bittasi — Atirgul bo'lsa kerak, ularni biroz cho'zmoqchi bo'ldi). Qo'llari, oyoqlari va bo'ynilari ko'pincha ochiq bo'ladi, boshqa joylarini yopiq qoldiradilar: bu yap-yalang'och yurganga qaraganda ko'zni yanada kuydiradi. (Qizlarni jo'rttaga mazax qilayotgandim). Yalang'och odam faqat tanasining nafisligi bilan asir qilishi mumkin, ammo hammaning gavdasi deyarli bir xil, rango-rang liboslar esa ularga o'zgacha latofat beradi. Shuning uchun ayollarimiz yechinishni bilishsa-da, yozda ham kiyinishadi. Yana ular charm, matoli, baland poshnali, qirra uchli, ba'zan qo'lda tikilgan va bezatilgan tuffi kiyadilar. (Qizlarning og'zi churq etmaydigan "O" harfiga o'xshab qolgandi). Men tug'ilgan mamlakatda ayollar avvallari jajjigina oyoqlarini bint bilan bog'lardilar. Hozir bunday qilmaydigan bo'lganlar...

— Nega?! — gapimni davom ettirishimni kutmasdan hammasi qichqirib yuborishdi. — Ahmoqlar! Axir jajji oyoqlar naqadar chiroyli!

Qizlar ruhiy larzaga tushganlarini ko'rib, tisarildim:

— Hayajonlanmang! Gapimni tugatay! Ular oyoqlarini bint bilan bog'lamay qo'ydilar, biroq yuqori poshnali tuffi kiyib yuradigan va yanada tikroq, xushqad ko'rinadigan bo'ldilar. To'g'ri, bunda ularning suyaklari qiyshayadi, shuning uchun ba'zan devorni ushlab yurishlariga to'g'ri keladi. Ular, ayniqsa poshnalari sinib qolsa, tez-tez oqsoqlanishadi, yiqilishadi...

Hammalari yerlik ayollarga mehrlari tovlanib, o‘z oyoqlarini yashirishgancha jimib qolishdi.

Endi suhbat mavzusini o‘zgartirmoqchi edim, ammo baland poshnali tuffilar masalasi juda jozibali chiqib qoldi.

– Poshnalarining balandligi qancha? – so‘radi qizlardan biri.

– Tuffilarga gullar rasmini chizishadi, to‘g‘rimi? – ilib ketdi ikkinchisi.

– Yurayotganlarida poshnalar taqillaydimi?

– Suyaklar qanday qiyshayadi? O‘z-o‘zidanmi yoki avval suyaklar egilib, keyin tuffi kiyiladimi?

– Charm tuffi to‘g‘risida gapirganding. Uning uchun odam terisi yaraydimi?

– Kashtagullar qanday, rangi qanaqa?

Agar ko‘nchi yoki poyabzalchi bo‘lsam, rosa boyib ketgan bo‘lardim. Biroq bizning ayollar faqat kiyinishnigina eplamasliklarini arang ayta olganimda olimlar kelib qoldi.

– Afyun, – dedi Kichik Chayon, – yaproqlardan sharbat tayyorla. Sizlar esa, – qolgan qizlarga yuzlandi u, – yuqori poshnali tuffilarni boshqa joyda muhokama qiling.

Olimlar birdaniga sakkizovlon bo‘lib kelishdi. Kichik Chayonga ta‘zim bajo etishib, polga o‘tirishdi va tepaga tikilishdi. Menga esa ko‘z qirini ham tashlashmadi.

Afyun ularga bir dastali piyoladan sharbat uzatdi, ular buni simirishdi va menga qarashni aslo xohlamayotganliklarini namoyish etmoqchi bo‘lganlaridek, ko‘zlarini yumdilar. Ularni sinchiklabroq ko‘zdan kechirmoqchiligim uchun bu ayni muddao bo‘ldi.

Olimlarning hammasi dahshatli ravishda oriqlar va irkit ekanlar. Hatto ularning kichik quloqchalari ham kirga to'lgandi. Ular Kichik Chayondan ham sekin odimlasharkan.

Afyun yaproqlarining sharbati o'z kuchini ko'rsatdi chog'i: ular yana ko'zlarini ochdilar va tepaga qaradilar. Nihoyat donolardan biri tilga kirdi:

– Men butun Mushuklar davlatida birinchi olimman!

Uning hamkasblari bezovtalanib qolishdi, qashlanishni, tishlarini g'ijirlatishni boshlashdi va birvarakayiga xitob qilib qolishdi:

– Sen — birinchi?! Sen otang va buvang kabi ablaxsan!

Ular bir-biriga tashlanishadi deb o'ylagandim, biroq birinchi olim so'kishlarga o'rganib qolgan, shekilli, faqat kulib qo'ydi:

– Uch avlod-aymog'imiz falakshunoslikni o'rganishadi. Falakshunoslikni! Sizlar kimsizlar?! Chet ellik falakshunoslar juda ko'p asboblardan, uzun durbinlardan foydalanishadi, bizning avlod esa yulduzlarni oddiy ko'zlari bilan kuzatishadi — mana qobiliyat! Biz yulduzlarning inson taqdiriga, baxtiga va baxtsizligiga ta'sirini o'rganamiz — xorijliklarning bu masalada biror narsaga fahmi yetarmidi? Kecha tunda yulduzlarni kuzatganimda Venera naq tepamda turardi. Mamlakatimizning birinchi olimi deb kimni aytsa bo'ladi?

– Meni, – hazillashdi Kichik Chayon, – chunki Venera menga kulib boqdi.

– Siz mutlaqo haqsiz, janob! – javob qaytardi falakshunos va jimib qoldi.

Boshqa olimlar ham Kichik Chayon mutlaqo haqligini tasdiqladilar, shundan so'ng chuqur sermushohada o'yga cho'kdilar.

– Gapirsangiz-chi, axir! – buyruq berdi Kichik Chayon.

– Butun Mushuklar davlatida birinchi olim menman, – mag'rur so'z qotdi boshqasi, atrofga g'olibona nazar tashlab. – Falakshunoslik nima? Borganturgani bo'lmag'urchilik. Olimlik bitiklardan boshlanadi va bu — yakka-yu yagona fan. Men o'ttiz yil bitiklarni o'rganganman. Meni birinchi olim deb tan olmaslikka kimning haddi sig'adi?!

– Itvachchalaring oldiga yo'qol! – sado chiqardi boshqa arboblar.

Biroq bitiklar sohasi bo'yicha mutaxassis falakshunosdek jur'atsiz emasdi. Hamkasblaridan biriga yopishganicha bo'kirishga tushdi:

– Tan olmaysanmi?! Avval qarzingni — olgan afyun yaproqni qaytar! Aks holda kallangni sug'urib olmasam, birinchi olim nomimni boshqa qo'yaman!

– Men olamga mashhur olim bo'la turib sendan afyun yaprog'ini qarz olamanmi?! Meni tinch qo'y, qo'limni bulg'atma!

– Birovning afyun yaprog'ini yeb, yana bo'yningga olmaysanmi?! Yaxshi, shoshmay tur, bitiklar tarixini yozganimda qadimiy so'zlar orasida sening familiyang yo'qligini isbotlayman! Shoshmay tur!

Qarzini bo'yniga olmagan olim qo'rqib ketdi va Kichik Chayonga iltijo qila ketdi:

– Janob, tezroq menga bitta yaproqni qarzga ber, u bilan hisob-kitob qilib olay! Mamlakatimizda birinchi olim ekanligimni bilasan-ku, olimlar

esa hamisha bir mirisiz bo'ladi. Balki o'sha la'nati yaproqni undan olgandirman, aniq yodimda yo'q. Yana senga sig'inaman, janob, otangdan olimlarga ko'proq afyun yaprog'i berishni so'ragin. Boshqalarning usiz ham kuni o'tadi, biz (ayniqsa, birinchi olim) esa ilm bilan shug'ullana olmay qolamiz. Yaqinda ajdodlarimiz haqiqatan ham o'z qabiladoshlarining terisini shilib olishlarini aniqladim. Yaqinda bu haqda maqola yozaman va otangdan uni imperatorga topshirishni o'tinib so'rayman. Shunda Janobi Oliylariga qiziqarli va chuqur tarixiy ildizlarga ega jazo turini tiklash qulayroq bo'ladi. Axir bunday ixtiro meni birinchi olim darajasiga ko'tarmaydimi? Bitiklarni o'rganish emish! Faqat tarixgina haqiqiy fandır!

– Axir tarix bitilmaydimi? Afyun yaprog'imni qaytar! – tilshunos o'zining qat'iy nuqtayi nazaridan qaytmoqchi emasdi.

Kichik Chayon qizlardan biriga tarixchiga yaproq keltirishni buyurdi, lekin u yaproqni tilshunosga berishdan oldin yarmisini uzib oldi.

– Mana, qaytaryapman, holbuki bunday qilmaslik kerak edi.

– Voy-voy, faqat yarmini qaytaryapsanmi?! – ayyuhannos soldi tilshunos. – Agar xotiningni o'g'irlamasam, la'natlarga qolay!

Shunda barcha olimlar o'ta hayajonlanib ketdilar va Kichik Chayonga hasratlarini to'kib-solishga tushdilar:

– Janob, nima uchun bizlarning atigi bittadan xotinimiz bor? Shuning uchun boshqalarning xotinlarini o'g'irlash to'g'risida o'ylashga majburligimiz ajabla-

narli emas! Biz davlatimiz shon-shuhrati yo'lida ter to'kyapmiz, avlodlarimiz ko'plab ajdodlarining ilmiy tajribalarini asrlar uzra eltadilar, shunday ekan, nega har birimiz hech bo'lmaganda uchtadan xotin ola olmaymiz?

– Misol uchun yulduzlar to'dasini olaylik. O'sha yerda katta yulduzlar atrofida hamisha juda ko'p kichiklari bo'ladi. Osmon shunday tuzilgan ekan, odamlarda ham, har holda menda, birinchi olimda shunday bo'lishi kerak. Buning ustiga xotanim juda qari, u hech narsaga yaramaydi.

– Qadim zamonlardan ayol gavdasining tasviri bo'lgan yozuv belgilari shaklini yodga olaylik. O'z asarlarimning birida olim odamda ko'p xotin bo'lishi zarurligini inkor etib bo'lmaydigan qilib isbotlaganman...

Buyog'iga mavhum va u qadar odobli bo'lmagan isbotlar boshlandi. Ulardan olimlarga xotinlar zarurligi ravshan edi. Kichik Chayon hanuz sukut saqlardi.

– Ehtimol, charchagandirsiz, janob? Biz...

– Afyun, ularga bir nechta yaproq ber va keyin tuyog'ini shiqillatishsin! – dedi nihoyat Kichik Chayon.

– Sizdan minnatdormiz, janob, kechiring! – shovqin solishga tushdi olimlar.

Shundan so'ng ular afyun yaproqlarini changallab olishib, Kichik Chayonga ta'zim qilishdi va so'kishgan holda pirillab chiqib ketishdi. Shu zahotiyuq ularning o'rnini yosh olimlar to'dasi egalladi. Ular anchadan beri eshik ortida navbat kutib turishardi va o'zlarining katta yoshli hamkasblari bilan to'qnash

kelishdan qo‘rqib, ichkariga kirmayotgandilar. Eski va yangi fanlarning vakillari uchrashib qolganida hech bo‘lmaganda ikkita qotillik sodir etilardi.

Yosh olimlarning ko‘rinishi keksalarnikiga qaraganda anchayin tuzuk: ular iflos emasdi, to‘ladan kelgan va shodmon edilar. O‘tirishdan avval ular faqat Kichik Chayon va men bilan emas, shuningdek, qizlar bilan ham so‘rashdilar. Men ruhlanib qoldim: aftidan, Mushuklar davlatida hali ham umid bor.

– Ular bir necha yil chet elda o‘qib, hamma narsaning tagiga yetgan yigitlardir, – qulog‘imga shivirladi Kichik Chayon. Uning bu gaplaridan, ayniqsa, mehmonlarning taklif qilingan afyun yaproqlariga tashlanganliklaridan birmuncha ixlosim qaytdi.

Tamaddi qilib olishgach, yosh olimlar suhbatga kirishib ketdilar, Kichik Chayon tufayli talaygina yangi so‘zlarni o‘rganib olgan bo‘lsam ham gaplarini tushunmayotgandim. Qulog‘im ostida qandaydir “vare”, “vskiy”¹ va hokazolar jaranglardi. Hayajonlana boshladim, chunki mehmonlar menga murojat etayotganliklarini his qilardim. Nihoyat ularning savollaridan birining mazmunini uqdim:

- Nima kiyib olgansiz, janob chet ellik?
- Shim, – javob qaytardim men xijolat tortib.
- U nimaga kerak?
- U qaysi ilmiy darajani bildiradi?
- Sizning jamiyatingiz shimliklar va shimsizlar sinflariga bo‘linadi, shekilli?

Ahmoqona tirjaya oldim, xolos. Ularning ta‘bi juda tirriq bo‘lgandi, yirtiq shimimni paypaslab

¹ Vare, vskiy — chet el so‘zlariga taqlid tarzida aytilayotgan shartli so‘zlar.

ko‘rdilar, keyin yana bidir-bidirga tushib ketdilar. Zerikdim. Nihoyat yosh olimlar ketishdi va Kichik Chayondan ular nima to‘g‘risida gapirishganini so‘radim.

– Mendan so‘rayapsanmi? – kulib yubordi Kichik Chayon. – Men kimdan so‘ray? Ular hech narsa de-yishmadi.

– Nima deyapsan? Ular “vare”, “vskiy” kabi so‘zlarni aytishdi-ku...

– Bu “kimyo” va “rol”¹ni anglatadigan oddiy chet el so‘zlari, biroq mazkur kimsalar ularni to‘g‘ri kelgan joyda, biror ma‘nosiz ishlataveradilar. Bunday so‘zlarni tilga oladiganlar yangi turdagi olimlar deb ataladigan bo‘lgan. “Vare”, “vskiy”, yana “izm” keyingi paytda juda urfga kirgan. Yuqoridagi dastlabki ikki so‘z birlashtirilganda nimani xohlasang, shuni anglataveradi: “Ota-onalar bolalarini uryapti”, “Imperator afyun yaproqlarini iste‘mol qilmoqda”, “Olim o‘z joniga qasd qildi”... Ularni aytsang, seni ham olim deb hisoblashadigan bo‘ladi. Eng asosiy-si — ot. Fe‘l talab qilinmaydi, sifat ot orqali tashkil topadi.

– Nega ular mendan shimim haqida so‘rashdi?

– Nima uchun qizlar seni yuqori poshnali tuflilar haqida so‘roqqa tutishdi? Yosh olimlar ayollarga o‘xshaydi: ular ham pokiza va chiroyli bo‘lishni, urf bo‘yicha kiyinishni istashadi. Keksa olimlar shart-tasiga qizlarni talab qilishadi, yoshlar esa avvaliga chiranishadi. Ko‘rasan, bir necha kundan keyin ularning hammasi shim kiyadi...

¹ Chet el atamalarining o‘zlari kabi ularning tarjimasini ham shartli.

Xona juda dim bo'lib ketgandek tuyuldi, Kichik Chayondan uzr so'rab, ko'chaga chiqdim. Atirgul va uning dugonalari tovonlariga g'isht bo'laklarini bog'lab, devorni ushlab yuqori poshnalarda yurishni o'rganayotgan edilar.

20

Bu umidsizdan o'rgansa bo'ladigan narsalar bor edi. U, hech bo'lmaganda dastavval mushohada yur-gizar, shundan keyingina o'z umidsizligiga berilardi. Ehtimol, Kichik Chayon kaltabin yoki qo'rqqoqdir, biroq menga tobora ko'proq yoqayotgandi, yosh olimlardan ham qo'lni yuvib, qo'ltiqqa tiqmagan-dim. Ular ahmoqlikda keksalardan qolishmasa ham, tiyrak va sho'xroq edilar. Kichik Chayon ulardagi kelajakka ishonchni o'zlashtirib olsa chakki bo'l-masdi, balki shunda talaygina yaxshi ishlar qilardi. Yosh olimlarni yana bir bor ko'rgim keldi va Af-yundan ular qayerda yashashini bilib oldim.

Yo'l-yo'lakay ko'pgina maktablar yoki institutlar, ya'ni devorlar bilan o'ralgan yaydoq joylar yonidan o'tdim. Ko'chada sayr qilib yurgan o'quvchilarni ko'rganimda ko'zim jiqqa yosh bo'lardi. Bu o'smir-lar (ayniqsa, kattaroq yoshdagilari) o'ta mag'rur: xuddi yetti mushuk boshi ustida yotgan Katta Cha-yonga o'xshardilar. Ular, aftidan, o'zlarini Tangri suygan deb tasavvur etardilar va davlatlari koinotda eng ayanchli ekanligini tushunmasdilar. Faqat ahmoq murabbiylariga bunday johil o'spirinlarni tarbiya-lab yetishtirishlari mumkin. Baribir o'ylardim, odam yigirma yoshga kirganda biror narsaga aqli yetishi, o'zini jannatda emas, balki do'zaxda ekanligini his etishi kerak. Sal bo'lmasa, ulardan nimadan shu qa-

dar mamnunligini so‘ramoqchiydim, lekin vaqtida o‘zimni tiya oldim.

Men oldiga borayotgan olimlardan biri muzeyga rahbarlik qilardi, bu ayni muddao edi. Muzey yigirmata yoki o‘ttizta xonadan iborat katta binoda joylashgan ekan. Kiraverishda devorga suyanib darvozabon o‘tirar va shirin uyquga ketgandi. Binoni undan boshqa hech kim qo‘riqlamasdi, barcha eshiklar esa ochiq edi. Odam-mushuklar nima qo‘lga ilinsa, hammasini o‘g‘irlashlari ajablanarlidir. Darvozabonni bezovta qilishga jur‘at qilmasdan muzeyga kirdim, ikki bo‘sh xonadan o‘tdim va o‘sha yerda yangi tanishimga duch keldim. U o‘zining shodonligi, nazokati va iltifotliligi bilan maftun qildi. Uning familiyasi Koshkarskiy ekan. Bu chet elga taqlid sharifligini his etardim va u muzeyda menga hamroh bo‘lib, chet el so‘zlari bilan qiynashidan cho‘chiyotgandim. Ishqilib, eksponatlarni “vare” yoki “vskiy” deb atayvermasin, shunda hammasi risoladagidek bo‘ladi.

– Marhamat, bu yoqqa o‘ting! – iltifot bilan dedi Koshkarskiy. – Bu miloddan avvalgi sakkizinchi ming yillikning tosh ro‘zg‘or anjomlari. Anjomlar eng yangi tizim bo‘yicha joylashtirilgan. Qarang!

Atrofimga alangladim — hech narsa yo‘q. Bu qanday vasvasa?! Lekin Koshkarskiy endi devorlarni ko‘rsatayotgandi:

– Ko‘z oldingizda qadimiy tosh idish, unga qandaydir chet el so‘zlari o‘yib yozilgan, uch million milliy nufuz turadi.

Endi haqiqatan ham yozuvni ilg‘adim, ammo u idishga emas, aftidan, qachonlardir qimmatbaho yodgorlik turgan devorga bitilgandi.

– Ko‘z oldingizda yoshi o‘n ming bir yilga to‘lgan tosh bolta, narxi — ikki yuz ming milliy nufuz, bu — uch yuz ming milliy nufuz, anavi — to‘rt yuz ming...

Menga bir narsa — uning eksponatlar narxini tutilmay aytayotganligi yoqayotgandi. Biz keyingi bo‘m-bo‘sh xonaga kirdik. Koshkarskiy o‘sha tetik va ehtiromli ohangida davom etardi:

– Bu yerda esa o‘n besh ming yil avvalgi eng qadimiy kitoblar saqlanadi. Ular eng yangi tizim bo‘yicha joylashtirilgan.

U kitoblarning nomlari va ularning narxini ayta boshladi, biroq men devorda bir nechta suvarakdan boshqa hech narsani ko‘rmadim.

Biz o‘ninchi bo‘m-bo‘sh xonadan chiqqanimizdan keyin sabrim tugadi. Koshkarskiy bilan xayrlashmoqchi bo‘lib turgandim, oxirgi zal oldida tayoq ushlagan taxminan yigirmata askarni ko‘rib qoldim. Ular biror narsani qo‘riqlaydi, shekilli. Zalda haqiqatan ham eksponatlar bor ekan va men osmon va yerga shukronalik bildirdim. O‘n bitta zaldan bittasida biror narsa bor ekan — demak, bu yerga kelishim behuda bo‘lmadi.

– Siz juda vaqtida keldingiz, – fikrimni tasdiqladi Koshkarskiy. – Atigi ikki kundan keyin buni ham ko‘rmasdingiz. Ko‘z oldingizda eng yangi tizim bo‘yicha joylashtirilgan miloddan avvalgi o‘ninchi ming yillikning sopol anjomi. O‘n ikki ming yil ilgari ushbu idishlar dunyoda eng chiroylilari edi, lekin keyin, miloddan avvalgi oltinchi ming yillikdan boshlab biz kulolchilik san‘atini yo‘qotdik va hozirgacha uni egallay olmayapmiz.

– Qanday qilib? – so‘radim men.

– Eh, vskiy! – meni taajjubda qoldirgan holda xitob bilan dedi gidim. – Bu Marsdagi eng qimmatbaho ashyo, biroq chet elliklilarga uch billion milliy nufuzga sotilgan. Agar hukumat shoshilmaganida bu ashyolar uchun kamida besh billionni qo‘lga kiritgan bo‘lardi, chunki hatto hali o‘n ming yil to‘lmagan tosh idishlar uchun ikki billion oldik. Hukumat yanglishdi, biz vositachilar esa kamroq ulush oladigan bo‘ldik. Bu — dahshat! Qanday tirikchilik o‘tkazamiz? Bizga bir necha yildan beri maosh to‘lashmaydi. To‘g‘ri, oldi-so‘tdida mo‘may pul ishlab olish mumkin, ammo biz yangi turdagi olimlarmiz va bizga keksa olimlarga qaraganda ko‘p barobar pul kerak. Biz faqat chet el buyumlaridan foydalanamiz, holbuki bunday har bir ashyo o‘n ikki nafar keksa olimni boqardi.

Koshkarskiyning betashvish basharasi birdaniga tundlashib qoldi.

– Kulolchilik san‘atining sirlari qanday qilib yo‘qotildi, deysanmi? Eh, vskiy! Nega qadimiy ashyolarni sotyapmiz deb so‘ramoqchimisan? Bundan pul ishlab olish uchun.

O‘zimda yosh olimlar xususida hech qanday xomxayol qolmagandi. Faqat saqlanib qolgan idishlarni quchoqlab olish va bo‘zlashni xohlardim. Demak, muzey antiqalarini sotish hukumat daromadlari manbalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi, olimlar esa ulushini oladi va muzeyga kelganlarga ularning narxlarini ma‘lum qilishadi.

– Oxirgi eksponatni pullaganingizdan va endi sizga boshqa ulush tegmaydigan bo‘lgandan keyin nima qilasiz?

– Oh, vskiy!

Uning uchun bu soʻz Kichik Chayonnikiga qaraganda ming baravar pastkash moslashuvchanlikni bildirishini tushunib yetdim. Koshkarskiy oʻz xitoblari bilan men uchun jirkanch kishiga aylandi, lekin afyun yaproqlari odamni loqayd qilib qoʻyadi va gidimga shapaloq tortib yubormadim. Nega endi men, xitoylik odam, mushuklarning ishlariga aralashishim kerak?

Koshkarskiy bilan xayrlashmasdan tashqariga chiqdim orqamdan oʻgʻirlangan tabarruk yodgorliklarning ingrashlari eshitilayotgandek tuyulardi.

Koʻchada biroz tinchlandim va mushuklarning osori atiqalari uchun chet elga borib qolishlari baxtdir degan oʻy xayolimga keldi. Odam-mushuklar hamma narsani oʻmarishayotgan va yakson qilayotgan ekanlar, tabarruk yodgorliklarining chet ellarda saqlangani maqbulroqdir. Bu Koshkarskiyni sira ham oqlamasdi, albatta. Ana shu oldi-sotdi u tomonidan boshlanmagan boʻlsa ham bu kimsa vijdotsizlik bilan mazkur qilmishni qoʻllab-quvvatlamoda va umuman shaʼn va vijdonni yoddan koʻtargan. Men hamisha insoniyat oʻz tarixini ulugʻlaydi degan fikrda edim, odam-mushuklar esa shafqatsizlarcha oʻz vatanlari tarixidan ham voz kechyaptilar. Bundan tashqari Koshkarskiy oʻqimishli. Agar olimlar shunday yoʻl tutayotgan boʻlsalar, johil olomon nimalar qilmaydi deysiz?!

Boshqa yangi olimlar bilan uchrashish va madaniyat muassasalarini tomosha qilish xohishim yoʻqoldi. Oldinda koʻzga tashlangan kutubxona yana “boʻm-boʻsh qalʼa bilan ayyorlik”¹ dan darak berar-

¹ Mashhur Xitoy sarkardasi Chjuge Lyane (III asr) toʻgʻrisidagi rivoyatga shama. U qoʻshinidan ajralib, dushmanga shahar darvozalarini ochgan, yov pistirmadan xavfsirab, qalʼa devorlaridan uzoqlashgan.

di. Binoning o‘zi, ko‘p yillar davomida ta‘mirlanmaganligi sezilib turgan bo‘lsa ham binoyidek edi. Lekin kutubxonadan, aftidan, kitob o‘qigani kelgan bir guruh maktab o‘quvchilari chiqqanida menda yana qiziqish uyg‘ondi.

Darvozadan kirgach, devorlarda ko‘plab yaqinda yozilgani bilinib turgan “Kutubxona inqilobi” so‘zlariga ko‘zim tushdi. Qiziq, bu kimga qarshi ekan? Bu haqda mulohaza yurgizar ekanman, yerda yotgan odamga qoqilib ketdim, u shu ondayoq baqirishga tushdi: “Qutqaringlar!”

Uning yonida qo‘l-oyog‘i bog‘langan yana o‘ndan ortiq jabrlanganlar yotardi. Ularni kishanlardan bo‘shatishim bilanoq, bittasidan tashqari (u yosh olimligini tanib qoldim) hammasi qo‘rqoqlarcha qochib qolishdi. Yordam so‘rayotgan o‘sha yosh olim ekan.

– Bu yerda nima bo‘lyapti o‘zi?! – hayratga tushdim men.

– Yana inqilob! Bu safar kutubxona inqilobi.

– Bu kimga qarshi qaratilgan?

– Kutubxonalarga qarshi. Qarang, janob! – olim o‘zining sonlarini ko‘rsatdi.

O‘zim avval e‘tibor bermagan kalta shimni ko‘rdim. Ammo buning kutubxona inqilobiga qanday aloqasi bor? Olim buni tushuntirdi:

– Axir sen shim kiyasan va biz ham — xalqni ilg‘or fan, ilg‘or axloq va odatlar bilan tanishtirishga da‘vat etuvchi olimlar shim kiydik. Bu inqilobiy harakat...

“Mana sizga inqilob”, deb o‘yladim.

– Afsuski, qo‘shni institut talabalari bizning inqilobiy harakatimizdan darak topishibdi, ular bu yerga keldi va har biri ikkitadan shim berishni talab qildi. Men kutubxona mudiriman, avvallari, kitoblar bilan savdo qilganimda, ishlab topganimning bir qismini talabalarga berardim. Gap shundaki, ular mushukizmga berilganlar. Mushukchilar esa xavfli xalq. Afsuski, ular o‘z tamoyillarini jonkuyarlik bilan joriy etadilar va mendan shim talab qildilar. Ularga yetarlicha shim topib bera olmaganim uchun talabalar isyon ko‘tarishdi. Mening inqilobiy harakatim shim kiyishdan, ularniki hech kimda yo‘g‘idan tikishdan iborat edi. Xullas, ular bizni chirmab bog‘lashdi va jamg‘argan arzimas pullarimni o‘marishdi!

– Umid qilamanki, ular kitoblarni talon-toroj qilmagandir? – xitob bilan dedim uning jamg‘argan pullari emas, balki kutubxona to‘g‘risida qayg‘urib.

– Yo‘q, ularni talon-toroj qilishning imkoni yo‘q edi, chunki so‘nggi kitob o‘n besh yil muqaddam sotilgan, hozir biz qayta ro‘yxatga olish bilan shug‘ullanmoqdamiz.

– Kitob bo‘lmasa, nimani ro‘yxatga olyapsizlar?

– Binoni, devorlarni... Yangi inqilobga tayyorlan-yapmiz, kutubxonani mehmonxonaga aylantirib, ijaradan ozroq bo‘lsa ham pul ishlamoqchimiz. Amalda bu yerda bir necha bor askarlar joylashtirildi, biroq fuqarolar bilan biroz noqulayroq...

Odam-mushuklarni hurmat qilishni juda istardim va xuddi shuning uchun bu gaplarni boshqa tinglamay qo‘ya qoldim, aks holda so‘kinishga tushgan bo‘lardim.

Tunda Mushuklar shahrida biror zavq-shavqqa ega bo'lmagan yomg'ir yana quydi. Birin-ketin quyayotgan devorlarning taraq-turug'i va gumbur-gumburini eshitayotganingda shoirona kayfiyatga berilish qiyin. Shahar po'rtana paytidagi dengiz kemasiga o'xshardi. Har daqiqa u o'z halokatini kutayotgandek titrardi, ammo bu shu qadar yomonmi? Qon to'kilishiga sira mushtiq emasdim, atigi odam-mushuklarga yomg'irdan yengilgina o'lim istardim. Ular qay maqsadda yashayapti? O'zlarining tarixida hozir o'zlari jazosini tortayotgan bema'ni xatoga yo'l qo'yilgan. Aytgancha, o'zimning fikrlarim ham ahamiyatsiz va havoyi tuyulardi.

Mayli, mushohada qilib ko'ray, baribir uxlay olmayman. Masalan, mushukizm yoki odam-mushuklarning o'zlariga anchayin ziyon yetkazgan boshqa so'zlar nimani anglatadi? "Mushukizmga sadoqatli" talabalarni yodga oldim. Yerdagi talabalar hamisha ilg'or fikr eltuvchilar bo'lgan, biroq ba'zida ularning qiziqqonligi yuzaki ko'rinish olgan, siyosiy o'tkirliklari esa bir necha yangi so'zlardan ustalik bilan foydalanishdan iborat bo'lgan. Agar bu yerdagi talabalar ham shunday bo'lsa, Mushuklar davlatining kelajagiga ko'z yumishimgina qoladi. Hamma narsada talabalarni ayblash adolatdan bo'lmasdi, biroq ulardan umidvorligim uchungina bu yoshlarni benuqson qilib ko'rsatmasligim kerak. Mushuklar siyosati bilan tanishish istagim shu qadar kuchli ediki, tun bo'yi deyarli mijja qoqmadim. Kichik Chayon o'zining siyosatga aloqadorligini inkor etgan bo'lsa

ham, undan tarixiy dalillarni bilib olishim mumkin, bularsiz hozirgi hayotni tushunib bo'lmaydi.

Kichik Chayonni yo'qotib qo'ymaslik uchun tong saharda turdim va unga darhol savol bilan murojaat qildim:

– Ayt-chi, mushukizm nima?

– Odam-mushuklar bir-birlari uchun yashashlari to'g'risidagi siyosiy ta'limot, – javob berdi u afyun yaprog'ini chaynar ekan. – Mushukcha tuzumda jamiyat puxta sozlangan ulkan mexanizmni eslatadi, unda har bir odam murvat va tishli g'ildirak rolini bajaradi, ammo hamma xotirjam va baxtiyor mehnat qiladi. Chakki ta'limot emas.

– Marsda qaysidir bir davlat hozir ana shunday tuzum quryaptimi?

– Ha, ikki yuz yildan beri.

– Sizning mamlakatingiz-chi?

Kichik Chayon o'yg'a cho'mdi. Yuragim sabrsizlikdan dukillardi. Nihoyat u shunday dedi:

– Biz ham urinib ko'rdik, shovqin-suron ko'tardik. O'zi biz amalga oshirishga urinib ko'rmagan ta'limotni eslay olmayman.

– “Shovqin-suron ko'tardik” deganing nimasi?

– Aytaylik, sening quloqsiz bolang bor. Uni urding. Bu haqda men ham xabar topib, bolamni quloqsiz ekanligi uchun emas, shunchaki senga taqlid qilib urdim. Bundan shovqin-suron ko'tariladi. Siyosatda ham shunday.

– Iltimos, batafsilroq gapirib ber, – so'radim men. – Balki shovqin-suron ko'tarish o'zgarishlarga olib keladigan bo'lsa, u qadar yomon emasdir.

– O'zgarishlar — hamisha ham taraqqiyot emas...

Kulib yubordim. Bu Kichik Chayon juda zaharxanda! U esa biroz sukut saqlagandan keyin davom etdi:

– Marsda yigirmatadan ko‘proq davlat bor, har birining o‘z siyosati, o‘z tarixi bor. Biz esa tasodifan qaysidir davlat mavjudligidan xabardor bo‘lamiz va o‘zimizda shovqin-suron ko‘tarishni boshlaymiz. Keyin boshqa mamlakatdagi islohot quloqqa chalinatedi, yana shov-shuv bo‘ladi. Natijada boshqa davlatlarda islohotlar o‘tkaziladi, bizda esa yo‘q. Bizning o‘ziga xosligimiz shundaki, qanchalik nochor yashasak, shuncha ko‘p g‘ala-g‘ovur ko‘taramiz.

– Mayli, tartib bilan bo‘lmasa ham, aniqroq gapir, – yana iltimos qildim men.

– Yaxshi, galadan boshlay qolay.

– Gala?!

– Bu shimga taqlid qilingandek bir narsa. Sizing Yeringizda shunga o‘xshash narsa borligini bilmayman. Aslini olganda, bu siyosiy jizzakilikka mukkasidan ketgan mushuklarni birlashtiradigan tashkilotdir. Nega ushbu tashkilot gala deb atalishini keyinroq tushuntiraman... Qadimda biz imperatorga so‘zsiz bo‘ysunardik, churq etishga haddimiz sig‘masdi va “Axloqiy poklik”ni oliy qadriyat deb hisoblardik. Daf‘atan xorijdan xalq ham uyushishi va boshqaruvda ishtirok etishi mumkin, degan xabar yetib keldi. Qadimiy kitoblarni qanchalar varaqlamaylik, mushuklar tilida bunga mos keladigan so‘zni topa olmadik: aniqlashga muvaffaq bo‘lgan yagona birlashmamiz itlarga taalluqli ekan, shuning uchun o‘z tashkilotimizni gala deb atadik. O‘sha vaqtdan beri siyosatimizda ko‘p o‘zgarishlar bo‘ldi, lekin

oldin senga aytganimdek, siyosat bilan shug'ullanmayman, bu faqat dalillar.

– Ha, ha, dalillar, – ilib ketdim men, u so'zini davom ettirmay qo'yishidan qo'rqib.

– Birinchi siyosiy islohot shundan iborat bo'ldi, imperatordan boshqaruvni insonparvarroq qilish so'raldi. U rozi bo'lmadi, albatta, shunda islohotchilar o'z galasiga ko'plab harbiylarni qabul qildilar. Ish chatoqligini sezgan imperator eng nufuzli islohotchilarga yuksak mansablarni tortiq qila boshladi, ular xizmatga berilib ketib, nimani xohlashgani unutilib qo'yishdi. Bu vaqtda imperator umuman kerak emas, degan mishmishlar tarqaldi. Natijada ommaviy boshqarish galasi tashkil topib, o'z oldiga imperatorni quvish maqsadini qo'ydi. Bundan voqif bo'lgan imperator o'z galasini tuzdi, uning har bir a'zosi oyiga bir ming milliy nufuz oladigan bo'ldi. Ommaviy boshqaruv tarafdorlarining ko'zlari charqalab, so'laklari oqa boshladi. Ular imperatorga suykala boshladilar, imperator esa bularga faqat yuz milliy nufuz taklif etdi. Agar maosh uch yuz milliy nufuzga ko'tarilmaganida, kelishuv bo'lmasdi. Lekin pul hammaga yetmadi va a'zosi o'nta, ikkita, hatto bitta bo'lgan galalar paydo bo'ldi.

– Gapingni bo'layotganim uchun kechir: bu tashkilotlarda xalqdan chiqqan odamlar bormidi?

– O'zi shu to'g'risida gapirmoqchiydim. Yo'q edi, albatta, chunki xalq savodsizligicha, nodonligicha va o'ta ishonuvchanligicha qolayotgandi. Har bir gala xalq to'g'risida og'zini ko'pirtirib gapirardi, keyin imperatordan u xalqning cho'ntagini qoqib olgan pullarini olardi. Galalarning o'zi ham xalqni shilish-

ga tayyor edi. Agar xalq aldovga uchmasa, yordamga harbiylar chaqirilardi. Xullas, galalar ko'paygan sari mamlakat tobora kambag'allashib borardi.

– Nahotki bu galalarda chinakamiga xalq uchun jon kuydiradigan birorta oliyjanob kimsa topilmadi?

– Topilardi, albatta. Lekin bilsang kerak, oliyjanob kishilar ham qorni to'yishi va rohatlanishni istaydi, buning uchun esa pul kerak bo'ladi. Yaxshi odamlar pulni olib, qorinlarini to'ydirib, xotinlarga ega bo'lib, oila qullariga aylanadilar va bundan buyog'iga qo'lni yuvib, qo'ltiqqa uradilar. Ular inqilobni, siyosatni, davlatni, xalqni tezroq esdan chiqarishga harakat qiladilar.

– Demak, sizlarda ishga ega bo'lganlar va qorni to'qlar siyosiy harakatda umuman ishtirok etishmaydimi? – gumonsiradim men.

– Ha, ishtirok etishmaydi, chunki qo'rqishadi. Ular barmog'ini qimirlatib ko'rsinlar-chi, imperator, harbiylar va navbatdagi gala so'nggi mirilarigacha shilib olishadi. Ular yo chidashga, yoki uncha katta bo'lmagan amaldorlik lavozimini sotib olishga mahkumlar. Bizda siyosat bilan o'zlari hech narsalarini yo'qotmaydigan chet ellarda o'qiyotganlar, bezorilar yoki chalasavod harbiylar shug'ullanishlari mumkin: ular galada qorin to'yg'izadilar, galasiz umuman och qoladilar. Mamlakatimizda hukumatni to'ntarish o'ziga xos kasbga aylandi. Siyosat o'zgaradi, lekin yaxshilanmaydi. Demokratiya to'g'risida baqiramiz, xalq esa avvalgidek kambag'allashmoqda. Yoshlar ham tobora maydalashib ketmoqda. Hatto haqiqatan ham mamlakatni qutqarmoqchi bo'lganlar hokimiyatni qo'lga kiritganlarida ko'zlarini behuda

baqraytiradilar, xolos, chunki uni boshqarish uchun qobiliyatlari ham, bilimlari ham yo‘q. Natijada qarilarni chaqirishga to‘g‘ri keladi, ular ham nodonlar, biroq ayyorroqlar. Tashqaridan qaraganda hukumatni “yangilik tarafdorlari” boshqarayotganga o‘xshaydi, amalda esa hammasi qari tulkilarning qo‘lida. Barcha siyosatga o‘zaro aldov sifatida qarashi taajjublanarli emas: boplab aldasang, yutib chiqqan bo‘lasan, aldashni eplay olmasang, yutqizgan — sen. Shuning uchun o‘quvchilar ham kitob o‘qishni qo‘ydilar: o‘zlarini iste‘dodli siyosatchi deb tasavvur etib, yangi so‘zlarni yod olishadi va turli hiylagarliklarni o‘zlashtirishadi.

Kichik Chayonga tin olish imkonini berdim, keyin avvalgi savolimni uning yodiga soldim:

– Sen hali mushukizm haqida gapirib bermading.

– Hozir aytaman. Shunday qilib, xalq tobora kambag‘allashib borardi, chunki g‘avg‘o va mushtlashishlar paytlarida iqtisodiyotga e‘tibor berilmasdi. Shunda mushukizm tug‘ildi — u xalq ichida yuzaga chiqdi, bevosita iqtisodiy muammolar mevasi bo‘ldi. Avvallari davlat to‘ntarishlari imperatorni qulatishga olib kelmasdi: u galalardan qaysidir biriga to‘la-to‘kis ishonishini e‘lon qilardi, ba‘zan uning dohiysiga ham aylanardi, shuning uchun shoirlarimizdan biri uni “barcha galalarning xo‘jayini” deb atagan. Faqat mushukchilar birinchi bo‘lib imperatorni o‘ldirishdi. Ammo hokimiyat ularning qo‘liga o‘tganidan keyin anchagina xalq qirib tashlandi, chunki mushukchilar o‘zlariga va miyovlovchilarga sodiq bo‘lmaganlarni yo‘q qilib tashlanishini talab qildilar. Qirg‘in hech kimni ajablantirmadi — Mu-

shuklar davlatida hamma vaqt behuda o'ldirib yuborilaverardi. Agar hokimiyat tepasiga bu yaramaslar o'rniga haqiqatan dehqonlar va ishchilar kelganida, chakki bo'lmasdi. Biroq mushuklar davlat to'ntarishi vaqtida ham mushukligicha qolaverdilar: ular, masalan, tovon puli to'laganlarni o'ldirishmadi. Oqibatda aybsizlar halok bo'ldi, yaramaslar omon qoldi. Qutulib qolgan muttahamlar galalarga suqilib kirdilar, fitna uyushtirishga kirishdilar va o'sha paytdan beri jazolashda biror ma'no qolmadi.

Bundan tashqari hayotni o'zgartirish uchun eng avvalo iqtisodiy tizimni yangilash, ikkinchidan, odamlarda bir-birlari uchun yashash tuyg'usini tarbiyalash zarur edi. Ammo bizning mushukchilar iqtisodiyot, ayniqsa yangicha tarbiyalash haqida biror tushunchaga ega emasdilar. Ular o'ldirishlarni tugallab, yana ko'zlarini baqraytirdilar, dehqonlar va ishchilarga yordam bermoqchi bo'ldilar, lekin qishloq xo'jaligida ham, sanoatda ham hech narsani tushunmasdilar. Yerni dehqonlarga bo'lib berdilar, ularga afyun daraxtlarini ekish kerakmi-yo'qligi xususida uzoq bosh qotirdilar, oqibatda nihollar ulg'ayguncha hamma och qoldi. Ishchilar uchun umuman ish topilmadi. Yana o'ldirishni boshlab yubordilar. Ba'zan shu tarzda qashlash o'rniga terini shilib olishadi.

Mushukizm biz boshqalardan o'zlashtirgan ko'pgina ta'limotlar taqdiriga sherik bo'ldi. Bunday ta'limotlar boshqa davlatlarda jamiyatni davolashning vositasi bo'ladi, bizda esa butkul o'zimizni o'zimiz savalashga aylanadi. Biz hech qachon o'ylamaymiz, haqiqatga tik ko'z bilan qaray olmaymiz, shuning uchun to'ntarishlar faqat vayronagarchiliklarga olib

keladi. Boshqalar ta'limotlardan yangi g'oyalar, yangi rejalarni o'zlashtiradi, biz esa inqiloblarni shovqin-suron ko'tarish uchun qilamiz, chunki biror narsani bilmaymiz, hech narsa qilmaymiz, inqilob insondan yuksak ma'naviy fazilatlarini talab qilishini yoddan ko'taramiz. Faqat eng jirkanch usullarni qo'llab, bir-birimizga hujum qilamiz. Biz qirg'inlar bilan shug'ullanib, ko'zlarimizni baqraytirib yurgan paytda mushukizm harakatining dohiysi imperator bo'lib oldi. Mushukizm va imperator — bir-biriga mutlaqo to'g'ri kelmaydi, bema'ni tushga o'xshaydi! Ammo bizda bunday narsalar ajablanarli emas, chunki o'zimiz siyosatda hech vaqoni tushunmaymiz. Mushukizm ham Janobi Oliylarini taxtga o'tkazishga olib keldi va hamma xotirjam bo'ldi-qoldi. Imperator huzur-halovatda, hozir ham "barcha galalarning dohiysi" deb ulug'lanadi, mushukizm esa bu ikki gala o'rtasida ma'nisiz o'ralashib yuribdi.

Men Kichik Chayon ko'zlarida birinchi marta yosh ko'rdim.

22

Kichik Chayon menga hamisha haqiqatni gapirgan bo'lsa ham uning tanqidi besamar, o'ta noxush ko'rindi. To'g'ri, tinch, baxtiyor Xitoydan kelganman, shuning uchun hammasi shu qadar umidsiz bo'lib ko'rinishi mumkin emas, deb hisoblardim. Sog'lom odamga kasalning umidsizligini tushunish oson emas. Biroq najot hamisha bo'lishi shart, bu sa'y-harakatlarning onasi, insoniyatning o'ziga xos burchi. Odam-mushuklar hech narsaga erisha olmasliklariga ishonmasdim. Ular, har holda odamlar, insonlar esa hamma narsaning uddasidan chiqadi.

Men Katta Chayonning oldiga borish va u orqali siyosiy arboblarni bilan tanishishga qaror qildim. Agar ularning orasida sogʻlom fikrlaydigan mushuklarni uchratsam, ular meni umidvor qiladigan biror narsani maʼlum qilishlari kerak. Toʻgʻri, xalq bilan gaplashib koʻrish yanada foydaliroq boʻlardir, lekin oddiy mushuklar chet elliklardan juda qoʻrqadilar va siyosatda biror narsani tushunishlari amri mahol. Qahramonlar oldida tiz choʻkish menga hech vaqt xos boʻlmaganiga qaramasdan, oʻz idealimni xalq uchun biror narsa qilishga qodir siyosatchilar orasidan izlab koʻrishga azm qildim.

Xuddi shu vaqtda Katta Chayon meni ziyofatga taklif qildi. U koʻzga koʻringan arbob edi, uning mehmonlari orasida siyosatchilar ham boʻlishi kerak. Bundan tashqari anchadan beri uydin chiqmayotgandim. Koʻcha avvalgidek mehnatsevarligi bilan emas, balki pitir-pitirligi bilan chumolilarni eslatadigan yoʻlovchilar bilan gavjum edi. Bu ayanchli shahar qanday joziba kuchiga ega ekanligini, odam-mushuklar nega bu yerga shu qadar intilishlarini tushuna olmasdim. Aftidan, qishloqda ahvol oʻta abgor. Men payqagan yaxshilik tomon yagona oʻzgarish — koʻchalardagi badboʻylikning kamayganligida edi: keyingi kunlari yomgʻir quyardi va aholi oʻrniga “Ozodalik uchun harakat”ni oʻtkazgandi.

Belgilangan vaqtda kelgan boʻlsam ham Katta Chayon uyda yoʻq ekan. Meni afyun oʻrmonida oʻzimga ovqat tashigan odam-mushuk kutib oldi, biz tanish edik va u men bilan gaplashishga jurʼat qildi:

– Agar seni tushda uchrashishga taklif qilishsa, kechqurun yoki ertasiga tongda kel. Ikki kundan keyin kelsang ham bo‘ladi — odatimiz shunday.

Saboq uchun chin dildan minnatdorchilik bildirib, bu yerga yana kim taklif qilinganligini so‘radim. Agar mehmonlar o‘ylagan odamlarim bo‘lmasa, qaytib ketish niyatim kuchli edi, ammo u shunday javob qaytardi:

– Hammalari katta arboblar. Aks holda senday chet ellikni taklif qilishmagan bo‘lardi.

Mayli, qolaman. Ammo qachon boshlanishi noma‘lum bo‘lgan bazmgacha nima qilsa bo‘ladi?

Shunda cho‘ntagimda bir nechta milliy nufuz borligini esladim va ularni kekxa xizmatkorga uzatdim. Qolgan hammasi o‘z-o‘zidan hal bo‘ldi. Xiyol o‘tmay supada o‘tirar va qiziqarli ma‘lumotlardan xabar topardim. Pul — odam-mushuklar og‘zining qulfini ochadigan a‘lo kalit edi.

– Shaharliklar tirikchilik o‘tkazish uchun pulni qanday topadilar, – eng avvalo shuni so‘radim.

– Ularmi? – so‘radi xizmatkor, devor ortidagi odamlar oqimiga ishora qilib. – Hech narsa qilmaydilar.

– Qanaqasiga? Ular nima yeyishadi?

– Bu ma‘lum-ku: afyun yaproqlari.

– Ammo ularni qayerdandir olish kerak-ku...

– Ko‘pni ta‘minlash uchun bir odamning amaldor bo‘lishi kifoya. Amaldor afyun yaproqlarini yetishtiradi, ular bilan savdo qiladi, topgan pullarining bir qismini esa qarindoshlari va do‘stlariga beradi. Kichik amaldor esa aksincha, bu yaproqlarni sotib oladi, baribir qarindoshlari va do‘stlariga yordam

beradi. Boshqalar o‘zlariga qarashli amaldor paydo bo‘lishini kutishadi.

– Aftidan, amaldorlar ko‘pga o‘xshaydi?

– Ha, ishsizlardan boshqa hamma amaldor hisoblanadi. Men ham amaldorman... – kulib yubordi xizmatkor. U quvnoq emas, balki nafratli kulishi bilan men qachonlardan undan yulib olgan bir tutam junining haqini to‘ladim.

– Amaldorlar maosh oladilarmi?

– Albatta, Janobi Oliylaridan.

– Shuncha xalq bekor yursa, hech narsa ishlab chiqarmasa, imperator pulni qayerdan oladi?

– Qimmatbaho buyumlarni, yerlarni sotishdan... Axir siz, chet elliklar ularni sotib olishni yaxshi ko‘rasizlar-ku! Sotadigan narsa bor ekan, pulning tashvishini qilmasa ham bo‘ladi.

– Muzeylar va kutubxonalar sizlarga chakki yordam bermayapti ekan.. Lekin sen nahotki kitoblar va qadimiy osori atiqalardan mahrum bo‘lish yaxshi emasligini bilmasang?

– Buning nima ahamiyati bor. Pul bo‘lsa, kifoya!

– Demak, sizda hech qanday iqtisodiy muammolar yo‘q?

Ushbu savol juda murakkab edi va xizmatkor unga darrov javob bera olmadi:

– Avvallari bor edi, hozir esa yo‘q.

– Ilgarilari qanday edi: hamma ishlarmidi?

– Ha. Hozir qishloqlar deyarli huvillab qolgan, shaharlarda chet elliklar savdo qilishadi, bizning ishlashimizga hojat yo‘q, shuning uchun odamlar dam olishyapti.

– Unda amaldorlar nima qiladi? Axir ular hamma vaqt bekor yurishlari mumkin emas-ku! Afyun yaproqlari shunday ham berilsa, amaldor bo‘lishning nima keragi bor?

– Yirik amaldor oladigan maoshga u afyun yaproqlaridan tashqari chet el buyumlarini sotib olishi, yangi xotinlik bo‘lishi mumkin, amaldor emaslar yaproqqa arang pul topadi. Bundan tashqari yirik amaldor bo‘lishning qiyin joyi yo‘q: ishdan ko‘ra imtiyozlar ko‘p. U biror narsa qilgisi kelishi mumkin, lekin qiladigan ishning o‘zi yo‘q.

– Ayt-chi, elchining bevasi nima iste‘mol qilardi: u afyun yaproqlarini yemasdi-ku.

– Boshqa narsa ham yeyish mumkin, lekin ular juda qimmat. Go‘sh, sabzavotlar — bularning hammasi chet eldan olib kelinadi. Qishloqda afyun yaproqlarini yeyishni istamaganingda, senga ancha pul sarflaganmiz. Elchining bevasi ham alomat ayol edi, biroq uning injiqliklariga hech kim erk berib qo‘ymagan. Shuning uchun ham unga erining jazmanlari bilan yovvoyi mevalar yoki ildizlarni terib yurishlariga to‘g‘ri kelardi.

– Ular go‘sh t yermidilar?

– Go‘sh tni tera olmaysan, uni hatto sotib olish ham oson emas. Biz afyun yaproqlaridan boshqa narsalarni yeganimizda barcha mol, parranda-yu darrandalarni qirib tashlaganmiz. Sen bizda birorta yirtqich hayvonni yoki qushni ko‘rdingmi?

Men o‘ylanib qoldim.

– Yirtqich hayvonlar yo‘qligi rost, qushlarni — oq dumli kalxatlarni ko‘rganman.

– Ha, faqat ulargina saqlanib qolgan, chunki go'shti zaharliroq, bo'lmasa omon qolishmasdi.

“Tez harakat qilar ekansizlar! – o‘ylab qoldim men. – Chumoli va asalarilar ham o‘zlarning kelajagi haqida o‘ylamaydilar, ammo ularni sezgirliklari qutqaradi, sizlarda esa bu ham yo‘q. Qiziq, qaysi imperator yoki tangri sizni o‘rniga hech narsa bermasdan tabiiy sezgirlikdan judo qilgan ekan? U ustingizdan maza qilib kulibdi. Ta’lim bermaydigan maktablar, kallasiz siyosatchilar, insoniyliksiz odamlar, uyatsiz qalb. O‘ta shafqatsiz hazil emasmi?”

Baribir siyosatchilar bilan uchrashishga azm qildim, ehtimol, ular biror aqlli narsa o‘ylab topgandirlar. Balki qandaydir oddiy usul bordir: faraz qilaylik, afyun yaproqlarini teng ikkiga bo‘lish, o‘ziga xos mushukizumni o‘ylab topish. Bu, albatta, so‘nggi chora bo‘lardi. Ular qirilib ketmasliklari uchun avvalgi davrlariga qaytishlari, afyun yaproqlarini taqiqlashlari, qishloq xo‘jaligi va sanoatni tiklashlari zarur. Ammo buni kim qiladi? Hayvonlardan odamlarga aylanishlari uchun ulardan nihoyatda katta kuch, jur‘at va qat’iyat talab qilinadi! Men ham deyarli Kichik Chayondek umidsiz bo‘lib qoldim.

Katta Chayon paydo bo‘ldi. U shaharga kelgan paytdagimga nisbatan ancha ozib ketgan, biroq yanada ayyorroq va pastkashroq ko‘rinardi. Uning oldida iltifotli so‘zlarni sovrish niyatim yo‘q edi.

– Nega chaqirding?

– Shunchaki gaplashmoqchi edim.

Biron narsani o‘ylab qo‘ygan bo‘lishi kerak! Yana undan jirkanayotganligimni his etdim.

Keyin mehmonlar — hammasi notanish va oddiy odam-mushuklarga o'xshamaydiganlar kela boshlashdi. Ularning har biri meni eski do'stim deb atardi. Yetarlicha takallufsiz Yerdan uchib kelganligimni va ular bilan do'stlashish sharafiga ega emasligimni aytdim, lekin mehmonlar bunga bamaylixotir, tishni tishga qo'yib chidashdi va eski do'stim deb atashda davom etishdi.

Mehmonlar yigirmatadan ko'p edi. Omadim chopibdi — ularning hammasi siyosatchi ekanlar. Yuzaki taassurotlarimga qaraganda, ularni uch guruhga bo'lish mumkin edi. Birinchisi — eng katta yoshdagilari Katta Chayonga mansub edi. Ular meni tortinmasdan, biroq xiyol nomamnunlik bilan eski do'stim deyishayotgandi. Katta Chayonning ta'rifi-cha, bu kimsalar qari tulkilar edi. Yoshroq bo'lgan ikkinchi guruh a'zolari menga alohida e'tibor qaratishdi, ularda manmanlik sezilib turardi va hamma vaqt ma'nisiz kulishardi. Bu toifadagilar qari tulki-larning ba'zi usullarini o'rganganliklari, ammo hali to'liq o'zlashtirmaganliklari sezilib turardi. Uchinchi, eng yosh guruhga mansublar “eski do'st” so'zini notabiiy, hatto biroz xijolat tortib aytishardi. Katta Chayon ularni ayniqsa zo'r berib reklama qilardi:

– Bu do'stlarim endigina u yoqdan kelishgan.

Uni unchalik tushunmadim, biroq ko'p o'tmay “u yoqdan” — maktabdan, institutdan kelgan deb fahmladim. Ular siyosatga endi qadam qo'yganlar edi va bu yoshlar qari tulkilar bilan qanday muomala qilishlarini kuzatmoqchi bo'ldim.

Ziyofat — Marsdagi mening birinchi ziyofatim boshlandi. Barcha mehmonlar dasturxon atrofiga

o'tirib, afyun yaproqlarini paqqos tushira boshlashdi. Buni kutgandim, lekin keyingilari o'zim uchun yangilik bo'ldi.

– Bugun biz hozirgina u yoqdan kelgan do'st-larimizni qutlayapmiz, – tantanavor dedi Katta Chayon, – shuning uchun ularga ayollarni o'zlari tan-lash huquqi taqdim etiladi.

Yosh siyosatchilar mag'rurona kuldilar, ko'zlarini qisdilar, yana xijolat tortdilar va mushukizm to'g'risida nimalarnidir ming'illadilar. Men suyukli odamimni yo'qotgandek og'riq sezdim. Ularning tamoyillari shunaqa ekan-da! Mayli, g'azablanmayman, faqat kuzataman.

Ayollar kelgach, hamma yana afyun yaproqlarini yeyishga tushdi. Kulrang jun bosgan basharalari qizarib ketgan yosh siyosatchilar yashirincha Katta Chayonga qarab qo'yardilar. U kulib yubordi:

– Tanlayveringlar, janoblar, tanlayveringlar! Tortinmang!

Yigitlar bittadan ayolni qo'ltiqlab, quyi qavatga yo'l oldilar.

Ular chiqib ketishi bilanoq xo'jayin qolgan siyosatchilarga ko'z qisdi:

– Mana, endi ular ketishdi va biz ishlarimiz to'g'risida gaplashib olishimiz mumkin.

Demak, to'g'ri topibman, u haqiqatan ham bir narsani o'ylab qo'ygan.

– Bu haqda eshitdingizmi? – so'radi Katta Chayon.

Yoshi ulug'lar savolga parvo qilmadilar: ular o'z fikr-xayollariga cho'mgandek tuyulardilar. Ulardan yoshrog'i boshini qimirlatdi, biroq boshqalarga qa-

rab, darhol kallasini ko'tardi va ko'zlarini tepaga qadadi.

Men /qahqaha otib yubordim. Hamma yanada jiddiylashdi, lekin orqamdan ular ham tirjayishdi, axir chet ellik edim-da. O'rta avlodning boshqa bir vakili nihoyat tilga kirdi:

– Ba'zi bir narsalar quloqqa chalindi, ammo bu aniqligini bilmaymiz, umuman bilmaymiz...

– Aniq-da, albatta! Askarlarim mag'lubiyatga uchrab bo'ldilar! – xitob bilan dedi Katta Chayon tashvishlangan holda, aftidan, bu bevosita uning askarlari ekanligidan.

Bu safar hamma uzoq va ahillik bilan sukut saqlashdi, go'yo burunlari kovagidagi junlarni bezovta qilishdan xavfsiraganlaridek hatto nafas ham olishmasdi.

– Janoblar, balki yana bir nechta ayollarni taklif qilarmiz? – ularga murojaat qildi Katta Chayon.

Siyosatchilar jonlanib qoldi:

– Albatta, albatta! Ayollarsiz o'yingga hech narsa kelmaydi. Chaqiring!

Yana ayollar kirib kelishdi, erkaklar yanada jonlanib ketdi, quyosh ufqqa bosh qo'yayotgandi, siyosat to'g'risida esa hech kim churq etmadi.

– Mehmondorchilik uchun tashakkur! Ertaga-cha! – deyishardi tashrif buyurganlar o'zlari bilan ayollarni yetaklab ketar ekanlar.

Ularga endi basharalari qizil emas, balki kulrang-yashil tusdagi yoshlar ro'para bo'lishdi. Yigitlar hatto rahmat ham demadilar, faqat mushukizm haqida ming'illardilar.

“Ular o'rtasida qandaydir ichki nizo chiqqanga o'xshaydi, – degan xayolga bordim. – Katta Cha-

yon mag'lubiyatga uchradi, yordam berishni so'radi, unga esa rad javobini berishdi. Agar to'g'ri tushungan bo'lsam, fojiona biror narsa bo'lgani yo'q". Biroq Katta Chayonning yuzidan tashvishlanayotganligi sezilayotgandi va xayrlashish oldidan nega uning askarlari mag'lubiyatga uchraganliklarini so'radim.

– Chet elliklar bostirib kirdi!

23

Kun botmagan bo'lsa ham barcha aholi uylariga bekinib olgan edilar, faqat devorlarda ko'plab: "Oxirigacha qarshilik ko'rsatamiz!", "Davlatni qutqarish — o'zingni qutqarish demakdir!", "Yutib yuborish yo'qolsin!" shiorlari oqarib turardi...

Bu chaqiriq so'zlaridan boshim bo'yni muntazam buralayotgan buqanikidek aylanib ketdi. Ko'chada yolg'iz o'zim bo'lsam ham nafas olishimga havo yetishmayotgandi. "Chet elliklar bostirib kirdi!" — bu motam qo'ng'irog'ining bongidek quloqlarim ostida jaranglardi. Biroq qo'rqinch unga ziyofat uyushtirishga, ayollarni chaqirishga, anavi siyosatchilarga — ular bilan ko'ngilxushlik qilishga xalaqit bermadi.

Yana Kichik Chayonning oldiga borishga to'g'ri keldi. U o'ta serzarda bo'lsa ham bu yerdagi yagona sog'lom fikrlovchi odam edi. Lekin mushuklar siyosatchilarini ko'rganimdan keyin uni serzardalikda ayblay olamanmi?

Quyosh botdi, pushtirang shafaq yorishdi, yengilgina bulut osmonning go'zalligi va jimjit yerning ayanchliligini bo'rttirib ko'rsatardi. To'la sukunat hukmron edi, faqat epkin goh orqamga, goh ko'z

yoshidan namlangan yuzimga urilardi. Balki ilgari-
gi davrlardagi sahro ana shu ulkan shahardek o'lik
bo'lmagandir!

Kichik Chayonning oldiga kirib, qorong'ilikda
o'tirgan odamga ko'zim tushdi. Bu odam tanishimga
nisbatan ancha darozroq edi.

– Kimsan? – baland ovoz bilan so'radi notanish
kimsa.

Qat'iy, dangal berilgan savoldan odatiy odam-
mushuk bilan ish ko'rmayotganligimni tushundim.

– Chet ellikman, Yerdan uchib kelganman.

– E, yerlik janob! O'tir!

Uning taklifi buyruqday tuyular, ammo dangalligi
bilan o'ziga og'dirardi.

– O'zing kimsan? – so'radim men, unga tuzukroq
razm solish maqsadida yoniga o'tirar ekanman.

– Men — Katta Qarchig'ayman, – dedi u. – Bu
haqiqiy ismim emas, laqabimdir. Nima uchun meni
shunday atashadi deysanmi? Chunki qo'rqishadi.
Mamlakatimizda halol odamlarni dahshatli, jirkanch
hisoblashadi!..

Osmon zimistonga aylandi, Katta Qarchig'ayning
naq boshi tepasida ulkan guldek muallaq turgan
birgina qizg'ish tusli bulut qoldi. Bulutga sehrlanib
qolganday boqardim va yaqinda kuzatgan qizg'ish
shafaqni eslardim.

– Kunduzlari tashqariga chiqqani jur'at qilmay-
man, biroq ba'zan kechqurunlari Kichik Chayonni
ko'rgani kelaman, – sukutni buzdi suhbatdoshim.

– Nega kunduzi jur'at eta olmaysan?

– Kichik Chayondan boshqa hamma — dushman-
larim. Tog'larda yashayman, o'tgan tun bo'yi yur-

dim, keyin kunduzi yashirinib yotdim. Chaynashga biror narsa ber, bir kecha-kunduzdan beri tuz ham tortmadim.

– Mana, afyun yaproqlari.

– Kerakmas, uni yegandan ko‘ra ochlikdan o‘lgan yaxshi.

Bunday qat’iyatli odamni Mushuklar davlatida birinchi marta ko‘rishim edi. Yemak topish uchun Afyunni chaqirdim. Qiz uyda edi, lekin oldimizga kirishga botina olmayotgandi.

– Qo‘y, kerakmas. Ayollar ham mendan qo‘rqishadi. Baribir o‘lim yaqin — och qolsam ham bo‘laveradi.

– Chet elliklar bostirib kiribdi?

– Ha, shuning uchun Kichik Chayonning oldiga keldim.

– U juda umidsiz va ayni paytda o‘taketgan yengil tabiat.

Ochiqchasiga gapirayotganim ta‘namni biroz yumshatardi.

– U aqlli, shuning uchun umidsiz. Keyin nima deding? Yaxshi tushunmadim. Agar biror narsani hal qilmoqchi bo‘lsam, hamisha uning oldiga kelaman. Umidsizlar o‘limdan emas, hayotdan qo‘rqadilar. Bizning vatandoshlar esa ochlikdan zo‘rg‘a oyoqda tursalar ham shod-xurramlar. Ular tug‘ilganidan beri o‘kinishni, aniqrog‘i, o‘ylashni bilishmaydi. Faqat Kichik Chayon buni biladi, uni mendan keyin ikkinchi halol odam desa bo‘ladi.

– Sen ham umidsizmisan? – so‘radim men, uning fazilatlariga shubha qilmagan, ammo o‘ziga bino qo‘yishini bu xislatlarga qo‘shishga qiynalgan holda.

– Menmi? Yo‘q. Shuning uchun hamma mendan qo‘rqadi. Agar Kichik Chayondek qayg‘urganida meni toqqa quvishmasdi. Oramizdagi farq shundan iborat. Uning bu miyasiz va shafqatsiz odamlarni ko‘rgani ko‘zi yo‘q, lekin ularga teginishga botinmaydi. Menda esa ularga nisbatan nafarat yo‘q. Ularning miyasini tozalashni, odamlarga u qadar o‘xshamasliklarini ko‘rsatishni istayman, shuning uchun o‘zlarini turtib turaman. Biroq xavf bostirib kelganda Kichik Chayon bilan yakdimiz — biz qo‘rqmaymiz.

– Sen siyosat bilan shug‘ullangansan, shekilli?

– Ha. O‘z vaqtida afyun yaproqlari, fohishabozlik, ko‘p xotinlikka qarshi chiqqanman, boshqalarni ham shunday qilishga chaqirganman. Oqibatda ham eski, ham yangi arboblarni meni ashaddiy jinoyatchi deb e‘lon qilishdi. Sen bizda o‘zi biror narsadan voz kechayotgan yoki ilmga intilayotgan shaxs munofiq deb hisoblanishini bilib qo‘yishing kerak. Agar piyoda yuradigan bo‘lsang, atrofingdagilar buni tushunishmaydi, o‘zgalarning boshida yurishdan hazar qilsang, senga taqlid qilishmaydi, aksincha ikkiyuzlamachi deb e‘lon qilishadi. Davlatimiz arboblari va talabalarimiz doim iqtisodiyot, siyosat, turli “izm”lar, “tik”lar to‘g‘risida og‘iz ko‘pirtirishadi, lekin ulardan bu nima deb so‘rasang, g‘azablanganicha ko‘zlarini tepaga tikadilar. Avom xalq-chi? Ularga tanga taklif qil — kulgi qilishadi, afyun yaproqlarini kamroq yeyishni maslahat ber — riyokorsan deb atashadi. Imperatordan tortib oddiy odamlargacha hamma nojo‘ya ishlarni tabiiy, ezgu amallarni munofiqlik deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham ular,

o'zlarining hisoblashicha, riyokorlikka barham berish uchun qotillik bilan shug'ullanishadi.

Fikrimcha, qanday bo'lmasin, siyosiy qarashlarga amal qilmagin, barcha o'zgartirishlarni iqtisodiyotdan boshlash kerak va buni halol o'tkazish lozim. Arboblarning orasida esa birorta halol odam yo'q va iqtisodiyotda ular hech narsani tushunmaydilar. Ular uchun hokimiyat ezish va jabr-zulm qilish vositasidir. Holbuki, qishloq xo'jaligi va sanoat to'la barbod bo'lgan. Siyosatni ilmiy va insonparvarlik tamoyillari asosiga qo'yishga bel bog'lagan men kabi odam topilsa, uni yolg'onchi deb e'lon qilishadi, aks holda arboblarga o'zlarining nohaqliklarini tan olishlariga to'g'ri keladi. Aytgancha, ular buni tan olishga jazm qilsalar ham ularni baribir tushunishmasdi.

O'z vaqtida nohalol siyosat iqtisodiy o'pirilish oqibatida tug'ildi. Hozir iqtisodiyot to'g'risida umuman hech kim tashvishlanmaydi: uni tiklash murdani tiriltirishdan oson emas. Biz nihoyatda ko'p siyosiy larzalarni boshimizdan o'tkazdik va har bir shunday larzadan keyin barcha insoniylik qadriyatlarini qadrsizlanar, badkorlar esa yutib chiqardi. Endi ular so'nggi g'alabani kutishmoqda va o'shanda kim hammadan ko'ra badkor ekanligi oshkor bo'ladi. Insoniylik qadriyatlarini tilga olishim bilan boshimdan oyog'imgacha tuflab tashlashadi. Chet elda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan har qanday nazariya bizga yetib kelgach, jirkanch tus oladi: tabiatning a'lo ne'matlari afyun yaproqlariga aylanadi! Biroq umidimni uzmayman: inson vijdoni mendan kuchliroq, quyoshdan yorqinroq. Norozilik bildirishdan qo'rqmayman va buni imkoniyati bo'lganda doimo

qilaman. O'z mehnatlarimning mevasini ko'rish nasib qilmasligini bilaman, ammo vijdonim o'zimga qaraganda boqiyroqdir!

Katta Qarchig'ay tin oldi, faqat uning og'ir nafas olayotganligi eshitalardi. Beixtiyor bu kishiga qoyil qoldim: axir u olomonning erkatoyi, beparvo sajda qiladigan kimsa emas, balki minglab marotaba tahqirlangan va qarg'algan jabrdiyda, odam-mushuklarning isnodini yuvishga da'vat etilgan xaloskordir.

Kichik Chayon keldi. U hech qachon bu qadar kech qaytmasdi.

– O'z vaqtida kelibsan! – xitob qildi u, o'ziga otilgan Katta Qarchig'ayni bag'riga bosar ekan.

Ikkalasining ham ko'zlaridan yosh to'kildi. Ular nega bu qadar hayajonlanganlarini so'rashga haddim sig'mayotgandi, Kichik Chayon esa davom etdi:

– Shunday bo'lsa ham kelganingni nafi kam.

– Bilaman. Yordam berish u yoqda tursin, xalaqit qilaman. Ammo kelmasligimning iloji yo'q edi. Vaqt-soatim keldi!

– Nimani nazarda tutyapsan?

– Jangda halok bo'lishni senga topshiraman. O'zim shon-shuhratsiz o'lib ketsam ham bu behuda bo'lmaydi. Qo'shinlaring qancha?

– Ko'p emas. Otamning askarlari chekinib bo'lishdi, boshqalari esa chekinishga tayyorlanishyapti. Faqat Katta Pashshaning askarlari buyrug'imni bajarishlari mumkin, lekin seni shu yerdaligingdan xabar topishsa, ularni ham hisobdan chiqaraversa bo'ladi.

– Tushunaman, – tundlashib javob qaytardi Katta Qarchig'ay. – O'zing otangning askarlarini dushmanga qarshi qo'ya olmaysanmi?

– Bundan biror jo‘yali narsa chiqmasa kerak...
– Ularni qo‘rqitish uchun bir-ikki zobitni qatl qil!..
– Ularga otam qo‘mondonlik qiladi...
– Mening askarlarim ko‘pligi, sen meni frontga jo‘natganing, biroq men buyrug‘ingni bajarmaganimni aytib, ularni avra...

– Mayli, faraz qilaylik. Senda bironta askar bo‘lmasa ham ularning soni yuz mingta dey. Keyin-chi?

– Keyin meni o‘ldir va kallamni ko‘chaga ilib qo‘y. O‘shanda askarlar senga bo‘ysunadi. Axir ular meni bilishadi-ku!

– Bu yagona yo‘l bo‘lsa kerak... Lekin ularga yana otam qo‘mondonlikni menga topshirdi deb aytishim kerak.

– Ha va tezroq, chunki dushman yaqinlashib qoldi. Qancha ko‘p askar yig‘sang, shuncha yaxshi. Men esa, do‘stim, jallodim bo‘lmasliging uchun o‘z jonimga qasd qilaman.

– Shoshmang! – tovushim titrab xitob qildim men. – Shoshmang! Bu bilan nimaga erishasiz?

– Hech narsaga, – avvalgidek ko‘ngilxiralik bilan javob berdi Katta Qarchig‘ay. – Dushmanning askarlari ham, qurollari ham biznikidan ustun, butun mamlakat bilan ham uni yenga olishimiz amri mahol. Ammo bizning halok bo‘lganligimiz payqalsa, bu Mushuklar mamlakati tarixiy rivojlanishini o‘zgartirishi mumkin. Hech bo‘lmaganda, chet elliklar bizdan nafratlanmaydigan bo‘ladi. Bizning halok bo‘lishimiz qurbonlik ham, shon-shuhrat yo‘li ham emas, balki hayotiy zarurat. Biz qul bo‘lishni xohlamaymiz! Insonning vijdoni hayotdan boqiyroqdir. Bor gap shu. Alvido, yerlik janob!

– To‘xta! – unga qichqirdi Kichik Chayon. – Yaxshisi qirqta afyun yaprog‘ini yegin, shunda oson o‘lasan.

– Shunday qilsa ham bo‘ladi, – tirjaydi Katta Qarchig‘ay. – Hayot qiziq! Shu paytgacha afyun yaproqlarini iste‘mol qilmasdim va meni riyokor deb hisoblashardi. Endi ularda isbot ham bo‘la qolsin. Afyun, yaproqlarni olib kel! Hech yerga bormayman, o‘limim oldida do‘stlarim bilan birga bo‘lay...

Qiz bir tutam yaproqlarni olib keldi va darhol chiqib ketdi. Katta Qarchig‘ay qat‘iyat bilan ularni yeyishga kirishdi.

– O‘g‘ling nima bo‘ladi? – dedi tovushida pushaymon ohangi sezilib turgan Kichik Chayon. – Eh, bu to‘g‘risida gapirmasligim kerak!

– Biroq mamlakat halok bo‘lyapti... – sekin javob berdi Katta Qarchig‘ay.

U yaproqlarni chaynashni davom ettirardi, kayfi oshib qolgan shekilli, buni juda sekin qilayotgandi.

– Uxlagim kelyapti, – arang eshitiladigan qilib dedi u, polga cho‘zilar ekan.

Uning qo‘lidan oldim, bunga minnatdorchilik bildirdi va bu uning so‘nggi so‘zlari bo‘ldi. Holbuki, hali qo‘li issiq edi va nafas olishi yarim tunda uzildi.

Ha, uning o‘limini qurbonlik deb ayta olmasdim, chunki o‘zi ham o‘zini qahramon deb hisoblamasdi. Uning umidlari ro‘yobga chiqishini hali bilmasdim, ammo tanasidan judo qilingan kallasi shahar o‘rtasidagi xodada dikkayib turardi. Uning kallasini

emas, balki bunday tomosha o'zlarini juda xursand qiladigan Mushuklar shahrining aholisini ko'rgani kelgandim, albatta. Kichik Chayon allaqachon g'oyib bo'lgan va hatto Afyunnikida ham qorasini ko'rsatmasdi, shuning uchun ko'chaga chiqqim keldi. Shahar hali ham gavjum ko'rinardi, hatto ilgaridan ham gavjumroq edi. Zero kesilgan kallani tomosha qilish mumkin bo'lib, bu yo'ldagi toshga nisbatan ancha qiziqarliroq tuyulardi. Aytishlaricha, xoda oldidagi tirbandlikda hozirning o'zida uchta chol va ikkita ayol oyoq ostida qolib o'lgan, biroq bundan hech kim kuyunmasdi. Zero, tomosha uchun o'lish faxrli hisoblanardi. Odam-mushuklar bir-birlarini yanada ko'proq ur-yiqit qilar va so'kardi. Hech kim bu kimning kallasi, nima uchun olinganligini so'rab-surishtirmasdi. Olomon ichida taxminan quyidagi hayqiriqlar eshitilardi:

- Qarang, naqadar quyuq sochli!
- Ko'zlari esa yumuq!
- Afsus, ko'rgani faqat kallani qo'yishibdi, gavadani ham qo'yish zarur edi...

Katta Qarchig'ay to'g'ri qaror qabul qilganga o'xshaydi. Bunday odamlar birga yashashga arziydimi?

Olomon ichidan chiqib, imperator saroyi tomon yo'l oldim. Yurish qiyin edi, chunki barcha yo'nalishlarda o'z asboblarini zo'r berib puflayotgan va dukillatayotgan musiqachilar viqor bilan odim otardi. Tinglovchilar ular ortidan dam u, dam bu tomonga tashlanardilar, lekin baribir yetib ololmasdilar, bundan o'zlarida oyoqlar, quloqlar va ko'zlar kamligidan noliyotgan bo'lishlari ham kerak. Tomo-

shabinlarning hayqirishlaridan bular to'y orkestrlari ekanligini angladim, ammo taxtiravondagi kelinlarga ko'zim tushmayotganligi uchun ularni necha kishi olib yurishlari kerakligini aniqlay olmayotgandim. Qolaversa, meni boshqa savol: xavf kuchaygan paytda to'y qilishga nega shoshilishayotgani ko'proq qiziqtirayogandi.

Hech kimdan so'rashning iloji yo'q edi. Odam-mushuklar chet elliklar bilan gaplashishdan yuragini oldirib qo'ygandilar. Afyunning oldiga qaytib keldim. U xonada o'tirib ko'z yoshi to'kardi, meni ko'rgach esa xuddi o'zim uni xafa qilganimdek ho'ngrashga tushdi. U tilga kirguncha ancha vaqt qizni yupatishga to'g'ri keldi:

– Kichik Chayon frontga ketdi! Bu dahshat!..

– Hechqisi yo'q, u hali qaytib keladi! – aldadim men, yolg'onim rostga aylanishini chin dildan istagan holda. – Albatta qaytib keladi va u bilan birga bo'lamiz.

– Rostdanmi? – ko'z yoshlari orasidan kuldi u.

– Albatta! Hozir esa yur, aylanib kelamiz, bir o'zingning yig'lab o'tirishing yetar.

– Hecham yig'layotganim yo'q, – dedi Afyun, ko'z yoshlarini artib, upa surtar ekan.

– Nega hozir shu qadar ko'p to'y bo'lyapti? – so'radim undan yo'l-yo'lakay.

Bu shunchaki nomiga savol emasdi, lekin qizni qayg'uli fikrlardan chalg'ityapman deb o'zimga-o'zim tasalli berardim. Ochig'ini aytganda, o'zimni ham chalg'itayotgan edim, chunki Kichik Chayonning muqarrar ravishda halok bo'lishini sezayotgandim.

– Ola g‘ovur kunlarda askarlar qizlarning nomusiga tegmasliklari uchun hamma to‘y qilishga shoshiladi, – tushuntirdi Afyun.

– To‘ylarni bu qadar dabdabali qilishga ne hojat?

O‘zimning o‘yimga boshlanib ketgan urushdan boshqa hech narsa kelmasdi, lekin hayotga mushuklarcha munosabat bu safar insonlarnikiga qaraganda oqilona ko‘rindi.

– To‘ylar dabdabali bo‘lishi kerak. Urush tez orada tugaydi, nikoh esa bir umrga.

Afyun Kichik Chayon qaytib kelishi to‘g‘risidagi so‘zlarimga ishonib, tinchlandi va hatto pyesa tomosha qilishga taklif etdi.

– Bugun tashqi ishlar vaziri o‘g‘lini uylantirishi munosabati bilan ko‘chada tomosha tashkil qilmoqda. Uni ko‘rgani boramizmi?

Menga urush vaqtida bunday bo‘lmag‘ur narsalar bilan shug‘ullanayotgan vazirni o‘ldirish spektakl tomosha qilishdan ma‘qulroqdek tuyulardi, lekin o‘zim qotil vazifasini bajarishga yaramasdim, mushuklar teatrini esa hali ko‘rmagandim. Teatrga borishga qaror qildim. So‘nggi vaqtda dialektik fikr yuritishim jiddiy ravishda mushuksimon bo‘lib borayotgan edi.

Tashqi ishlar vazirining uyi oldida askarlar tumonat edi. Tomosha boshlangandi, biroq avom xalqni bu yerga yaqinlashtirishmayotgandi: oldinga intilmoqchi bo‘lganlarning boshiga tayoq tushayotgandi. Mushuklarning askarlari o‘zlarining tinch aholisi bilan a‘lo darajada jang qilardi! Ular meni kaltaklashga jur‘at eta olmasdilar, ammo o‘zimning oldinga intilishga ra‘yim yo‘q edi, chunki teatr-

dan eshitalayotgan musiqa orom bag'ishlamayotgandi. Ancha payt teatrdan eshitalayotgan artistlarning ayyuhannos solishlari bilan bo'linib turayotgan chinqiriq ovozlarni tinglab, hech qanday huzur olmadim.

– Sizda bundan yaxshiroq pyesa topilmaydimi? – so'radim Afyundan.

– Bor, chet elliklarniki. Ularni bolaligimda ko'rgandim, biznikidan anchagina nazokatli edi. Keyinchalik ularni namoyish qilmay qo'ydilar, chunki hech kim hech narsani tushunmasdi. Xorijliklardan biri bizning teatr juda qiziqarli demaguncha tashqi ishlar vaziri yangi pyesalarni yoqlardi. Ammo shundan keyin vazir eski teatrga qaytdi.

– Boshqa bir kishi chet el teatri yaxshiroq deb aytsa-chi?

– Bundan naf yo'q. Chet el pyesalari haqiqatan ham yaxshi, lekin juda chuqur ma'noli. Vazir bu spektakllarni yoqlab chiqqanida, o'zi ularni tuzukroq bilganiga ishonib bo'lmaydi, shuning uchun ham bizning pyesalar xususidagi fikrga yopishib oldi. U o'zini teatr targ'ibotchisi qilib ko'rsatish payida bo'lsa-da, bu san'atda alifni kaltak deyolmaydi. Eski teatrnı targ'ib qilish esa osonroq, chunki uning ixlosmandlari serob. Bizda ko'pincha shunday bo'ladi: yangi narsa nish urishi bilanoq shu zahoti eskisi bilan almashtiriladi. Yangi narsaning tagiga yetib borish uchun juda ko'p kuch-g'ayrat kerak.

Bu uning emas, Kichik Chayonning fikri ekanligini his etayotgandim, chunki Afyun asta-sekin oltinga surilib borardi.

Uni tilidan ilintirish menga noqulay edi, biroq ortiqcha chidolmadim.

– Ketamizmi?

Afyunning teatr xususida aytgan shuncha gapidan keyin bunga rozi bo‘lmasligi qiyin edi. Unga imperator saroyiga borishni taklif qilganimda ham qarshilik ko‘rsatmadi.

Saroy Mushuklar shahrining eng chiroyli bo‘lmasa ham eng katta binosi edi. Hozir saroy ayniqsa xunuk ko‘rinardi: devorlar oldida ham askarlar, devorlar ustida ham askarlar... Bundan tashqari devorlarga yaqinda loy chaplangandi, handaqdagi suv odatdagidan ham badbo‘yroq hid tarqatardi.

– Chet elliklar pokizalikni yaxshi ko‘radilar, – tushuntirdi Afyun, – loy — ular yo‘lidagi eng yaxshi to‘siq.

Qahqaha otish uchun ham kuchim yetmadi.

Devorga bir nechta odam tirmashib chiqdi, aftidan, dumalab tushishdan qo‘rqqanlari uchun unda uzoq vaqt joylashishdi. Afyun to‘lqinlanib dedi:

– Oliy farmon!

– Qayerda? – so‘radim men.

– Qara!

Devordagi odamlar shu qadar sekin imillashardiki, oyog‘im uvishib ketdi. Nihoyat choparlar arqonga bog‘langan, oq belgilar bitilgan toshni tushirdilar. Nigohi o‘tkir Afyun oh tortib yubordi.

– Nima bo‘ldi? – shoshiltirdim uni.

– Poytaxt ko‘chirilmoqda! Imperator jo‘nab ket-yapti! Kulfat! Usiz biz kim bilan qolamiz?! – shubhasiz, imperator emas, balki Kichik Chayon tashvishida aytib yig‘lashga tushdi Afyun.

Bu paytda devordan yana bir toshni tushirdilar.

“Askarlar va xalqni, – o‘qishni boshladi qiz, – joylarida qolishga amr qilamiz. Faqat Biz va amaldorlar ko‘chib o‘tamiz”. Janobi Oliylarining zukkoligidan hayratga tushdim va yo‘lining yarmisida biror baloga yo‘liqishini tilab qoldim. Lekin Afyun kutilmaganda quvonib ketdi:

– Hali bu holva. Ko‘plar qolayotgan ekan, men qo‘rqmayman!

“Qiziq, amaldorlar jo‘nab ketganidan keyin ular afyun yaproqlarini qayerdan olar ekanlar?” deb o‘ylayotgandim, shu payt yangi tosh paydo bo‘ldi.

“Bugungi kundan e‘tiboran Bizni “Barcha galalarining xo‘jayini” deb atashni man etamiz. Dahshatli xavf tahdid etayotganida xalq jipslashgan bo‘lishi kerak, shuning uchun Biz “Bir gala xo‘jayini” bo‘lamiz. Hamma dushman bilan kurashga!” – deb o‘qidi Afyun va qo‘shib qo‘ydi:

– Galasiz bo‘lganida yanada yaxshi bo‘lardi...

Biz yana biroz kutdik, ammo boshqa farmonlar bo‘lmasligini tushundik, chunki jarchilar devor orqasida yashiringan edilar. Afyun juda orqaga qaytishni va Kichik Chayon uyga kelgan-kelmaganligini bilishni xohlardi, o‘zim esa yana qandaydir farmonlar ilib qo‘yilishi mumkin bo‘lgan hukumat muasasalari tomon yo‘l oldim. Afyun ketgan tomonda hali ham musiqa gumburlardi, bu yerda esa sukunat hukm surardi. To‘ylar barcha davlat muammolaridan ming barobar muhimga o‘xshaydi.

Meni ayniqsa tashqi ishlar vazirligi qiziqtirardi, lekin uning oldida hech kimni uchratmadim. Ha, vazir o‘g‘lining to‘yini nishonlayapti va o‘z xodimlariga javob berib yuborgan bo‘lishi kerak. Yana bir

savol tug'ildirdi: odam-mushuklarda tashqi ishlar vazirligi bor ekan, tashqi ishlari ham bormikin?

Amaldorlar yo'qligidan foydalanib, bu savolga aniqlik kiritishga qaror qildim. Tortinmasdan kirdim — ichkarida hech kim yo'q. Xonalar qulflanmagan, ularda ham hech kim va "Norozilik" so'zi yozilgan tosh lavhalardan boshqa hech narsa yo'q. Bu lavhalarni o'rni kelgan holatda ham, kelmaganda ham jo'natishadi, shekilli. Axir diplomatlar norozilik bo'yicha mutaxassislar-ku. Chet ellardan yuborilgan qandaydir hujjatlarni ko'rmoqchi bo'ldim, ammo hech narsa topolmadim. Aftidan, xorijliklar diplomatik munosabatlarini yengillashtirishga harakat qiladiganga o'xshaydilar, hech qachon mushuklarning "noroziliklari"ga javob qaytarishmagan.

Boshqa muassasalarda bo'lishga hojat yo'q edi. Tashqi ishlar vazirligi shu darajada sodda ekan, qolgan tashkilotlarda tosh lavhalar ham bo'lmasa kerak.

Uchratgan muassasalarim esa ko'p edi: fohishabozlik vazirligi, afyun yaproqlari instituti, mushuk muhojirlar boshqarmasi, chet el tovarlari bilan kurashish vazirligi, go'sht va sabzavot palatasi, yetimlarning jamoatchilik savdosi qo'mitasi... Ayrim qiziqarli nomlanishlarni umuman tushunmadim. Barcha amaldorlarni ish yoki bekorchilik bilan ta'minlash uchun iloji boricha ko'proq muassasa bo'lishi talab qilinardi. Menga ular nihoyatda ko'pga o'xshab tuyuldi, ammo odam-mushuklar uchun yetarli emasga o'xshaydi.

Chet el mavzesini ko'rish uchun to'g'ri G'arb tomon borish niyatida edim. Yo'q, yaxshisi uyga

qaytay, Kichik Chayon kelgan-kelmaganini bilay. Qaytayotganimda boshqa ko'chadan borayotgandim, to'satdan tengdoshlari kabi spektaklni yoki kesilgan kallani tomosha qilmayotgan, balki "Buyuk avliyo Miyov haykali" so'zlari bitilgan ulkan tosh oldida tiz cho'kkan bir guruh talabalarni uchratdim. Meni ko'rsalar darhol qochib qolishlarini bilganim uchun ularning orqa tomonidan sekin yaqinlashdim, o'zim ham tiz cho'kdim va ular nima haqida gaplashayotganlarini tinglay boshladim.

Talabalardan biri qaddini rosladi va qichqirib yubordi:

– Yashasin miyovizm! Yashasin mushukizm!

Hamma uning da'vatiga jo'r bo'lib qo'shilishdi. Ovozlar bo'g'ilguncha baqirishib, o'sha birinchi talaba boshqa hammani yerga o'tirishga buyruq berdi va nutq so'zlay ketdi:

– Biz hamma ma'budlarni taxtdan qulatishimiz va ularning o'rniga buyuk avliyo Miyovni qo'yishimiz kerak! – e'lon qildi u. – Biz ota-onalarimizni, o'qituvchilarni chilparchin qilishimiz va erkimizni tiklashimiz kerak! Biz imperatorni ag'darishimiz va mushukizمنى hayotga tatbiq etishimiz zarur! Hozir imperatorimizni qo'lga olamiz va chet elliklar bizlarni qo'llab-quvvatlashlari uchun ularga topshiramiz. Bunday ajoyib imkoniyat boshqa bo'lmasligi mumkin, shuning uchun darhol ishga kirishamiz. Keyin o'zimizdan katta qarindoshlarimizni, o'qituvchilarni yo'q qilamiz va o'shanda barcha afyun yaproqlari, ayollar, xalq va mushukizmning o'zi bizniki bo'ladi. Buyuk avliyo Miyov nima deganligini yodga olaylik: "Olg'a! Saroyga!"

Hech kim joyidan qo'zg'almasdi. Talaba yana qichqirdi — tag'in hech kim qimir etmasdi.

– Balki avvaliga uy-uyimizga tarqab, otalarimizni o'ldirarmiz? – taklif qildi talabalardan biri. – Saroyda askarlar juda ko'p, ular bilan to'qnash kelib qolmaylik!

Hamma yerdan sakrab turdi.

– Shoshmang! O'tiring! Demak, otalarimizdan boshlaymizmi?

Talabalar bahslashib ketishdi, ikkilana ham boshladilar:

– Agar otalarimizni o'ldirsak, bizga afyun yaproqlarini kim beradi?

– To'ppa-to'g'ri! Avval bor afyun yaproqlarini tortib olish, keyin ularning egalarini o'ldirish kerak!

– Bizda yakdil fikr yo'q ekan, bo'linish mumkin, – taklif qildi boshqa bir talaba. – Aksilimperator fraksiyasi saroyga boradi, aksilotalar esa uyulariga.

– Biroq buyuk avliyo otalarni emas, imperatorni o'ldirish haqida gapirgandi...

– Aksilinqilob!

– Agar biz ularni o'ldiradigan bo'lsak, buyuk avliyoning vasiyatini buzgan bo'lamiz!

O'spirinlar mushtlashib ketadi deb o'ylagandim, biroq ular bo'kirish bilan cheklanishdi. Asta-sekin qichqirayotganlar bir nechta guruhga bo'linib ketdi, ularning har biri avliyo Miyov haykaliga murojaat etardi. Keyin talabalar tarqalishdi, lekin avvalgidek haykalni qurshab olishgandi. Nihoyat hamma charchadi, oxirgi kuchlari bilan: “Yashasin, miyovizm!” deb qichqirib, tarqalib ketdilar. Bu qanday mal'unlik?

Endi odam-mushuklarni tanqid qilgim kelmayotgandi, chunki hech qanday tanqid toshni chiroyli haykal qila olmaydi. Kechirish mumkin bo'lgan hamma narsani kechirgandim, qolganlarini esa ular davlatining noqulay tabiiy sharoitlariga yo'ygandim.

Kichik Chayon bilan birga frontga jo'nash, ularning qanday jang qilishlarini ko'rishga borish uchun uni kutayotgandim. Marsdagi boshqa mamlakatlar to'g'risida deyarli hech narsani bilmayman, Afyun esa faqat bir narsani: chet elliklarning upasi nafisroq va oqishroq ekanligini ma'lum qilgandi. Boshqa savollarga esa boshini qimirlatar va xitob bilan derdi:

– Nega u shu paytgacha qaytib kelmayapti?

Bu savolga javob bera olmasdim, faqat jahonda hech qachon boshqa urush bo'lmasligi uchun barcha ayollar nomidan ibodat qilardim.

Afyun o'zini qo'yarga joy topa olmayotgandi. Mushuklarning barcha amaldorlari jo'nab ketgandi, ko'chalardagi odamlar siyraklashib qoldi, ko'pchilik hali ham Katta Qarchig'ayning kesilgan boshini tomosha qilardi. Frontdan biror xabar olib bo'lmasdi, davlat ishlari to'g'risida hech kimda zig'ircha tushuncha yo'q edi. Holbuki, bu yerda “davlat” so'zi nihoyatda ko'p ishlatilardi: afyun yaproqlari — bu davlat ovqati, Katta Qarchig'ay — davlat jinoyatchisi, zovurdagi iflosliklar — davlat himoyasi... Chet elliklar mavzesiga yangiliklarni eshitish uchun borish agar Kichik Chayon qaytib kelsa, u bilan uchrashmay qolishni anglatardi. Afyun esa xiralik qilgani-qilgan edi:

– Hamma qochib ketdi, hatto Atirgul! Balki biz ham qocharmiz?

Indamay boshimni qimirlatib qo‘yardim, xolos.

Nihoyat u qaytib keldi. Afyun shu qadar xursand bo‘lib ketdiki, tili gapga aylanmasdi, faqat ko‘z yoshlari oqayotgan yuzini uning ko‘ksiga bosgandi. Kichik Chayonning o‘zi xafa ko‘rinardi, betidan odatdagi masxaraomuz tirjayish yo‘qolgandi.

– Xo‘sh, ishlar qalay? – deb so‘radim uning nafasini rostlashiga ham qo‘ymay.

– Umidni uzaversa bo‘laveradi, – uh tortdi u.

Afyun avval menga, keyin Kichik Chayonga tikildi va o‘zini anchadan beri qiynab kelayotgan savolni arang tili uchiga chiqardi:

– Sen yana ketasanmi?

U qizga qaramasdan, “yo‘q” degandek boshini chayqadi. Bexosdan Afyunni xafa qilib qo‘ymaslik uchun so‘roqni davom ettirishga jur‘at qila olmadim. Aytgancha, qizning o‘zi ham Kichik Chayon yolg‘on gapirayotganligini his etganga o‘xshaydi.

U yana biroz dam oldi va otasi bilan uchrashmoqchi ekanligini aytdi. Afyun indamadi, lekin u Kichik Chayonga ergashishga qat‘iy qaror qilganligi bilinib turardi. Kichik Chayon yolg‘on gapirganligi fosh bo‘lganligini sezib, xonada tashvishlanib yura boshladi. Unga sherik bo‘la olmayotgandim, chunki qizning nigohi meni tang ahvolga solib qo‘ygandi.

Nihoyat Afyunning sabri tugadi va yig‘lab yubordi.

– Sen qayoqqa borsang, men ham o‘sha yerga boraman!

U boshini egdi, o‘yga cho‘mdi.

– Yaxshi!

Katta Chayonni ko‘rishga mushtoq bo‘lmasam-da, men ham u bilan birga borishimni bildirdim.

Biz G‘arb tomon yo‘l soldik, biroq butun xalq, hatto askarlar ham bizga ro‘parama-ro‘para kelardi.

– Dushman G‘arb tomonda bo‘lsa, ular nega shu tomon kelishyapti? – beixtiyor so‘radim men.

– Chunki sharqda xavfsizroq! – tishini g‘ijirlatdi Kichik Chayon.

Ko‘chaning turli tomonlarida g‘ayriodatiy xur-sand holda tantanavor qadam tashlayotgan juda ko‘p eski va yangi olimlarni uchratdik.

– Biz imperatorning oldiga ketyapmiz! – baqirish-di ular Kichik Chayonga. – Janobi Oliylari ilmiy anjuman o‘tkazishga buyruq berdi, zero mamlakat-ni mudofaa qilish — umumiy ish va bu masalada g‘oliblik olimlarga tegishli. Oldimizda juda ko‘p savollar turibdi, masalan, frontda qancha askarlar bor, dushman Mushuklar shahrini qo‘lga oladimi? Agar ular shaharni haqiqatan ishg‘ol qilish niyatida bo‘lsalar, biz Janobi Oliylariga Sharq tomon yana-da surilishni tavsiya etamiz. Imperatorimiz zukko, u olimlarni unutmayapti. Olimlar ham donolar, ular oxirigacha imperatorga sodiqlar!

Janobi Oliylarini ko‘rish umididan ruhlangan olimlar Kichik Chayon hech narsa demaganiga ham e‘tibor bermadilar. Bu shod-xurram guruh o‘tib ke-tishi bilanoq boshqasi, boshi egilgan, ma‘yus va qayg‘uli ko‘rinishdagisi paydo bo‘ldi.

– Bizga yordam bering, janob! Nega Janobi Oliylari bizni ilmiy anjumanga taklif etmadi?! Axir bizning bilimlarimiz, ezgu ishlarimiz anavi ablah-

larnikidan kam emas! Agar anjumanda qatnasha olmasak, bizni olim deb umuman atamay qo'yishadi! Janob, sizning qanday oshna-og'aynilaringiz bor-a, taklif qilinishimiz uchun vositachi bo'ling!

Kichik Chayon hamon sukut saqlashda davom etardi, biroq bu safar uning jim turishi boshqacha qabul qilindi.

– Agar bizga yordam bermasangiz, hukumatni tanqid qilishga o'tamiz, shunda hamma ta'zirini yeydi!

Kichik Chayon Afyunning qo'lidan ushlab, ildamroq odim ota boshladi. Olimlar baravariga bo'kishga tushdilar.

Qandaydir alohida, bo'ynida qizil bog'ich osilib turgan askarlarning safi ko'rindi. Bu kabi qo'shinga hech qachon duch kelmagandim, lekin olimlar quturtirib yuborgan Kichik Chayonni savollar bilan bezovta qilgim kelmadi. Biroq u mening taajjublanganligimni sezdi va zaharxandalik bilan kuldi:

– Bu qizil bog'ichli deb ataladigan askarlar davlat gvardiyasidir. Qizil bog'ichlar boshqa davlatlardagidek, ularni farqlovchi belgi. Ammo ularda davlatga mansublik borib turgan, hatto o'taketgan mutaassib vatanparvarlikni anglatadi, bizda esa qizil bog'ichli gvardiya ana o'sha vatanparvarlik yuzasidan tinchroq, hech kim xavf solmaydigan joyga intiladi. Chunki agar chet elliklar uni majaqlab tashlasalar, qizil bog'ichlilar bundan keyin o'zining vatanga bo'lgan muhabbatini namoyish qila olmaydi!..

Gvardiyachilardan biri o'ndan ziyod odam-mushuklarning boshida ketar, bo'ynidagi bog'ich juda yo'g'on edi.

– U qizil bog‘ichli gvardiyaning qo‘mondoni, – sekingina qo‘shib qo‘ydi Kichik Chayon. – U butun hokimiyatni o‘z qo‘liga olmoqchi, chunki boshqa davlatlar shu yo‘l bilan kuchliroq bo‘lib oldilar. O‘zi-ku hozir ham boshqalarga qaraganda qudratliroq, ya‘ni ayyorroq. Ishonchim komil, hozir u imperator oldiga o‘z rejasini amalga oshirish uchun yo‘l olgan. Ishonchim komil!

– Balki o‘shanda mamlakatingiz haqiqatan ham kuchliroq bo‘lar, – ikkilanib qoldim men.

– Yo‘q. Ayyorlik bilan faqat hokimiyatni qo‘lga olish mumkin, lekin mamlakatni kuchli qilib bo‘lmaydi. Uning o‘yida davlat to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdan asar yo‘q, aksincha o‘zining shuhratparastligiga mukkasidan ketgan. Haqiqiy vatanparvarlik — bu dushmanga qarshi kurashish.

Odam-mushuklar o‘rtasidagi kurash chet elliklarning bostirib kirishlari uchun o‘ziga xos tuzoq bo‘lganligini anglab yetdim. Qizil bog‘ichli gvardiya belgilaridan ko‘zim tinib ketdi: nigohim oldida mash‘um qontalash dengiz namoyon bo‘lib, unda gvardiyachilar suzib borardi.

Biz Mushuklar shahri tashqarisiga chiqqandik va men nima uchundir boshqa uni ko‘rmayman degan xayolga bordim. Ko‘p o‘tmay yana bir tantanali yurishga: xushbaxt basharali va changalida o‘t bo‘lgan g‘alati mavjudotlarga duch keldik. Anchadan beri indamay kelayotgan Afyun hayqirib yubordi:

– Oh, avliyolar kelyapti!

– Nima? – qahr bilan so‘radi Kichik Chayon, avval hech qachon uning qizdan jahli chiqmagandi. Afyun tortinchoqlik bilan aniqlik kiritdi:

– Yo‘q, yo‘q, ularga ishonmayman.

– Qaysi avliyolar to‘g‘risida gap ketyapti? – deb surishtirdim, bexabarligim Kichik Chayonni chalg‘itishi mumkinligiga umid qilgan holda.

Kichik Chayon ancha vaqt indamadi va to‘satdan o‘zi savol berdi:

– Ayt-chi, odam-mushuklarning asosiy kamchiligi nimadan iborat?

Nima deb javob berishni bilmadim va do‘stim “Ahmoqlik!” deganda meni ko‘zlamaganidan haqiqatan xursand bo‘lib ketdim.

– Ha, – davom etdi Kichik Chayon, – ahmoqlik — bizning asosiy kulfatimizdir, chunki biz odatda boshqalarga taqlid qilamiz, go‘yo hamma narsadan xabardormiz, amalda esa hech narsani bilmaymiz va tushunmaymiz. Haqiqiy xavf tug‘ilgan vaqtda o‘z da‘volarimizni unutib, bolalardek oyimizni chaqiramiz va o‘shanda qalblarimizning bo‘m-bo‘shligi, hamma ahmoqliklarimiz fosh bo‘ladi. Bizning miyovchilarimiz, masalan, buyuk avliyo Miyov haqida faryod qiladi. Hozir uning yaqinlarini, o‘z dohiysi oldida faqat yaproq ushlab turishga qodir bo‘lgan oddiy “avliyo”larni ko‘chirmoqdalar. Dunyoda bundan-da kaltabin va ahmoq yo‘q.

Avvaliga biz muammodan o‘zimizni olib qochamiz, uni endi hal qilib bo‘lmaydigan vaqtda esa avliyolarni yordamga chaqiramiz. Ha, bizning halokatga uchra-shimiz muqarrar. Agar ahmoqona tuzilgan iqtisodiyot, siyosat, ta‘lim, armiya davlatni halokatga olib borsa, ommaviy ahmoqlik butun millatni halok qilishi mumkin, chunki ahmoqlardan bemaolol nafratlanishaveradi. Dushmanlar mamlakatimizni bosib olib, bizni ba-

tamom yo‘q qiladilar va qo‘shnilarimizdan hech kim bundan g‘azablanmaydi. Mol so‘yilmoqda — bundan ajablanib bo‘lmaydi. Odamlar o‘zlari nafratlanadiganlarga nisbatan hamisha shafqatsizdir.

Mushuklar avliyolari bilan yaqindan tanishishni juda istardim, lekin Kichik Chayon va Afyunni yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqardim. Biz dam olish uchun birorta aholisi yo‘q, bir necha chala vayron uylardan iborat bo‘lgan kichik qishloqda joylashdik.

– Bolalik paytimda ushbu qishloq boshqacha qiyofada edi. Hamma narsa naqadar tez vayron bo‘ladi, – dedi o‘yga tolgan holda Kichik Chayon.

Qishloq nega halok bo‘lganligini bilmasdim, biroq savollarim bilan uning joniga tegmadim, zero bir nechta g‘alati, oqibatda hech kim nima qilishni bilmay qolgan inqiloblar, ulardan keyin — urushlar to‘g‘risida eshitgandim. Nodonlik va munofiklik, har bir to‘ntarish armiyaning ko‘payishi, ochko‘z amaldorlar sonining ortishi bilan aloqador. Dehqonlar hatto rosa ter to‘kib mehnat qilsalar ham och qoladilar va shaharga qochadilar yoki bir nechta afyun yaproqlari evaziga qo‘shinni to‘ldiradilar. Ha, haqiqiy maqsadi bo‘lmagan inqilob — xavfli mashg‘ulot! Odam-mushuklar o‘zlarining ahmoqligi o‘zlarini bo‘g‘ayotganligini tushunib yetmasalar, ularni hech narsa qutqarib qola olmaydi.

Daf‘atan Afyun sakrab turdi va qichqirib yubordi:

– Qarang, qarang!

G‘arbda xuddi ko‘tarilgan qyun olib kelgan ulkan kulrang qum buluti burqirdi.

Kichik Chayonning lablari titrab ketdi:

– Chekinayotgan askarlar qochmoqdalar!

– Yashiringlar! – buyurdi Kichik Chayon qo‘rquv-siz, lekin avvalgidan farqli ravishda kinoyasiz. – Askarlarimiz hujum paytida dadil emaslar, biroq telbalarcha chekinadilar. Do‘stim, Afyuni senga topshiraman!

U chaqnoq ko‘zlari bilan G‘arbga qarar, qo‘li esa qizni erkalamoqchi bo‘lgandek u tomon cho‘zilardi. Afyun uning qo‘lini qo‘liga oldi va butun gavdasi titrab, shivirladi:

– Biz birga o‘lamiz!

Nima qilishni bilmayotgandim: men Afyuni yashirishim yoki u bilan birga qolishim kerakmi? O‘limdan qo‘rqmasdim, biroq biror asqatadigan foyda keltirmoqchiydim. Aytgancha, agar bizga bir necha yuz aqldan ozgan askar tashlansa, to‘pponcham ham yordam bermasdi. Do‘stlarimning qo‘llaridan ushlab, duch kelgan birinchi kulbaga otilmoqchiydim. Keyin, askarlar yonimizdan o‘tib ketgach, orqada qolganlardan birini tutib, frontda nima bo‘layotganligini so‘rab-surishtirmoqchiydim.

Kichik Chayon bekinishni xohlamasdi. Afyun ham menga quloq solmayotgandi. Bu paytda qum buluti yashin tezligida kattalashayotgandi.

– Shunday halok bo‘lish ahmoqlik, bunga yo‘l qo‘ymayman!

– Hammasi tugadi, men to‘g‘rimda tashvishlanma, – qat‘iy dedi Kichik Chayon. – Afyun to‘g‘ri-sida ham, xohlaganini qilsin.

Lekin jismonan menga bas kela olmasdi: uni quchoqlab oldim va sudrab ketdim. Afyun orqamizdan ergashdi. Biz vayron bo‘lgan uychada yashirindik,

devorga bir nechta g'ishtlarni terib, ular tirqishidan qochayotgan askarlarni kuzata boshladim.

Qo'shin girdobdek yopirildi, bizni kulrang qum uyumi va qo'rquv qichqiriqlari bilan sirtmog'iga oldi. Ko'zimni qisdim, lekin irodam kuchi bilan uni yana ochdim. Askarlar qo'llari bo'm-bo'sh, oyoqlari ostiga qaragancha chopardi. Hali hech qachon bayroqsiz, quolsiz, otlarsiz, formasiz qo'shinga duch kelmagandim — faqat aqldan ozay degan, ruhiy tushkunlikda faryod qilayotgan va qaynoq qumda yelib borayotgan yalang'och odam-mushuklar. Endi bu yovvoyilarning hatto butun boshli qo'shinidan ham qo'rqmagan bo'lardim.

Bir necha daqiqa va askarlarning asosiy qismi yopirildi. Ular, balki Katta Chayonga tegishli va mag'lub bo'lganliklari uchun u bilan hisob-kitob qilish niyatida bo'lsalar kerak degan o'ylarga bordim. Haqiqatan shunday bo'lsa, Kichik Chayon yashirinishni istamaganida halok bo'lishi muqarrar edi. Yana orqada qolgan askarlardan birini tutib olmoqchi bo'ldim, biroq bular oldingi safdagilardan ham ildamroq chopardi — ularga yetib olmoqchilar, shekilli. Askarlarni tutib bo'lmasdi, faqat otib to'xtatish mumkin. Ammo bu menga to'g'ri kelmasdi: har holda bunday shafqatsizlik qilish uchun harbiy emasdim.

Askarlar tobora siyraklashib borardi. Hech iloji topilmasagina o'q uzishga qaror qilib, bekingan joyimizdan otilib chiqdim. Hayot ba'zan uni tasavvur qilganingdan murakkabroqdir, ba'zan esa jo'nroqdir. Agar askarlar yugurishni davom ettirganlarida, ularni quvib yetib bo'lmasdi. Baxtinga, che-

kinayotganlardan biri boshqacha yo‘l tutdi va meni ko‘rib xuddi ilonga duch kelgan qurbaqadek dong qotib qoldi. Buyog‘i juda oson kechdi. Uni, charchoq va qo‘rquvdan, chala murdani yelkamga ortmoqladim, askar esa hatto churq etmadi.

Bizning boshpanada u anchayin vaqt ko‘zini ochmadi, ochishi zahotiyuq Kichik Chayonni ko‘rdi va qorniga pichoq sanchilgandek sapchib tushdi. Askarining ko‘zi charaqladi, u yosh xo‘jayiniga tashlanmoqchi edi, lekin qo‘lim yelkasiga tushdi.

Afyun yonida qimirlamay o‘tirgan Kichik Chayon asirga biror qiziqish bildirmadi va uni o‘zim so‘roq qilishim kerakligini tushundim. Undan yaxshilikcha gap undirolmay, askarni qo‘rqitdim va nega mag‘lubiyatga uchraganlarini so‘radim.

Askar yana dong qotdi, nimalarnidir esladi va birdan Kichik Chayonga qo‘lini bigiz qildi:

– Hammasiga u sababchi!

Kichik Chayon iljaydi.

– Hammasiga u sababchi! – qahr bilan takrorladi u.

Odam-mushuklar juda qiziqqon ekanligini bilardim va uning g‘azab o‘ti pasayishini kutardim.

– Urushishni istamasdik, u esa bizni aldadi va frontga jo‘natdi! Buning ustiga chet elliklar bizlarga beradigan milliy nufuzlarimizni olishga ruxsat bermadi! U qizil bog‘ichli gvardiyani va boshqa qo‘shinlarni ham jo‘natdi, biroq ular bemalol milliy nufuzlarini olishdi va chekinishdi, faqat birgina bizning qo‘shinimizning po‘stagini qoqishdi! Biz otasining askarlarimiz, u esa biz to‘g‘rimizda g‘amxo‘rlik qilmadi, jangga tashladi, bizga otasi

qilmoqchi bo'lganidek javob berib yubormadi. Agar birontamiz tirik qolsak, osongina o'lib ketishingni kutmay qo'yaqol! Boshqalar — biz emas! Bamaylixotir chekinishdi, hatto biroz o'marishga ham ulgurishdi. Endi qanday kun kechiramiz?!

Kichik Chayon diqqat bilan, lekin ruhi tushgan holda tinglardi. Men uchun esa, baxtinga, davom ettirayotgan har bir so'zi qiziqarli edi:

– Siz bizlardan yerimizni ham, uylarimizni ham, oilamizni ham tortib oldingiz! Sizlarga bugun u, ertaga boshqa narsa kerak! Amaldorlar tobora ko'payyapti, xalq qashshoqlashmoqda! Siz bizlarni xonavayron qilyapsizlar, aldayapsizlar, siz uchun talonchilik qilishga, askar bo'lishga majburlayapsizlar. Hamma o'ljani o'zingiz olasiz, bizga ushoqlar qoladi, buni ham sizni tashlab ketishimizdan qo'rqishingiz uchun berasizlar. Chet elliklar sizlarga hujum qilib, mol-mulkingizni tortib olmoqchi bo'lsa, bizni muqarrar o'limga yuborasizlar! Ammo qaysi ahmoq siz uchun jonini beradi? Biz nomiga harbiy xizmatni o'taymiz, chunki ishlashni bilmaymiz, chunki siz ilgari otalarimizni ham askar qilgansiz. Biz bolaligimizdan boshqa qismatni bilmaymiz va boshqacha yashay olmaymiz.

U nafasini rostdash uchun tin oldi, men esa bu imkoniyatdan foydalanib, so'radim:

– Agar siz kim aybdorligini va ular muttaham ekanligini bilsangiz, nega ularni jazolamaysiz va mamlakatni o'zingiz boshqarmaysiz?

Askar ko'zlarini baqraytirdi. U meni tushunmayapti degan xayolga borgandim, holbuki faqat o'ylanib qolgan ekan.

– Sen nega to‘ntarish qilmayapsizlar demoqchimisiz?

U bu so‘zni bilishini aslo kutmagandim — Mushuklar mamlakatida necha bor to‘ntarishlar bo‘lganini yodimdan ko‘taribman.

– A-a, hech kim ishonmaydi! To‘ntarishlardan biz faqat yo‘qotamiz, ular esa oladilar. Yerni taqsimlashganda hamma xursand bo‘lgandi, lekin har bir odam shu qadar kam yer oldiki, loaqal o‘ntagina afyun daraxti eka olmadi. Ekkanlarida ham och edilar, ekmaganlarida ham. Dohiylarimizning qo‘lidan hech narsa kelmadi. Ular, ayniqsa yoshlar harakat qilishdi, biz baribir och qoldik, demak, ular ahmoq edilar. O‘zimiz hech narsani bilmasak ham ularga ishonmay qo‘ydik. Bizga afyun yaproqlarini beradiganlarga xizmat qilish qolgandi, hozir esa askar ham bo‘la olmaymiz. Biz hech bo‘lmaganda bitta amaldorni o‘ldirishimiz kerak. Axir ular bizni chet elliklar bilan urushishga, ya‘ni muqarrar o‘limga yuborishdi! Agar bizni o‘ldirishsa, qanday xizmat qila olamiz va qanday afyun yaproqlarini yeymiz? Amaldorlarda yaproqlar tog‘-tog‘ bo‘lib yotibdi, gala-gala ayollari bor, bizga esa g‘ajilgan yaproqni ham berishmaydi, chet elliklar bilan urushishga yuborishadi. Yo‘q, biz yaxshisi amaldorlar bilan urushamiz.

– Siz uni o‘ldirish uchungina chopqilayotgan edingizmi? – deb Kichik Chayonga ishora qildim.

– Ha, shuning uchun! U bizni jangga tashladi, chet elliklardan milliy nufuzlarni olishga ruxsat bermadi!

– Xo‘sh, uni o‘ldirsangiz, nima qilgan bo‘lardingiz? – so‘radim men.

Askar javob bermadi. Menda asirga Kichik Chayon deyarli yakka-yu yagona aqlli odam-mushukligi, uni o'ldirish ahmoqlik ekanini tushuntirish uchun vaqtim ham, xohishim ham yo'q edi. Askar, aftidan, Kichik Chayonni yirik amaldor deb hisoblardi, u amaldor zotini qirib tashlay olmasdi, shuning uchun butun g'azabini hech bo'lmaganda ulardan biriga sochishni maqsad qilib qo'ygandi. Yana bir bor hatto siyosiy va iqtisodiy muammolarni hal etishga harakat qilayotgan aqlli odam zarur bilimlarga ega bo'lmasa, bu muammolar botqog'iga botib ketishiga, ketma-ket to'ntarishlar xalq azob-uqubatlari o'n chandon oshishiga, lekin xalqni aqlliroq qilmasligiga ishonch hosil qildim. Bunday vaziyatda xalq o'zini aldangan deb his etadi, ammo nima qilishni bilmaydi. Boshdan oyoqqacha — yoppasiga ahmoqlik! Bu ahmoqlik Mushuklar davlatining tanasidagi qon bilan oqayotgan jarohatga o'xshaydi, biroq u g'aflatdan bosh ko'tarish uchun yetarlicha og'riq bermayotgandi.

Askarni nima qilish kerak? Agar uni qo'yib yuborishsa, boshqa askarlarni chaqirishi va ular Kichik Chayonni o'ldirishlari mumkin, agar o'zlari bilan olib ketishsa, faqat xalaqit beradi. Kech bo'lgandi, harakat qilib qolish kerak edi, ammo Kichik Chayon butun vujudi bilan o'limdan boshqa hech narsani xohlamasligini namoyish etayotgandi, u hatto gaplashgisi ham kelmasdi. Afyundan maslahatgo'y chiqmasdi. Uyga qaytish xavfli edi, G'arb tomon borish yana tahlikaliroq — bu qo'yilgan to'rga o'z oyog'ing bilan tushishga barobar. Yagona yo'l — chet el mavzesiga borish edi, shekilli. Lekin Kichik Chayon boshini qimirlatdi:

– Sharmandalikka nisbatan o‘lim afzal! Va bu baxtiqaroni qo‘yib yubor...

Xuddi shunday qildim.

Asta-sekin qosh qoraya boshladi. Hamma yoqda noodatiy, mash‘um sukunat hukm surardi. Olisda, shubhasiz, chekinayotgan askarlar zo‘rg‘a sudralib yurgan bo‘lishlari kerak, bu yerda esa go‘yo odam yashamaydigan orolda bo‘ron oldidan kuzatiladigan og‘ir jimjitlik. O‘zim boshqa mamlakatga o‘tib ketishim mumkin edi, albatta, biroq mening yaqin do‘stimga aylanishga ulgurgan Kichik Chayonning taqdiri tashvishlantirayotgandi. Afyuni ham tashlab ketishni istamasdim. Qulab tushgan kulbada davlat halokatini kutish — naqadar ayanchli! Bevosita xuddi shunday paytlarda “inson” va “fuqaro” tushunchalari o‘rtasidagi aloqadorlikni ayniqsa keskin his etasan. O‘zim haqimda emas, do‘stlarim to‘g‘risida o‘ylayotgandim, albatta. Faqat shu tarzda qalblariga yo‘l topa olardim, qayg‘ulariga sherik bo‘lardim, chunki ularni yupatish befoyda edi. Davlat o‘z ahmoqligidan halokatga uchramoqda. Bu halokat ziddiyatlarni fojiona hal etish, adolatni shoirona ifodalash emas, balki hech qanday ehtirosli so‘zlar bilan yumshatib bo‘lmaydigan tarixiy voqelik edi. Men kitob o‘qimayotgandim, balki o‘lim qadamlarini eshitayotgandim! Do‘stlarim buni menga qaraganda aniqroq sezayotgandilar, albatta. Ular o‘limni la‘natlardi yoki xotiralariga berilgandilar. Ularning kelajagi yo‘q edi, bugungi kunlari esa mamlakatlari fuqarolarining butun sharmandaligini o‘zida mujassamlantirgandi.

Hamon o‘sha qorong‘i tunda yulduzlar charaqlardi. Hamma yoqda avvalgidek jimjitlik hukm su-

rardi, biroq do'stlarimning ko'zlari ochiq edi. Ular men ham uxlamayotganligimni bilishardi, lekin hech kimning gapirgisi kelmasdi: yakson qiluvchi taqdir to'qmog'i tillarimizni tanglayimizga yopishtirgandi. Dunyoda yana bir madaniyat kar bo'lib qoldi, u endi tiklanmaydi. Uning so'nggi hayqirig'i kechikib qolgan hurlik qo'shig'i bo'ldi. Bu madaniyatning qalbi faqat jahannamdan joy olishi mumkin, chunki mavjudligining o'zi tarix sahifasidagi qora dog' edi.

27

Tongga yaqin ko'zim ilinibdi. Daf'atan ikki o'q ovozi eshitildi. Sapchib turdim, biroq kech qolgan-dim: do'stlarim yerda qonga belanib yotardi — Kichik Chayon yonidagi to'pponchaga ko'zim tushdi.

O'shanda nimalarni his etganimni bayon etib bo'lmaydi. Hammasini unutdim, faqat yurakda og'riq va o'lik ko'zlarning sinchiklab tikilishidan qo'rquv qolgandi. Ha, ular xayolga cho'milib, menga topishmoq aytib qarashardi, o'zim esa ularni hayotga qaytarishga umid qilardim va ayni paytda hayot naqadar mo'rt va nochor ekanligini aniq fahmlardim. Yig'lamasdim, lekin ulardek murda edim. Faqat farqi, men tik turar, do'stlarim yotardi. Cho'kka tushib, marhumlarga qo'l tegizib ko'rdim, ularning tanasi hali iliq edi, ammo aks sado bo'lmadi. Ulardan faqat men bilgan ozgina narsa qoldi, boshqasi o'zlari bilan birga g'oyib bo'ldi. Ehtimol, o'lim o'z holicha xush kelar.

Ularga, ayniqsa qahramonlarcha halok bo'lishga tayyor bo'lmagan Afyunga chidab bo'lmaydigan darajada achinardim. Odam-mushuklarning jinoyatlari o'zlarining xotinlari, onalari, opa-singillarini

halokatga mahkum etardi. Tangri bo'lganimda hech narsaga arzimaydigan bu millatga ayollarni in'om etganimdan tavba qilardim!

Men Kichik Chayonni tushunardim va bundan Afyunga yanada ko'proq achinardim. Uning o'z mamlakati bilan birga halok bo'lishini tushunish mumkin edi. Inson o'z millati va davlatidan tashqarida yashay olmaydi, ularni yo'qotsa, o'zi halok bo'ladi, agar halok bo'lmasa ham qalbini yo'qotadi, qalbini do'zaxga topshiradi.

Afyun va Kichik Chayon men uchun tobora qadrli bo'lib borardilar. Ularni uyg'otishni va pok ekanliklarini, qalblari o'zlariga tegishliligini aytishni orzu qilardim. Ularning men bilan Yerga uchib ketishlarini, hayot quvonchini totib ko'rishlarini niyat qilardim. Biroq behuda xomtamalik qo'msashni kuchaytirardi. Do'stlarim qimirlamay yotar, ular bir necha kun avval o'lganga o'xshardilar. Hayot ham, o'lim ham Hamma narsa edi, ular o'rtasida esa sarhadsiz buyuk anglanmaydigan Idrok yotardi. Ha, o'limning sas chiqarmasligi mutlaq haqiqat bo'lib chiqdi. Do'stlarim boshqa tilga kirmaydi, mening ham yashashga qiziqishim qolmadi.

Ularning oldida tong otguncha o'tirib chiqdim. Qiyofalari tobora oydinlashardi, quyosh shu'lasini Afyunning tilsiz, lekin nihoyatda go'zal chehrasiga, boshi devorga suyalgan Kichik Chayonga tushdi. Kichik Chayonning yuzi u hatto o'limidan keyin ham o'zining umidsizligidan qutulmagandek qayg'u-li aksini yo'qotmagandi.

Bu yerda o'tiraverishni davom ettirsam, aqldan ozardim. Lekin ularni tark etishim kerakligi to'g'-

risidagi fikrning o‘zi shu paytgacha erk bermayotgan ko‘z yoshlarimni oqizdi. Do‘stlarni tashlab ketish va yana notanish dunyoda darbadar bo‘lish o‘z vaqtida Yerni tark etishdan mushkulroq edi. Buning ustiga ularning siymosi doimo meni ta‘qib qilib yuradi. Ularning tanalarini quchoqlaganimcha yig‘lardim va deyarli qichqirardim: alvido Kichik Chayon, alvido Afyun!

Ularni dafn etadigan ahvolda emasdim. Tishimni tishimga qo‘yganimcha o‘z to‘pponchamni oldim va devordan oshib tushdim. Ularning murdasi chirib ketsa ham qaytib kelmayman. Naqadar badbaxt odamman: oldin birga uchib kelgan o‘rtog‘imni, endi esa bu do‘stlarimni yo‘qotdim... Balki men bilan umuman do‘stlashib bo‘lmaydi.

Qayoqqa borishim kerak? Mushuklar shahriga, albatta. Hozir u yerda o‘z uyim bor.

Yo‘lda hech kimga duch kelmayotgandim, hamma yoqda o‘lim sharpasi kezardi. Kulrang osmon ostida, kulrang-sarg‘ish yo‘lda askarlarning murdasi yotardi, ular ustida qurqurlab oq dumli kalxatlar quvonch bilan raqsga tushardi. Iloji boricha tezroq odimlayotgandim, biroq quloqlarim ostida Afyunning kulgisi jaranglar, Kichik Chayonning ovozi eshitilardi. Hissiyotlar meni ta‘qib etayotgandi.

Mushuklar shahri ostonasida yoki qo‘rquvdan, yoki yangi umidlardan yuragim kuchliroq ura boshladi. Huvillab qolgan ko‘chalarda hech kim yo‘q edi, faqat o‘ldirilgan ayollarning murdalari yotardi. Bu yerdan askarlar o‘tganini fahmladim va Afyun xonimning “Atirgul ham qochib ketdi!” degan gapi yodimga keldi. Ha, agar Atirgul yashirinmagani-

da, u mana shu o'liklar safiga qo'shildilar... Katta Qarchig'ayning kalxatlar ilma-teshik qilib yuborgan kallasi tayoqda turardi, ammo hozir uni qo'riqlamayotgandilar, go'yo uning o'zi jonsiz shaharni qo'riqlayotgandi... Kichik Chayonning uyi buzib tashlanibdi.

Askarlar esdalik uchun olish mumkin bo'lgan narsani qoldirishmabdi, aftidan, o'zi hech narsa olmasligim kerak, chunki bu uydagi har' bir g'isht, har bir siqim tuproq ko'zimga yosh keltirardi.

Aholining hammasi Sharqda ekanligidan xabardorligim uchun o'sha tomon yurdim, yo'l-yo'lakay kulrang havoga singib ketgan o'lik shaharga nazar tashladim, Katta Chayonning o'rmonzoriga burildim, askarlar bu yerlarda ham bo'lishga ulgurgan, kimsasiz qishloqlardan o'tdim.

O'rmonzorda ham hech kimni uchratmadim. Daraxt ostiga cho'nqaydim, biroq yurakni siqadigan jimjitlik joyimdan haydadi. Nima qilishni bilmay, avval cho'milib kelgan daryoning sayoz joyi tomoniga bordim, qumga o'tirib, olislarga boqa boshladim. Shunda bulutlar orasidan G'arb tomon ketayotgan odamlarni payqadim. Vaziyat o'zgargan va aholi shaharlarga qaytyapti degan taassurot tug'ildi. Yo'lovchilar tobora ko'payib borardi, ularning ayrimlari askarlar bilan birga borardilar va o'zlariga nomdor odam-mushuklar uchun odatiy bo'lgan usulda shoshilmay yo'l ochardilar. Otryadlar to'qnash kelardi, ammo ulardan qaysi biri yutayotganini aniqlash qiyin edi, chunki askarlar urushmas, balki bir-birlarining orqasiga bekinish payida bo'layotgandilar. Otryadlardan biri tahdidlarga,

ayniqsa, ustomonlik bilan chap berardi va hosil bo'lgan bo'shliqni to'ldirib, asta-sekin olg'a borardi. Bu guruh daryoning sayoz joyiga yaqinlashgani-da, ularning epchilligi sababini tushundim — otryad boshida Katta Chayon kelayotgandi.

Men bunday imkoniyatni qo'ldan boy bera olmasdim va deyarli ozodlikka chiqib olib, qadamini tezlashtirayotgan otryadga yetib oldim. Meni ko'rgan Katta Chayon xursand bo'lganga o'xshar, lekin gaplashishga tobi yo'q edi. Undan nima qilmoqchiligini so'raganimda, tashvishli holda dedi:

– Biz bilan poytaxtga yur! Dushmanlar hozirning o'zida u yerda paydo bo'lmagan bo'lsa, tez orada kelishadi.

“Xayriyat, nihoyat odam-mushuklar o'zlarini hi-moya qilmasalar bo'lmasligini tushunishibdi va shaharlarini mudofaa qilish niyatida ekanga o'xshaydi, – deb o'yladim. – Ammo u holda nega yo'lda urishishmoqda?” Quvonchim u qadar asosli emasligini his etgan holda Katta Chayondan tushuntirish berishni talab qildim. Aftidan, u menga muhtoj edi va qat'iyatimni bilgani holda haqiqatni yashirib o'tirmadi:

Biz taslim bo'lgani ketyapmiz. Dushmanga kim birinchi bo'lib poytaxtni sovg'a qilsa, u mukofot va serdaromad joy oladi.

– Yo'q, kechirasan! Mensiz ham taslim bo'laver! – g'ijinib dedim men va keskin orqamga qaytdim.

Katta Chayonga ergashgan harbiy qo'mondonlar ham taslim bo'lishga shoshilayotgan edilar. Hali ham bo'ynida yo'g'on bog'ichi bo'lgan qizil bog'ichlilarning qo'mondoni, ayniqsa tirishayotgandi.

Daf'atan hamma to'xtadi. Men o'girildim, dushman yaqinlashib kelganini ko'rdim va Katta Chayon qanday taslim bo'lishini tomosha qilmoqchi bo'ldim. Kutilmaganda qizil bog'ichli gvardiya qo'mondoni mendan ham, Katta Chayondan ham o'zib ketdi. U dushmanlar tomon qushdek otildi va oyoqlari oldida tiz cho'kdi. Boshqa harbiy qo'mondonlar ham ko'hna Xitoydagi ota-onalari dafn etilayotgan paytdagi itoatkor bolalardek undan ibrat oldilar.

Shunda men birinchi marta Mushuklar davlatining dushmanlarini ko'rdim. Ularning ko'pchiligi oddiy odam-mushuklarga nisbatan pakanaroq, ko'rinishidan xushro'y, lekin razil va qahrliroq edilar. Aytgancha, ularning tarixini ham, milliy xarakterini ham bilmasdim va ilk taassurotlarimga tayanayotgandim. Ular qo'llarida temirdan yasalganga o'xshagan kalta tayoqlarni ushlab turardilar.

Odam-mushuklar tiz cho'kkanlarida, pakanalardan biri — aftidan boshlig'i chapak chaldi. Uning orqasida turgan askarlar shu ondayoq oldinga tashlandilar va ajablanarli ravishda mo'ljalni aniq olib, taslim bo'layotganlarning boshlarini savalay ketdilar. Qurbonlar tayoqlardan elektr uchqunlari sachrayotgandek churq etmay yerga qulardilar. Qolgan odam-mushuklar xuddi bo'g'ziga pichoq qadalgan xo'rozlardek qichqirib qulaganlarni tepkilagan holda oldinga tashlandilar. Pakanalar ularni ta'qib etmasdilar, balki ohista yurib, oyoqlari bilan murdalarni chetga itqitardilar.

Kichik Chayon dushman odam-mushuklarning bittasini ham qo'ymay yo'q qiladi deb bejiz aytmangandi! Ammo men hanuz ular qarshilik ko'rsatadilar

degan umidda edim. Taslim bo'lish o'zlarini halok bo'lishdan xalos etmadi, kurashish esa qutqarishi mumkin. Urushni yaxshi ko'rmayman, biroq tarix ba'zan u muqarrar ekanligidan, inson goho jangga kirishi va hatto unda halok bo'lishi shartligidan dalolat beradi. O'z xalqi uchun qalqon bo'lish — muqaddas burch, buni menga tanish jirkanch soxta vatanparvarlikka tenglashtirib bo'lmaydi. Mushuklar davlatining aholisi bunday nohaq jazolanishdan keyin, ehtimol, hali jang qilsalar kerak va g'alaba ular tomonida bo'lishi mumkin.

O'zimni yaradorlarni tayoqlari bilan savalab o'ldirayotgan pakana askarlardan uzoqroqda tutardim. Bu askarlar odam-mushuklardan madaniyatliroq bo'lib ko'rinmadi, lekin ulardan kamida bitta ustunlikka ega edilar: o'z mamlakatlarini hurmat qilardilar. Bu hurmat mudhish xudbinlikda namoyon bo'lar edi, shunga qaramasdan har biri faqat o'z manfaatini o'ylaydigan Mushuklar davlati aholisi bilan solishtirilganda afzalroq edi.

Frontga otlanayotganda bir nechta afyun yaproqlarini olib to'g'ri qilgan ekanman, aks holda ochlikdan o'lishim turgan gap edi. O'zim pakanalardan nafaqat ovqat so'rash, balki ularga yaqinlashishga jur'at qila olmayotgandim, chunki bu askarlar meni ayg'oqchi deb qabul qilishi mumkin edi. Kemamiz yotgan joygacha yetib bordik va shu yerda pakanalar to'xtashdi. Uzoqdan turib kema siniqlari ularning e'tiborini tortganini ko'rdim. Qiziqishda ham kelgindilar odam-mushuklardan ustun edilar, ammo bu paytda u haqda emas, balki pakanalar tepkilayotgan do'stimning jasadi to'g'risida o'ylardim.

Dam olib bo‘lib, askarlar biroz beso‘naqay, biroq tez, hech qanday dangasaliksiz va shubhalanmay chuqur qazishga tushdilar.

Ko‘p o‘tmay ular ulkan handaq qazib bo‘ldilar, uning oldiga asirga tushgan odam-mushuklarning olomonini haydab keldilar, ularni qurshab olib, chuqurga itara boshladilar. Bechoralarning o‘kirishidan hatto temir yurak ham yorilib ketgan bo‘lardi, lekin pakanalarning yuraklari temirdan ham mustahkam ekan.

Askarlar temir tayoqlarini ishga soldilar. Jabrdiydalar orasida ayollar ko‘p bo‘lib, ba‘zilarining qo‘llarida bolalari bor edi. Ularni qutqarishga qurbim yetmay, ko‘zimni yumdim, ammo qichqiriqlar va ho‘ngrashlar hozirgacha quloqlarim ostida eshitiladi. Asta-sekin shovqin tindi va men past bo‘yli yirtqichlar yerni tepkilab tekislayotganini ko‘rdim. Hammani tirikligicha ko‘mib yubordilar! Qarshilik ko‘rsatishga qodir bo‘lmaslik uchun dahshatli jazo! Kimdan ko‘proq nafratlanishimni bilmasdim, lekin o‘zlarini hurmat qilmaydigan odamlar insoniy munosabatni kutmasliklarini his etayotgandim. Bir kishining qabihligi ko‘plarni, juda ko‘plarni mahkum etishi mumkin.

Agar ko‘rganlarimning hammasini tubigacha anglab yetganimda, ko‘z yoshlaridan ko‘r bo‘lardim. Pakanalar ko‘zimga o‘ta shafqatsiz maxluqlar bo‘lib ko‘rindi, ular Mushuklar davlatini chinakamiga yo‘q qilishdi, hatto ularning pashshalari ham o‘limga mahkum etilgandi.

Keyin ayrim odam-mushuklar to‘rt-besh kishidan iborat kichik guruhlar bilan kurashishga uringan-

larini kuzatdim. Ular oxirigacha birgalikda harakat qilishni o'rganib olmadilar. Men dushman tomonidan hali bosib olinmagan yagona joy — tepalikda o'n beshtacha mushuk qochoqlari to'planib turganligini ko'rdim. Uch kun ichida ular bir-birlari bilan so'kishib va urishib ketdilar. Pakanalar tepalikka ko'tarilganda u yerda mushtlashayotgan ikki odam-mushuk — balki Mushuklar davlatining so'nggi aholisi qolgandi.

G'oliblar ularni o'ldirishmadi, balki katta yog'och katakka joylashdi, asirlar bu yerda ham bir-birini g'ajib tashlagunlaricha qahrli jangini davom ettirishdi. Odam-mushuklar o'zlari o'zlarini yo'q qilishni nihoyasiga yetkazdilar.

* * *

Marsda yana yarim yil yashadim. Nihoyat u yerga fransuz tadqiqot kemasi uchib keldi va meni buyuk, nurafshon va ozod Xitoyimga tirik va eson-omon olib keldi.

MEN “MUSHUKLAR SHAHRI XOTIRALARI”NI QANDAY YOZDIM?¹

“Chjan falsafasi”dan boshlab hamma kitoblarimni e’lon qilish uchun “Syaosho yuebao” jurnaliga berardim, keyin ular “Kommershel press” bosmaxonasida alohida nashr bo’lib chiqardi. Ammo “Daminxu ko’li” romanining qo’lyozmasi bosmaxona bilan birga yonib ketdi², “Syaoponing tavallud kuni” qissamning bosmaxonada terilgan nusxasini keyinchalik “Shenxo Shudyen” nashriyotiga berishga to’g’ri keldi. “Syaosho yuebao” jurnali yopilib ketdi. O’shanda bosib olingan Shanxayda hurmatga sazovor yagona jurnal — “Syanday Shutszyuy”ning muharriri Shi Chjetsun “katta asar” yozib berish taklifi bilan menga murojaat qildi. Shunday qilib, birinchi marta men “Syaosho yuebao”ga yozmaydigan bo’ldim. Bu “katta asar” “Mushuklar shahri xotiralari” bo’ldi. U jurnalda e’lon qilinganidan so’ng “Syanday Shutszyuy”da alohida kitob bo’lib chiqdi va bu mening “Kommershel press”dan boshqa nashriyot bilan hamkorligimning muqaddimasi bo’ldi.

Shaxsan o’zimga “Mushuklar shahri xotiralari” muvaffaqiyatli chiqmaganga o’xshaydi. Kitob hamмага miyam naqadar omiligini shafqatsizlik bilan ko’rsatdi. Asarning yarmini qoralaganda qalamni chetga surib qo’ymoqchi bo’lgandim, biroq vaziyat bunga yo’l qo’ymadi va ishni oxiriga yetkazishimga

¹ Как я писал “Записки о кошачьем городе” //Ляо Шэ. Избранное. Сборник (Мастера современной прозы) // Пер. с кит. – М.: Радуга, 1982. – С.491–494.

² Yong’in 1932-yilda yapon qo’shinlarining Shanxayga hujumi vaqtida ro’y bergan.

to'g'ri keldi. Ba'zilar xuddi Mey Lanfan erkaklar rolini ijro etayotganiga o'xshatib¹, hammaning zavqini keltirganidek, "Xotiralar"da yumorning yo'qligi uchun uni maqtovg'a sazovor deb hisoblashadi. Biroq bu kitobning afzalligidan emas, balki yumorim ushbu mualliflarning jonlariga tekkani dalolati, xolos. Bug'da pishirilgan bug'doy nonlari me'daga tekkanida tariq noni totli tuyuladi. Biroq haqiqatan ham shundaymi?

Haqiqatda "Mushuklar shahri xotiralari"da yumor bo'lishi kerak edi: axir bu satirik asardir, yumor va satira esa faqat nazariyada farqlanadi. Amaliyotda ular o'rtasida aniq chegara o'rnatishning deyarli imkoni yo'q. Satira qanchalik zaharxanda bo'lsa, u shu qadar jonli va qiziqarli yozilishi kerak. To'qima qahramonlar va voqealar shu qadar batafsil, keng ko'lamli, tabiiy va to'laqonli tasvirlanishi kerakki, kitobxonda ularning haqiqiyliги to'g'risida shubha paydo bo'lmasligi zarur. Faqat shundagina vaqtincha pinhona uydirma so'zda munosib ifodasini topadi va kutilgan samaraga erishiladi. Gap nima to'g'risida — mitti liliputlar yoki oliyjanob o'taketgan rasmiyatchilar va mijg'ovlar mamlakati to'g'risida² ketmasin, eng avvalo asar qahramonlarini tirikdek gavdalantirish, voqealarni muallifning irodasiga bo'ysundirish va shundan keyingina ustidan kulishga munosib narsalarni masxara qilib, eng zaif joyiga zarba berishi kerak. Ana shundagina kitobxonda

¹ Buyuk artist Mey Lanfan musiqali drama teatrida o'zi erkak bo'lgani holda, odatda, ayollar rolini ijro etardi.

² O'taketgan rasmiyatchilar va mijg'ovlar mamlakati to'g'risida Li Shuchjenning "Ko'zgdagi gullar" romanida gap ketadi (XIX asrning boshi).

kulgi ham, ko‘z yoshi ham paydo qilish mumkin. Lekin jonlilik, yengillik va nafislikka erishish uchun yumor kerak. Yumorsiz ham eplash mumkin, ammo bunda har bir tarsaki qizil tasmadek iz qoldiradigan, har bir chaqmoq chaqishidan keyin momaqaldiroq paydo qiladigan juda o‘tkir qalam va juda aqlli kalla kerak. Menda shunday qalam ham, shunday kalla ham yo‘q. Men yumorni sal-pal egallaganimdan keyin “Xotiralar” qanoti sindirilgan qush kabi changda pitirlay boshladi.

Asarning g‘oyaviy tomoniga kelganida esa menda ijodiy konsepsiya va takliflar yo‘q. Aftidan, bu ko‘pchilik satiriklarga xos bo‘lgan kamchilikdir. Ammo muallif eng yaxshi satirik asarlarida bir zarba bilan insoniyat jamiyatining qusurlarini yalang‘ochlantiradi va ularning tub ildizini ko‘rsatadi. U hatto ijobiy g‘oyalarni olg‘a surmasdan ham kasallikni davolashga astoydil intilganlarga malham topishga yordam beradi. Men esa g‘oyaviy rahbar bo‘lishga yaramayman va xastalikning asl sabablarini bexato ko‘rsata olmayman. Demak, satira uchun odatiy bo‘lgan kamchilik yaqqol ko‘rinib turibdi, lekin u zarur samaraga erisha olmayapti. Buning ustiga fikrlarim har bir kishi o‘y suradigan narsalarga yo‘naltirilgan, shuning uchun yozmasligim ham mumkin edi, shunday ham hammasi hammaga ma‘lum. Menga ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan kamchiliklar tinchlik bermaydi, biroq ularning paydo bo‘lishi sababi nimadaligini aytib bera olmayman. Atrofimdagi ko‘pchilik qatori “odamlar avvalgidek bo‘lmay qoldilar” degan hasratlar bilan qanoatlanaman (shaxsan o‘zim bunday qoidani ishlatmayman, lekin

bu mohiyatni o'zgartirmaydi). Ana shunday mushohadalarda dunyoning mukammal emasligi to'g'risidagi nadomat va odamlarga qaratilgan pand-nasihatlar eshitiladi. Lekin nadomat va pand-nasihatlar amaliy natijasi nolga teng bo'lgan axloqiy asarlarga ko'proq mos tushadi. Ehtimol, men yozganlar satira darajasiga ko'tarila olmaydi. Zero, agar satirik noyob yoki g'ayriodatiy fikrlarni bildirsa, hatto u tomonidan yaratilgan asar hech kimga va hech narsaga yordam bermasa ham o'z aqli rasoligini namoyish etadi. Men hammaga ma'lum narsalar to'g'risida gap yuritaman. Shunday ekan, buni satira deb ulug'lash huquqiga egamanmi? Tanqidni xutbaga aylantirish mumkin, lekin bunda asarni o'qish yanada zerikarli bo'ladi. Pand-nasihati bilan yo donishmandlar, yoki ahmoqlar shug'ullanadi. Men donishmand emasligimni bilaman, biroq o'zimni g'irt ahmoq deb ham hisoblamayman. To'g'ri, men baribir "Mushuklar shahri xotiralari"ni yozdim...

Ushbu u qadar muvaffaqiyatli chiqmagan kitobni yaratishga qator tashqi turtkilar sabab bo'ldi deyish mumkin. Ulardan biri — mamlakatdagi ahvoldan hafsalamning pir bo'lganligi edi. Bizning harbiy, diplomatik va boshqa mag'lubiyatlarimiz hissiyotli, lekin men kabi muammo mohiyatining tagiga yetib bora olmaydigan odamlarda avval g'azab, keyin ko'ngli sovishni tug'diradi. Buni his qilgan ana shunday odamlar pand-nasihati qila boshlashadi, holbuki, bu ko'proq ayollarning ishidir. Osmondagi gaplar tashvishlantirmaydigan odamlar go'ng uyumidan ham o'zi uchun ozuqa topishi mumkin. Yuksak niyatli odamlar bu uyumga yaqinlashmas-

likka harakat qilishadi. Faqat noqis odamlargina ushbu uyumni saqlab qolishni xohlashadi va ayni paytda pashshalarni ogohlantirishadi: “Bu yerdagi sharoitlar sanitariyaga zid!” Mening kulfatim — tashqi turtkilar qalbimni egallab olishga yo‘l qo‘yganimdir. Menda “miya” ham borligini esdan chiqardim va pashshalarni ehtiyotkorlikka chaqira boshladim!

Yuksak niyatdan mahrum odamlar ham durustgina kitob yozishga qodirlar, deb e‘tiroz bildirishlari mumkin. To‘g‘ri, adabiyot tarixida bunga misollar ko‘p. Biroq bunday kimsalar realistik bayon qilish san‘atini egallagan bo‘lishlari yoki kitobxonlarga o‘z hissiyotlarini yuqtira olishlari kerak. Agar muallif biror narsa to‘g‘risidagi tashqi taassurotlarini batafsil va to‘g‘ri tasvirley olsa, mayli u mikroskopning emas, balki yaxshi silliqlangan, dunyoni aks ettiradigan oyna rolini o‘ynay oladi. Agar yozuvchi hatto jo‘ngina hissiyotini kuchli ifoda eta olsa, u aks sado tug‘dira oladi. Men esa satiraga qo‘l urdim. Bu janr muallifning tasvirleyotgan narsalaridan yuqori turishini nazarda tutadi, lekin men buning uddasidan chiqa olmadim. Satira sovuqqon bo‘lishi kerak, shuning uchun g‘azabimni sochib o‘tirmadim, balki bosiq bayon etdim. Odamlar oldiga ko‘zgu ham qo‘ya olmadim, ular qalbiga granata ham ota olmadim. Afsus!

Men yumor hisobiga satiramning kamchiliklari o‘rnini qoplay olganimda chakki bo‘lmasdi. Yumor va satira ruhning turli holatini aks ettiradi, ayni paytda muallifdan, mayli, eng oliy nav bo‘lmasin, baribir aqlni talab etadi. Muallif, shuning-

dek, hech bo'lmaganda, uslub orqali o'z xarakterini ifoda etishi mumkin. Men esa ongli ravishda yumordan voz kechdim va shu tarzda "Xotiralar"da umuman afzallik qolmadi. "Daminxu ko'li" muvaffaqiyatsizligidan so'ng "Mushuklar shahri xotiralari" muvaffaqiyatsizligi ro'y berdi. Do'stlarim ko'pincha meni yumorni suiiste'mol qilmaslikka ko'ndirishga urinishardi, ulardan minnatdorman. Zero, o'zim ham yumor zeriktirishi mumkinligini bilaman. Biroq ana shu ikki muvaffaqiyatsizlikdan so'ng kuchukning mushukka aylanish imkoniyati juda kamligini anglab yetdim. O'zligimni yengib o'tishga astoydil harakat qilganimda, ba'zan jiddiy narsa bitishga muvaffaq bo'laman. Biroq bunday asarlarga hamisha oyoqlariga bint bog'langan serpardoz ayol kabi tabiiylik hamisha yetishmaydi. Menga o'yimga kelganini gapirishga ijozat bering! Ha, bu jonga tegishi mumkin. Biroq ana shu narsada mittigina biror narsa bor. Men cho'qqilarni zabt etishni orzu qilmayman, Aristofan¹ning shodon beboshligi o'z imkoniyatlarimdan ancha baland, lekin o'taketgan kamtarlik ham o'rinli emas.

Bu ikki asarim — "Daminxu oroli" va "Mushuklar shahri xotiralari" menga hech qanday foyda keltirmadi, deyish noto'g'ri bo'lardi, albatta. Ular voqealarni haqqoniydek tasvirlashga, g'irt yolg'onni ishonarli qilib bayon etishga o'rgatdi. Demak, muvaffaqiyatsizlik ham muayyan tajriba bilan boyitishi mumkin ekan.

¹ Aristofan (qadimiy yunoncha: Ἀριστοφάνης; miloddan avvalgi 444 — taxminan 387 va 380 yillar o'rtasida) — qadimiy yunon dramaturgi, "komediya otasi" nomiga sazovor bo'lgan.

“Xotiralar”ning shakli satirik adabiyot uchun odatiyligi va menga qadar juda ko‘p marta qo‘llanilganligi shubhasizdir. Mushuk yoki odam sayohatga sarguzasht izlab yo‘l olishadi va o‘zlari bilan nima sodir bo‘lsa, hammasini qog‘ozga tushirib borishadi. Qayoqqa — Oygami, do‘zaxgami yoki yana qayergadirmi yo‘l olish muhim emas. Bunday muxbir yoki tanqidiy, yoki o‘ychan kayfiyatda bo‘ladi. “Xotiralar”ning qahramoni ana shu ikkinchi toifaga mansubligi ravshan: u tanqidni eplay olmaydi, yuzaki hissiyotlari ustun, mushohadalari ziyofatdan och-nahor qaytgan xonimning gaplarini yodga soladi.

Ushbu shakl menga ko‘pdan tanish. Aytgandek, masalan, itlar shahri emas, mushuklar shahri miyamda tasodifan paydo bo‘ldi: shunchaki o‘sha kun uyga malla olachipor mushuk olib kelgandim. Uells¹ “Oyga sayohat”ida Oyda jamiyatning shakllanishini chumolilar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti bilan taqqoslaydi. U insoniyat tamadduni rivojlanishining nazariy yo‘llaridan birini tasvirmoqchi ekanligi ravshandir. Men bilan esa ahvol boshqacha: agar o‘sha kuni uyga quyon olib kelganimda, mushuklar shahridan biror afzalligi bo‘lmagan quyonlar shahri paydo bo‘lardi.

Kitobda mushuklarni ifodalash yoqimli emasligi ayon haqiqat. Biroq ularga bo‘lgan muhabbatim tufayli mushuklarni tanqid qilganim ham shubhasizdir. Ularga qanday yordam berishni o‘ylab topa olmaganimdan afsuslanaman. Demak, men ham ulardan zukko emas ekanman! Ammo ularga eng yaxshi

¹ Gerbert Jorj Uells (inglizcha: Herbert George Wells; 1866–1946) — ingliz yozuvchisi va publitsisti, fantastik asarlari bilan shuhrat qozongan.

maslahat berganimda ham mushuklar buni shu qadar aynitar edilarki, o'ta kulgili latifa paydo bo'lardi. Mushuklarga shunchalik muhabbatim bo'lgani holda ular haqida faqat satira asari bitganimdan vijdonim qiynaladi. Biroq mushuklar bilan biroz vaqt bo'lib, agar ularga o'z e'tirozlarimni bildirib, keyin eng dono maslahatimni berganimda, bu mavjudotlar xufiyona jazolashlari mumkinligini anglab yetgandim. Demak, irodasizlik qildim va bu mushuklarning jasurligini yanada bo'rttiradi. Lekin, bu haqda gapirish yetar.

LAO SHE HIKMATLARI

Insoniyatning taraqqiyoti juda sekin kechadi, tanazzul esa darhol ro'y beradi: insonparvarlikni yo'qotishing bilan sen yana yovvoyiga aylanasan.

* * *

Insondan o'zi qilishi mumkin bo'lganidan kam narsa talab qilinganda u hamisha o'zini yo'qotib qo'yadi.

* * *

Atrofingga boq, shunda dunyo senga u qadar umidsiz tuyulmaydi.

* * *

O'z yaqinlarini tushunmaydigan odam ularga ko'pincha yaxshi niyati bilan ham zarar keltiradi.

* * *

Sog'lom odamning bemor umidsizligini tushunishi oson emas.

* * *

Inson o'z millati va davlati tashqarisida yashay olmaydi. Agar odam ularni yo'qotsa, halok bo'ladi, agar halok bo'lmasa, qalbini sotib, jahannamga yo'l oladi.

* * *

Sa'y-harakatlar hamisha mukofotlanadi.

* * *

Sabotli mehnat natijasida temir to'sinni ham kashta tikadigan ignaga aylantirish mumkin.

* * *

Yangilikni tushunish uchun nihoyatda ko'p kuch-g'ayrat sarf qilish zarur.

* * *

Agar odamlar o'ylamasdan qilgan hamma narsalarini kechiraversa, hech qachon insonparvar bo'la olmaydilar.

* * *

Odamning xizmatlari qanchalar ulug' bo'lsa, u shu qadar ko'p jafo chekishi kerak.

* * *

Faqat munosib odamlarnigina hurmat qilish mumkin.

* * *

Ojizlikning sabablari ko'p: jug'rofiy joylashish, tabiiy kulfatlar — bular hammasining ahamiyati bor. Lekin birorta davlat o'z-o'zidan qadr-qimmatini yo'qotmaydi — bu faqat uning aholisiga bog'liqdir.

* * *

Haqiqiy vatanparvarlik — dushmanga qarshi kurashishdir.

* * *

Eng muhimi, o'zingni yo'qotib qo'ymaslik va ongni ravshan saqlashdir. Shunday bo'lsa har qanday holatdan chiqish yo'lining topilishi muqarrar.

* * *

Unga o'zining ishontirish kuchi ovozining balandligiga bevosita bog'liqdek tuyuladi.

* * *

Tentakona baxt — naqadar qayg‘uli taskin!

* * *

Ezgu umidlar botir qiladi.

* * *

Seni o‘tmas pichoq bilan nimalashlaridan ortiq azob yo‘q.

* * *

Tashnalikdan ko‘ra og‘riq afzal!

* * *

Ko‘pincha tajribani xatoning mevasi deyishadi.

* * *

Eng oddiy fikrlar ham yig‘latishi mumkin.

* * *

Yolg‘izlik og‘riq azobidan ham dahshatlidir.

* * *

Xorijliklar hamisha bir-biri bilan do‘st bo‘ladi.

* * *

Bolalargina qasamyod qiladi.

* * *

Qonunlar — bu toshga o‘yilgan belgilar, xolos.

* * *

Qorning to‘q bo‘lmasa, tunni bedor o‘tkazasan.

* * *

Asosiysi, qo‘shinni jangovar tajriba bilan bo-
yitish!

* * *

O‘limi oldida odam gulday ochilgan ko‘rinishga
ega bo‘lishi mumkin.

* * *

Aftidan, zamonaviy odamlarga ham ibtidoiy
bid‘atlar ta‘sir qilarkan.

* * *

Boyni o‘marishganda kambag‘al aziyat chekadi.

* * *

Harbiy kuchning ojizligi hech qachon xalqaro nu-
fuzning pasayishi uchun sabab bo‘lmagan. Asosiy sa-
bab — qadr-qimmat va sha‘nning yo‘qotilishidir.

* * *

Yetuk yoshga yetganda hamma ajdodlarining
o‘gitlarini eslab qoladi.

* * *

O‘z joning o‘zingga shirin.

* * *

Ayollardan uzoqroq yurish va ularni olisroqdan
hurmat qilgan maqbul.

* * *

Barcha buvalar nevaralarini suyadi.

* * *

Dunyoda mas'uliyatdan ham og'ir hech narsa yo'q.

* * *

His-tuyg'ularga erk bermasdan, diqqat bilan tinglash muhim.

* * *

Aholi to'yib ovqat yemaydigan davlatda odamlar insoniylik qiyofasini ko'proq yo'qotadi.

* * *

Nodon kishiga hech kim madad qo'lini cho'zmaydi.

* * *

Urishish yovvoyilashishga eltadi.

* * *

Yoshlar uchun tug'yon tabiiydir.

* * *

Olimlik bitiklardan boshlanadi.

* * *

Faqat tarixgina — haqiqiy fandır!

* * *

Insoniyat hamisha o'z tarixini ulug'laydi.

* * *

Talabalar hamisha ilg'or fikr eltuvchilar bo'lgan.

* * *

O'zgarishlar — hamisha ham taraqqiyot emas.

* * *

Hayotni o'zgartirish uchun eng avvalo iqtisodiy tizimni yangilash, keyin odamlarda bir-birlari uchun yashash tuyg'usini tarbiyalash zarur.

* * *

Najot hamisha bo'lishi shart, u sa'y-harakatlarining onasi.

* * *

Sotadigan narsa bor ekan, pulning tashvishini qilmasa ham bo'ladi.

* * *

Ayollarsiz o'yingga hech narsa kelmaydi.

* * *

Davlatni qutqarish — o'zingni qutqarish demakdir!

* * *

Umidsizlar o'limdan emas, hayotdan qo'rqadilar.

* * *

Barcha o'zgartirishlarni iqtisodiyotdan boshlash kerak.

* * *

O'z mehnatlarimning mevasini ko'rish nasib qilmasligini bilaman, ammo vijdonim o'zimga qaraganda boqiyroqdir!

* * *

Yangi narsa nish urishi bilanoq shu zahoti eskisi bilan almashtiriladi.

* * *

Dahshatli xavf tahdid etayotganida xalq jipslashgan bo'lishi kerak.

* * *

Diplomatlar — norozilik bo'yicha mutaxassislardir.

* * *

Amaldorlarni ish yoki bekorchilik bilan ta'minlash uchun iloji boricha ko'proq muassasa bo'lishi kerak.

* * *

Jahonda hech qachon boshqa urush bo'lmasligi uchun barcha ayollar nomidan ibodat qilgan bo'larдим.

* * *

Mamlakatni mudofaa qilish — umumiy ish.

* * *

Davlatga mansublik borib turgan, hatto o'taketgan mutaassib vatanparvarlikni anglatadi.

* * *

Ayyorlik bilan faqat hokimiyatni qo'lga olish mumkin, lekin mamlakatni kuchli qilib bo'lmaydi.

* * *

Odamlar o'zlari nafratlanadiganlarga nisbatan hamisha shafqatsizdir.

* * *

Sharmandalikka nisbatan o'lim afzal!

* * *

Taslim bo'lish halok bo'lishdan xalos etmaydi, kurashish esa qutqarishi mumkin.

* * *

Bir kishining qabihligi juda ko'plarni mahkum etishi mumkin.

* * *

Muvaffaqiyatsizlik ham muayyan tajriba bilan boyitishi mumkin.

* * *

Yumor ham zeriktirishi mumkin.

* * *

Pand-nasihat bilan yo donishmandlar, yoki ahmoqlar shug'ullanadi.

* * *

Eng yaxshi satirik asarlarda bir zarba bilan insoniyat jamiyatining qusurlarini yalang'ochlantiriladi va ularning tub ildizi ko'rsatiladi.

* * *

Satira qanchalik zaharxanda bo'lsa, u shu qadar jonli va qiziqarli yozilishi kerak.

* * *

O'z xalqi uchun qalqon bo'lish — muqaddas burch.

* * *

Bug'da pishirilgan bug'doy nonlari me'daga tekkanida tariq noni totli tuyuladi.

LAO SHE ASARLARI

ROMANLAR

- “Muhtaram Chjanning falsafasi” (老张的哲学)
- “Donishmand aytgan” (赵子曰)
- “Ikkala Ma” (二马)
- “Oy o‘rog‘i” — “Daminxu” romanining qismi (月牙儿)
- “Ajralish” (离婚)
- “Mushuklar shahri xotiralari” (猫城记)
- “Samoviy in‘om tarixi” (牛天赐传)
- “Riksha” (骆驼祥子)
- “Olovli dafn” (火葬)
- “Bir oilaning to‘rt avlodi” (四世同堂)
- “To‘q qizil bayroqlar ostida” (正红旗下)
- “Quyosh yog‘dusi” (阳光)
- “Baxshilar” (鼓书艺人)

QISSA

- “Syaoponing tavallud kuni” (小坡的生日)

PYESALAR

- “Chjan Szichjun” (张自忠)
- “Choyxona” (茶馆)

LAO SHE HAYOTI VA IJODINING ASOSIY SANALARI

- 1899-yil 4-fevral — Lao She Pekinda kambag'al askar oilasida dunyoga kelgan.

- 1905-yil — Lao She boshlang'ich xususiy maktabda ta'lim ola boshlagan.

- 1918-yil — Lao She pedagogika bilim yurtini tugallagan va Pekindagi boshlang'ich maktablardan birida direktor vazifasiga tayinlangan.

- 1918-yil — Lao She Nankay universiteti huzuridagi o'rta maktabda xitoy tili va adabiyotidan dars bergan.

- 1919-yil — Lao She Yanszi universitetiga erkin tinglovchi sifatida kirgan.

- 1919-yil — Yanszi universitetining talabalar jurnalida Lao Shening birinchi hikoyasi e'lon qilingan.

- 1924–1929-yillar — Lao She Buyuk Britaniyadagi London universitetida xitoy tilidan dars bergan.

- 1926-yil — Lao She birinchi “Muhtaram Chjaning falsafasi” ijtimoiy romanini yozib tugallagan.

- 1927-yil — Lao She “Chjao Sziyue” romanini bitgan.

- 1929-yil — yozuvchining “Ikkala Ma” romani e'lon qilingan.

- 1929-yil — Lao She Singapurda Xitoydan ko'chib kelganlarga mo'ljallangan maktabda dars bergan.

- 1929-yil — Lao She Xitoyga qaytib kelgan.
- 1933-yil — adibning “Mushuklar shahri xotiralari” va “Ajrash” romanlari chop etilgan.
- 1934-yil — Lao Shening “Samo in’omi tarixi” romani e’lon qilingan.
- 1937-yil — “Riksha” romani bosilib chiqqan.
- 1937-yil — Lao She Xitoyga bostirib kiritgan Yaponiyaga qarshi kurashishni targ’ib etuvchi “Oxirigacha qarshilik ko’rsatish” hamda “Hamma-ning o’qishi uchun” jurnallarini nashr etgan.
- 1937–1945-yillar — Lao She “Umumxitoy adabiyot va san’at xodimlarining dushmanga zarba berish uyushmasi” raisi vazifasida ishlagan.
- 1940-yil — adibning “Olovli dafn” romani chop etilgan.
- 1943-yil — Lao Shening “Mamlakat manfaatlari hamma narsadan ustun” pyesasi sahnalashtirilgan.
- 1946–1949-yillar — Lao She AQSHda yashagan.
- 1949-yil 13-oktyabr — Xitoy Xalq Respublikasi e’lon qilinganidan 13 kun o’tgach, Lao She San-Fransiskodan Xitoyga qaytib kelgan.
- 1950-yil — Lao Shega “Ajdarho mo’ylovi oqova arig’i” pyesasi uchun xalq ijodkori unvoni berilgan.
- 1954-yil — Lao She Umumxitoy xalq vakillari kengashining deputati etib saylangan.
- 1966-yil 24-avgust — Lao She “madaniy inqilob” faollari tomonidan bir kun avval kaltaklanganidan so’ng murdasi Pekin shahri chekkasida, Taypinxu ko’li yonida topilgan.

MUNDARIJA

Xitoyning yangi davr adabiyoti.....	3
Mushuklar shahri xotiralari.....	15
Men “Mushuklar shahri xotiralari”ni qanday yozdim?	204
Lao She hikmatlari	212
Lao She asarlari.....	220
Lao She hayoti va ijodining asosiy sanalari	221

UO'K: 821.581-3

KBK 84(5Xit)

SH98

She, Lao.

SH98 Mushuklar shahri xotiralari: roman-pamflet / Lao She; so'zboshi muallifi va to'plovchi A.Saidov, tarjimon E.Ernazarov.
– T.: “DAVR PRESS” NMU, 2016. – 224 b.

ISBN 978-9943-4681-5-3

UO'K: 821.581-3

KBK 84(5Xit)

Adabiy-badiiy nashr

LAO SHE

**MUSHUKLAR
SHAHRI
XOTIRALARI**

Roman-pamflet

Bosh muharrir Asror Mo'min
Mas'ul muharrir Xosiyat Rajabova
Muharrir Dildora Zuvaytova
Badiiy muharrir Jahongir Abdujalilov

Nashriyot litsenziya raqami AI № 213

2016-yil 2-iyulda nashriyotga topshirildi. 2016-yil 25-avgustda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/32}. “AcademyTAD” garniturasida.
Shartli bosma tabog'i 11,76. Nashriyot-hisob tabog'i 7,98. Adadi 44221 nusxa. 16-860-sonli buyurtma. Bahosi shartnoma asosida.

Original-maket “DAVR PRESS” nashriyot-matbaa uyida tayyorlandi.
Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100156,
Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 20-A daha, 42-uy.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.



Lao She (1899–1966)

Xitoy adibi va xalq og'zaki tilining bilimdoni. Uning kambag'al oilada voyaga yetgani ijodiga ta'sir etgan. Shu bilan birga adibning Angliya va AQSHda bir muddat yashagani modern adabiyotini o'ziga xos talqin qilishiga yordam bergan. 1919-yilda uning birinchi hikoyasi chop etilgan. Keyinchalik "Muh-taram Chjanning falsafasi" (1929), "Chjao Sziyue" (1927), "Ikkala Ma" (1929), "Mushuklar shahri xotiralari" (1933), "Ajralish" (1933), "Samo in'omi tarixi" (1934), "Riksha" (1937), "Olovli dafn" (1940) romanlarini, "Mamlakat manfaatlari hamma narsadan ustun" (1943), "Ajdarho mo'ylovi oqova arig'i" (1950), "Choyxona" (1957), "Adolat uchun ko'tarilgan musht" (1961) pyesalarini yozgan.



ISBN 978-9943-4681-5-3



9 789943 468153